S.D.ACHILOVA

# DUDUQLANISH



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

S.D.ACHILOVA

13747/14

# DUDUQLANISH

*Pedagogika universiteti hamda institutlarning defektologiya yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan*

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI

«BOOK TRADE 2022»
TOSHKENT – 2022

UO'K: 377.23.356
KBK: 74.2ya22

**S.D.Achilova**
**Duduqlanish** [Matn]: darslik / S.D.Achilova. –Toshkent: «BOOK TRADE 2022» 2022. – 180 b.

Ushbu darslik oliy ta'lim talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, duduqlanish nutq kamchiligining ilmiy nazariy jihatdan o'rganiladi. Shuningdek, duduqlanish nutq kamchiligining turlari, bartaraf etishning korreksion-pedagogik ishlari ochib berilgan.

**Taqrizchilar:**
**F.U.Qodirova** – CHDPU Maxsus pedagogika kafedra mudiri, pedagogika fanlari doktori, professor.
**N.Z.Abidova** – TDPU Logopediya kafedra mudiri, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 19 iyuldagi 233-sonli buyrug'iga asosan darslik sifatida nashrga tavsiya etilgan.*

ISBN 978-9943-8774-3-6

# KIRISH

Jahonda miqyosida BMTning «Bola huquqlari to'g'risida» Konvensiyasi, «Nogironlar huquqlari haqida»gi Deklaratsiyalari nogironligi bo'lgan bolalarni ijtimoiy hayotga erta uyg'unlashuvi muammosini hal qilish, zamonaviy maxsus ta'limni mazmunini yangilash, innovatsion g'oyalarning tatbiq etilishiga asos bo'lmoqda[1]. Yuneskoning ta'limga oid loyihalari doirasida, "Individuals with Disabilities Education Act" (AQShning (IDEA, 1990)), "Inclusive Schooling - Children with Special Educational Needs" (Buyuk Britaniya (2001)) kabi qonun hujjatlar asosida o'quv ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiya muhitini barcha bolalar uchun moslashtirish va qulaylashtirish, ochiq ta'lim mazmunini joriy etish xizmatlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyoda Yevropa, AQSH, Yaponiya, Koreya, Xitoy, Rossiya, Qozog'iston kabi davlatlarining oliy ta'lim muassasalari hamda ilmiy tekshirish institutlarida maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativlik, kommunikativlik, kashfiyotchilik va boshqa XXI asr rivojlantirishga ustuvorlik berilgan. Imkoniyati cheklangan bolalarda ushbu ko'nikmalarni shakllantirishda variativ yondashulardan foydalanish, sensomotorik ta'sir vositalaridan o'rinli foydalanish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar alohida dolzarblik kasb etmoqda.

Maktab va maktabgacha tarbiyaning qanchalik muhim ekanligini bugun barcha yaxshi biladi. Shu boisdan ham maktabgacha va maktab yoshdagi bolalarga to'g'ri ta'lim-tarbiya berish eng muhim masalalardan biri bo'lib qolaveradi. Jumladan, ko'p tarmoqli maxsus maktabgacha ta'lim muassasalarida ham duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar bilan maxsus pedagogik ish jarayoni tashkil qilingan bo'lib, bolalarning nutq nuqsonlarini bartaraf etish, ularning bilish jarayonlari ustida ishlash, bilim va malaka, ko'nikmalarini rivojlantirish kabi ishlar tashkil qilinib bormoqda.

So'nggi yillarda jahon miqyosida maktab va maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlariga va maxsus ta'lim muassasalariga jalb qilish bo'yicha bir qancha ishlar olib borilayotgan bo'lib,

[1] Incheon Declaration/Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (World Education Forum, 19-22 May 2015, Incheon, Republic of Korea).

jalb qilingan bolalarni hayotga tayyorlash, zarur bilim, malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirish ishlari olib borilmoqda.

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqida kamchiliklar kuzatilishi uning ta'lim olishini murakkablashtiradi. Jumladan, duduqlanish nutq kamchiligi bundan mustasno emas.

Bugungi kunda jahon miqyosida nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalarni erta aniqlash, ularni maxsus ta'limga jalb qilish, korreksion - pedagogik ishni tashkil etish bo'yicha ishlar olib borilmoqda. Shuningdek, nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalarni nutq nuqsonlarini bartaraf etish bo'yicha bir qancha olimlar ilmiy izlanishlar olib bormoqda. Ushbu ilmiy izlanishlar yordamida bolalarda uchraydigan nutq nuqsonlarning kelib chiqish sabablari va nutq nuqsonlarini bartaraf etish bo'yicha korreksion logopedik ishlar tashkil qilinmoqda.

Bolaning rivojlanishi va o'sishi uzluksiz davom etadigan jarayondir. Bu davrda uning shaxs sifatida shakllanishi, ilk bor olamni atrofidagi buyumlar orqali anglab, undan o'zicha ma'no topishga intilishi, qiziqish va hissiyotlari rivojlanishini kuzatamiz. Hayotning har bir davri, rivojlanish xususiyatlari va ehtiyojlariga ko'ra o'ziga xos bosqichlarga ega. Bolaning o'sib, ulg'ayishida maktabgacha bo'lgan davrni shular sirasiga kiritish mumkin. Bolalar juda tez o'sish, rivojlanish va o'zgarishlar ichida yashaydilar. Bu farzand tarbiyasida aynan shu palla qanchalik ahamiyatli ekanining yana bir isbotidir.

Maktabgacha ta'lim bola shaxsini sog'lom va yetuk, shu bilan birga maktabga tayyorlagan holda shakllantirish maqsadini ko'zlaydi. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning 11-moddasida: "Bu ta'lim 6-7 yoshgacha oilada, bolalar bog'chasida va mulk shaklidan qat'iy nazar, boshqa ta'lim muassasalarida olib boriladi",- deb ta'kidlangan.



# I BOB. DUDUQLANISH NUTQ KAMCHILIGI

## 1§. Duduqlanish nutq kamchiligining ilmiy-nazariy asoslari

**Reja:**

1.Duduqlanish nutq kamchiligini o'rganishda 16-20 asrlarda chet-el olimlarning qo'shgan hissasi.

2.Duduqlanish nutq kamchiligini o'rganishda rus va o'zbek olimlarning ishlari.

Murakkab nutq nuqsonlar orasida duduqlanish nutq kamchligi mavjud bo'lib, ushbu nutq kamchiligini o'rganish muammosini nutq buzilishlari haqidagi ta'limotning rivojlanishi eng qadimiylaridan biri deb sanaladi. Uning mohiyatini turlicha talqin qilish hamda maxsus fanining rivojlanishi va mualliflarning bunday nutq buzilishlariga qanday nuqtai nazardan yondashganliklari va yondoshayotganligi darajasi bilan bog'liqdir.

Olimlarning olib borilayotgan ilmiy va nazariy ishlarning tashkil etilishi natijasida duduqlanish nutq kamchiligini aniqlash kabi maxsus ishlar jadal rivojlanib bormoqda.



Aristotel

Duduqlanish nutq kamchiligi – bu nutq apparati muskullarining pay tortishish natijasida nutqning sur'at-ohangining buzulishi sanaladi. Qadimgi davrlarda duduqlanish nutq kamchiligini ko'proq bosh miyada namlikning to'planib qolishi (Gippokrat) yoki artikulyatsion apparat qismlarining o'zaro noto'g'ri munosabati (Aristolel) bilan bog'liq holdagi kasallik deb qarashgan. Duduqlanish nutq kamchiligi vaqtida nutq apparatining markaziy yoki periferik (sirtqi) bo'limlarida buzilish bo'lishi mumkinligini Galen, Sels va Ibn Sino e'tirof etdilar.



Gippokrat

17-18 asrlarning boshida duduqlanish nutq kamchilikni nutq apparatining yetarli rivojlanmaganligi yetilmaganligi oqibati sifatida o'rganishgan. Masalan, Santorimining ta'kidlashicha, duduqlanish qattiq tanglayning yorilgan paytida vujudga keladi va go'yo shu yoriq orqali tilga suyuqlik tushadi

hamda nutqni qiyinlashtiradi. Vutser esa buni pastki jag'ning noto'g'ri chuqurlashuvi va unda kichik tilcha borligi bilan; Erve-de-Sheguan – til uzunligi va og'iz bo'shlig'ining hajmi orasidagi o'zaro munosabat yoki uning kalta yuganchaga nihoyatda zich yopishib turishi bilan bog'liq holda tushuntirdi.

Boshqa tadqiqotchi olimlar duduqlanish nutq kamchiligini nutq a'zolari harakatlarining buzulishi: ovoz kovagining g'ayriixtiyoriy yopilishi (Arnot, Shultess); haddan tashqari tez nafas chiqarish (Bekkeral); muskullarning tilni og'iz bo'shlig'ida ushlab qoladigan darajada spazmatik qisqarishi (Itar, Li, Diffenbax); tafakkur va nutq jarayonining nomuvofiqligi (Blyume); kishi irodasining nutq harakati mexanizmi muskullari kuchiga ta'sir etadigan darajada mukammal emasligi (Merkel) va boshqalar bilan bog'laydilar.

Tadqiqotchi olimlarning bir qismi esa duduqlanish nutq kamchiligini ruhiy jarayonlarning borishi davomidagi buzulishlar bilan bog'lashdi. Misol uchun, Blyumening fikriga ko'ra, duduqlanish shunday paydo bo'ladiki, kishi yo tez fikrlaydi, natijada nutq e'zolari to'liq harakatga kirishishga ulgirmaydi va shu bois to'tiladi yoki esa, aksincha, nutqiy harakatlar «fikrlash jarayonidan o'zib ketadi». Natijada nutq apparati muskullari ana shu nomuvofiqlikni to'g'rilashga harakat qilib, «changak bo'lib qolish singari holatga» keladi.

19 asr boshlarida qator fransuz tadqiqotchilari duduqlanish nutq kamchiligini ko'rib chiqib, uni nutq apparatining pereferik (sirtqi) va markaziy bo'limlari faoliyatidagi turli xil og'ishlar bilan bog'lab tushuntirdilar. Jumladan, shifokor Vuazen (1821) duduqlanish nutq kamchiligi mexanizmini nutq organlari muskul sistemasiga keladigan serebral ta'sirlarning yetishmasligi, ya'ni markaziy asab sistemasi bilan bog'laydi. Shifokor Delo (1829) duduqlanish nutq kamchiligi ni tovush talaffuzining buzilib chiqishi (rotatsizm, lambdatsizm, sigmatizm), tovush apparatining organik shikastlanishi yoki bosh miyaning to'liq ishlamasligi deb tushuntirdi. U duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan shaxsning o'z nutqiga nisbatan akustik diqqat-e'tibor bilan qarashini birinchi bo'lib ta'kidladi. Vrach Kolomba de l'Izer duduqlanish nutq kamchiligini vokal apparat muskullarining yetarlicha innervatsiyalanmaganligi oqibatida paydo bo'ladigan alohida kontraktura deb hisobladi.

Rossiyada ko'pchilik tadqiqotchi olimlar duduqlanish nutq




А. Куссмауль (1822–1902)

kamchiligini nutq sohasidagi funksional buzilish, nutq nevrozi (I.A.Sikorskiy, 1889; I.K.Xmelevskiy, 1897; E.Anders, 1894 va boshqalar) deb qaradilar yoki uni nutq apparatidagi g'ayriixtiyoriy harakatda ifodalanadigan sof ruhiy xastalik deb (Xr. Laguzen, 1883; G.R.Netkachev, 1909, 1913), psixoz deb (Gr. Kamenka, 1900) belgiladilar. 20 asr boshlariga kelib duduqlanish nutq kamchiligini mexanizmlari haqidagi barcha tushunchalarni uchta nazariy yo'nalishga ajratish mumkin:

1) duduqlanish nutq kamchiligi -nutq markazlarini muvofiqlash-tiruvchi apparatning qo'zg'aluvchanligi zaiflashuvi oqibatida sodir bo'ladigan koordinatsion nevrozdir. Bu G.Gutsman, I.A.Kussmaulning, keyinchalik I.L.Sikorskiyning ular duduqlanishni nevrotizm jarayoni: duduqlanish, bu – pay tortishiga o'xshash spazmalardir, deb tushuntirishdi.

2) duduqlanish nutq kamchiligi - ruhiy harakterdagi assotsiativ buzilishidir. Bu yo'nalish T.Gefner va E.Freshels tomonidan olg'a surilgan. A.Libmann, G.D.Netkachyov, Y.A.Florenskaya uning tarafdori edilar. Duduqlanish nutq kamchiligini mexanizmlarini tushunishga nisbatan psihologik yondoshuv o'zining navbatdagi taraqqiyotini davom ettirdi.

3) duduqlanish nutq kamchiligi - ruhiy jarohatlanishda atrof-muhit bilan bo'ladigan turli ziddiyatlar natijasida rivojlanuvchi g'ayrishuuriy ko'rinishdir. A.Adler, Shneyder bu nazariya tarafdorlari edilar. Ularning fikriga ko'ra duduqlanish nutq kamchiligi bir tomondan, shaxs atrofdagilar bilan muloqotda bo'lishining turlicha imkoniyatlaridan yiroqlashish xohishida, boshqa tomondan – atrofdagilarda bunday namoyishkorona xastalikka nisbatan hissiyot tuyg'ularini jumbushga keltirish istagida namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, 19 asr oxiri – 20 asr boshlarida duduqlanish nutq kamchiligi bu murakkab psixofizik buzilishdir, degan fikrga kelina boshlandi. Ayrimlarning e'tirofiga ko'ra, uning asosida fiziologik harakterdagi buzilish yotadi, ruhiy jihatlar esa ikkilamchi xarakterga ega (A.Gutsman, 1879; A.Kussmaul, 1878; I.A.Sikorskiy, 1889 va boshqalar). boshqalar ruhiy jihatlarni birlamchi, fiziologik ko'rinishlarni esa – ruhiy noto'kisliklarning oqibati, deb hisobladilar (Xr. Laguzen,

1838; A.Koen, 1878; Gr. Komenka, 1900; T.D.Netkachyov, 1913 va boshqalar). Duduqlanish nutq kamchilgini hatto ko'tilish nevrozi, qo'rquv nevrozi, noto'kislik nevrozi, bog'lanishsiz nevroz va boshqalar sifatida ko'rib chiqishga o'rinishlar ham bo'ldi.

20 asrning 30- va keyingi 50-60- yillarida duduqlanish nutq kamchiligini mexanizmini I.P.Pavlovning inson oliy nerv faoliyati va, qisman, nevroz mexanizmi haqidagi ta'limotlariga suyangan holda ko'rib chiqa boshlashdi. Bunda ayrim tadqiqotchilar duduqlanish nutq kamchiligini nevroz alomati tarzida (Y.A.Florenskaya, Y.A.Povorinskiy va boshq.), boshqalar – uning alohida formasi sifatida (V.A.Gilyarovskiy, M.B.Xvatsev, I.P.Povarnin, N.I.Jinkin, V.S.Kochergina va boshq.) talqin qildilar. Lekin ikkala holatda ham duduqlanish rivojlanishining bu murakkab va turlicha mexanizmlari nevroz mexanizmlari rivojlanishi uchun umuman yagonadir. Duduqlanish nutq kamchiligi boshqa nevrozlar kabi qo'zg'alish, tormozlanish va patologik shartli refleksning shakllanish jarayonlaridagi zo'riqishni keltirib chiqaradigan turli sabablar natijasida paydo bo'ladi. Duduqlanish nutq kamchiligi, bu – alomat ham, alomatlar yig'indisi ham emas, balki markaziy nerv sistemasining umuman xastalashuvidir (V.S.Kochergina).

Duduqlanish nutq kamchiligining paydo bo'lishida bosh miya qobig'idagi nerv jarayonlarining buzilgan (ularning kuchi va harakatchanligining ortishi) o'zaro munosabatlari muhim rol o'ynaydi. Katta yarimsharlar qobig'i faoliyatidagi nerv buzilishi, bir tomondan, nerv sistemasining holati, uning meyordan chetlashishiga tayyorligi bilan bog'langan bo'lishi mumkin. Boshqa tomondan, nerv buzilishi noxush tashqi omillar bilan bog'langan bo'lishi mumkin. V.A.Gilyarovskiy ham ularning duduqlanishning kelib chiqishidagi ahamiyatini ko'rsatib o'tgan edi. Nerv buzilishi bola oliy nerv faoliyatida nozik bo'limi – nutqning zaiflashuvida aks etadi, u nutq harakatlarining, ohangining buzilishi va tortishib qolishida namoyon bo'ladi. Qobiq faoliyatining buzilishi birlamchi hisoblanadi hamda qobiq va qobiq osti oralaridagi induksion aloqalarning buzilishiga hamda shartli reflektorli mexanizmlarning izdan chiqishiga olib keladiki, ular qobig' osti to'zilishi faoliyatini moslashtirib turadi. Vujudga kelgan shartlarga qarab, bunday hollarda qobiqning normal muvofiqlashuvi izdan chiqadi – stroipallidar sistema faoliyatida salbiy qo'zg'olishlar o'rin tutadi. Duduqlanish nutq kamchiligi mexanizmidagi uning roli ancha ahamiyatga ega, chunonchi bu sistema



meyorli nafas olish sur'ati va ritmi, artikulyar muskullar faoliyati uchun mas'uldir. Duduqlanish nutq kamchiligi striopallidumning organik o'zgarishi holatida emas, balki uning funksiyalarining dinamik tarzda og'ishida paydo bo'ladi. Bu qarashlar nevrotik duduqlanish mexanizmini qobiq-qobiq osti aloqadorligining o'ziga xos buzilishi haqidagi tushuncha sifatida aks ettiradi (M.Zeyeman, N.I.Jinkin, S.S.Lyapidevskiy va boshqalar).

Rossiya tadqiqotchi olimlarining duduqlanish nutq kamiligini nevrozlar haqidagi Pavlov ta'limoti nuqtai nazaridan o'rganishi chet ellarda o'z izdoshlarini topmoqda: Chexoslovakiyada – M.Zeyeman, M.Sovak, F.Dosujkov, K.Dostalova; Bolgariyada – D.Daskalov, A.Atanasov, A.Angushev; Polshada – A.Mitrinovich-Modjeyevska; Germaniyada – K.P.Bekker va boshqalar.


**R.M.Boskis**

Ayrim mualliflar fikriga ko'ra, ilk yoshli bolalardagi duduqlanish nutq kamchiligi mexanizmini reaktiv nevroz va rivojlanishdagi nevroz nuqtai nazaridan talqin qilish maqsadga muvofiqdir (V.N.Myasishchev). Rivojlanishdagi reaktiv nevroz oliy nerv faoliyatining buzilishi sifatida tushuniladi. Rivojlanishdagi nevroz davrida patologik stereotiplar asta-sekinlik bilan muhitning noqulay sharoiti – haddan tashqari g'azablanish, siqilish, zaiflashuv hollarida sodir bo'ladi. Rivojlanishdagi duduqlanish bolaning ilk yoshida, «fiziologik tili chuchuklik»ning ushlanib qolishi holatida, murakkab iborali nutq formalariga o'tishi jarayonida paydo bo'ladi. Ba'zan u turlicha genezlarning nutqiy rivojlanmay qolishi natijasi sifatida ko'zga tashlanadi (R.M.Boskis, R.Ye.Levina, Ye.Pishon va B.Mezoni). Jumladan R.M.Boskis duduqlanish nutq kamchiliginini shunday bir kasallik deb ataydiki, uning «asosida o'zining ifodalanishi uchun iboralarni talab etuvchi, muayyan darajadagi murakkab mulohazalarni bayon qilish bilan aloqador nutqiy qiyinchiliklar yotadi». Nutqiy qiyinchiliklar nutqiy rivojlanishdan to'xtab qolish, boshqa tilga o'tish, shaxsning erkin hissiy-irodaviy sifatlarning noto'kis yetilishiga bog'liq ravishdagi patologik rivojlanish hodisalari, murakkab fikrni izhor etish va shu kabilar oqibatida yuzaga kelishi mumkin. R.Ye. Levina duduqlanish nutq kamchilikni nutqning notekis rivojlanishi deb qarar ekan, uning mohiyatini ko'proq nutqning kommunkativ

funksiyalarining o'ta buzilishida ko'radi, Korreksion pedagogika ilmiy-tekshirish instituti logopediya sektori xodimlari bola nutqining umumiy rivojlanishini, uning fonetik va leksik-grammatik rivojlanish holatini, faol va sust nutq o'rtasidagi o'zaro munosabatni, duduqlanishning kuchayishi yoki bo'shashuvini aks ettiruvchi shart-sharoitni o'rganib chiqib, R.M.Boskis, Ye.Pishon, B.Mezoni va boshqalarning kuzatishlarini tasdiqlaydilar. Nutqiy qiyinchiliklar R.Ye.Levina fikriga ko'ra, turli shart-sharoitlar: bir tomondan, nerv sistemasi tipiga, boshqa tomondan – gaplashish, so'zlashish muhiti, umumiy va nutqiy tartiblarga bog'liq. Duduqlanish nutq kamchilikning dastlabki ko'rinishlari so'z, grammatik shakl, nutq almashinuvini qidirishdagi affektiv zo'riqish bilan harakterlanadi. N.I.Jinkin hiqildoq faoliyatini fiziologik nuqtai nazardan tahlil qilish jarayonida shuni aniqlaydiki, duduqlanish fenomeni so'zning turli o'lchamli algoritmini to'zish paytidagi ovoz elementlarini saralash uzluksizligining buzilishi sifatida, nutqiy faoliyatni bo'g'in darajasida boshqarishdagi bevosita moslashtirishning izdan chiqishi tarzida belgilanishi mumkin.


R.Ye.Levina

Ye.Pishon organik duduqlanish nutq kamchililikning ikkita shaklini ajratadi: birinchi shakli miya qobig'i afaziyasi ko'rinishida, bunda assotsiativ tolalar sistemasi buziladi va ichki nutq izdan chiqadi; ikkinchi shakli nutqning dizartriya nutq nusoni ko'rinishidagi o'ziga xos noto'kis harakatini aks ettiradi va qobiq osti to'zilishining shikastlanishi bilan bog'lanadi. Organik duduqlanish nutq kamchiligi muammosi hozirgi davrga qadar hal etilmagan. Ayrim tadqiqotchi olimlarning taximniga ko'ra, duduqlanish nutq kamchiligi umuman markaziy nerv sistemasining organik kasallanish turiga kiradi va miya oziqlanishidagi buzilish to'g'ridan-to'g'ri miyaning nutq bo'limiga yoki u bilan aloqador sistemaga ta'sir etadi (V.Lev, 1947; E.Gard, 1957; S.Skmoil va V.Ledezich, 1967). Boshqalar organik buzilishlarning o'zini oliy nerv faoliyati va nutq funksiyalarining o'zilib qolishi uchun «zamin» sifatida baholab, duduqlanishni o'ta nevrotik buzilish tarzida ko'rib chiqadilar (R.Luxzinger va G.Landold, 1951; M.Zeyeman, 1952; M.Sovak, 1957; M.Ye.Xvatsev, 1959; S.S.Lyapidevskiy va V.P.Baranova, 1963 va boshqalar).



Duduqlanish nutq kamchiligini patogenezini o'rgangan ko'pgina mualliflar duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan kishilarda turli xil vegetetiv o'zgarishlar bo'lishini aytishadi. Masalan, M.Zeyman hisobiga ko'ra, 84% duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan kishilarda vegetativ distoniya bor.

Vegetetiv asab sistemasining og'ir buzilish hollarida xususan duduqlanish ikkinchi planga ko'chadi, qo'rquv, hayajonlanish, vahima, badgumonlik, umumiy zo'riqish yuz beradi, kishida titrashga, terlashga, qizarishga moyillik paydo bo'ladi. Bolalaik yoshida duduqlanuvchilarda uyquning buzilishi, ko'z ilinishi paytida cho'chib tushish, zerikarli, notinch, yuzaki uyqular, tungi vahimaga tushishlar kuzatiladi. Kattaroq yoshdagi duduqlanuvchilar bu kabi kechinmalarni nutq buzilishi bilan bog'lashga o'rinadilar. Uning buzilganligi to'g'risidagi fikr kayfiyatning doimiy buzuqligi bilan bog'liq holda, turg'un xulq-atvorni keltirib chiqaradi. Umumiy qo'zg'aluvchanlik, ozib-to'zish, beqarorlik va doimiy shubhalik hollarida, nutq odatda qisqa vaqt yaxshilanishi mumkin. Mashg'ulot paytlarida duduqlanuvchilarda bir maqsadga qaratilganlik va qat'iylik tez-tez yo'qolib turadi. Ular o'z imkoniyatlariga, erishgan natijalariga yetarlicha baho bermaydilar, chunki nutqning yaxshilanishi ularning umumiy kayfiyatini kam miqdorda yengillashtiradi.

70-yillarda psixiatriyada nevrotik va nevrozga o'xshash buzilishlarni chegaralash uchun tibbiy meyorlar taklif etilgan edi. Bunda duduqlanish nutq kamchilikni ham nevrotik, ham nevrozga o'zshash shakllarga ajratishga moyillik aniqlandi. N.M.Asatiani, B.Z.Drapkin, V.O.Kazakov, L.I.Belyakov va boshqalar.

Hozirgi davrga qadar tadqiqotchi olimlar duduqlanish nutq kamchiligi mexanizmini na faqat tibbiy na fiziologik jihatdan, balki neyrofiziologik, psixologik, psixolingvistik nutqtai nazarlardan ham o'rganishga o'rinishmoqda.

Nutq faoliyatini tashkil etishda duduqlanish nutq kamchilikni neyrofiziologik jihatdan tekshirilishi qiziqish uyg'otayotir. Mavjud tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, nutq paytida duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan kishilarda dominant (chap) yarimshar o'ng yarimsharga nisbatan o'zining yetakchilik vazifasini to'liq ma'noda bajara olmaydi. Duduqlanish nutq kamchiliginning nutq talaffuzidagi qandaydir dominantlik bilan o'zaro munosabati haqidagi qoidani V.M.Shklovskiy ma'lumotlari tasdiqlaydi.

Duduqlanish nutq kamchiligi muammolarini ruhshunoslik borsida ishlab chiqish duduqlanishning genezisini ochish, duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan kishiilarning kommunikatsiya jarayonidagi xatti-harakatlarini tushunish, ularning individual-psixologik xususiyatlarini aniqlash uchun uning muammolarini psixologik nuqtai nazardan ishlab chiqish dolzarb masalalaridandir. Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan kishiilarning diqqat-e'tibori, xotirasi, tafakkuri, ruhiy harakatini o'rganish shuni ko'rsatdiki, ularda ruhiy faoliyat to'zilishi, uning o'z-o'zini muvofiqlashtirish jarayoni o'zgargan. Ular yuqori darajada avtomatlashtirilishini (xususan faoliyatga tezda kirishishni) talab qiladigan faoliyatni yomon o'taydilar, lekin, ixtiyoriy bajarilish bilanoq duduqlanuvchi va sog'lom kishi orasidagi samaradorlik farqi yo'qoladi. Ruhiy xarakat faoliyati bundan mustasnodir: agar sog'lom bolalarda ruhiy harakatlar ma'lum miqdorda avtomatik tarzda sodir bo'lsa va ixtiyoriy muvofiqlashuvni talab qilmasa, bu holda muvofiqlashtirish duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan kishilar uchun erkin nazoratni talab qiladigan murakkab vazifadan iborat bo'ladi.

Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan kishiilar nuqsonsiz so'zlovchilarga nisbatan (ularga nerv sistemasining harakatchanligi bilan bog'liq holdagi persevaratsiya hodisasi xosdir) ruhiy jarayonlarining o'ta faoliyatsizligi bilan farq qiladilar.

Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarning yakka xususiyatlarini ham tibbiy kuzatishlar yordamida, ham tajriba psixologik metodikalarni qo'llanish bilan tekshirish samaralidir. Ular yordamida xavotirli holatlari, gumonsirash, ishonchsizlik, odamovilik, ruhiy tushkunlikka moyillik; nutq nuqsonga nisbatan salbiy munosabatlarni ko'rsatish hollari aniqlangan.

Duduqlanish nutq kamchiligi mexanizmlarini psixolingvistik nuqtai nazardan ko'rib chiqish ham e'tiborga molikdir. O'rganishning bu jihati duduqlanuvchi nutq talaffuzining qaysi pallasida mushaklar tortishuvi yuzaga kelishini aniqlashni taqozo qiladi. Nutq kommunikatsiyalarining quyidagi bosqichlari ajratib ko'rsatiladi:

1) nutqga (gapirishga) ehtiyojning borligi yoki kommunikativ maqsad; 2) bayon qilish fikrining ichki nutqda tug'ilishi; 3) bayon qilishning tovush orqali bajarilishi. Bu bosqichlar nutq faoliyatining turli



to'zilishlarida o'z oqimining to'liq va uzunligiga ko'ra har xildir. Lekin o'ylangan va bildirilgan fikrlar doimo chog'ishtiriladi. I.Y.Ableyeva fikriga ko'ra, duduqlanish so'zlovchida kommunikativ maqsad, nutq tarkibi va to'tilmay gapirish imkoniyati bo'lgani holda, uning nutqqa hozirlik ko'rgan paytida yuzaga keldi. Muallif nutq hosil bo'lishining o'z modeliga nutqka tayyorlanish bosqichini ham kiritishini taklif etadi, bunda duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan kishida barcha talaffuz mexanizmi, uning hamma sistemalari: generatorli, rezonatorli va energetik sistemalar «buziladi». Keyin to'rtinchi, yakunlovchi bosqichda aniq yuzaga keladigan g'ayriixtiyoriy tortishishlar paydo bo'ladi.

Duduqlanish nutq kamchiligi muammosiga nisbatan turli nuqtai nazarlarni ko'rib chiqib, duduqlanish nutq kamchiligining paydo bo'lish mexanizmlari bir xil emas, degan asosiy xulosaga kelish mumkin.

Ayrim hollarda duduqlanish nutq kamchiligi murakkab nevrotik zaiflashuv sifatida e'tirof etiladi, u esa bosh miya qobig'idagi nerv jarayonining izdan chiqishi, qobiq va qobiq osti o'zaro munosabatlarining buzilishi umumiy nutqiy harakatlar (ovoz, nafas olsh. artikulyatsiya) sur'atining zaiflashuvi oqibati hisoblanadi.

Boshqa hollarda – noto'g'ri nutq refleksi oqibatida paydo bo'lgan. Turli genezlarda dastlabki yuzaga kelgan murakkab nevrotik zaiflashuv sifatida talqin etiladi.

Uchinchidan – nutqning murakkab, o'ta funksional zaiflashuvi sifatida qarab chiqiladi. U umumiy hamda nutqiy dizontogenez va shaxsning disgarmonik rivojlanishi oqibatida namoyon bo'ladi.

To'rtinchidan – duduqlanish mexanizmini markaziy nerv sistemasining organik o'zgarishi asosida talqin qilish mumkin. Ammo har qanday vaziyatda ham uyg'unlikni tashkil qiladigan fiziologik va ruhiy buzilishlarni hisobga olish lozim[1].

**Nazorat savollari:**

1. Duduqlanish nutq kamchiligi nima?
2. Duduqlanish nutq kamchiligini o'rganishda olimlarning fikri?
3. 17-19 asrlarda duduqlanish nutq kamchiligini o'rgangan olimlar?

1 M.Y.Ayupova "Logopediya" darsligi. Toshkent 2007 y, 329 b.

**Topshiriqlar:**

1.17 va 19 asrlarda duduqlanish nutq kamchiligi bo'yicha olimlarning ilmiy ishlarini "Veyn" diagramasida o'z aksini topsin.




2.Ushbu *Klassterni* yoritib bering.




**Tayanch iboralar:**

Autogen – (grekcha autos - o'zi) – mustaqil rivojlanish.

Autosugstiya (auto+lotin. suggestio – ishontirish) – o'z-o'zini ishontirish.



## 2§. Duduqlanish nutq kamchiligining sabablari

**Reja:**

1. Duduqlanish nutq kamchiligini kelib chiqish sabablari.
2. Duduqlanish nutq kamchligining bola rivojlanishiga ta'siri.

Duduqlanish nutq kamchiligini o'rganish orqali ushbu nutq kamchiligining sabablarini tahlil etiladi. Sabablarni o'rganish orqali biz duduqlanish nutq kamchiligini chuqur o'rganishga harakat qilamiz.

Duduqlanish nutq kamchiligini har tomonlama o'rganish va uning kelib chiqish sabablarini aniqlashda bir necha olimlar ilmiy tadqiqot ishlar olib borilgan. bulardan, Xd. Laguzen (1838) ham besamaralik, uyat, qo'rquv, g'azab, dahshatga tushish, boshning qattiq lat yeyishi, og'ir kasallanish, ota-onaning noto'g'ri nutqiga taqlid qilishni duduqlanish sabablariga qo'shgan edi. I.A.Sikorskiy (1989) ning birinchi bo'lib ta'kidlashicha, duduqlanish nutq kamchiligi bolalar yoshiga xosdir. Chunki bu davrda nutq rivojlanishi tugallanmagan bo'ladi. U irsiyatga muhim ahamiyat berdi, bunda nimjon bolalarda nutq mexanizmlari muvozanatini buzadigan boshqacha ruhiy va biologik sabablarni (qo'rquv, lat yeyish, yuqumli kasalliklar, taqlid qilish) shartli ravishda hisobga oldi. G.D.Netkachyov (1909) duduqlanish nutq kamchiligi sabablarini bolaning oilada noto'g'ri uslubda tarbiyalanishidan qidirdi va qattiqqo'llik bilan hamda erkalatib tarbiyalani zararli deb hisobladi.

Chet ellik tadqiqotchilar bolalarni noto'g'ri tarbiyalashni duduqlanish nutq kamchiligining kelib chiqish sabablari deb ko'rsatadilar (A.Sherven, 1908); yuqumli kasalliklarning oqibatida a'zolarning astenizatsiyalashuvi (A.Gutsman, 1910); tili chuchuklik, taqlid qilish, infeksiya, yiqilish, qo'rqish, o'qitish paytidagi chapaqaylik deb belgilashdi (T.Beifsher, 1912; E.Freshels, 1931).

Shunday qilib, duduqlanish nutq kamchiligi etiologiyasida tashqi va ichki omillarning jami qayt qilinadi (V.A.Gilyarovskiy, M.YE. Xvatsev, I.A.Vlasova, N.I.Krasnogorskiy, N.I.Tyapugin, M.Zeyman va boshqalar).

Hozirgi vaqtda duduqlanish nutq kamchiligini sabablarini ikki guruhga bo'linadi bular: moyillik sababi («negiz»ga) va keltirib chiqaruvchi sababga («turtki»ga) ajratish mumkin. Bunda ayrim etnologik omillar duduqlanish nutq kamchiligini rivojlantirishi va uni keltirib chiqarishi

ham mumkin.

Moyillik sabablariga quyidagilar kiradi:

ota-onalarning nevropatik kasallanishi (markaziy nerv sistemasining faoliyatini bo'shashtiruvchi yoki izdan chiqaruvchi nerv kasalliklari, yuqumli va jismoniy kasalliklar);

duduqlanish nutq kamchiligiining o'zidagi nevropatik xususiyatlar (tungi qo'rquv, enurez, kuchli qo'zg'aluvchanlik, his-hayajonli zo'riqish);

konstitusional moyillik (vegetativ nerv sistemasining kasallanishi va oliy nerv faoliyatining juda ham noziligi, uning ruhiy shikastlanishga alohida duchor bo'lishi);

nasliy buzilish (duduqlanish nutq apparatining to'g'ma zaifligi asosida rivojlanadi, u avloddan-avlodga retsessiv alomat tarzida o'tib borishi mumkin). Agar tashqi muhit duduqlanishga salbiy ta'sir ko'rsatsa, ekzogen omillarning ta'sirini e'tiborga olish zolim;

bosh miyaning turli davrlardagi rivojlanishida, ko'plab salbiy omillar ta'sirida shikastlanishi: ona qornidagi va tug'ma jarohatlanish, asfiksiya; postnatal – yuqumli kasalliklar, turli xil bolalar kasalliklaridagi jarohatli va trofik-almashinuv buzilishlar.

Ko'rsatilgan sabablar jismoniy va ruhiy sohalarda turli xil patologik o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Nutq rivojlanishining kechikishiga, nutqning zaiflashuviga olib keladi va duduqlanishning rivojlanishiga imkon beradi.

Nomovofiq shartlarga quyidagilar kiradi:

Bolalarning jismoniy zaifligi;

Miya faoliyatining yoshga bog'liq xususiyatlari bosh miya katta yarimshari asosan bolaning besh yoshga yetganida shakllanadi, aynan shu yoshda bosh miya faoliyatidagi funksional assismetriya yuzaga keladi. Ontogenetik jihatdan o'ta tabaqalashgan va kech yetilgan nutq funksiyasi, ayniqsa, nozik va zaif bo'ladi. Shu bilan birga, o'g'il bolalardagi nutq funksiyasining qiz bolalardagiga nisbatan kech rivojlanishi ulardagi nerv sistemasining zaiflashuviga sabab bo'ladi;

Nutqning jadal rivojlanishi (3-4 yoshda), bunda uning kommunikativ, idrok etish va muvofiqlashtiruvchi faoliyatlari kattalar bilan bo'ladigan muloqot ta'siri ostida tez rivojlanadi. Bu davrda ko'pgina bolalarda bo'g'in va so'zlarni takrorlash (integratsiya) kuzatiladi. U fiziologik xarakterga egadir;



bolaning yashirin, ruhiy siqilishi, atrofdagilar bilan salbiy munosabatlar asosida tez ta'sirlanish; muhim talablar va uni anglash darajasi o'rtasidagi ziddiyat;

Bola va kattalar o'rtasidagi ijobiy emotsional aloqalarning no'kisligi. Hissiyotli (emotsional) zo'riqish paydo bo'ladi, u sirtdan ko'pincha duduqlanish nutq kamchiligi bilan nihoyalanadi;

Harakat, ohang hissi, mimik-artiqo'lyar faoliyat rivojlanishidagi yetishmovchilik.

Aytib o'tilgan u yoki bu qulay shartlar mavjud bo'lgani holda qandaydir miqdorda favqulodda tashqi omil (qo'zg'atuvchi)ning bo'lishi nerv buzilishi va duduqlanishni yuzaga keltirish uchun yetarlidir.

Keltirib chiqaruvchi sabablar guruhida anatomik-fiziologik, ruhiy va sotsial sabablarni ajratib ko'rsatish mumkin.

Anatomik-fiziologik sabablar: ensefalitik oqibatlari bo'lgan jismoniy kasalliklar; jarohatlar – ona qornidagi, tug'ilish paytidagi, ko'pincha asfiksiya bilan, miyaning chayqalib lat yeyishi; miyaning organik buzilishi, bu paytda harakatni muvofiqlashtiruvchi qobiq osti mexanizmlari yallig'laanishi mumkin; zaharlanish va markaziy nutq apparatini zaiflashtiruvchi boshqa kasalliklar natijasida nerv sistemasining tamoman izdan chiqishi yoki o'ta charchashi: qizamiq. Terlama, gijjalar, ayniqsa, ko'kyo'tal, ichki sekretsiya almashinuv kasalliklari, burun, halqum, hiqildoq kasalliklari, dislaliya, dizartriyaning va nutq to'liq rivojlanmaganligi hollaridagi tovush talaffuzi apparatining mukammal rivojlanmaganligi.

Ruhiy va sotsial sabablari: qisqa muddatli – bir lahzalik – ruhiy shikast (qo'rquv, vahimaga tushish); uzoq vaqt ta'sir ko'rsatadigan ruhiy shikast, bunda quyidagi holda ko'rinadigan noto'g'ri oila tarbiyasi tushuniladi: tantiqlik, buyruqqa asoslangan tarbiya, bir xil bo'lmagan tarbiya, «namunali» bola tarbiyasi; surunkali ziddiyatli kechinmalar, ruhiy zo'riqish yoki hal etilmagan, umumiy g'ov bo'luvchi ziddiyatli vaziyatlar ko'rinishidagi uzoq muddatli salbiy hissiyotlar; ruhan juda og'ir ezilish; o'tkir samarasiz ta'sirni keltirib chiqaradigan kuchli, behosdan paydo bo'luvchi iztiroblar; vahimalik va o'ta shodlanish holati; nutqning bolalaikda noto'g'ri shakllanishi; nafas olish davomidagi nutq, tez gapirish, tovush talaffuzining buzilishi, ota-onalarning tez, notekis nutqi, kichik yoshdagi bolalarni haddan ortiq nutq materiallari bilan zo'riqtirish, nutq materiali va fikr-tafakkurning (mavhum tushunchalar;

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI

jumlalarning murakkab qurilishi) bola yoshidagi nomuvofiq tarzda murakkabligi; poliglossiya: erta yoshda birdaniga turli xil tillarni bilish odatda qandaydir bir tildagi duduqlanishni keltirib chiqaradi; duduqlanvchilarga taqlid qilish. Bunday ruhiy induksiya ikkita shaklga ajraladi: sust – bola duduqlanadigan kishining nutqini tinglab, beixtiyor duduqlana boshlaydi, faol - u duduq kishiga taqlid qiladi; chapaqaylikdan o'naqaylikka o'rgatish. Doimo eslatish, tartibga chaqirish bolaning oliy nerv faoliyatini izdan chiqarishi va duduqlanishni keltirib chiqarish bilan birga, nevrotik va psixopatik holatlarga olib kelishi mumkin; o'qituvchining bolaga noto'g'ri munosabatda bo'lishi; haddan ortiq qattiqqo'llik, shafqatsizlik duduqlanish nutq kamchiligining yuzaga kelishi uchun turtki bo'lib xizmat qilishi mumkin.

**Nazorat savollari:**

1. Duduqlanish nutq kamchiligini kelib chiqish sabablari nimalardan iborat?

2. Duduqlanish nutq kamchligini bola nutqiga va bilish jarayoniga ta'siri?

3.Duduqlanish nutq kamchligida ruhiy va sotsial sabablarning mazmuni nimalardan iborat ?

**Topshiriqlar:**

1.Duduqlanish nutq kamchiligini kelib chiqish sabablarini "BBB" strategiyasi asosida ma'umotlarni tahlil eting.

| Bilaman | Bilishni hoxlayman | Bilib oldim |
| --- | --- | --- |
| | | |



2.Duduqlanish nutq kamchiligida o'zidagi nevrotik xususiyatlarga oid ma'lumotlarni quyida chizmada aks ettiring va og'zaki bayon eting.




**Tayanch iboralar:**

Geterosuggestiya – (getero+lotin. suggestio - ishontirish) – boshqa shaxs orqali ishontirish.

Duduqlanish – nutqning temp va ravonligining buzulishi.

## 3§. Duduqlanish nutq kamchiligining alomatlari

**Reja:**

1. Biologik (fiziologik) va sotsial (psixologik) alomatlar.
2. Duduqlanish nutq kamchligiga ega kishiilarning o'z nuqsoniga e'tiborni qaratish holati.

Tadqiqotchi olimlar tomonidan duduqlanish nutq kamchiligini o'rganishda, eng ko'p hissa qo'shgan rus olimlar duduqlanish nutq kamchiligining turlicha tibbiy ko'rinishlaridagi fiziologik va ruhiy ko'rinishlarni aniqlab, fiziologik xarakterdagi zaiflashuvni birlamchi hisoblashadi.

Fiziologik zaiflashuvlar asosida duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan shaxsning ruhiy xususiyatlari shakllanadi, bu duduqlanishni yanada chuqurlashtiradi. Ruhiy o'zgarishlar ko'pincha birinchi darajali ahamiyat kasb etadi.

Duduqlanish nutq kamchilikning dastlabki to'liq alomatlari I.A.Sikorskiyning «Duduqlanish» (1989) nomli ilmiy ishida ko'rsatib berilgan edi. Kishilarning turlicha yosh davrlaridagi duduqlanish nutq kamchiligining yuzaga kelishini M.Ye.Xvatsev, M.Zeyman, E.Freshels, V.A.Gilyarovskiy, N.P.Tyapugin, S.S.Lyapidevskiy va boshqa ko'pchilik olimlar o'rganishdi. Hozirgi davrda alomatlarning bir-biriga o'zaro yaqin munosabatda bo'lgan ikkita guruhi ajratiladi: biologik (fiziologik) va sotsial (psixologik).

Fiziologik alomatlariga nutqning hosil bo'lishida ishtirok etuvchi a'zolarning tortishishi, markaziy nerv tizimi va jismoniy salomatligining, umumiy va nutq harakatlarining buzilishi kiradi. Psixik alomatlarga – nutqda to'tilish va his-hayajonli nutqning boshqa buzilishlari, nutqda qayd qilish fenomeni, logofobiyalar, nayrang ishlatish va boshqa ruhiy jihatlar kiradi.

Nutq akti jarayonidagi mushaklar tortishishi duduqlanish nutq kamchilikning asosiy tashqi alomatlari sanaladi. Aslida mushak tortishi uch xil bo'ladi: klonik, tonik va aralash. Klonik mushak tortishish vaqtida tovush bo'g'in yoki so'z bir necha marotaba takrorlanadi. (o-o-o-lma, pa-pa-pa-parta, non-non-non). Tonik mushak tortishish vaqtida esa, so'z boshida to'xtalish ro'y beradi va to'tilib gapiruvchi bir tovushdan, bo'g'indan va so'zdan ikkinchi tovushga, bo'g'inga va so'zga



o'tolmaydi, uzoq to'xtalib qoladi. (...ol...ma, p...arta, ...n..on). Uchinchi turi aralash – klono-tonik yoki tono-klonik muskul tortishishi kuzatiladi. Odatda bunday tortishishlar bilan barcha nafas – tovush – artiqo'lyatsion apparat izdan chiqadi, zero uning harakati butunlay ishlayotgan markaziy nerv sistemasi orqali boshqariladi va nutq jarayonida ajralmagan bir butun a'zo sifatida ishlaydi. Mavjud pay tortishishining ustunligiga qarab nutqning u yoki bu organlari: nafas olish, ovoz paychalarida va artikulyatsion apparatida joylashadi.

Duduqlanish nutq kamchiligi vaqtidagi nafas olishning buzilishi uchta shaklga ajraladi: ekspirator (tortishishli nafas chiqarish), inspirator (tortishishli nafas olish, ba'zida xirilllash bilan) va respirator (tortishishli nafas olish va nafas chiqarish, ko'p hollarda so'zlarning bo'linishi bilan). Ovoz paychalari apparatidagi pay tortishishi quyidagi tarzda xarakterlanadi: birlashgan (tortishib birlashgan, tovush burmalari o'z vaqtida yozilib ketmaydi – tovush birdaniga o'ziladi, yohud klonik yoki cho'ziqli tortishish yuzaga keladi – ma'rash tusida o'zilish («o-o-olim») yoki turtkiga xos unli tovush («ooo») hosil bo'ladi); ajralishgan (tovush tirqishi ochiq qoladi – bu holda butunlay sukut saqlash yoki shivirlagan nutq kuzatiladi); vokalga oid, bu bolalarga xosdir (dastlab I.A.Sikorskiy aniqlagan). Bolalar so'zda unlilarni cho'zib talaffuz qiladilar.

Artikulyatsion nutq apparatda ushbu tortishishlar farq qilinadi – labga oid, tilga oid va yumshoq tanglayga oid. Ular ko'pincha portlovchi undosh tovush (q,k,g',g,b,p,t,d) ni talaffuz qilishda tez namoyon bo'ladi. Binobarin, eng murakkab tovushlarning fonetik tabiati bilan bog'liq qiyinchiliklardan tashqari, grammatik omillar – iboradagi so'z holati, matnning to'zilishi va boshqalar ham katta ahamiyatga ega. Bunda bayonning mazmunini hisobga olish lozim, zero, duduqlanish talaffuz qilinayotgan so'zning semantik va hissiyotli murakkablashuviga yarasha kuchayadi: kishi yaxshi ma'lum bo'lgan narsani bayon qilishdan ko'ra bahs va munozaralar qilishi chog'ida ko'proq duduqlanadi. O'quvchilar yaxshi tayyorlangan o'quv materialini aytib berishda kamroq duduqlanadilar. Nutq ritmi duduqlanish nutq kamchiligining tezligi borasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarning hayajonli nutqida fonetik – fonematik va leksik-grammatik buzilishlar ko'zga tashlanadi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi duduqlanadigan bolalardagi fonetik – fonematik buzilishlar 60,7%, kichik yoshli o'quvchilar

orasida – 43,1%, o‘rta yoshlilarda 14,9% va yuqori sinf o‘quvchilarida 13,1%ni tashkil qiladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi duduqlanuvchi bolalar orasida so‘z talaffuzining buzilishidan tashqari, xastalikning 34 foizi nutq rivojlanishidan, so‘zning yuzaga kelish muddatidan, iborali nutqning shakllanishidan chetga og‘ish sifatida qayd qilinadi.

Talaffuzdagi urg‘u, intonatsiya, ritm buziladi. Nutq asoslanmagan pauzalar, qaytariqlar bilan o‘zilib-o‘zilib chiqadi, jarangdorlik va talaffuz sur’ati, tovush kuchi, balandligi va shiradorligi duduqlanuvchining nutqiy maqsadi, emotsional holati bilan bog‘liq holda o‘zgaradi.

Duduqlanish nutq kamchiligida tutib qolishining beqaror tezligini o‘rganish to‘g‘ri nutqning saqlanib qolgan qismi haqidagi, saqlanib qolgan nutqning nutq faoliyatidagi va nutq vaziyatidagi turli darajali murakkabliklariga bog‘liq ravishdagi ko‘rsatkichini belgilash to‘g‘risidagi tushunchalarni asoslash uchun imkonyat yaratadi. Saqlangan nutq darajasini aniqlash logopedik ishning har bir bosqichidagi asosiy tuzatish vazifalari uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Duduqlanish nutq kamchiligining paydo bo‘lishiga, shuningdek, umumiy va nutq motorikasining turlicha buzilishlari xosdir. Ular zo‘raki (nutqiy tortishishlar, pay, bo‘yin, yuzdagi uchishlar) va ixtiyoriy tutib qolish tarzida bo‘lishi mumkin. Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo‘lgan kishilar o‘zlarining qiyin nutqini niqoblash yoki yengillashtirish maqsadida bunday harakatlardan foydalanadilar.

Umumiy harakatlantiruvchi zo‘riqish, harakatlantiruvchi kuchdagi bezovtalik, to‘xtab qolish, yo‘nalishning izdan chiqishi yoki bo‘sha-shuvchanlik, o‘zgaruvchanlik ham tez-tez ko‘zga tashlanib turadi. Ayrim tadqiqotchi olimlar duduqlanish nutq kamchilikning ambidekstriya (chapaqaylik) bilan bog‘liqligini ko‘rsatib o‘tadilar.

Tarixga nazar tashlasak, 20 asr boshlarida T.Gepfner va E.Frenels ta’kidlashicha, «duduqlanishning spetsifik asosi» shunday psixik asoski, uning asosida nutqning zaiflashuvini idrok etish paydo bo‘ladi deyilgan. Keyinroq F.Shtokkert, Y.A.Florenskaya, M.I.Paykin, M.Ye.Xvatsev, A.M.Smirnova, N.A.Vlasova, N.I.Jinkin va boshqalar ham duduqlanish nutq kamchilikning o‘z nuqsoniga bo‘lgan e’tibori bu nuqsonni kuchaytiruvchi rol o‘ynashnni qayd qilishgan.

O‘zining noto‘kisligini his etish nevrotik kasallikning rivojlanishida asosiy omillardan biri hisoblanadi. Xastalangan kishi o‘zining kasallik alomatlariga qanchalik ko‘p e’tibor bersa, u shunchalik zo‘rayib



boraveradi. Natijada shunday og‘ir ahvol paydo bo‘ladiki, bemor undan sira qo‘tila olmaydi, kasallik alomati uning e’tiborini chulg‘ab oladi. Buning oqibatida alomatlar yanada rivojlanadi va bemorning e’tiborini o‘ziga yana ham ko‘proq jalb etadi. N.I.Jinkin duduqlanishni nutqning o‘z-o‘zidan boshqariluvining buzilishi sifatida qarab chiqar ekan, shunday ta’kidlaydi, nutqning aks holini saqlashga o‘rinish qanchalik kuchli bo‘lsa va talaffuz qanchalik noto‘kis deb baholansa, nutqning o‘z-o‘zidan boshqariluvi shunchalik darajada buzilaveradi. Bu holat bir necha qaytalanishidan so‘ng patologik shartli refleksga aylanadi va tez-tez namoyon bo‘ladi, bu holat endi nutq boshlanishidan oldin vujudga keladi. Bu sirkkulyar jarayonga aylanadi.

Duduqlanish nutq kamchiligi muammolari bilan shug‘ullanuvchi tadqiqotchilar nuqsonga e’tiborni jalb etish tushunchasi borasida turlicha qarashlarni keltiradilar: diqqat e’tiborning alohida xususiyati (o‘jarlik bo‘linuvchilik, xiralik, e’tiborning jamlanganligi), nuqsonni idrok etish, u haqida tasavvurga ega bo‘lish, unga nisbatan turlicha hissiyotli munosabatda bo‘lish (tashvishlanish, xavotirlanish, qo‘rquvga tushish).

Turli yoshdagi duduqlish nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalar bilan ishlash tajribasiga va psixologiyadagi sistemali yondashuvning umumiy prinsiplariga tayanib, e’tiborni jalb etish hodisasi paydo bo‘lish va rivojlanishining ruhiy modelini ruhiy jarayonlarning o‘zaro integral munosabatlari, duduqlanuvchilardagi holati, xususiyati va ta’sir qilishi nuqtai nazaridan tassavur etish mumkin. Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalar va erkin gapiruvchilar orasidagi farq u yoki bu faoliyatining maxsuldorlik darajasiga qarab emas, balki uning qanday o‘tib borish xususiyatida ifodalanadi. Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalardagi nuqsonga nisbatan birinchi marta beixtiyor his hayajonli yo‘nalishda e’tibor berishdan boshlab bolada unga nisbatan o‘z munosabati shakllanadi. Bu esa duduqlanish nutq kamchiligiga qarshi mustaqil besamara ko‘rashdagi hissiy tashvishlanish hamda irodaviy kuch-g‘ayrat (harakat va ishlar) bilan bog‘langan bo‘ladi.

E’tiborni jalb etish hodisasi tushunchasini mazkur holda quyidagicha ta’riflash mumkin: bu duduqlangan odamning barcha ruhiy faoliyatida obektiv mavjud nutqiy nuqson (nutqiy tortishish)ning aks etishidir. Bu nutqiy qiyinchiliklar (yoki halal, to‘sqinlik) va u bilan bog‘liq noxushliklar, o‘zgaruvchan va ruhiy jarayonlar, duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalarning holati va xususiyati, uning sotsial

muhit bilan o'zaro munosabatlarida yuzaga keladigan voqealar haqidagi ma'lumotlarni olish va qayta ishlash jarayonlarining natijasidir.

Nutqiy nuqsonda qayd qilmaydigan turli darajalarning haqiqiy murakkabligini ifodalovchi meyorlarni topish muhimdir. Bunday meyor sifatida duduqlanuvchining o'z nuqsoniga nisbatan his-hayajonli munosabati borasidagi uchta variantdan (befarq, o'rtacha-bosiq, umidsiz-mushkul) va ularga qarshi irodaviy kuch-g'ayrat sarflashning uchta variantidan (ularning yo'qligi, borligi va miyaga o'rnashib qoladigan xatti-harakat va holatga o'tishi) foydalanish mumkin. Shular munosabati bilan duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgangan kishilarni uch guruhga ajratish uchun «kasallikka diqqatni jalb qilish» atamasining kiritilishi o'rinlidir:

1.Kasallikka diqqatni jalb qilishning nolinchi darajasi: bolalar guyo o'z nuqsonini sezmaganday, u haqda o'ylamaydilar va tashvishlanmaydilar. Tortinish, o'zining noto'g'ri nutqi xususida o'ylash, nuqsonni bartaraf etish uchun hech qanday urunishlar bo'lmaydi.

2.Kasallikka diqqatning jalb qilishning mu'tadil darajasi: yuqori sinf o'quvchilari va o'smirlar o'z nuqsonidan tashvishlanadilar, undan uyaladilar, duduqlanishini yashirishadi, turlicha xiyla ishlatishga boradilar, atrofdagilar bilan kamroq munosabatda bo'lishga o'rinadilar. Ular o'zlarining duduqlanishlarini biladilar, uning ketidan qator noqulaylklarni boshdan kechiradilar, o'z kamchiligini niqoblashga harakat qiladilar.

3.Kasallikka diqqatni jalb qilishni yaqqol ifodalangan darajasi: duduqlanuvchilarda nuqson borasidagi tashvishlanish o'zining noto'kisligini doimiy chuqur his etishga aylanadi, bunda har bir harakat nutqiy noto'kislik tushunchasi orqali tahlil etiladi. Ular ko'proq o'smirlardir. Ular o'z diqqatlarini nutqiy kamchiliklariga yo'naltiradilar, duduqlanishdan chuqur tashvish chekadilar, ular uchun kasallikka e'tibor berish, kasallikdan shubhalanish, gapirishdan oldin vahimaga tushish, odamlardan, vaziyatlar va boshqalardan gumonsirash xosdir.

Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan kishilarning o'z nuqsoniga e'tiborni qaratish hodisasini o'rganish quyidagilarni aniqlash uchun imkon yaratdi.

1.Diqqatni jalb qilish nuqsonning to'zilishini va uni bartaraf qilish samaradorligini murakkablashtiruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

2.Uning bolalar yoshiga (yoki duduqlanish stajiga) to'g'ridan-to'g'ri



bog'liqlik tomoni bor. Bu atrof muhitdagi noxush omillarni borligi ruhiy faoliyatning bolalar shaxsi shakllanishi bilan bog'liq holda rivojlanishi va murakkablashuvi, nerv va endokren sistemasidagi siljish-larning pubertat davriga bog'liq holda paydo bo'lishi bilan tushuntiriladi.

3.Motor buzilishlarining murakkab xarakteri bilan bog'liqlik ham e'tirof etiladi. Tonusga oid tortishuv ba'zan duduqlanuvchining o'z kasalligi bilan ko'rashishga o'rinish deb qaralishi mumkin. Duduqlanuvchilardagi motor buzilishining xususiyati odatda, bolaning nuqsonga nisbatan xissiyotli munosabatda bo'lishi bilan bog'langan bo'ladi.

4.Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion- logopedik ishlarning samaradorligi ularning nuqsonga e'tiborini jalb qilishidagi turlicha darajalar bilan bog'liq bo'ladi: nuqsonga diqqatni jalb qilish qanchalik ko'p bo'lsa, logopedik ishlar natijasi shunchalik kam bo'ladi va aksincha.

Nutqiy nuqsonni anglash, undan qo'tilish yoki uni niqoblash uchun bo'ladigan samarasiz o'rinishlar ularda turli xil ruhiy xususiyatlar: zaiflik, himoyasizlik, qo'rqoqlik, tortinchoqlik, ta'sirchanlik va shu kabilarni paydo qiladi.

Hozirgi davrda duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarning faqat o'ziga xos ruhiy xususiyatlarini chuqur o'rganishga emas, balki ular logopedik ish olib borishning ruhiy – terapevtik yo'nalishini belgilash uchun bu alomat guruhlarini kompelktlash borasida ham harakat qilinmoqda.

Bola o'sadigan tarbiyalanadigan sotsial muhitning yaxshi yoki yomonligiga, shuningdek, uning axloqiy jihatlariga bog'liq holda ruhiy ko'rinishlar turli darajalarda bo'lishi, shaxsning o'jar ruhiy holatiga o'tishi, mustahkamlanishi mumkin. Bu ko'rinishlar o'z navbatida duduqlanuvchining umuman ruhiy xususiyatini belgilaydi. Nutqdagi qiyinchiliklarni niqoblashga bo'lgan urunishlar duduqlanadigan kishilarda turli xil nutqli va nutqsiz xiylalarni keltirib chiqaradiki, bo'lar umumiy harakat jarayonida (qo'l, oyoq, tana, bosh bilan harakat qilishda) kuzatiladi, nutq haraktida esa (til uchini pastki labni tishlash, labni yalash, chapillashtish, tovushlarni ovoz chiqarmay artikulyatsiyalash va boshqalar) yordamchi tovushlar ularning birga qo'shilishi yoki so'zlar: *e, i, hm, ha, shu* va boshqalar ko'rinishida ham zohir bo'ladi.

Duduqlanish nutq kamchiligi uchta darajaga ajraladi: yengil duduqlanish nutq kamchiligi – kishi asabiylashgan holatida yoki tez

gapirayotganida duduqlanadi. Bunday paytda to'tilib qolish-lar tezda bartaraf etiladi, duduqlanuvchilar o'z nuqsonidan uyalmagan holda gapiradilar; o'rtacha duduqlanish nutq kamchiligi – kishi tinch, odatdagi vaziyatda oson gapiradi va kam duduqlanadi; his-hayajonli holatda kuchli duduqlanish yuzaga keladi: og'ir duduqlanish nutq kamchiligi - kishi butun nutqi davomida, doimiy chalg'ituvchi harakatlar qilish bilan duduqlanadi.

Duduqlanish nutq kamchiligi davom etishiga ko'ra quyidagi turlarga ajratiladi: doimiy - duduqlanish paydo bo'lgach, turli nutq shakllari va vaziyatlarida bevosita namoyon bo'ladi: to'lqin simon - duduqlanish nutq kamchiligi goh kuchayadi, goh kamayadi, lekin butunlay yo'qolmaydi; qaytalanuvchi – duduqlanish yo'qolib yana paydo bo'ladi, ya'ni qaytalanish yuzaga keladi, uzoq muddatli erkin to'tilishisiz nutqdan so'ng duduqlanish nutq kamchiligi qayta paydo bo'ladi.

**Nazorat savollari:**

1. Biologik (fiziologik) va sotsial (psixologik) alomatlar nimalardan iborat?.

2. Duduqlanish nutq kamchligiga ega kishiilarning o'z nuqsoniga e'tiborni qaratish holati nimalardan iborat?

3.Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan kishilarning ruhiy holati qanday kuzatila?

**Topshiriqlar:**

1.Olimlar duduqlanish nutq kamchiligining turlicha tibbiy ko'ri-nishlaridagi fiziologik va ruhiy ko'rinishlarni aniqlab,....... xarakterdagi zaiflashuvni birlamchi hisoblashadi.

A. fiziologik
B.biologik
V. genetik

2. Duduqlanish nutq kamchiligi vaqtidagi nafas olishning buzilishi nechta shaklga ajraladi?

A. 2 ta shaklga
B. 3 ta shaklga
V. 4 ta shaklga



3. Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarning hayajonli nutqida qanday buzilishlar ko'zga tashlanadi?

A. fonetik – fonematik
B. leksik-grammatik
V. fonetik – fonematik va leksik-grammatik

4. Duduqlanish nutq kamchiligi davom etishiga ko'ra qaysi turlarga ajratiladi?

A.qaytalanuvchan
B.doimiy, to'lqinsimon
V. a va b

**Tayanch iboralar:**

Psixoterapiya – (grekcha psyche – jon, therapeia – davolash so'zlaridan) – bemorlarga psixik ta'sir ko'rsatish yordamida davolash. Nutq kamchiliklarini bartaraf etishda psixoterapiyada tushuntirish, ishontirish, gipnozdan foydalaniladi.

## 4§. Duduqlanish nutq kamchiligining tasnifi

**Reja:**

1. Duduqlanish nutq kamchiligiga ega kishilarni etiologik alomatlariga ko‘ra, buzilishning tibbiy ko‘rinishi
2. N. A. Vlasova va E. N. Gersentshteynlarning tasnifi.

Duduqlanish nutq kamchiligini o‘rganishda ushbu nutq kamchiliklning tasnifi har tomonlama o‘rganiladi. Amaldagi ko‘pgina tasniflarda maktabgacha tarbiya va maktab yoshdagi bolalar duduqlanish nutq kamchiligiining umumiy qonuniyatlari hisobga olinadi.

1937 yilda tasniflashni yaratishga bo‘lgan dastlabki urinishlar shu yillarga tegishlilidir. A.Allister (1937, 1958) duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo‘lgan kishilarni etiologik alomatlariga ko‘ra, buzilishning tibbiy ko‘rinishini hisobga olib 4 guruhga ajratdi:

1) nutqda ishtirok etadigan a’zolar to‘zilishi yoki funksiyalaridagi anomaliyalar bilan birga sodir bo‘ladigan duduqlanish;

2) chapaqaylik bilan bog‘liq holdagi duduqlanish;

3) taqlid bo‘yicha duduqlanish; 4) his-hayajonli beqarorlik va buzilishlar: logofobik, noto‘kislikni his etish va boshqalar bilan birga kechadigan duduqlanish nutq kamchiligi. Shuningdek, F.Desujev (1957, 1963), Y.Berendes (1963) ham duduqlanish nutq kamchiligini etiologik alomatlariga ko‘ra tasnifladilar.

Ye.S.Nikitina va M.F.Bruns (1939) duduqlanish nutq kamchiligini anatomik-fiziologik alomatga ko‘ra tasnifladilar. Ular ikki guruh bolalarni ajratishdi: 1)pallidar sindromli bolalar – psixo-fiziologik to‘xtab qolish, siqilish, shaxsga oid buzilishlar, atrofdagilar bilan munosabatdagi buzilishlar ko‘zga tashlanadi; bolalar g‘amgin bo‘lib qoladilar, o‘yinlarda ishtirok etishmaydi; 2) eskirgan sindromli bolalar — ularga psixofizik to‘xtab qolish, ruhiy-asab buzilishlari xosdir. Bunda bolalar harakatchan, jonsarak, uzoq duduqlanmaydigan bo‘ladilar, muomalaga oson kirishadilar.

Duduqlanish nutq kamchiligini tibbiy alomatlarga ko‘ra tasniflash V.S.Kochergina (1959), N. A. Vlasova (1958) va boshqalarning ilmiy ishlarida o‘z ifodasini topgan.

Xususan, V. S. Kochergina duduqlanish oqibatida o‘zini tutish muvozanati buzilgan bolalarni; o‘zini tutish muvozanatining buzilishi



erta yoshdan boshlangan va bu uning individual shaxsiy xususiyatlari hisoblanadigan bolalarni (duduqlanishning rivojlanishi esa ularning muvozanatsizligini va umumiy bolalar asabiyligi xususiyatlarining paydo bo‘lishini ta’minlaydi); shuningdek kuchli qo‘zg‘olishga ega bo‘lgan bolalarni ajratib ko‘rsatadi. Ularning anamnezida ona qornida rivojlanish borasida noxush sharoitlar, tug‘ma jarohatlar, somatik kasalliklar, o‘tkir va asoratli infeksiyalar, yurak-qon tomiri kasalliklari, endokrinlar zaiflashuvi, distrofiyalar bo‘ladi. V.S.Kochergina yana shunday bolalarni ajratib ko‘rsatadiki, ularda duduqlanish nutq kamchiligining boshlanishiga qadar og‘ir nevroz alomatlari, isterik reaksiyaga moyillik bo‘ladi.

N. A. Vlasova va E. N. Gersentshteyn taklif etgan tasnifda birinchi navbatda duduqlanish nutq kamchiligini shakli (tonik, klonik va aralash), ayrim etiologik omillar, ikkilamchi ruhiy alomatlar, logopedik ta’sir etishning muvaffaqiyatlilik darajasi hisobga olinadi.

Kichik yoshdagi duduqlanish nutq kmchiligiga ega bo‘lgan bolalarni o‘rganish A. F. Shelting (20 asrning 50- yillari) tasnifida aks etgan. Motorika va nutq rivojining kechikishi doirasida paydo bo‘ladigan, alaliya bilan bog‘liq, umumiy bo‘shashuv, paylarning bo‘shashishi holidagi, nevrotiklardagi kuchli asabiylashuv, «tili chuchuklik» bilan murakkablashgan duduqlanishlar yuqoridagi tasnifga taalluqlidir.

O‘smirlar va kattalardagi duduqlanish nutq kamchiligini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy ishlarda asab-ruhiy kasallanish va duduqlanish nutq kamchiligining muhim tomonlarining o‘ziga xosligi o‘rtasidagi bog‘liqlik ko‘rsatib berilgan.

M. Ye. Shubert (1928) epilleptoid psixopatlardagi (astenik tana to‘zilishi), psixosteniklardagi (astenik-atletik tip), shizoidli shaxslar, isteriyali kasallar, sikloid komponentli kishilardagi duduqlanish nutq kamchiligini tekshirdi.

1960 yillarda M. S. Lebedinskiy, F. P. Yanovich, G. P. Platonovalar turli shaklli nevroz-hollaridagi; psixopatlar va shaxsiyati patologik rivojlanishli kishilardagi; markaziy nerv sistemasining turli xil organik shikastlanishlaridagi duduqlanish nutq kamchiligini o‘rgandilar.

N. M. Asatiani, V. G. Kazakov (1967, 1970) va boshqalar o‘z tadqiqot ishlarida duduqlanish nutq kamchiligini har xil turdagi patalogik guruh sifatida qarab chiqadilar. Ular duduqlanishni 4 guruhga ajratishadi: turli genezlardagi markaziy nerv tizimi organik buzilishining rezidual

ko'rinishi; nevrotik zaiflashuvlar; psixopatiyalar; sust progradiyentli shizofreniY. Shunday qilib, duduqlanish nutq kamchiligini tasniflash masalalari turli nuqtai nazarlardan ko'rib chiqiladi, ammo ularning har biri haqqoniy bo'lib, o'z ilmiy asosiga egadir.

Duduqlanish nuq kamchiligining tarqalganligi yosh, jins, faoliyat turi, yashash joyi va boshqa omillar bilan shartli ravishda bog'langandir. U ko'pincha 2 yosh bilan 4 yosh oralig'ida, bolaning nutq funksional sistemasining juda samarali rivojlanishi va shaxsining shakllanishi davrida paydo bo'ladi. Keyin duduqlanish nutq kamchiligiga moyillik pasayadi, navbatdagi o'n yillik ichida (4 dan 14 gacha) duduqlanishning paydo bo'lish hodisasi taxminan birinchi uch yildagicha bo'ladi. Duduqlanish nutq kamchiligining kuchayishi yetakchi faoliyatning almashinuvi (o'yin o'rniga o'qish), bolaga, uning nutqiy bilimiga bo'lgan talabning ortishi, yaqin kishilar, tengdoshlari, jamoa bilan bo'ladigan munosabatlarga ham shartli ravishda bog'langandir. Duduqlanish nutq kamchiligini jinsiy yetilish paytida ham zo'rayishi mumkin.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi duduqlanuvchilar miqdori 1,4% (K. P. Bekker bo'yicha), 2% (M. Ye. Xvatsev bo'yicha) ni; kichik yoshli o'quvchilar orasida—1,6% (M. Sovak ta'biricha)ni tashqil etadi. Katta yoshlilar orasidagi duduqlanadiganlar ko'pi bilan 1% (M. Ye. Xvatsev bo'yicha). Shahardan tashqari joylarda yashaydigan bolalar orasidagi duduqlanish nutq kamchiligi ega bo'lgan bolalar shahardagiga nisbatan ham uchraydi. Ayrim mualliflar duduqlanish nutq kamchiligining kuchayishiga iqlim sharoitining (masalan, ko'zda va bahorda) ham ta'sir ko'rsatishini e'tirof etishadi (M. Zeyeman)[1].

**Nazorat savollari:**

1. Duduqlanish nutq kamchiligiga ega kishilarni etiologik alomatlariga ko'ra, buzilishning tibbiy ko'rinishi nimalardan iborat?
2. N. A. Vlasova va E. N. Gersentshteynlarning tasnifi nimalardan iborat?
3. Artikulyatsion nutq apparati harakatchanligidagi nuqsonlar bola nutqiga qanday ta'sir ko'rsatadi ?

[1] M.Y.Ayupova "Logopediya" darsligi. Toshkent 2007 y, 338 b.



**Topshiriqlar:**

1. V.S.Kochergina (1959), N. A. Vlasova (1958) larning ilmiy ishlarini quyidagi *Kvart* texnologiyasi asosida yozma va og'zaki tahlil eting.

| *Kvart texnologiyasi* | |
|---|---|
| V.S.Kochergina<br>Olib borgan ilmiy ishlari | N. A. Vlasova<br>Olib borgan ilmiy ishlari |
| Ilmiy ishlarining o'xshash tomonlari | |
| | |

2. A.Allister (1937 va 1958) duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan kishilarni etiologik alomatlariga ko'ra, buzilishning tibbiy ko'rinishini hisobga olib 4 guruhga ajratdi. Ushbu to'rtda guruhlarni mazmunini tahlil etgan holda "*RAQAMLAR*" texnologiyasida bayon eting.

| A.Allister (1937, 1958) duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan kishilarni etiologik alomatlariga ko'ra, buzilishning tibbiy ko'rinishi | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 1 guruh | 2 guruh | 3 guruh | 4 guruh | Umumiy xulosa |
| | | | | |

**Tayanch iboralar:**

Yepilleptoid psixopatlik (astenik tana to'zilishi).
Psixastenik (astenik-atletik tip).

## II BOB. DUDUQLANISH NUTQ KAMCHILIGINI LOGOPEDIK TEKSHIRISH VA UNING PEDAGOGIK ASOSLARI

### 5§. Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarni ko'rikdan o'tkazish

**Reja:**

1. Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarni ko'rikdan o'tkazish yo'lari.
2. Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarni nutqni tekshirish vazifalari.

Amaliyotdan ma'lumki, duduqlanish nutq kamchiligini bartaraf etishdan avval bolalarni ko'rikdan o'tkaziladi. Ko'rikdan o'tkazish duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar kompleks ravishda (logoped, nevropatolog, psixolog), zaruriyatga qarab boshqa mutaxassislarni: pediatr, terapevt, psixiatr, okulist, otolaringolog va boshqalarni jalb qilgan holda amalga oshiriladi.

Ko'rikning mazmuni anamnestik ma'lumotlarni, pedagogik, psihologik va tibbiyot hujjatlarni o'rganishni, duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarning o'zini ham tekshirib ko'rishni o'z ichiga oladi.

Logoped ota-onalar bilan suhbatlashish jarayonida oilada sodir bo'lgan eng muhim voqealarni aniqlaydi va shu munosabat bilan bolaning umumiy, harakat va nutqiy rivojlanish xususiyatlarini aniqlashtiradi. Bola tug'ilishigacha bo'lgan davrning asosiy jihatlari: bolaning tug'ilishi paytida onaning yoshi (35 yoshdan kuyi yoki yuqori), ruhiy-asab jihatdan salomatligi, ota yoki onaning kasalliklari, homiladorlikning o'tib borishiga baho beriladi. Ota va onaning bola tug'ilgunigacha bo'lgan salomatligi haqidagi ma'lumot uning jismoniy va ruhiy-asab holatidagi og'ishlarni aniqlashga imkon yaratadi. Bolaning ona qornida rivojlanishdagi noxush omillarni aniqlash ularning bola nutqining keyingi rivojlanishiga ko'rsatadigan salbiy ta'sirini aniqlashga yordam beradi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan og'ishlar, bolaning natal va postnantal rivojlanish davrlaridagi salbiy ko'rinishlar mutaxassislar tomonidan duduqlanish nutq kamchiligining kelib chiqishi va kechishini mukammal



o'rganish maqsadida tahlil etiladi va baholanadi.

Ota-onalar bilan suhbat davomida bolaning nutqiy rivojlanishi haqidagi ma'lumotlar: dastlabki tovushlar, baland ovoz, gu-gulash, birinchi so'zlar, iboralarning qachon paydo bo'lgani, qanday nutq sur'atini qo'llanishi, atrofdagilar bilan muloqot paytida alohida xususiyatlar bo'lgan-bo'lmagani (bolaning ota-onalari yoki yaqin kishilari duduqlanish-duduqlanmasligi, tez gapirish-gapirmasligi) aniqlanadi.

Bolaning oiladagi tarbiyalanish masalasini o'rganishga: kattalarning unga nisbatan munosabati (suyish, erkalash, injiqlik yoki, aksincha, haddan ortiq qaltis munosabat, jismoniy jazolash, qo'rqitish yo'qmi); bola nutqining to'g'ri shakllanishida yordam ko'rsatish (murakkab matnlarni o'rganishda meyorning buzilishi yo'qmi) yoki aksincha, uning tovushlarni to'g'ri talaffuz etishi, grammatik jihatdan to'g'ri so'zlashishi ustidan nazoratning umuman yo'qligi va boshqalarga e'tibor beriladi.

Duduqlanish nutq kamchiligi va uning dastlabki alomatlari qachon paydo bo'ldi? U tashqi ko'rinishda qanday aks etgan? Qanday taxminiy sabablar uni keltirib chiqargan bo'lishi mumkin? U qanday rivojlandi, uning qanday muhim jihatlari ota-onalarning e'tiborini tortdi: u bilan bog'liq bo'lgan harakatlar (tortishish, qo'l-oyoqni o'ynatish, boshni tiqillatish va boshqalar) yoki nutqdagi kamchiliklar (ortiqcha so'zlar, tovushlar yo'qmi, nafas olishda alohida tovush va so'zlarni talaffuz sinaydimi va boshqalar) yo'qmi? U vaziyat yoki atrofdagilar, turli xil faoliyatlarga bog'liq holda qanday paydo bo'ladi? Bola tanho holda (masalan, o'zining o'yinchoqlari bilan) qanday gapiradi? Nutqning yomonlashuv yoki yaxshilanish bosqichi nima bilan bog'langan? Bola o'zidagi nutqiy kamchilikka qanday munosabatda bo'ladi? (e'tiborini qaratadi, ahamiyat bermaydi, befarq kuyinadi, uyaladi, yashiradi, gapirishga qo'rqadi va boshqalar).

Ota-ona yordam so'rab murojaat qilishganmi: qayoqqa, qachon, qanday tavsiyalar berilgan, natijalari qanaqa?

Duduqlanish nutq kamchiligining sodir bo'lishi, uning davom etish xususiyatlari haqidagi ma'lumotlar har bir aniq jarayoni uchun pedagogik-davolash yo'li bilan ta'sir etishning asosiy shaklini tanlashga imkon beradi. Harakatlarda duduqlanish nutq kamchiligi bilan birga sodir bo'ladigan buzilishlar miqdori harakatli mashqlar, yoyinki, hatto turkum davolash badan tarbiya mashg'ulotlari o'tkazishni taqozo etadi.

Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalardagi ruhiy ko‘rinishlar xususiyati logopeddan unga ta’sir ko‘rsatishning quyidagi rejasini ham ko‘rib chiqishni talab qiladi: o‘zining nuqsoniga nisbatan diqqatini chalg‘itish, uning o‘ziga, o‘z nutqiga bo‘lgan munosabatini o‘zgartirish, uni o‘zining to‘g‘ri nutqini eshita bilishga o‘rgatish.

Bola haqidagi, unda duduqlanishning paydo bo‘lish va o‘tib borish tarixi to‘g‘risidagi ma’lumotlar aniqlangandan so‘ng, duduqlanish nutq kamchiligining nutqi va uning nutqiy faoliyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan nutqsiz jarayonlar tekshiriladi.

Uning kirishimliligi, harakatlari (motorikasi), taqlidchanligi, sust va tezkor nutqi, o‘yin, o‘qish, ishlab chiqarishdagi faoliyati, duduqlanuvchining shaxsiy xususiyatlari tekshirib ko‘riladi. Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalarni unga tuzatish va tarbiyalash orqali ta’sir qilish jarayonida birlamchi (bolaning maktabgacha tarbiya yoshida nutqni tarbiyalash muassasasiga kelgandagi dastlabki oy yoki maktab logopediya bo‘limida, duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalar sanatoriysiga kelgandagi dastlabki ikki hafta davomida) yoki dinamik o‘rganish farq qilinadi.

Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalar nutqini tekshirish uchun rasmlar, she’r, ertak kitobchalaridan foydalaniladi, o‘yinchoqlar (qo‘g‘irchoq, mashinacha, o‘yinchoq hayvonlar, jajji qurilish materiallari) tanlanadi.

Nutqni tekshirishdagi aniq vazifalar quyidagilarni aniqlashdan iborat bo‘ladi:

— nutq a’zolari tortishishining paydo bo‘lish o‘rni va shakllari;

— ularning paydo bo‘lish sur’ati va duduqlanuvchining saqlangan nutq imkoniyatlari;

— nutq buzilishlari bilan birga sodir bo‘ladigan buzilishlar; harakatlardagi buzilishlar;

— duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalarning o‘z nutqiy nuqsoniga munosabati; ruhiy xususiyatlarining borligi.

Tomir tortishishlarning paydo bo‘lish o‘rinlari (nafas olishdagi, tovushdagi, artikulyatsiyadagi, aralash) va ularning shakllari (klonik, tonik, aralash) ko‘rish yoki eshitish orqali belgilanadi.

Duduqlanish nutq kamchiligidagi tortishishning qaytalanish tezligi logoped uchun alohida qiziqish o‘yg‘otadi. U nutqning saqlangan qismlari haqida fikr yuritishga imkon yaratadi, bola bilan dastlabki nutqiy mashg‘ulotning qanchalik to‘g‘ri va samarali boshlanishi bevosita unga bog‘liq bo‘ladi. Erkin nutq darajasini o‘rganish uning nutqiy mustaqilligidagi turli darajalardan duduqlanish nutq kamchiligining paydo bo‘lishidagi bog‘liqlikni aniqlash bilan boshlanadi. Uning ota-onalari, do‘stlari, qiziqishlari va hokazolar haqidagi suhbatda bolaning nutqiy harakati, nutqiy tortishishning alohida jihatlari aniqlanadi.

Bolaga ertak to‘qish yoki rasm mazmunini so‘zlab berish, tanish ertakni bayon qilish taklif etiladi; logoped hikoyani o‘qiydi hamda undan buni so‘zlab berishni so‘raydi va hokazo. Keyin ifodalangan va mavhum qolgan nutq holatini takrorlash yoki murakkab hamda jun iboralarni birgalikda talaffuz etish orqali tekshiradi.

Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalarning erkin nutq darajasi uning faqat turli darajadagi mustaqilligiga emas, balki uning tayyorgarligiga ham bog‘liqdir.

Nutqiy a’zolari tortishishi bolaning murakkab yoki jun iborani, alohida so‘z yoki tovushlarni talaffuz etishi bilan borliq holda paydo bo‘lishini kuzatish muhim ahamiyat kasb etadi. Matn mazmunini qayta bayon qilish materialida nutq a’zolari tortishishining qanday hollarda: hikoya qilib berishning boshlanishida, ibora boshida, ayrim so‘z yoki tovushlarda paydo bo‘lishi qayd qilinadi. Nutq a’zolari tortishishi nutq balandligi darajasi bilan bog‘liq ekanligi haqida tushuncha hosil qilinadi. Shu maqsadda ko‘riqdan o‘tkazilayotgan shaxsga sekin, qattiq, shivirlab gapirish taklif etiladi.

Turlicha ohanglanish darajasining duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalar nutqiga ta’siri quyidagicha tekshirilishi mumkin: u suratda nima tasvirlanganini bayon qiladi, ertak mazmunini so‘zlaydi (bu ohanglashgan nasr hisoblanadi), she’rni yoddan aytadi.

Nutqni birlamchi ko‘rikdan o‘tkazish paytida logoped nutq bilan birga kechadigan va harakat buzilishlariga: nafas olishda aytiladigan ortiqcha so‘z yoki tovushlar alohida tovush, so‘z va hatto gaplarni talaffuz qilish, nutq tovushlarini noto‘g‘ri talaffuz qilish, nutq surati va grammatik qurilishidagi, sur’atidagi yetishmovchiliklar, chigillashlar, mioklonuslar (g‘ayritabiiy harakatlar), turli yordamchi (yorqin, tabiiy) harakatlar va nutq harakatidagi ayrim xususiyatlar: umumiy harakatlardagi siqiqlik va zo‘riqish yoki, aksincha, ularning shiddatkorligi, jo‘shqinligi, shivirlashi, «ezmalik»larga alohida e’tibor beradi.

Bolalarning o'yin faoliyatini kuzatish jarayonida ularning o'yin xususiyati, o'zaro munosabati, o'yindagi faollik darajasi, hissiyotli holati haqida tushuncha hosil qilinadi.

O'quv faoliyatini ko'rikdan o'tkazish jarayonida duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgangan o'quvchilarning o'qish davrida turli xil nutq shakllarini qanday qo'llanayotganlariga e'tibor beriladi.

Ulardagi ruhiy xususiyatlarning bor yoki yo'qligiga, jumladan ularning o'z nutq nuqsoniga diqqatini jalb qilish darajasiga e'tibor qaratiladi.

Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarning ruhiy jihatlari haqidagi ma'lumotlar uning ota-onasi bilan o'tkazilgan suhbatda ma'lum bo'ladi. Logoped uning atrofdagilar (uyda, maktabda, tengdoshlari va kattalar bilan, tanish va notanish odamlar) bilan bo'ladigan munosabatini aniqlaydi. Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarning o'z nutqiga qanday baho berishiga (o'z nutqining mukammal emasligini biladimi yoki yo'qmi, bu unga qanday ta'sir qiladi), himoya reaksiyalarining (achchiqlanish, tortinish, niqoblash, nutqli muomala qilishdan chetlanish) bor-yo'qligiga, ko'rikdan o'tkazish paytidagi nutq holatiga (yordamga ko'z tikadi, o'z nuqsonini tuzatishga faol kirishadi yoki nutqiy mashg'ulotlarning nega kerakligini tushunmaydi) e'tiborni qaratadi. Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarni o'rganish bartaraf etish ishlari jarayonida ham davom etadi. Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar va uning ota-onalari bilan suhbatdan, ruhiy-pedagogik va tibbiy hujjatlarni o'rganishdan tashqari, tajriba-sinov o'yinlari, o'quv vaziyatini yaratish metodlari, psixo diagnostik metodlar qo'llaniladi. Keltirilgan metodlar aniqlash vazifalarini yakunlash uchun, duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarning ruhiy xususiyatlarini yanada teran his etish uchun, qimmatli ma'lumotlar omili sifatida qo'llaniladi. Ular yordamida olingan mikdoriy va sifatli ma'lumotlar sinovdan o'tkazilayotgan shaxsni atroflicha ruhiy-pedagogik o'rganish asosida sharhlash lozimligini taqozo qiladi.

Logopedik nuqtai nazaridan xulosa chiqarish jarayonida quyidagilar hisobga olinadi: duduqlanish nutq kamchiligi shakli (tonik, klonik, aralash), tortishish turlari (nafas olish va chiqarishdagi, tovushli, talaffuzli, aralash), duduqlanish nutq kamchiligi darajasi (yengil, o'rtacha, og'ir), nutq sur'ati (sekinlashgan, jadallashgan, tez gapirish,



tasilaliyaning borligi), duduqlanish nutq kamchiligi bilan birga keladigan dislaliya nutq kamchiligi, dizartriya nutq kammchiligining yengil shakli, nutqning umumiy rivojlanmay qolishi, harakatlantiruvchi vositalar faoliyatining holati, duduqlanish nutq kamchiligini ruhiy alomatlarini bor-yo'qligi va ifodaliligi: nutqdan chuchish (logofobiya), harakatlantiruvchi kuch va nutqdagi xiylalar, embolofraziya, nutq uslubining o'zgarishi va boshqalar, duduqlanish nutq kamchiligi jarayonidagi hayajonlanishning bor-yo'qligi, hayajonlanishga nisbatan munosabat. Nutq jarayoniga e'tiborni jalb etish va uning duduqlanish nutq kamchiligiga ta'siri, murakkab nutq jarayonining duduqlanish nutq kamchiligigiga ta'siri, duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarning xususiy va ruxiy jihatlari, o'yinli faoliyatning xususiyati, o'quv faoliyatiga munosabat, duduqlanish nutq kamchiligini keltirib chiqaradigan vaziyatlar doirasi.

Logopedik xulosa tabaqalashtirib aniqlashni amalga oshirishga va duduqlanish nutq kamchiligini boshqa nutqiy zaiflashuvlardan (tasilaliya, dizartriya, fiziologii xarakterdagi nuqsondan) ajratib olishga, shuningdek duduqlanish nutq kamchiligining turli shakllarini bir-biridan farqlashga imkoniyat yaratadi. Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarni atroflicha o'rganish ma'lumotlari uning tabiatini aniqlashga imkon beradi.

Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarning turlicha ko'rinishlari, uning ruhiy xususiyatlarining mavjudligi va har bir duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarning xulq-atvori barcha guruh bilan bosqichma-bosqich logopedni ish olib borish sharoitida har bir duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar bilan alohida logopedik ish olib borishning vositalari, usullari va yo'nalishlaridagi muhim jihatlarni ham belgilaydi.

Duduqlanish nutq kamchiligini bartaraf qilishni oldindan aytish ko'pgina shart-sharoitlarga, birinchi navbatda uning mexanizmlariga, atroflicha ta'sir ko'rsatishning boshlanish muddati va undan to'liq qo'llanilishiga, yosh xususiyati va hokazolarga borliqdir.

Bolalarning yoshi qanchalik kichik bo'lsa, umumiy xatti-harakat qanchalik faol va dadil bo'lsa, nutq a'zolarining qanchalik ham bo'limlari tortishgan va tortishishning o'zi ham nechog'li zaif bo'lsa, ruhiy buzilishlar qanchalik kam bo'lsa, oldindan aniqlash shunchalik ijobiy bo'ladi. Tug'ma xastalik yoki neyropatiya oqibatida rivojlanadigan,

shuningdek tashqi ta'sirlarsiz paydo bo'lgan duduqlanishni oldindan aytish yaxshi samara beravermaydi. Bu yerda aksariyat hollarda qaytalanish bo'ladi. Tovush tortishishlaridan ko'ra nafas olishdagi tortishishlar tezroq o'tib ketadi, tonik shaklga nisbatan klonik shakl yengil bartaraf bo'ladi chunki klonik tortishishlar miya qobig'ini qo'zg'atish uchun xosdir. Binobarin, tonik tortishishga nisbatan ularga II signal sistemasi orqali ta'sir etish yengil kechadi, tonik tortishishlarda ham miya kobig'ini qo'zg'atuvchilari bo'ladi, ularga ta'sir ko'rsatish qiyin kechadi. Oldindan aytish ma'lum miqdorda bolaning shaxsiga, logopedning shaxsi va uning mahoratiga bog'liq bo'ladi.

2 – 4 yosh juda qulay hisoblanadi (qulay shart-sharoitlarni yaratish oson ketadi, bunda duduqlanish nutq kamchiligining hosil bo'lgan muddati ham kam bo'ladi). 10—16 yosh, pubertat bosqichi eng qulay muddat hisoblanadi (ruhiy jihatdan ko'ngilning nozikligi, erkinlikka, mustaqillikka intilish, odamovilik va shaxsning boshqa salbiy xususiyatlari). Yo'qolib ketgan duduqlanishlar ko'pincha yashirin holda saqlanadi va noxush shart-sharoitlarning yuzaga kelish paytida qaytalanishga tayyor turadi.

Ko'pincha duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarning yaxshi ijtimoiy sharoitdagi nuqsonlarini oldindan aytish mumkin bo'ladi.

Bizning mamlakatimizda duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarning nutq kamchiligini oldini olish yuzasidan keng va har tomonlama ishlar olib boriladi. Dastlab bunday ish bola tug'ilishidan oldin ota-onalar bilan olib boriladi. Bunda bola tug'ilganidan so'ng unga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan omillardan ogohlantirishni (boshni lat yeyishidan saqlash, burun-halqumni tartibli saqlash og'iz bo'shlig'iga zarar yetkazmaslik, surunkali kasalliklarga yo'l qo'ymaslik, o'z vaqtida davolanish, adenoidlar ko'payishini bartaraf etishni) maqsad qilib qo'yiladi. Og'zaki nutq taqlid qilish orqali rivojlanishi sababli bola uchun duduqlanuvchi, taxilaliyali, gap orasida tug'iladigan va boshqa nutqiy nuksonli shaxslar yomon ta'syr ko'rsatishi mumkin. Bolalarning muloqotga bo'lgan o'rinishlarini rag'batlantirish, lekin haddan ortiq og'ir nutqdan saqlash tavsiya etiladi. Asabiylanishga moyil bo'lgan bolalar uchun juda tinch sharoig yaratish: nutqiy muloqot va shovqinln o'yinlarni cheklash, yangi o'yinchoqlar berib o'rgatmaslik, ular atrofida ko'pchilikning to'planishiga yo'l qo'ymaslik zarur.



Bola maktabga borgan vaqtda duduqlanish nutq kamchiligini paydo bo'lishi yoki uning yangidan qaytalanishi mumkin. Shuning uchun maktabda o'qish yillarida ham duduqlanish nutq kamchiligini oldini olish zarur. Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarni to'satdan chaqirmaslik va ularni tezda javob qaytarishga majbur qilmaslik sinfda, duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar atrofida yaxshi muhitni tashkil etish; ota-onalar, muallimlar va boshqalarga logopedik bilimlar berish tavsiya etiladi.

Balog'atga o'tish davrida o'smirning asab sistemasi holatiga, uning atrofdagilar bilan o'zaro munosabatiga; o'zini shaxs sifatida namoyon etishdagi o'xshash usullar va hokazolarga e'tibor beriladi. O'smirning asab-ruhiy holatidagi turli xil chetga chiqishlar, asab faoliyatidagi, hissiy-irodaviy sohada zo'riqish, o'ziga noto'g'ri baho berish, shaxsda salbiy xususiyatlarning ko'payib ketishi duduqlanish nutq kamchiligini paydo bo'lishi yoki uning qaytalanishiga sabab bo'lishi mumkin.

Ana shu sabablardan kelib chiqib, duduqlanish nutq kamchiligining qaytalanishini oldini olishga alohida e'tibor berish maqsadga muvofiqdir. Duduqlanish nutq kamchiligining qaytalanishida quyidagi sabablarni ko'rsatish mumkin: yomon sotsial-maishiy shart-sharoitlar (asabiylashish holati, bola bilan qo'pol muomalada bo'lish, o'qish, qo'shimcha mashg'ulot va ish bilan asab sistemasini haddan ortiq charchatib qo'yish, ruhiy zo'riqish); logopedik mashg'ulotlar jarayonida muvaffaqiyatlarni yetarlicha puxta mustahkamlamaslik, shifoxonaga joylab davolashning yo'lga qo'yilmagani, duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarning shaxsi qayta tarbiyalanmasligi; duduqlanish nutq kamchiligini paydo bo'lgan zaminni yetarlicha to'liq bartaraf etmaslik, bunga misol qilib asabiylashish, his-hayajonlarni bostirish, atrofdagilar bilan asabiy munosabatda bo'lish, sekin o'tib ketadigan surunkali kasalliklar va boshqalarni keltirish mumkin; asab sistemasini ishdan chiqaradigan kasalliklar; ruhiy shikastlanish, duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolaga atrofdagilarning befarq munosabatda bo'lishi; faoliyat tartibining, shuningdek uxlash, ovqatlanish, dam olish tartiblarining buzilishi; bartaraf etilmagan, jarohatlantiruvchi, doimiy ta'sir ko'rsatuvchi omil, masalan, ota yoki onaning duduqlanishi va hokazolar.

Duduqlanish nutq kamchiligini qaytalanishining yuqoridagi va boshqa sabablarini bilgan holda, logoped korreksion-logopedik mash-

g'ulotlar jarayonida ham, ular tugaganidan keyin ham doimiy profilaktik ishlarni olib boradi.

**Nazorat savollari:**

1. Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarni ko'rikdan o'tkazish yo'lari nimadan iborat?
2. Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarni nutqni tekshirish vazifalariga nimalar kiradi?
3. Duduqlanish nutq kamchiligida logopedik xulosa nima ?

**Topshiriqlar:**

1.Duduqlanish nutq kamchiligini ko'rikdan o'tkazish bo'yicha quyida keltirilgan bog'lovchi chizmalar yordamida og'zaki tahlil eting.




2. Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarda uchraydigan ruhiy jarayonidagi o'ziga xos xususiyatlarini quyidagi chizmada yoritib bering va yozma holda mustaqil ish topshiring.






**Tayanch iboralar:**

Logofobiya - nutqdan, muloqatdan qo'rqish.
Antropofonik - tovushni buzilib talaffuz kilish.

## 6§. Duduqqanish nutq kamchiligini bartaraf etishga atroflicha yondashish

**Reja:**

1. Duduqqanish nutq kamchiligini bartaraf etishda zamonaviy yondashuv.

2.Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan logopedik mashg'ulotlar.

Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarni nutq nuqsonini bartaraf etishga zamonaviy yondashishning qaror topishidan oldin nuqsonni yo'qotishdagi turli usul va sistemalarni izlanish yuzasidan ishlar olib borildi. Duduqlanish nutq kamchiligini bartaraf etish metodikalarining ko'pligi va yetarlicha samarasizligi uning ko'rinishlariniig murakkabligi va uning tabiati haqidagi bilimlar darajasining yetarli emasligi bilan tushuntiriladi.

Duduqlanish nutq kamchiligini bartaraf etishning amaldagi usullari, vositalari va metodlarini o'rganishda ularning duduqlanuvchiga taklif etiltan ta'sir vositalari (tibbiy yoki pedagogik) xususiyatlarini ham ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Birinchi holatda - bu davolash tadbirlari (terapevtik, jarrohlik, ortopedik, psixo-terapevtik), ikkinchisida pedagogik (didaktik) tadbirlar va uchinchisida — duduqlanish nutq kamchiligiga davolash va pedagogik jarayonlarni turli holatda qo'shib olib borgan holda ta'sir etish.

Duduqlanish nutq kamchiligini bartaraf etishning terapevtik vositalari turlicha daraja va shakllarda, qadimdan boshlab (Gippokrat, Aristotel, Sels, Galen, Ibn Sino, Merkuriales, Klenke, Lixtinger va boshk.) barcha davrlarda ko'llanib kelingan. Terapevtik vositalar duduqlanishni davolashda yagona hisoblanmay, balki uni ma'lum darajada to'ldirib kelgan.

Duduqlanish nutq kamchiligini davolashning jarroxlik metodi eramizning I asridan XIX asr o'rtalariga qadar, to uning besamaraliligi va xavfliligi haqidagi fikrlar tasdiqlanguncha (Antill, Bonne, Diffenbax, Dionis, Peti, Fabritsiy, Eginskiy va boshqadar) qo'llangan. U duduqlanishni artikulyatsiya a'zolarining .patologik to'zilishi yoki til muskullarining noto'kis innervatsiyasi sifatida tushunilishi natijasida vujudga kelgan.



Mexanik moslamalardan ortopedik maqsadlarda qo'llanish Demosfenga borib taqaladi, u o'zining duduqlanishini davolash uchun g'ayriodiy predmetlarni (dengiz toshchalarini) nutq mashg'ulotlari paytida til ostida saqlagan va bu yaxshi samara bergan. Keyinchalik mutaxassislar duduqlanish nutq kamchiligini davolash paytida turli xil mexaniq moslamalardan foydalanishgan. Masalan, Intar.—til vilkasini, Kolomba—til qisqichi va lab kashagini, Ervedi-Sheguan — ikkala tish qatori uchun koplamani, Klenke—til ostiga quyiladigan yoy shaklidagi yog'och plastinkani, Merkel — pastki tishlarga qo'yiladigan kit mo'ylabidan tayyorlangan skobani qo'llashgan va hokazo. Ortopedik vositalar duduqlanish nutq kamchiligini davolashda yordamchi ahamiyatga ega bo'lgan.

Psixoterapevtik ta'sirlar. Duduqlanish nutq kamchiligi nevrotik zaiflashuv sifatidagi qarashlarning paydo bo'lishi bilan ayrim mualliflar uni psixoterapevtik ta'sir orqali bartaraf qilishga birinchi darajali ahamiyat bera boshladilar (Bertran, Lubmann, Laguzen, Merkel, Netkachyov, Freshels, Shultess va boshq.). Ruhiy yo'nalish tarafdorlari duduqlanish zamirida birinchi galda ruhiy xastalikni ko'rdilar, shu sabab duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarga ta'sir ko'rsatish vositalarini tanlashda bu vositalarning uning ruhiyatiga qanday ta'sir qilishini hisobga oldilar.

Didaktik usullar. Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarda to'g'ri nutqni didaktik usulda tarbiyalash tarafdorlari ham nutqning ayrim elementlarini, ham umuman nutqni qamrab oluvchi turli sil va sekin-asta murakkablashadigan nutqiy mashg'ulotlar sistemasini tavsiya etishdi (Andreye, Gimiller, Gutsman, Dengardt, Itar, Koen, Kussmaul, Li).

Pedagogik-davolash tadbirlar sistemasi I. A. Sikorskiy (1889) va uning shogirdi I. K. Xmelevskiy (1897) tavsiyalarini duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarga pedagogik-davolash orqali ta'sir ko'rsatish sistemasini aniqlashga doir dastlabki o'rinishlardan deb hisoblash mumkin. I. A. Sikorskiy duduqlanish nutq kamchiligini davolashda quyidagilarga e'tibor bergan: a) nutq gimnastikasi (nafas olish, tovush, artikulyatsiya, nutqning turli ko'rinishlari uchun mashg'ulotlar tartibi); b) psixo-terapevtik davolash (kasalga yaxshi shart-sharoit yaratish, nutq mashg'ulotlarini asta-sekindan murakkablashtirib pedagog, bemor kayfiyatiga ta'sir etish va hokazo); v) dori-darmonlar

orqali va dinamik tarzda davolash (dori-darmonlar, fizioterapiya, harakat mashqlari).

Rus fiziologlari—I. M. Sechenov, I. P. Pavlov ularning izdoshlari yaratgan ilmiy tadqiqotlariga tayanib, rus olimlari va amaliyotchi-mutaxassislari duduqlanishni bartaraf etishdagi avvalgi ishlab chiqilgan andazabozlikka barham berdilar, ularning eng yaxshilarini, samaralilarini tanlab oldilar va duduqlanishni tugatishga atroflicha yondoshish yo'llarini belgiladilar. V. A. Gilyarovskiy, Y. A. Florenskaya, F. A. Rau, N. P. Tyapugin, M. YE. Xvatsev, N. A. Vlasova, M. I. Paykin, V. S. Kochergina, M. S. Lebedinskiy, S. S. Lyapidevskiy, V. I. Seliverstov va boshqalar o'zlarining tadqiqotlari va amaliy faoliyatlari bilan duduqlanishni bartaraf etishga atroflicha tibbiy-pedagogik yondashishning rivojlanishiga yordam berdilar.

Duduqlanish nutq kamchiligini bartaraf etishga zamonaviy atroflicha yondashuv deganda duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarni ruhiy-jismoniy holatining turlicha tomonlariga turli mutaxassislarning har xil vosita va usullari bilan edagogic-davolash orqali ta'sir etishi tushuniladi. Pedagogik-davolash tadbirlari miqyosiga davolash dori-darmonlari va tadbirlari, davolash fizkulturasi, psixoterapiya, logopedik mashg'ulotlar, logopedik ritmika, tarbiyaviy tadbirlar kiradi. Ulardan ko'zlangan maqsad — pay tortishishi va tovush zaiflashuviga, nafas olish, harakat va nutq bilan birga kechadigan xastaliklarni bartaraf etish yoki yengillashtirish; asab sistemasini va umuman butun organizmni sog'lomlashtirish va mustahkamlash; bolani o'z nutqiy nuqsoniga nisbatan noto'g'ri munosabatda bo'lishdan, ruhiy tushkunlikdan xalos etish, uning shaxsiyati va hulq-atvorini qayta tarbiyalash, duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan shaxsning ijtimoiy jihatlarini soddalashtirish va muvofiqlashtirishdan iborat.

Barcha pedagogic-davolash majmuini duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarga ta'sir etish xususiyatiga qarab shartli ravishda ikkita guruhga ajratish mumkin: davolash-sog'lomlashtirish va pedagogic tuzatish. Shifokor olib boradigan davolash-sog'lomlashtirish ishlari quyidagi asosiy vazifalarni o'z ichiga oladi duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarning asab tizimi va jismoniy holatini mustahkamlash hamda sog'lomlashtirish; ularning ruhiy-jismoniy holatidagi og'ish va patologik ko'rinishlarni bartaraf etish va davolash (nutq tortishishi, vegetativ asab tizimining zaiflashuvi, vegetativ asab



tizimi buzilishi va boshqalarni yengillashtirish yoki tugatish).

Logoped olib boradigan korreksion-logopedik ishlar quyidagi asosiy vazifalarni o'zida mujassamlashtiradi; duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar nutqidagi nuqsonlar (noto'g'ri nutqni qayta tarbiyalash) va ruhiy noto'kis jihatlarini bartaraf etish. Logoped o'z uslubi va vositalarini duduqlanuvchiga ta'sir etishda qo'llana biladigan zarur mutaxassislarning (shifokorlar, tarbiyachilar, LFK bo'yicha instruktor, musiqachi va boshqalar) hamkorlikdagi tibbiy-pedagogik ishini tashkil etadi.

Davolash – sog'lomlashtirish ishlariga quyidagilar kiradi: davolash uchun qulay sharoit yaratish, kun tartibi va ovqatlanish tartibini tashkil etish, chiniqtiruvchi tadbirlar, davolovchi jismoniy tarbiya, dori-darmon orqali davolash va psixoterapiya.

M. Sechenovning ko'rsatishicha, inson vujudi va uning faoliyati ilmiy tushunchasiga unga ta'sir ko'rsatuvchi vositalar ham kiradi, zero, tashqi ta'sirlarsiz organizmning bo'lishi mumkin emas. Tashqi muhit organizmning shakllanishi va rivojlanishida, shuningdek kasallikning paydo bo'lishi va o'z navbatida, bartaraf etilish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bola uchun ixtisoslashtirilgan muassasalar sharoitida tinch va shu bilan birga jo'shqin, quvnoq kayfiyatni yaratish zarur; uning e'tiborini o'z nuqsoni haqidagi tashvishli fikrlardan xalos etish kerak.

Bolada yaxshi kayfiyat, tetiklik, o'zining tuzalib ketishiga nisbatan ishonch uyg'otish muhimdir. Faoliyat turlarini muntazam ravishda almashtirib turish, muayyan hayot tarzi ham alohida ahamiyat kasb etadi, zero, bu usullar duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bola asab tizimining yuqori bo'limlari va barcha a'zolarini ishini normallashtiradi va yengillashtiradi.

Kun tartibini to'zishda dam olish uchun yetarlicha vaqt ajratishni nazarda tutish muhimdir. Shu maqsadda maktab yoshidagi bolalar uchun o'quv jarayonini yengillashtirish, unga berilgan vazifalarni bajarish vaqtida tez-tez tanaffus qilish, ularni sinfdan tashqari ishlar, uy yumushlari va boshqalar bilan zo'riqtirmaslik kerak.

Faoliyat turining xilma-xilligi ham bolalar uchun muhim ahamiyat kasb etadi, bu ularda qizqish uyg'otadi. Qo'zgaluvchan va harakatchan bolalar uchun tinch, shovqinsiz mashg'ulotlar, o'yinlar tanlab olinadi.

Sust harakatli bolalarnn faollashtirish, ularda mustaqillikni rivojlantirish lozim.

Maktab yoshida bo'lmagan duduqlanish nutq kamchiligiga ega bolaning kun tartibida uyqu uchun o'rta hisobda kechasi 10—11 soat va kundo'zi 2 soat, maktab yoshidagi bola uchun kechasi 8—9 soat va kundo'zi 1,5—2 soat vaqt ajratilgan bo'lishi kerak. Ovqatlanish uyqudan 1,5—2 soat oldinga mo'ljallanadi. Aks holda uyqu paytida bosh miya qobig'i asab kataklari quvvatining tiklanishi sekinlik bilan kechadi. Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolaning ovqati vitaminlarga boy bo'lishiga ko'proq e'tibor berish zarur. Vitaminlar barcha ferment sistemalarining biologik katalizatorlari sifatida oliy asab faoliyatiga, organizmning reaktiv quvvati va immunologik holatiga yaxshi ta'sir ko'rsatadi.

Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bola kun tartibiga chiniqtiruvchi tadbirlar ham kiritiladi. Kundalik sayrlar, ochiq havodagi o'yinlar, sport mashg'ulotlari asab sistemasini mustahkamlaydi, ko'tarinki ruhni yaratadi, havo vannalari yurak-tomir sistemalariga ham faol ta'sir etadi, uning ishlashini mo'tadillashtiradi.

Bola tana a'zolarining chiniqishi uchun ustidan suv quyish, artinish, dush qabul qilish va cho'milish muhim ahamiyatga egadir.

Chiniqishning turli xillari shifokor tomonidan bolaning salomatligi va mahalliy shart-sharoitlarni hisobga olgan holda, yakka tartibda qat'iy belgilanadi.

Davolovchi jismoniy tarbiya va jismoniy mashg'ulotlar mushak sistemasini rivojlantirib, muhim hayotiy a'zolar: o'pka va yurak ishini takomillashtiradi, moddalar almashinuvini kuchaytiradi. Ular bolaning quvvati va ma'naviy ruhining mustahkamlanishini ta'minlaydi, epchil va aniq harakatlarni rivojlantiradi, harakatdagi cheklanganlik yoki aksincha to'xtab qolishdan xalos bo'lishga yordam beradi, intizomlilik va batartiblikning tarbiyalanishini ta'minlaydi.

Bo'larning barchasi duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bola nutq a'zolarining yaxshi ishlashi uchun zarur shart-sharoitlar bo'lib hisoblanadi va unda to'g'ri nutq ko'nikmalarini hosil qilishga yaxshi ta'sir ko'rsatadi. Jismoniy mashqlar duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar uchun davolash ahamiyatini kasb etadi.

Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarga mo'ljallangan davolash muassasalarida umumiy jismoniy mashqlardan tashqari maxsus



nafas mashqlari ham o'tkaziladi. Bu mashqlar davolovchi jismoniy tarbiya (DJT) mashg'ulotlarida olib boriladi.

Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarni dori-darmonlar bilan davolash markaziy va vegetativ asab tizimi faoliyatini mo'tadillashtirish, nutqiy harakat vositalari ishini muvofiqlashtirish, tortishishlarni bartaraf etish, umuman, tana a'zolarini sog'lomlashtirish vazifalarini o'z ichiga oladi.

V. S. Kocherginaning kuzatishicha, dori-darmonlar bilan davolashning tutadigan o'rni duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarning yoshi bilan hamohang ravishda oshib boradi. Bu qo'shimcha nutqiy nuqsonlarning paydo bo'lishi oqibatida duduqlanish nutq kamchiligini davolashning murakkablashuvi bilan tushuntiriladi. Keyin vujudga keladigan nuqsonlar esa pubertat ko'chishlar va so'zning tutgan o'rnining sotsial munosabatlar omili sifatida kuchayishi bilan bog'liqdir.

Psixoterapiya duduqlanish nutq kamchiligini davolash ko'lamida muhim o'rin egallaydi. Psixoterapiyaning asosiy vazifasi – duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarning ruhini sog'lomlashtirishdan iborat bo'lib, u 1) mukammal shaxsni kamol toptirish; 2) o'z nuqsoni va sotsial muhitga nisbatan sog'lom qarashlarni tarbiyalash; 3) kichik sotsial muhitga ta'sir ko'rsatish orqali amalga oshiriladi.

Psixoterapiya duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan shaxsiga bilvosita va to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Bilvosita psixoterapiya deganda vaziyat, tevarak-atrofdagi tabiat, jamoa, xizmat ko'rsatuvchi xodimlar munosabati, kun tartibi, o'yin va boshqalar tushuniladi. Bevosita psixoterapiya – tushuntirish, ishontirish, ko'niktirish va o'qitish ko'rinishida so'z orqali davolovchi ta'sir ko'rsatish. Zamonaviy psixoterapiyada so'z orqali ta'sir etishning ikkita asosiy turi bor: 1) ostlena (Dyubua bo'yicha) yoki tushuntiruvchi (V. M. Bexterev bo'yicha) psixoterapiya; 2) suggestive terapiya, bunda bedor holida, uyquda ishontirish (gipnoz)ni va o'z-o'zini ishontirish (autogen mashqi) ni ajratib ko'rsatiladi.

To'g'ri psixoterapiya yakka tartibda va jamoa ishtirokidagi maxsus suhbatdan tashkil topadi. U o'zida logik jihatdan asoslangan tushuntirish, ishontirish va duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarni o'qitish sistemasini mujassamlashtiradi. Uning maqsadi duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bu xastalik mohiyatini obrazli va ishonchli tarzda tushuntirishdan, bolanint duduqlanishni bartaraf etishda tutadigan

o‘rnini ongiga singdirishdan, uning xatti-harakatidagi muhim jihatlarni tanqidiy ishlab chiqishdan iborat.

Psixoterapevt mantiqiy ishontirish kuchi va namuna ko‘rsatish bilan duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalarga uning xatti-harakatidagi noto‘g‘ri ko‘rinishlarni bartaraf etishga yordam beradi, bunda u duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalarning o‘z kuchiga nisbatan ishonchini kuchaytiradi, bu xastalikni bartaraf etish mumkinligiga ishontiradi.

To‘g‘ri psixoterapiya kichik yoshli bolalar uchun turli-xil o‘yin usullari, rangli didaktik materiallar, mehnat, musiqa, ritmika va boshqalardan foydalanishda ifodalanadi. Psixoterapiyaning bunday shakllari ruhiy profilaktika va ruhiy gigiyena bilan o‘zviy bog‘lanadi. Katta yoshli o‘quvchilar uchun psixoterapiyaning asosiy usullaridan keng foydalanish muhimdir.

Ishontirish (suggestiya) – psixoterapiyaning maxsus metodidir. Tashqaridan boshqa shaxs orqali ishontirish (geterosuggestiya) va o‘z-o‘zini ishontirish (autosuggestiya) mavjud.

Duduqlanish nutq kamchiliginini davolashda bedorlik holatida (K. M. Dubrovskiy) va uxlatib ishontirish metodlari qo‘llaniladi. Bu psixoterapevtik metodlar o‘smir va katta yoshli duduqlanuvchilarga ta’sir etish majmuida boshqa tibbiy-pedagogik vositalar bilan birgalikda foydalaniladi.

Autogen mashqlari metodi autosuggestiya turlaridan biri hisoblanadi. U turli xil asab kasalliklarini davolashda qo‘llaniladi. Ayrim uslub orqali o‘z-o‘zini ishontirish yo‘li bilan tinch holat va muskullarning bo‘shashuvi (relaksatsiya) hosil qilinadi. Hozirgi paytda tana a’zolarining u yoki bu buzilgan a’zolari vazifalarini muvofiqlashtirish uchun biror maqsadga qaratilgan o‘z-o‘zini ishontirish seanslari olib borilayapti. Bunday ma’noda u duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalar uchun ham foydali bo‘layapti, duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalar o‘z mushaklarini bo‘shashtirish, ayniqsa, yuz, bo‘yin, yelka bug‘inlarini yumshatish va nafas olish ohangini muvofiqlashtirish qobiliyatini ishga solayaptilar. Bu, o‘z navbatida tortishishli qisilishlarning kuchini bo‘shashtiryapti.

Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalar bilan olib boriladigan kompleksli ishlarda autogen mashqlaridan qo‘llanish A. I. Lubenskaya, S.M.Lyubinskaya, V. M. Shklovskiy, Y. B. Nekrasova, A.



A. Majbits, M. I. Merlis va boshkalar taklif etgan metodikalarda o‘z aksini topayapti. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda psixikaning yetilmaganligi va diqqat-e’tiborni bir joyga qarata olmaslik bilan borliq ravishda psixoterapiya va autogen mashg‘ulotlari ularga nisbatan qo‘llanilmayotir.

Ko‘pgina logopedlar duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalar bilan ishlashda qo‘l, yelka, bo‘yin, oyoq, yuz mushaklarini bo‘shashtirishga yordam beradigan o‘yin va mashqlardan foydalanishyapti.

Psixoterapiyaning faollashtiruvchi metodlari orasida funksional mashq (trenirovka) lar muhim o‘rin tutayotir (A. G. Ivanov-Smolenskiy, V. A. Gilyarovskiy, S. N. Davidenkov, M. D. Tansyura, N. M. Asatiani va boshq.). Ular asab va ruhiy jarayonlarni mashq qildirish, faollik va irodani mustahkamlashdan iboratdir.

Duduqlanish nutq kamchiligini psixoterapiyasining barcha ko‘rinishlari ruhiy genlar buzilishini bartaraf etishga (nutqdan va vaziyatdan qo‘rkish, ruhiy kamsitilganlik va tushkunlik xissi, o‘z nutqiy zaiflashuvini injikona kayd qilish, shu bilan borg‘liq bo‘lgan turlicha kechinmalar va hokazo) va duduqlanuvchining atrofdagilar bilan sotsial munosabatda bo‘lish ta’siri ostida buzilgan nutqini qayta ko‘rishga; o‘zi va o‘z nutqini boshqara olish malakalarini shakllantirishga, o‘zining shaxsiy sifatlarini qayta ko‘rishga yo‘naltiriladi. Atroflicha yondashishning pedagogic qismini pedagogic-tuzatish (nutqni tarbiyalash) ishi tashkil qiladi, bu logopedik mashg‘ulotlar sistemasini, tarbiyaviy tadbirlarni, logopedik ritmikani, ota-onalar bilan olib boriladigan ishlarni o‘z ichiga oladi.

Logopedik ish pedagogic-tuzatish tadbirlari sistemasi sifatida ko‘rib chiqiladi. U bola nutqi va shaxsiyatini atroflicha shakllantirishga qaratilgan bo‘ladi. Bunda uning nuqsonini bartaraf etish yoki muzdlash zarurligi hisobga olinadi.

Hozirgi davrda logopedik ta’sir etish ikki yo‘nalishda: bevosita va bilvosita amalga oshiriladi. Bevosita logopedik ta’sir duduqlanuvchilar bilan guruh bo‘lib va yakka tartibda mashg‘ulot olib borish davrida amalga oshiriladi. Bu mashg‘ulotlar umumiy va nutq harakatlarini rivojlantirishni, nafas olish hamda nutq sur’ati va ohangini mu’tadillashtirishni, nutqiy muomalani faollashtirishni, zarur holatlarda diqqat bilan eshitish va fonematik idrok etishni rivojlantirishni, tovushlarni talaffuz etishdagi nuksonlarni tuzatishni, sust va faol lug‘at boyligini kengaytirishni, jumlalarni grammatik jihatdan tartibga solishni takomillashtirishni

nazarda tutadi. Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalar bilan mashg‘ulotlar paytida xulq-atvordagi ruhiy og‘ishlar bartaraf etiladi: (o‘quvchilarda, o‘smirlarda), nuqsonga nisbatan to‘g‘ri munosabat hosil qilinadi, aqliy qobiliyat, odob va ahloq to‘g‘risidagi tasavvurlar rivojlantiriladi, har tomonlama rivojlangan shaxs tarkib toptiriladi.

Yakka tartibdagi mashg‘ulotlar to‘g‘ri nutq va xulq-atvor ko‘nikmalarini tarbiyalash bo‘yicha qo‘shimcha mashg‘ulotlar o‘tkazish zarur bo‘lgan hollarda olib boriladi (noto‘g‘ri talaffuz etishni tuzatish, ruhiy ko‘rinishdagi suhbatlar va hokazo).

Bilvosita logopedik ta’sir etish bolaga mo‘ljallangan barcha kun tartibini logopedik mashg‘ulotlar va atrofdagilarning unga nisbatan munosabatini o‘zida aks ettiradi. Bu sistemada nutq rejimi muhim o‘rin egallaydi.

Maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarning nutq tartibini kattalarning keng ko‘lamli yordami orqali amalga oshiriladi.

Bunda ular bolalarning bir nutq bosqichidan boshqasiga o‘tishini muntazam nazorat qiladilar. O‘quvchilar, o‘smirlar va kattalarning nutq rejimi ular tomonidan zarur nutq mashqlarini tanlab olishni, ular tomonidan to‘g‘ri nutq talablarini, turli sharoitlarda to‘g‘ri nutq ko‘nikmalarini mashq qildirilishini nazarda tutadi.

Logopedik mashg‘ulotlarning nutq jihati nafas olish, tovush va artikulyatsiya vazifalarini, to‘g‘ri nutqni tarbiyalashni tartibga solish va muvofiqlashtirishni o‘z ichiga oladi.

Adabiyotda to‘g‘ri nafas olishni tarbiyalash metodi haqida bir necha qarashlar bor. Ayrimlarning fikricha, nafas olish bo‘yicha didaktik mashqlarni ko‘llangan holda, nafas olish ustidan maxsus ish olib edagog tavsiya etiladi. Boshqalar esa nafas olish ritmi erkin edagogi nutq orqali tiklanadi, ya’ni nutqning shoshilinch bo‘lmagan sur’ati tarbiyalanadi va buning natijasida barcha nutq komponentlari, shu bilan bir katorda nafas olish ham normallashadi. Psixologiya maktabi vakillarining fikricha, nutqning, binobarin, nafas olishning tarbiyalanishiga irodani mashq qilish yordam beradi. Agar nafas olish ustida ishlashni nutq nuqsoni to‘zilishiga bog‘liq holda, yakka tartibda olib borilsa, bunday fikrlarning har birida ma’qul tomonini uchratish mumkin.

Nafas olish nutq jarayonida mashq qilib mustahkamlanadi: talaffuz paytida bir marta nafas chiqarilishi orqali dastlab qisqa gaplar, keyin so‘zlar sonini sekin-asta ko‘paytira borib gaplar aytiladi. Uzun jumlalarni



logik to‘xtamlar bilan qismlarga bo‘lib talaffuz etish malakasi hosil qilinadi, bunda tinish belgilari ishtirok etadi yoki aksincha. Shundan so‘ng nasr yoki nazm matnlarini o‘qishga o‘tiladi.

Tovush buzilishlari ko‘pincha nafas olishdagi kamchiliklar bilan bog‘liq bo‘ladi: duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalarda ayrim paytlari nafas olib so‘zlashda bo‘g‘iq tovush kuzatiladi; kuchli nafas chiqarish paytida tez, baqiriq tovush; tovush a’zolari paylarining zo‘riqishi natijasida tovushning qattiq xuruji va hokazolar kuzatiladi. Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalar bilan tovush tarbiyasi yuzasidan olib boriladigan ishlar artikulyar a’zolar muskullarini, birinchi navbatda pastki jag‘, til muskullarini bo‘shashtirishdan boshlanadi (masalan, tilni *n* tovushi uchun zarur bo‘lgan holatga quyiladi va nu — no — na tovushsiz talaffuz qilinadi; bunda jag‘ sekin-asta pastga tushiriladi; ne—ni—nu jag‘ sekin ko‘tariladi). Mashq beixtiyor harakatga qadar davom ettiriladi. Keyin tovushning yumshoq boshlanmasi, tovushning unlilar bilan birgalikdagi uzluksiz yengil talaffuzi, so‘ng sonor tovushlarning unlilar bilan birgalikda bo‘g‘inlarga bo‘lib talaffuz etilishi, gaplarda talaffuz etish mashq qilinadi va hokazo.

Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalarda mustaqil nutqni tarbiyalashda to‘g‘ri nutq shakllarining zaruriy uzluksizligiga rioya qilinadi. Dastlab nazm matnini bir-biriga bog‘liq holda qaytarish orqali o‘qish jarayonida yengil ritmik nutq tarbiyalanadi. Keyin qiyin holatlarda logoped yordamida mustaqil o‘qish, so‘z oralatib yoki matnni ayrim bo‘laklarga bo‘lib, kimningdir yordamida, bir xil ohangda o‘qish; dialogli matnni o‘qish; tinish belgilarini hisobga olib, shartli uzunlikka amal qilib to‘xtash orqali o‘qish; o‘rganilgan she’rni talaffuz etish tavsiya qilinadi.

Mustaqil nutqni tarbiyalashga nutqning boshqa shakllariga nisbatan ko‘p vaqt ajratiladi. Mustaqil nutq oldindan tayyorlangan (she’r, qayta hikoya qilish, dars mazmunini bayon qilish, ko‘rgan-kechirganlar haqida hikoya qilish) va oldindan tayyorlanmagan (ko‘tilmagan savollarga javoblar qaytarishni iltimos qilish, berilgan mavzu xususida gapirish) bo‘lishi mumkin. Nutqning birinchi ko‘rinishi duduqlanuvchi uchun juda yengil bo‘lgani sababli ikkinchisidan oldin takrorlanadi.

Mustaqil nutqni tarbiyalash uchun namuna sifatidagi ayrim mashqlar: berilgan savolga javob; duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bola boshlangan jumlani yakunlaydi; uning o‘zi savol beradi; berilgan so‘z

asosida jumla tuzadi; jumlani qaytadan tuzadi; logoped yoki o‘rtog‘i bilan suhbat; sahnalashtirilgan tomoshalarda ishtirok etish; bayon qilingan vokeani, edagogi matnni so‘zlab berish rasm bo‘yicha, tomosha qilingan teatr, kino haqida, shaxsiy kuzatishlar haqida, hodisalar to‘g‘risida so‘zlash; telefon orqali suhbatlashish; ma’ruza, bahsda ishtirok etish va hokazo.

Korreksion-logopedik mashg‘ulotlarning nutq materiali mazmuni buzilishining to‘zilishiga, yoshga, duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalarlar guruhiga, duduqlanish nutq kamchiligining o‘tib borishiga, duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolaning o‘z nuqsoniga bo‘lgan munosabatiga va boshqa ko‘pgina omillarga bog‘liq holda o‘zgartiriladi. Bunday omillarning hisobga olinishi: duduqlanuvchini tabaqalashtirib chuqur o‘rganishni va duduqlanish nutq kamchiligini bartaraf etish yuzasidan turlicha metodikalarning yaratilishiga imkon beradi.

Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion-logopedik mashg‘ulotlarga quyiladigan asosiy talablar:

1) Logopedik mashg‘ulotlar duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolaning nutqi va shaxsiga pedagogik-tuzatish orqali ta’sir etishning asosiy vazifalarini o‘zida aks ettiradi.

2) Logopedik mashg‘ulotlar muayyan tartibda, uzluksiz, bosqichli, asosiy didaktik tamoyillarni hisobga olgan holda har bir bolaning shaxsiy xususiyatlariga bog‘liq ravishda; bolalarning ongliligi va faolligiga tayangan holda olib boriladi; mashg‘ulotlarda qo‘llanmalar, ta’limning ko‘rgazmali, texnik vositalaridan foydalaniladi; mashg‘ulotlar tarbiyalanayotgan to‘g‘ri nutq va xatti-harakat kunikmalarining mustatahkam bo‘lishiga yordam beradi.

3) Logopedik mashg‘ulotlar maktabgacha tarbiya yoshdagi va maktab yoshidagi bolalarni tarbiyalash va o‘qitish dasturlari talablariga mos bo‘ladi.

4) Mashg‘ulotlarda duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalarning turli sharoitlarda to‘g‘ri nutqi va xatti-harakatini mashq qildirish zarurligi hisobga olinadi, masalan: logopediya kabinetida va undan tashqarida, turli hayotiy vaziyatlarda, tanish va notanish shaxslarning ishtirokida va hokazo. Shu maqsadda logopedik mashg‘ulotlarning turli ko‘rinishlari: nutqni rivojlantirishga doir ko‘pgina ish shakllari,



didaktik, harakatli, syujetli-rolli va ijodiy o‘yinlar, sayohatlar, ertaliklar, konsertlarga tayyorlanish hamda ularda ishtirok etish, mikrofon oldida so‘zga chiqish va boshqalarda qo‘llaniladi.

5) Mashg‘ulotlar shunday tashkil qilinadiki, ularda bola duduqlanish nutq kamchiligisiz va u bilan birga kelib chiqadigan buzilishlarsiz gapirishi lozim.

6) Mashg‘ulotlar boladagi yaxshi kayfiyatni, bardamlik, o‘z kuchiga ishonchni mustahkamlaydi.

7) Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalar bilan olib boriladigan mashg‘ulotlarda to‘g‘ri nutq namunalari logopedning, samarali shug‘ullanadigan bolalarning nutqi, badiiy so‘z ustalarining chiqishlari aks ettirilgan magnitofon yozuvlari va plastinkalar, logopediya kursini avval muvaffaqiyatli tamomlaganlarning tantanali chiqishlari va hokazolar muntazam ishtirok etadi.

8) Mashg‘ulotlar atrofdagilarning duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolaga nisbatan to‘g‘ri munosabatda bo‘lishlari va uning to‘g‘ri tarbiyalanishi asosida olib boriladi.

Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolaning mustaqil ishlashini tashkil etish nutq tarbiyachisi vazifalarini oilaviy-maishiy, o‘quv-tarbiyaviy sharoitlarda va uning tengdoshlari jamoasida bajarilishiga yo‘naltiriladi.

Guruhlarni to‘ldirish duduqlanuvchilar yoshini hisobga olgan holda olib boriladi. Yoshlarning turlicha bo‘lishi logoped ishining o‘ziga xos metodikalaridan qo‘llanish zarurligini, uning ayrim komponentlari samaradorligini o‘zgartirishni talab etadi.

Maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarda o‘yin tusidagi nutq mashg‘ulotlari, tarbiyaviy tadbirlar, kam hollarda – tibbiy tadbirlar asosiy o‘rin egallaydi. O‘smirlar va kattalarda aksincha, tibbiy vositalar, psixoterapiya (shu jumladan uning suggestiv metodlari), kam hollarda— pedagogic vositalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarbiyaning asosiy vazifasi bolalarni tegishli dasturlarda qayd etilgan bilim va ko‘nikmalarga o‘rgatishdan iborat bo‘ladi. Bu vazifalarni aqliy, ahloqiy, jismoniy va mehnat tarbiyasi bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlarida amalga oshira borib, tarbiyachi har bir bolaning nutqiy tuzatish tarbiyasi bilan bog‘liq holdagi nutq imkoniyatlarini inobatga oladi. Bundan tashqari, tarbiyachi o‘z mashg‘ulotlarida, darslarda, kun tartibining ayrim paytlarida, erkin o‘yin va mashg‘ulotlarda bolalarning

nutq ko'nikmalarini mustahkamlaydi.

Logopedik ritmika logopedik ishning muhim bo'limi hisoblanadi. Bu nutqiy tuzatish tarbiyasi maqsadlarida amalga oshiriladigan musiqali harakat, nutqiy harakat, musiqali nutq topshiriqlari va mashqlari sistemasini o'zida aks ettiradi. Logopedik ritmika, o'zining tashkiliy tartibiga qaramasdan, logopedik mashg'ulotlarga qo'shimcha hisoblanadi va unga maxsus ajratilgan vaqtda olib boriladi, shuningdek logoped mashg'ulotlariga, qisman tarbiyachi mashg'ulotlariga qo'shiladi.

Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar bilan quyidagi logopedik ritmika vositalarini qo'llanish maqsadga muvofiqdir: kirish mashqlari; yuz imo-ishoralari, diqqat bilan eshitish va xotira, ko'rish diqqati va xotirasini rivojlantirish, fazoda mo'ljal olish va ritm hissini rivojlantirish, taqlidchanlikni rivojlantirish mashqlari va o'yinlari; irodaviy sifatlar, faollik, mustaqillik, tashabbuskorlikni rivojlantirish maqsadidagi ijodiy, syujetli-rolli, harakatli o'yinlar; umumiy harakatlarni, qo'l, panja, barmoqlar harakatlarini rivojlantirish maqsadida qoidalari bo'lgan harakatli o'yinlar, mashqlar; nutq to'zilishini rivojlantirish uchun musiqa jo'rligidagi mashq va qo'shiqli o'yinlar, dramalashtirilgan o'yinlar; xayol, ijodiy qobiliyatlar, musiqiy xotira va musiqiy ijodiylikni rivojlantirishga qaratilgan mashqlar, o'yinlar; badiiy lavhalar, ertaliklar, ko'ngilochar tomoshalar, bayram chiqishlari (bolalar uchun), ko'lgi kechalari, imo-ishorali tomoshalar, konsertlar va hokazo (kattalar uchun).

Harakatli, musikiy-harakatli, musiqiy-nutqli, ritmik, musika jo'rligisiz nutqli, harakatli-nutqli mashq va o'yinlar prosodiyani duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolaning harakat sohasini normallashtiradi, bu esa, o'z navbatida, uning muomalaga, suhbat ishtirokchisiga, atrof-muhitga va o'z nutqining buzilishiga nisbatan munosabatini qayta ko'rishga yordam beradi. Bu qayta ko'rish xulq-atvor va xatti-harakatning shunday ijobiy xususiyatlari bilan bog'langanki, ular duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolada ruhiy harakatlantiruvchi vositasini tuzatish jarayonida namoyon bo'ladi, jumladan; harakatdagi ishonch, ularni boshqarish, muomaladagi tashabbuskorlik, harakat va nutq qiyinchiliklarini yengishdagi mustaqillik, faoliyatdagi tirishqoqlik, iutk buzilishiga nisbatan munosabatni qayta ko'rish bilan 'bog'liq holda hayotiy vaziyatlar mohiyatiga qayta muvofiqlashish.

Shunday qilib, logopedik ritmika duduqlanish nutq kamchiligiga



ega bo'lgan shaxsining qayta tarbiyalanishi, sotsial moslashuvi uchun, shuningdek, uning umumiy va nutq harakat vositalarini mashq qildirish va tuzatish uchun (V. A. Griner, N. Samoylenko, G. A. Volkova, V. I. Dreyevyannikov, Ye. V. Oganesyan, N. A. Richkova) katta ahamiyatga egadir.

Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarning ijtimoiy moslashuvi borasidagi vazifalar (o'smirlar va kattalar masalasida tiklanish ham bo'lishi mumkin) pedagogic va ruhiy ta'sir etish majmui yo'li bilan amalga oshiriladi. Bunda oila muhim va hal qiluvchi o'rin tutadi. Bolaning oilaga va ota-onaga nisbatan his-hayajonli bog'lanishining muhim darajasi jiddiy ruhiy omil sanaladi, logoped ota-onalar bilan maslahat berish va metodik ishlar olib borishda buni hisobga oladi. Oila o'zining tabiiy ruhiy-pedagogik tiklovchi ta'siroti bilan duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan shaxsini qayta tarbiyalash va uning to'g'ri nutqini mustahkamlashda birlamchi va kuchli asos sanaladi.

Ota-onalar va pedagoglar bilan maslahat berish va metodik ish olib pedagog duduqlanadigan bolaga ta'sir o'tkazish uchun qulay shart-sharoitlarni ta'minlashga; uyda va bolalar muassasalarida unga nisbatan to'g'ri munosabatni yaratishga; bolaning logopedik mashg'ulotlardan tashqari hollarda zarur mustaqil ishlashini tashqil etishga yo'naltirilgandir.

Bunday ish shakllari quyidagilardan iboratdir: ota-onalar va pedagoglarni duduqlanishning mohiyati va sabablari haqidagi qator suhbatlar ko'rinishida, duduqlanish nutq kamchiligi va duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan shaxslar to'g'risidagi, uning paydo bo'lishidagi muhim jihatlar va uni bartaraf etish uslublari haqidagi nutq mashg'ulotlarining mohiyati va yunalishlari xususidagi edagogic-tuzatish jarayonida ota-onalar va pedagoglarning tutadigan o'rni haqidagi, uydagi kun tartibining muhim tomonlari to'g'risidagi, atrofdagilarning duduqlanadigan bolaga nisbatan munosabati va hokazolar haqidagi zarur bilimlar bilan ta'minlash[1].

Suhbatlarning tashkil etilishi ota-onalar uchun har bir bola haqidagi alohida, yakka tartibdagi maslahatlar berishni istisno etmaydi. Shuningdek, ota-onalarning logopedik mashg'ulotlarda ishtirok etishlari ham muhimdir. Bunda ular duduqlanish nutq kamchiligini bartaraf etishga yondashish qonun-qoidalari, bolalardagi nutq tortishishlarining

[1] M.Y.Ayupova "Logopediya" darsligi. Toshkent 2007 y, 355 b.

oldini olish va ularni tugatish usullari bilan tanishish imkoniga ega bo'ladilar.

**Nazorat savollari:**

1. Duduqqanish nutq kamchiligini bartaraf etishda zamonaviy yondashuvlarga nimalar kiradi?
2. Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan logopedik mashg'ulotlarning ahamiyati?
3. Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion-logopedik mashg'ulotlarga quyiladigan asosiy talablar nimalardan iborat ?
4. Duduqqanish nutq kamchiligini bartaraf etishda didaktik usullardan foydalanishning korreksion ahamiyati ?

**Topshiriqlar:**

1. Psixoterapiyaning asosiy vazifalarini yoritib bering va quyidagi *RAQAMLAR* jadvalida aks ettiring.

| **1 raqam** | **2 raqam** | **3 raqam** |
|---|---|---|
| Vazifaning mazmuni | Vazifaning mazmuni | Vazifaning mazmuni |
| **4 raqam** | **5 raqam** | **6 raqam** |
| Amaliyotga qo'llash | Amaliyotga qo'llash | Amaliyotga qo'llash |



2. Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion-logopedik mashg'ulotlarga qo'yiladigan asosiy talablarni quyidagi chizmada taqdim eting.

| | | |
|---|---|---|
| 1 va 2 talab | 3 va 4 talab | 5 talab |
| 6 talab | 7 va 8 talab | |

**Tayanch iboralar:**

Relaksatsiya - muskullarning bo'shashuvi.

Fonologik - tovushni yo'qligi, tovushni almashtirish, differensiallanmagan talaffuz.

## 7§. Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan logopedik mashg'ulotlarning didaktik asoslari

**Reja:**

1.Didaktika ta'limning pedagogik nazariyasi sifatida.

2. Bolalar logopediyasining didaktik asoslari.

3. Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarga individual yondashish.

Insonning faoliyatida o'qitish har doim juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Ta'lim tasodifiy, intuitiv xususiyatga ega bo'lganda ham va asosan tasodifan axborotlarni berish hamda taqlid qilishdan iborat bo'lganda ham shunday bo'lgan; keyinchalik ham, ta'lim maqsadga muvofiq muntazam va rejalashtirilgan jarayonga aylanganda, maktab paydo bo'lganida ham shunday bo'lgan. Biroq uzoq vaqt davomida ta'limni nazariy tahlil qilish va o'rganish ishlari olib borilmadi, shuning uchun o'z nazariyasiga ega bo'lmadi. Faqatgina 17 asr bu sohada muhim o'zgarishlar olib keldi: aynan o'sha paytda ta'lim alohida nom oldi va tarixda birinchi didaktik faoliyatning ilmiy asoslangan tizimiga asos solindi.

Didaktika pedagogikada va ma'rifiy nazariyaning nisbatan mustaqil bo'limi bo'lib, o'qitish va o'qish jarayonlari, ya'ni bilim, ko'nikma va malakalar o'zlashtirilishi hamda e'tiqodlar shakllanishining umumiy qonuniyatlarini ochib beradi, (ta'lim- tarbiya) mazmunining hajmi va tuzilmasini belgilaydi. "Didaktika" so'zi yunoncha "o'qitish", "o'rgatish" ma'nosini anglatadi.

Didaktika ta'lim jarayoni, uning mazmuni, qonuniyatlari va tamoyillari, shuningdek shakllari, metodlari va vositalarini ilmiy asoslab beruvchi ta'lim nazariyasi, pedagogikaning alohida sohasidir.

Bu termin nemis pedagogi V.Ratke (1571-1635) tomonidan uning "Didaktika yoki ta'lim san'ati" deb nomlangan asarida (1613) fanning nazariy va metodologik asoslarini tadqiq qiluvchi ilmiy yo'nalish sifatida qo'llanilgan[1].

Pedagogika fani ta'lim va tarbiya jarayonini ularning yaxlitligi va

[1] F.Jumanova., Avazova S., G.Jabborova., U.Xusnetdinov ."Umumiy pedagogika asoslari" O'quv uslubiy qo'llanma. Chirchiq 2020., 138 b.



birligi asosida o'rganadi. Ikki faoliyatning har birining mohiyatini aniq bayon etish uchun didaktika (ta'lim nazariyasi) va tarbiya nazariyasini ajratib ko'rsatadilar.

Hozirgi davrda didaktika o'qitishning mazmuni, metodlari va tashkiliy shakllarini ilmiy asoslab beruvchi pedagogika sohasi sifatida tushuniladi.

Umumiy didaktikadan tashqari xususiy didaktikalar yoki alohida fanlar bo'yicha ta'lim metodikasi deb ataluvchi didaktikalar ham mavjud. Ularning mazmuni ta'limning ma'lum bosqichlarida u yoki bu fanlarni o'rganish va ta'lim berishning nazariy asoslarini belgilaydi. Har bir o'qituvchi didaktika asoslarini puxta bilishi va ularga tayangan holda faoliyatni tashkil etishi zarur.

Didaktika predmetini aniqlash bo'yicha turli qarashlar ilgari surilgan. Qarashlarning turlicha bo'lishi didaktikaning metodologik kategoriyalarini aniq ajratilmaganligi bilan bog'liq.

Ko'pchilik olimlar ta'lim ob'ekt deb o'qitish jarayonining maqsadi, mazmuni, qonuniyatlari, metodlari va tamoyillarini ko'rsatadilar.

Didaktika ta'limni ijtimoiy tajribani berish vositasi sifatida e'tirof etadi. Ta'lim yordamida yoshlarni hayotga tayyorlash amalga oshiriladi. Ta'limiy faoliyatini tashkil etishda o'qituvchi - o'quvchi, o'quvchi – o'quv materiali, o'quvchi - boshqa o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlar yuzaga keladi.

Didaktika predmetini mohiyatini ochishga xizmat qiluvchi yana bir qarash ta'lim-tarbiya jarayonini yaxlit o'rganish zarurligini ilgari suradi. Ta'limning tarbiyaviy vazifalari o'quvchining bilimni o'zlashtirishlarini ta'minlabgina qolmay, shaxs xususiyati, uning rivojlanishi, ma'lum ma'naviy-axloqiy sifatlarni o'zlashtirishi, fe'l-atvori, xulqini tarbiyalash uchun zarur shart-sharoitni yaratishdan iborat.

Didaktikaga ta'limning mazmunli va jarayonli jihatlarini birgalikda o'rganish xosdir. Amaliyotni qayta tashkil etish va takomillashtirish masalalarini nazarda tutgan holda didaktika ta'limni faqatgina o'rganish ob'ekti sifatidagina emas, balki ilmiy asoslangan loyihalashtirish ob'ekti sifatida qaraydi.

Umumiy didaktikaning predmeti dars o'tish (o'qituvchi faoliyati) va bilim olish (o'quvchining o'rganish faoliyati)ning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligi hisoblanadi.

Didaktikaning vazifalari quyidagilardan iborat:

- ta'lim jarayonlari va ularni amalga oshirish shartlarini ta'riflash va tushuntirish;

- ta'lim jarayonini yanada mukammal tashkil etish, ya'ni, ta'lim tizimlari va texnologiyalarini ishlab chiqish;

- ta'lim jarayoni uchun xos bo'lgan umumiy qonuniyatlarni aniqlash, omillarini tahlil qilish va ta'riflash.

Didaktika nazariy va bir vaqtning o'zida me'yoriy-amaliy fan. Didaktikaning ilmiy-nazariy vazifasi ta'limning mavjud jarayonlarini o'rganish, uning turli jihatlari o'rtasidagi bog'liqliklar, ularning mohiyatini ochib berish, rivojlanish tendensiyalari va kelajagini aniqlashdan iboratdir.

Yuqorida berilgan ma'lumotlarga tayangan holda maxsus korreksion logopedik ishlarni olib borishda, ayniqsa duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar bilan ishni tashkil etishda, umum didaktik ma'lumotlarga bog'lagan ish faoliyatlar mazmuni rejalashtiriladi. Va ular o'z navbatida logopediyaning o'ziga xos bo'lgan didaktik asoslarni yaratishga imkon beradi.

*Bolalar logopediyasining didaktik asoslari.* Nutqiy kamchiliklarga ega bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan tarbiyaviy, ta'limiy va korreksion ish tizimi umumdidaktik qonuniyatlar, tamoyil va metodlar asosida tashkil etiladi.

Hozirgi zamon pedagogikasida quyidagi asosiy tamoyillar ajratilgan: individualizatsiya va jamoatchilik, sistemalilik va ketma-ketlik (izchillik), ongli faollik, ko'rgazmalilik, mustahkamlilik va boshqalar.

Bu tamoyillarning jami (majmui) va duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarga nisbatan ularning qo'llanilishining o'ziga xosligi korreksion o'qitishning barcha tomonlarini ya'ni mazmunini, metodlari va tashkiliy shakllarini belgilab beradi.

Hozirgi vaqtda turli xil logopedik metodik ishlarni mavjudligi nutq buzilishlarining shakllarini, bolalar yoshini, logopedik ish sharotini hisobga olgan holda nazariy va korreksion o'qitishning asosiy to'rini aniqlash va ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi.

Umumiy nazariy o'qitish va xususiy logopedik metodikalar so'zsiz bir-birini to'ldiradi.

Shunday qilib, asosiy didaktik qonuniyat va tamoyillar nutq faoliyatida kamchiligi bo'lgan bolalar bilan ishlashda asos bo'lib xizmat qiladi. Bu asoslarni bilish duduqlanuvchi bolalar bilan olib boriladigan



korreksion pedagogik ishlarning muvaffaqiyatli garovidir.

*Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarga yakka yondashish.* Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan guruhli, jamoali logopedik mashg'ulotlar ko'p yillik amaliyotni ko'rsatishicha o'zining ijobiy tomonini oqlab keldi.

Jamoa bilan mashg'ulot o'tkazish hamma bolalarning faol ishlashi uchun sharoit yaratadi. Individual yondoshish talablari shaxsni jamoaga qarshi qo'yilganligini bildirmaydi. Balkim, har bir bolani imkoniyatlarini yaxshi bilgan holda jamoa ishini tashkil qilish mumkin.

Logopedik ishda yakka yondoshish bu har bir duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolani logopedik ishdan oldin va logopedik ish jarayonida chuqur o'rganish, ularni psixologik xususiyatlari va nutq imkoniyatlarini hisobga olgan holda korreksion – pedagogik ishlarni tanlashdir.

Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolaning yoshi didaktik material va logopedik ish shakllarini aniqlaydi.

Maktabgacha va maktab yoshidagi bolalar, o'smir hamda kattalarning psixofizik xususiyatlari logopeddan «Bog'chada o'qitish va tarbiyalash dasturi» va o'yin faoliyati; ikkinchidan maktab dasturi va o'quv faoliyati, uchinchidan turli xil mehnat faoliyatlarini hisobga olishni talab etadi.

Logopedik guruhni jamlash (komplektlash) duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarni yoshini hisobga olib, guruhga bir xil yoshli bolalarni tanlash bo'yicha o'tkaziladi. Guruhda turli yoshdagi duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarni borligi logopedik ishda alohida metodikalarni qo'llash zaruriyatini keltirib chiqaradi hamda duduqlanishni bartaraf etishda davolash pedagogik ishlarning tarkibini intensivligini o'zgartirishga to'g'ri keladi.

Masalan, maktabgacha yoshdagi bolalarda o'yin shaklidagi nutq mashg'ulotlari, tarbiyalash tadbirlari asosiy o'rinni, tibbiy davolash ishlari esa kamroq o'rinni egallaydi. O'smir va kattalarda esa aksincha, asosiy diqqat tibbiy davolash vaositalari ya'ni, psixoterapiya (suggestiv metod)ga kamroq pedagogik ishlarga qaratiladi.

Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion-logopedik ishlarda yakka yondoshish tamoyilini joriy etish bolalarni birlamchi va dinamik o'rganishda (mashg'ulotlar jarayonida) muhim ahamiyat kasb etadi. Logoped uchun lingvistik,

psixologik va pedagogik kuzatuvlar zarurdir. Bular duduqlanish nutq kamchililigiga ega bo'lgan bolalarga korreksion- logopedik ta'sir etish shakllarini tanlash imkonini beradi.

### Nazorat savollari:

1. Bolalar logopediyasining didaktik asoslari nimadan tashkil topgan?
2. Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion-logopedik ishlarda yakka yondoshish tamoyilining ahamiyati?
3. Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarga individual yondashish holatida qanday logopedik ishlar olib boriladi?

### Topshiriqlar:

1. Maxsus va umumiy tamoyillarni duduqlanish nutq kamchiligini bartaraf etishda o'xshash va farq tomonlarini " T texnologiyasi"da aks ettiring.

2. Duduqlanish nutq kamchiligini bartaraf etishda olib boriladigan tamoyillar bo'yicha mustaqil ish tayyorlang va og'zaki bayon eting.

Maxsus va umumiy tamoyillar

| + | + | + | – |
|---|---|---|---|
| Men bilaman | Boshqalar biladi | Men bilaman | Boshqalar bilmaydi |

### Tayanch iboralar:

Korreksion ta'sir - nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarga logopedik ishlarning ta'siri.

Differensiatsiya – frans, differentiation, lot, differentia – farqlanish, farqlash.



## 8§. Duduqlanish nutq kamchiligini bataraf etishda umumpedagogik tamoyillarning ahamiyati

### Reja:

1. Ta'lim tamoyillari va ularning tavsifi.
2. Korreksion ish tizimida umumpedagogik tamoyillar.
3. Duduqlanish nutq kamchiligini bartaraf etishda tamoyillarning ketma ketligi.

Didaktik tamoyillar (didaktika tamoyillari) o'quv jarayonining umumiy maqsadlari va qonuniyatlariga ko'ra tashkil etiluvchi ta'lim jarayonining tashkiliy shakl va metodlari, asosiy qoidalari mohiyatini belgilovchi mazmundir. Ta'lim tamoyillarida ta'limning aniq, tarixiy tajribaga asoslanuvchi me'yoriy asoslari (qoidalari) o'z ifodasini topgan.

Ta'lim tamoyillari o'zida tarixiylik xususiyatini namoyon etadi. Ta'lim nazariyasi va amaliyoti rivojlanib borgani, ta'lim jarayonining yangi qonuniyatlari kashf etilishi bilan ta'limning yangi tamoyillari ham shakllanadi, eski ko'rinishlari o'zgardi. Bu ishlar bugungi kunda ham davom etadi. O'qitish va tarbiyalash qonuniyatlarini aks ettiradigan yangi pedagogik jarayonning umumiy tamoyillarini keltirib chiqarishga urinishlar ko'zga tashlanmoqda.

Tamoyillar ta'lim jarayonining mohiyati, qoidalar esa uning alohida tomonlarini aks ettiradi.

Ta'limni tashkil etish metodikasi ta'lim mazmunini shakllantirish kabi erkin tanlanishi mumkin emas. Bu borada muayyan ijtimoiy, psixologik va pedagogik talablarni inobatga olish zarur. Bunday talablar ta'limning tashkiliy-metodik tamoyillari deb yuritiluvchi tamoyillar mazmunida o'z ifodasini topgan:

- ta'limning izchilligi, tizimliligi, ketma-ketligi;
- ta'limda onglilik va ijodiy faollik;
- ta'limda ko'rgazmalilik;
- ta'limning samaradorligi va ishonchliligi (mustahkamligi);
- ta'limning tushunarliligi;
- guruhli va individual ta'lim birligi;
- ta'limning bolalar yoshi va individual xususiyatlariga mos kelishi;
- oqilona talabchanlik bilan bola shaxsini hurmat qilishning muvofiqligi;

- pedagogik hamkorlik.

Ta'limning izchilligi, tizimliligi, ketma-ketligi tamoyili bilish bosqichlarining ob'ektivligini anglatadi.

Izchillik ta'lim mazmuni, uning shakli va usullari, o'quv jarayoni ishtirokchilari bo'lgan sub'ektlarning o'zaro munosabatlariga taalluqli. U alohida parsial (yunoncha partialis - qisman) va xususiy o'quv vaziyatlari, predmet va hodisalar o'rtasidagi bog'liqlik, aloqadorlik qonuniyatlarini asta-sekin o'zlashtirish asosida ularni yagona yaxlit o'quv jarayoniga birlashtirishga imkon beradi.

Izchillik ta'lim jarayonining ma'lum tizim va ketma-ketlik asosida bo'lishini nazarda tutadi, zero, murakkab masalalarni oddiy masalalarni o'rganmay turib hal etib bo'lmaydi.

Muntazamlik va ketma-ketlik u yoki bu o'quv materialini o'zlashtirish sur'ati, uning elementlari o'rtasidagi o'zaro mosligini tahlil qilishga imkon beradi. Ta'limning muntazamliligi va ketma-ketligi ma'lum fanlar bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish, borliqni yaxlit idrok etish o'rtasidagi qarama-qarshilikni hal etishga imkon beradi. Ushbu holatlar birinchi navbatda dastur va darsliklarni muayyan tizimda yaratish, fanlararo hamda fanlar ichidagi bog'liqlikni ta'minlash evaziga namoyon bo'ladi.

Onglilik va ijodiy faollik tamoyili. Uning asosini fanni o'rganishda muhim ahamiyatga ega bo'luvchi qoidalar majmuini shakllantirish tashkil etadi. Bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirish quyidagi omil va shartlarga bog'liq: ta'lim motivlari, o'quvchilarning faollik darajasi, o'quv-tarbiyaviy jarayonning samarali tashkil etilishi, o'qituvchi tomonidan qo'llanuvchi ta'lim metodlari va vositalarining samaradorligi va boshqalar. O'quvchilarning faolliklari reproduktiv va ijodiy xarakterga ega bo'lishi mumkin. Mazkur tamoyil o'quvchilarning tashabbuskorliklari va mustaqil faoliyatlarini nazarda tutadi.

Ko'rgazmalilik tamoyili ta'lim jarayonini tashkil etish asosida yotuvchi muhim qoidalardan biri hisoblanadi. Ya.A.Komenskiy uni didaktikaning "oltin qoidasi" deb atagan. Unga binoan ta'limda inson sezgi organlaridan foydalanish kerak. "Agarda biz o'quvchilarda haqiqiy va aniq bilimlar paydo qilishni istasak, unda biz umuman hamma narsaga shaxsiy kuzatish va sezib ko'rish bilan Ta'limga intilishimiz kerak – deb ta'kidlaydi u – agarda qandaydir predmetni baravariga bir necha sezgi organlari bilan qabul qilish mumkin bo'lsa, mayli ular baravariga bir



necha sezgilari bilan o'rganilsin"[11].

Tajribalar asosida o'rganilayotgan narsani namoyish etish va jarayon mohiyatini hikoya qilib berish o'zlashtirish darajasini birmuncha oshiradi. Xususan, axborotlarni eshitib qabul qilish samarasi 15 foiz, ko'rib qabul qilish esa – 25 foizni tashkil etadi. Ta'lim jarayonida, ularni bir vaqtda ishtirok etishi natijasida ma'lumotlarni qabul qilish samaradorligi 65 foizgacha ortadi.

Ko'rgazmalilikdan o'quv jarayoni barcha bosqichlarida foydalanish mumkin: yangi materialni o'zlashtirish, uni mustahkamlash, mashqlarni tashkil qilish hamda o'quvchilarning dastur materiallarini o'zlashtirishlarini tekshirish va baholashda.

Ta'limning samaradorligi va ishonchliligi tamoyili. An'anaviy didaktikada u mustahkamlik tamoyili kabi ifoda etiladi. Agarda o'qitish jarayoni ta'lim maqsadlariga erishishni ta'minlamasa, u holda ushbu jarayonni tashkil etish zaruriyati yuzaga kelmaydi. Shu bois ta'lim samarali, shuningdek, rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi xususiyatga ega bo'lishi kerak.

Ta'limning ishonchliligi va mustahkamliligini ta'minlash uchun o'quvchilar o'qish jarayonida o'quv-o'rganish harakatlarining quyidagi to'la siklini o'zlashtira olishlari zarur: o'rganilayotgan materiallarni dastlabki qabul qilish, uni chuqurroq anglab yetish, eslab qolish, o'zlashtirilgan bilimlarini qo'llash bo'yicha ma'lum faoliyatni amalga oshirish, ularni takrorlash va tizimlashtirish.

Ta'limning chuqurligi va mustahkamligi talabi didaktikada an'anaviy hisoblanadi va u yuzakilikka qarama-qarshi qo'yiladi. Chuqur, mustahkam bilimning asosiy belgisi eng fundamental g'oyalar, qoidalar, tushuncha, kategoriyalarni tushunish, chuqur o'zlashtirish, o'rganilayotgan materiallar mazmunini puxta anglashdan iborat.

Ta'limning tushunarliligi tamoyili o'quvchilarning mavjud imkoniyatlarini hisobga olish, jismoniy va psixik sog'lig'iga yomon ta'sir etuvchi intellektual va emotsional qiyinchiliklardan voz kechishni talab etadi. Ta'limning tushunarli bo'lishi o'quvchilarning yoshi, bilish imkoniyatlarini hisobga olib o'qishning mazmunini to'g'ri aniqlash demakdir, ya'ni, har bir o'quv fani bo'yicha o'quvchilar egallab olishi

[11] I Komenskiy Ya.A. Buyuk didaktika. Izb. ped. soch. V 2 tom. M. 1982. T.1. – c. 384

zarur bo'lgan bilim, amaliy ko'nikma va malakalari hajmini to'g'ri aniqlashdir. Bu tamoyil o'quv jarayonini o'quvchilarda qiyinchiliklarni yengish istagini hosil qiluvchi va shaxsiy muvaffaqiyatlarining natijalaridan quvonish tuyg'usini yuzaga keltirishga yo'naltirilganligini ifodalaydi. Bu bolalarda ko'zga tashlanuvchi qattiq hayajonlanish, shuningdek, o'quv masalalarini yechishdagi ishonchsizlikni yo'qotishga yordam beradi.

Guruhli va individual ta'limning birligi tamoyili shaxsning, bir tomondan atrofdagilar bilan munosabatda bo'lish, ijtimoiy aloqalarni yo'lga qo'yishga intilishi, ikkinchi tomondan esa, yakka holda ta'lim olishga bo'lgan xohishini aks ettirishga xizmat qiladi. Muomala faoliyatning alohida turi bo'lib, uni tashkil etish jarayonida boshqalar haqidagi tasavvur va tushuncha yuzaga keladi. Atrofdagilar bilan munosabatni yo'lga qo'yish o'zaro aloqalarning hosil bo'lishi va rivojlanishini, alohida bo'lish esa shaxsning ijtimoiylashuvi hamda rivojlanishini ta'minlaydi.

Yuqorida keltirilgan umum didaktik tamoyillar asosida korreksion logopedik ishlarni rejalashtirishda mutaxassis tomonidan amalga oshiriladi.

Duduqlanish nutq kamchiligini bartaraf etishda turli xil umumpedagogik tamoyiilarga tayangan holda korreksion-logopedik ishlar tashkil etish, har bir olib borilayotgan tamoyillari bolada uchrayidgan nutq nuqsonini bartaraf etish uchun qaratiladi. Shuningdek, qo'llaniladigan tamoyillar bolaning yakka xususiyatlarini inobatga olgan holda qo'llaniladi.

Logopedik mashg'ulotlarda umumpedagogik tamoyillardan tashqari xususiy tamoyillarga ham asoslaniladi. Shu o'rinda tamoyilning logopedik xizmatda yo'llanilishi mohiyatini ochib berish joiz. Tamoyil – bu biror-bir nazariyaning asosi, negizi, asosiy boshlang'ich qoidasi; faoliyatning asosiy qoidasi; umumlashtirilgan talabdir.

Ta'lim jarayonida keng qo'llaniladigan va integral tavsifga ega tamoyillar sifatida quyidagilar belgilab olindi: muntazamlilik, ketma-ketlilik, izchillik, tushunarlilik, komplekslilik, rivojlanganlik tamoyillari. Muntazamlilik va ketma-ketlik tamoyili u yoki bu o'quv materialini o'zlashtirish sur'ati, uning elementlari o'rtasidagi o'zaro mosligini tahlil qilishga imkon beradi. Ta'limning muntazamliligi va ketma-ketligi ma'lum fanlar bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish,



birligini yaxlit idrok etish o'rtasidagi qarama-qarshilikni hal etishga imkon beradi. Ushbu holatlar, birinchi navbatda, dastur va darsliklarni muayyan tizimda yaratish, fanlararo hamda fanlar ichidagi bog'liqlikni ta'minlash evaziga namoyon bo'ladi."[1]

Logopedik mashg'ulotlarda nutqiy topshiriqlarning mazmunan bolaga tushunarli bo'lishi ham muhim omildir. Shu bois, ta'limning tushunarliligi tamoyiliga alohida e'tibor qaratdik. Ushbu tamoyilga quyidagicha ta'rif berilgan: "Ta'limning tushunarli bo'lishi bolalarning yoshi, bilish imkoniyatlarini hisobga olib o'qishning mazmunini to'g'ri aniqlash demakdir, ya'ni har bir o'quv mashg'ulot bo'yicha bolalar egallab olishi zarur bo'lgan bilim, amaliy ko'nikma va malakalari hajmini to'g'ri aniqlashdir."

Har bir o'quv fanini o'qitishdagi kabi logopedik mashg'ulotlarda ham o'quv topshiriqlari hamda nutqiy materiallar mazmunan bir-biriga bog'liq ravishda izchil taqdim etilishi muhim va hal etuvchi omillardandir. Mazkur tamoyil ham o'zining imkoniyatlari bilan korreksiya ishlarida alohida o'rin tutadi va unga quyidagicha ta'rif beriladi: "Izchillik tamoyili ta'lim mazmuni, uning shakli va usullari, o'quv jarayoni ishtirokchilari bo'lgan subektlarning o'zaro munosabatlariga taalluqli. U alohida parsial (yunoncha partialis - qisman) va xususiy o'quv vaziyatlari, predmet va hodisalar o'rtasidagi bog'liqlik, aloqadorlik qonuniyatlarini asta-sekin o'zlashtirish asosida ularni yagona yaxlit o'quv jarayoniga birlashtirishga imkon beradi."

Ta'lim jarayonining ishtirokchilari tomonidan har bir o'quv materialini o'zlashtirishga ongli munosabatning mavjudligi, kutilgan natijalarga erishishini kafolatlaydigan omillardandir. Chunki nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarning ham logopedik jarayonda faol bo'lishi, ularda berilgan topshiriqqa ongli munosabatda bo'lish, murojaatni tushunishga intilish kabi ko'nikmalarni rivojlantirishda onglilik va ijodiy faollik tamoyili yetakchilik qiladi va ushbu tamoyilga manbada quyidagicha ta'rif beriladi: "Uning asosini maxsus pedagogika fanini o'rganishda muhim ahamiyatga ega bo'luvchi qoidalar majmuini shakllantirish tashkil etadi. Bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirish quyidagi omil va shartlarga bog'liq: ta'lim motivlari, bolalarning faollik

[1] M.X. Toxtaxodjayevaning umumiy taxriri ostida "Pedagogika nazariyasi va tarixi". Toshkent – 2006.

darajasi, o'quv-tarbiyaviy jarayonning samarali tashkil etilishi, logoped tomonidan qo'llanuvchi ta'lim metodlari va vositalarining samaradorligi va boshqalar. Bolalarning faolliklari reproduktiv va ijodiy xarakterga ega bo'lishi mumkin. Mazkur tamoyil bolalarning tashabbuskorliklari va mustaqil faoliyatlarini nazarda tutadi".

Y.A.Komenskiy tomonidan didaktikaning "Oltin qoidasi" deb atalgan ko'rgazmalilik tamoyili ham logopedik mashg'ulotlarning samaradorligini ta'minlashda muhimdir. Didaktik olim ushbu tamoyilning mohiyatini quyidagi ta'rifida keng izohlaydi: "Agarda biz bolalarda haqiqiy va aniq bilimlar paydo qilishni istasak, unda biz umuman hamma narsaga shaxsiy kuzatish va sezib ko'rish bilan ta'limga intilishimiz kerak, – deb ta'kidlaydi u, – agarda qandaydir predmetni baravariga bir necha sezgi organlari bilan qabul qilish mumkin bo'lsa, mayli ular baravariga bir necha sezgilari bilan o'rganilsin."[1]

Logopedik mashg'ulotlarda guruhli va individual ta'limning birligi tamoyili ham alohida o'rin tutadi. Bunda bolaning, bir tomondan, atrofdagilar bilan munosabatda bo'lish, ijtimoiy aloqalarni yo'lga qo'yishga intilishi, ikkinchi tomondan esa, yakka holda ta'lim olishga bo'lgan xohishini aks ettirishga xizmat qiladi. Muomala faoliyatning alohida turi bo'lib, uni tashkil etish jarayonida boshqalar haqidagi tasavvur va tushuncha yuzaga keladi. Atrofdagilar bilan munosabatni yo'lga qo'yish o'zaro aloqalarning hosil bo'lishi va rivojlanishini, alohida bo'lish esa shaxs, ya'ni bolaning ijtimoiylashuvi hamda rivojlanishini ta'minlaydi.

Ta'limning o'quvchilarning yoshi va individual xususiyatlariga mos kelishi tamoyili bolalarning yoshiga ko'ra va individual yondashuvni anglatadi. Yoshiga muvofiq yondashish bolalarning psixik xususiyatlari, shaxsiy rivojlanganlik darajasi, ma'naviy-axloqiy sifatlari, ijtimoiy yetukligini baholay olishni nazarda tutadi.

Ma'lumki, har bir fan o'zining tayanch tushunchalari, qonuniyatlari, tamoyillari, qoidalari tizimiga ega bo'lgani kabi logopediyaning ham xususiy ma'noga ega atamalari va terminologiyasi hamda qoidalari bor. Aynan mana shu holat logopediyaning fan sifatida e'tirof etilishini ta'minlaydi. Maxsus pedagogika tarkibidagi ushbu fanning mohiyatini

[1] Komenskiy Ya.A. Buyuk didaktika. Izb. ped. soch. V 2 tom. M. 1982. T.1. – c. 384.



ochib beruvchi eng muhim, asosiy tushuncha bu defektologik tushuncha va atamalardir.

Pedagogika fanining asosiy kategoriyalari shaxs kamolotini ta'minlash, ta'lim va tarbiya samaradorligiga erishishga qaratilgan jarayonlarning umumiy mohiyatini yoritishga xizmat qiladi.

Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarning nutq kamchiliklarini bartaraf etishda va ularni tarbiyalashda bolaning shaxs ekanligini logoped hisobga olishi lozim. Shaxs esa, ma'lum bir fikrga ega bo'lgan jamiyatda o'z o'rnini topa olishga intiladi.

Umumiy psixologiyadan ma'lumki, bola shaxsi – psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyat a'zosi. Tarbiya esa - muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayonidir.

Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarda logoped nutq nuqsonini bartaraf etishdan tashqari bolaning ta'lim-tarbiyasiga ham e'tibor berishi lozim. Shuningdek, nutqida nuqsoni bo'lgan bolaning ta'limi, bilimi, ko'nikma va malakasiga diqqat bilan e'tibor bergan holdagina bolada uchraydigan nutq kamchiligini bartaraf etishga erishish mumkin. Shuning uchun tadqiqot doirasida ta'lim, bilim, ko'nikma, malaka, ma'lumot, rivojlanish kabi tushunchalarning nazariy ta'riflarini o'rganishga e'tibor qaratdik. "Ta'lim – bu bolalarni nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish va dunyoqarashlarini shakllantirishga yo'naltirilgan jarayon. Bilim – bu bolaning ongida tushunchalar, sxemalar, ma'lum obrazlar ko'rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma'lumotlar majmui. Ko'nikma – bu bolaning muayyan faoliyatni tashkil eta olish qobiliyati. Malaka – bolaning muayyan harakat yoki faoliyatni bajarishning avtomatlashtirilgan shakli. Ma'lumot – bolaning ta'lim-tarbiya natijasida o'zlashtirilgan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalar hamda tarkib topgan dunyoqarash majmui. Rivojlanish – bolaning fiziologik va intellektual o'sishida namoyon bo'ladigan miqdor va sifat o'zgarishlar

mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon."[1]

Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarda uchraydigan nutq nuqsonlarni bartaraf etishda bolaning bilimi, malakasiga, hayot davomida egallagan ma'lumotiga va rivojlanish xususiyatiga logoped diqqatini qaratadi.

Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar bilan o'tkaziladigan logopedik mashg'ulotlarda sistemalilik va izchillik tamoyili logopedik mashg'ulotlarda o'z ifodasini topadi. Bolalarda aniq bilim va to'g'ri nutqiy malakalarni tarbiyalash qat'iy sistemalilik va izchillik tartibida olib boriladi.

Ularning nutqiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda, butun ta'lim jarayoni oddiydan murakkabga, ma'lumdan noma'lumga, yengildan og'irga o'tish asosida amalga oshiriladi.

Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarning nutqiga uning mustaqillik darajsi ta'sir qiladi.

Mustaqil nutqning rivojlanganlik darajsiga qarab, nutqning murakkablashib boruvchi bir nechta bosqichini ajratish mumkin:

1. Uyg'unlashgan nutq - duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarning logoped bilan birgalikda yoki logopeddan so'ng jumlalarni takrorlashi; Duduqlanish nutq kamchiligining eng og'ir darajasida ham kishi erkin gapiradi, negaki o'zga odamning jumlalari qaytariladi. Mustaqil nutq minimal darajada bo'ladi.

2. Aks ettirilgan nutq – duduqlanish nutq kamchiligining logopedning ketidan jumlalarni qaytarishi. Bunda ham o'zga odam jumlalarining to'zilishi takrorlanadi. Bu nutq turi ham barcha duduqlanuvchilarga qo'l keladi.

3. Keyingi duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar uchun murakkabroq hisoblanadigan nutq shakli – savollarga javob berishdir. Bu bosqichda ish avval sodda, oddiy savollarga javob berish ustida ish olib boriladi, keyin esa murakkab, kengaytirilgan savollarga javob berish ustida ishlanadi.

Bu bosqichning aks ettirilgan nutq bosqichidan farqi shundaki, bu bosqichda mustaqil nutq namoyon bo'ladi, savollarga javob berish duduqlanuvchilarga ma'lum bir qurilishga ega bo'lgan gaplardan

[1] 7 M.X.Toxtaxodjayevaning umumiy taxriri ostida "Pedagogika nazariyasi va tarixi". Toshkent – 2006.



foydalanish imkonini beradi. Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar uchun eng murakkabi savollarga kengaytirilgan holda javob berishdir.

4. So'zlab berish – bu bosqich nutq jarayonini yanada murakkablashtiradi.Ya'ni bunda duduqlanuvchi bir, ikki jumla bilan chegaralanib qolmay, balki so'zlab berishda undan ko'proq jumlalardan foydalanishga to'g'ri keladi. So'zlab berishda so'zlash uchun osonlik to'g'diruvchi yordamchi vositalar ham mavjud: ertak, hikoya, ko'rilgan kinofilmini gapirib berish.

5. Hikoya, sayl, ekskursiyalar, rasmlar, mavzu bo'yicha olingan taassurotlarni mustaqil gapirib berish.

6. Mustaqil nutq – duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar uchun eng murakkab nutq shakli. Bu nutq tabiiy sharoitda atrofdagilar bilan erkin munosabatga kirishishi – savolllar, iltimos, murojaat, fikr almashish, istak bildirish va hakazolarda namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarda erkin, mustaqil nutq mashg'ulotlarida quyidagi izchillikda tarbiyalanishi mumkin:

1) logoped bilan birga va logoped ketidan qaytariladigan nutq;
2) nutqning savol va javob shakli;
3) so'zlab berish va hikoya;
4) mustaqil nutq.

Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar nutqining holatiga ta'sir qiluvchi omillardan biri, uning turli xil nutqiy tayyorgarlik darajasidir. Agar duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar matnni yoddan bilsa yoki kerakli materialni oldindan takrorlab, u bilan tanish bo'lsa, nima demoqchi ekanligini oldindan fikran o'ylab va uni qanday ketma-ketlikda aytmoqchi ekanligini rejalashtirgan bo'lsa u oson gapiradi. Duduqlanish nutq kamchiligini kuchayishi notanish matn bilan ishlashda va fikran tayyorlanmasdan so'zlash vaqtida namoyon bo'ladi.

Nutqiy mashqlar quyidagi ketma-ketlikda olib boriladi:

1) yod olingan matn;
2) o'qib eshittirilgan matn;
3) fikran o'ylab qo'yilgan matn;
4) notanish matn.

Duduqlanish nutq kamchiligida nutqiy pay tortishishlar ta'sir

qiluvchi omilardan biri, nutqiy tizimning murakkablik darajsi.

Odatda, duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar alohida tovushlarni ko'pincha unlilarni oson talaffuz qiladilar. Bo'g'inlar so'ng so'zlarni talaffuz qilish unli tovushlarga nisbatan murakkablashadi. Ularda asosiy qiyinchiik fikrni bayon etishni boshlashda (so'zlashni boshlashdagi qiyinchilik) paydo bo'ladi.

Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar nutqining erkinligi va balandligi nutqiy mashqlarning aniq ketma-ketligi asosida amalga oshiriladi: ovoz chiqarmay, sekin, shivirlab, baland va odatlangan ovoz bilan gapirish.

Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar nutqiga nutqning ravonligi, bir maromdaligi ham samarali ta'sir ko'rsatadi. Ashula aytishda, ritmik she'riy nutq va cho'zib so'zlashda nutqiy pay tortishishlar ancha kamayadi, yoki butunlay yo'qoladi. Nutqiy so'zlashish ritmik harakatlar jo'rligida bo'lsa, duduqlanuvchi so'zlash jarayonida ma'lum bir yengillikni his etadi. Keyinchalik muloqotda bo'lish ko'nikmalari bir ma'romdagi nutqdan har xil to'lqindagi oddiy nutqga o'tiladi.

Shunday qilib, duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarda nutqning ravonligi va bir ma'romdaligini quyidagi ketma-ketlikda (izchillikda) tarbiyalash mumkin:

1) Ashula; 2) ashula jo'rligidagi harakat; 3) ritmiklashgan nutq (she'r, keyinchalik proza (nasr)) harakatlar bilan; 4) ritmiklashgan nutq (she'r, proza (nasr)) harakatsiz; 5) unli tovushlarga tayanish; 6)turli to'lqindagi nutq.

Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarda to'g'ri nutqni tarbiyalash vazifasi turli emotsional holatlarda to'g'ri so'zlashni mashq qilishdan iborat. Logoped duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarga turli kayfiyat, emotsional hayajonlanish, ruhiy tushkunliklar bo'lishidan qat'iy nazar o'zini tuta bilish va nutqini nazorat qilib borishga o'rgatadi. Inson nutqi va emotsional holatiga atrof-muhit, uning xarakter faoliyati va odamlar ta'sir etadi. Shuning uchun mashg'ulotlarda nafaqat nutqiy mashqlarni balki, turli vaziyatlarni ham asta-sekin murakkablashtirib borishni ko'rib chiqmoq lozim.

Sharoitdan kelib chiqqan holda nutqiy mashqlarni ketma-ketligini (izchiligini) quyidagicha belgilash mumkin:

a) tanish, birlamchi sharoitda;



b) kam tanish bo'lgan;

v) tanish bo'lmagan, begona sharoitda to'g'ri nutqni mashq qilish.

Atrofdagi jamoatchilikni hisobga olib – yolg'izlikda, yaqinlari va o'rtoqlari; tarbiyachilar bilan; kam tanish bo'lgan insonlar bilan; notanish, begonalar bilan, garchi bu yerda duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarning ishtirokchilar muloqot sharoitiga qaratilgan reaksiyasiga bog'liq ravishda, turli variantlar bo'lishi mumkin.

Nihoyat, duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bola faoliyati quyidagilarga bog'liq ravishda nutq sifatiga ta'sir etishi mumkin:

a) uni ko'rinishiga bog'liq;

b) murakkablik darajsiga (elementar harakatlar, harakatlar majmui);

v) vaqtga munosabatiga bog'liq (hozirni, o'tganni yoki kelajakni ta'riflash).

Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bola nutqi holatiga ta'sir etuvchi turli xil omillarning mavjudligi, logopedga nutqiy tortishishlarning kelib chiqishi va oldini olishni, oldindan payqash uchun turli ko'rinishdagi nutqiy mashqlar va vaziyatlarni qo'shish imkonini beradi.

Sistemalilik va ketma-ketlilik tamoyili duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarga logopedik ta'sirning faqat mantiqiy tomonini emas, balki, tashkiliy tomonini ham o'z ichiga oladi, chunki ma'lum bilim, ko'nikma va malakalarni egallash sistemali tarzda, doimiy va reja bo'yicha amalga oshiriladi. Nevrozlarni davolash asosida yotuvchi nerv jarayonlarini doimiy mashq qildirish faqat shu holda sodir etiladi.

Logopedik mashg'ulotlar kursi duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan, vaqt, vazifa va mazmun bo'yicha yaxlit, tugallangan ish tizimidan iborat va davrlarga bo'linadi (tayyorlov, mashq qiluvchi, mustahkamlovchi). Har bir davrda bir qator bosqichlarni ajratish mumkin (masalan, gapirmaslik, uyg'unlashgan, aks ettirilgan nutq, nutq o'rgatuv tartibi va h.k.). Logopedik ishning har bir bosqichi o'zaro bog'liq mashg'ulotlardan tashkil topadi.

Tayyorlov bosqichi vazifalariga avaylovchi tartib yaratish, bolani mashg'ulotlarga tayyorlash, to'g'ri nutq namunalarini ko'rsatish kiradi.

Avaylovchi tartib quyidagilardan iborat: salbiy ta'sir etuvchi omillardan bola psixikasini himoyalash; tinch, osuda muhit, do'stona va to'g'ri munosabat yaratish; noto'g'ri nutqqa o'rganib qolishga yo'l qo'ymaslik; kun tartibini belgilash va rioya qilish; tinch va

turlicha mashg'ulotlarni nazarga olish; shovqinli, harakatli o'yinlar, mashg'ulotlar bilan ko'mib tashlashga yo'l qo'ymaslik.

Shuningdek, duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolani tinchlantirish, o'z nuqsoniga qaratilgan tushkun e'tiborni chalg'itish va shu bilan bog'liq taranglikni yo'qotish muhim. Imkoniyatga qarab duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolaning nutqiy faollligini cheklash va shu orqali noto'g'ri nutqiy stereotipni susaytirish maqsadga muvofiqdir.

Bolani mashg'ulotlarga jalb etish uchun, radioko'rsatuvlar, magnitafon yozuvlar, plastinkalar, adabiy asarlar haqidagi suhbatlardan foydalanish, atrofdagi odamlarning ifodali nutqiga ijobiy belgilariga duduqlanuvchining e'tiborini qaratish, mashg'ulotgacha va mashg'ulotdan so'ng bolalar nutqining magnitafon yozuvlari orqali namoyish qilish (ayniqsa, mavjud duduqlanishni ular tomonidan ongli anglash hollarida) lozim.

Mashg'ulot boshidagi yomon nutq va mashg'ulot so'ngidagi to'g'ri, erkin nutq orasidagi qarama-qarshiliklar, bolalarda yaxshi gapirishga o'rganish istagini tug'diradi. Shu maqsad uchun mashg'ulotlar kursini o'tab bo'lgan bolalar chiqishlari va sahna ko'rinishlaridan foydalanish mumkin.

Birinchi mashg'ulotlardan logoped bola bilan to'g'ri nutqning muhim sifatlarini ishlay boshlashdi: balandlik, ifodalilik, shoshmaslik, to'g'ri ibora to'zish fikrlarni ketma-ket bayon qilish, suhbatlashganda erkin va ishonch bilan gaplashish va boshqalar.

Mashq qiluvchi bosqich vazifalariga bola uchun murakkab bo'lgan barcha nutq shakllari va nutqiy vaziyatlarni egallash kiradi. Bolaning birinchi bosqichda qo'lga kiritgan bilim, ko'nikma va malakalariga tayangan holda, erkin nutq malakalarini tarbiyalash va nutqning turli shakllarida va turli xil nutqiy vaziyatlarda to'g'ri xatti-harakatlarni tarbiyalash bo'yicha ish olib boriladi.

Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolaning birmuncha murakkab ko'rinshlarida mashq qiluvchi bosqich uyg'unlashgan aks ettiruvchi nutqdan boshlanadi. Agar to'g'ri nutqning barcha talablari bu bosqichda oson va yaxshi bajarilsa, logoped bola bilan iboralarni birgalikda takrorlashdan voz kechadi va unga iboradan mustaqil nusxa olish imkoniyatini beradi.

*Uyg'unlashgan-aks ettiruvchi nutq* bosqichida turli matnlar



qo'llaniladi:

yod olingan mashhur ertaklar, savol va javoblar, notanish ertak, hikoyalar.

Nutq mashg'ulotlari xonada yoki uyda logoped yoki ota-onalar bilan o'tkaziladi. Agar mashg'ulotga begona kishilar, tengdoshlari taklif qilinsa sharoit murakkablashadi.

Logopedik ishda keyingi qadam – nutqning savol-javob bosqichidir. Bu davrda bola namunalar bo'yicha iboralarni takrorlashdan asta-sekin ozod bo'ladi va mustaqil nutqiy muloqotda dastlabki yutuqlarga erisha boshlaydi. Aks ettirilgan javoblardan boshlash maqsadga muvofiqdir, katta odam savol beradi va o'zi javob beradi, bola javobni takrorlaydi. Asta-sekin savollarga qisqa javoblardan bola bir muncha murakkablariga o'tadi. Bola ilgari olgan namunalaridan foydalangan holda murakkab gaplarni mustaqil to'zishga o'rganadi. Nutqiy mashqlarning sun'iyligini oldini olish uchun ularni bolaning kundalik hayoti va dastur materiali bilan bog'liq turli xil materiallarning o'zida o'tkazish kerak: rasmlar bo'yicha savollar, ertak yoki hikoya mazmuni bo'yicha savollar, o'yin jarayoni bo'yicha savollar va boshqalar.

Faoliyatning turli ko'rinishlarini savollar bilan birga olib bormoq foydalidir (umumta'lim mashg'ulotlarida tashqil qilinuvchi faoliyatlar): atrofdagilarni kuzatish, mehnat, qurish-yasash, rasm chizish, o'yinchoqlar bilan o'ynaladigan o'yinlar va boshqalar.

Dastlab bolaning javoblari uni oddiy harakatlarini, hozirgi zamonda ishlangan sodda kuzatishlarini aks ettiradi (men uy chizyapman, stolda olmalari bilan vaza turibdi).

So'ng o'tgan zamonda, tugallangan harakatlar yoki bajarilgan kuzatishlarni aks ettiradi. (Men kecha otam bilan hayvonot bog'iga bordim. Biz u yerda timsoxlarni ko'rdik). Va nihoyat, kelasi zamonda, ko'zlagan harakatlari haqida (Biz hozir bog'ga boramiz. Biz bekinmachoq o'ynaymiz). Bu holda, aniq fahmlashdan va o'zining bevosita kuzatuvlari va harakatlarini uzatishdan bola umumlashtiruvchi xulosalarga, taxmin qilingan vaziyatlar va harakatlarni ta'riflab berishga o'tadi.

Turli mashg'ulotlar bolalarga to'g'ri nutq malakalarini o'zining kundalik hayotiga o'tkazishga yordam beradi.

Agar bola duduqlansa, javobni yetarlicha baland talaffuz etilmaganini bahona qilib (yoki haddan tashqari tez, yoki tushunarsiz), undan iborani

yana takrorlab berish iltimos qilinadi. Agar nutqiy tortishish kuchli bo'lib, bola uni darhol bartaraf etolmasa, ibora to'zilishini to'g'rilash yoki o'zgartirishga imkon beruvchi aniq yordamchi savolni berish maqsadga muvofiqdir.

Nutqiy mashqlarni tanlashda, nutqiy tortishishlarni oldini olish yoki o'z vaqtida yordamga kelishni bilish uchun qanday holatlarda (qiyin tovushlar, ibora boshi, sharoit) bolada nutqiy tortishishlar namoyon bo'lishi mumkinligini yaxshi bilish lozim. Nutqiy tortishishlarning butunlay yo'qligi, duduqlanuvchi bola bilan olib boriladigan va yaxshi tayyorlangan mashg'ulot ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi.

Bola oddiy savollarga erkin javob berishga o'rgangandan so'ng, mashg'ulotlarda hikoya va qayta hikoya qilishlar qo'llaniladi. Hikoya qilish va hikoyalarga, savollardan javoblarga o'tishda ketma-ketlikka rioya qilgan holda logoped dastlab bolaga rasmlar bo'yicha oddiy mustaqil iboralarni to'zish va talaffuz qilishni taklif qiladi, so'ng yangi rasm bo'yicha savollar berish va ularga javob berish taklif qilinadi.

Oddiy iboralardan mazmun jihatdan bog'langan birmuncha murakkab iboralarga o'tish mumkin, so'ng yaxshi tanish bo'lgan matnni hikoya qilib berishga (ertaklar, hikoyalar), biroz notanishni bo'lgan matnni hikoya qilishga (yaqindan yoki endi eshitganini), atrof hayotdagi alohida omillarni ifodalashga, o'zining sayri, ekskursiyasi, mashg'ulotlari va h.k.lar haqidagi hikoyalarga o'tish mumkin.

Nutq shakllarining murakkablashuviga muvofiq mashg'ulotlar sharoiti ham murakkablashadi. Mashg'ulotlar nafaqat xonada yoki uyda, balki ulardan tashqarida ham o'tkaziladi. Xonada ko'chaga chiqishga, jamoa joylariga chiqishga tayyorgarlik ko'riladi, oldinda turgan ekskursiyaga tayyorlanadilar, logoped tasavvur qilingan yoki atrofdagi predmetlar yoki hodisalar haqida savollar beradi. Masalan: «Sen oldingda bino ko'ryapsanmi? Uning nechta qavati bor, tomi qanday rangda? Bugun havo qanday?». Keyinroq bu savollar murakkablashadi, bola ko'rganlari, eshitganlari yoki bajarganlari haqida gapiradi va nihoyat suhbatda ishtirok etadi.

Nutqiy materialni o'zlashtirgandan so'ng ekskursiyaga chiqiladi va bolaga aynan o'sha savollar beriladi.

Xonadon tashqarisidagi mashg'ulotlarda bola atrofdagi sharoit va odamlarga xotirjam ta'sirlanishga, uyalmaslikka va logoped savollariga to'g'ri javob berishga va o'zi ham savollar berishga o'rganadi.



Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarda to'g'ri nutqni shakllantirishda, xonadon tashqarisidagi mashg'ulotlar katta ahamiyatga egadir. Bunday mashg'ulotlarni to'g'ri baholay olmaslik shunga olib keladiki, bola xonada, ya'ni bola o'zi uchun odatdagi sharoitda mutlaqo erkin gapirishi mumkin, xonadan tashqarida esa uning nutqidagi tortishishlar saqlanib qolaveradi.

Mustahkamlovchi davr vazifalariga, bola tomonidan egallangan to'g'ri nutq malakalari va nutqiy faoliyatning turli vaziyatlari va ko'rinishlarida o'zini tutish malakalarini mustahkamlash kiradi. Ichki istak ta'siri ostida bolada yuzaga keluvchi spontan nutq materiallarida, (atrofdagilarga savol, iltimos bilan murojaat qilish, tassurotlar almashish) belgilangan vazifalar birmuncha faol amalga oshiriladi.

Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bola bilan olib boriladigan korreksion-logopedik mashg'ulotlarda logopedning ishtirok etish darajasi asta-sekin o'zgaradi. Birinchi etaplarda rahbar ko'p gapiradi, oxirgi etaplarda - logopedning roli asosan nutq mashg'uloti mavzusini to'g'ri tanlashga, uning borishini yo'naltirishga va bolaning mustaqil nutqiy faoliyatini nazorat qilishga qaratiladi. Mashg'ulotlar asta-sekin suhbat xarakterini ola boshlaydi. (O'tkazilgan kun, tenglangan ertak, tomosha qilingan ko'rsatuv va boshqalar haqida).

Kundalik hayotdan olingan mavzulardagi ijodiy o'yinlardan keng foydalaniladi: «Mehmon», «Dasturxon atrofida», «Shifoxona qabo'lida», «Do'kon», «Ona va qiz» va boshqalar, mashhur ertaklar syujetiga sahnalashtirilgan o'yin-dramalardan foydalaniladi.

Mustahkamlash davrida logoped va ota-onalarning asosiy diqqati, bolaning mashg'ulotlardan tashqarida qanday gapirayotganligiga qaratiladi. Shuning uchun, sayrdagi suhbatda, uyda tushlikka tayyorgarlik vaqtida, ertalabki yuvinish vaqtida va h.k., qachon kerak bo'lsa, uni to'g'rilash imkonini qo'ldan boy bermaslik kerak.

Har bir logopedik mashg'ulotda ketma-ketlik tamoyili uning to'zilishi qismlariga muvofiq ifodalanadi: tayyorlov, asosiy va tugallovchi qismlar.

Logopedik mashg'ulotning tayyorlov qismi, bolalar jamoasini uyushtirishni, psixologik xarakterdagi suhbatlarni, nutqiy mashqlarni, o'tgan mashg'ulotda o'tilgan nutqiy materialni takrorlash va mustahkamlashni, bo'lajak ishga bolani tayyorlashni o'z ichiga oladi.

Mashg'ulotning asosiy qismi, albatta, yangi nutqiy mashqlar to'rini

yoki ular o‘tkaziluvchi yangi sharoitlarni o‘z ichiga oladi.

Mashg‘ulotning tugallovchi qismida logoped yangi materialni mustahkamlaydi, bolalar ishiga yakun yasaydi, ularning qo‘lga kiritgan yutuqlariga diqqatni qaratadi. Logopedik mashg‘ulotlardan tashqarida nutqni mashq qildirish uchun vazifa va maslahatlar beradi.

Alohida logopedik mashg‘ulotning bunday touzilishi, uni duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolaga qaratilgan, yo‘naltirilgan va tizimli korreksion-pedagogik ta'sirning yagona bir butun ketma-ketligini tashkil qiluvchilar qatorida ko‘rishga imkon beradi.

### Mashg‘ulotlarda bolalarning ongliligi va faolligi tamoyili

Pedagogikada onglilik va faollik tamoyili faqat bilish faoliyati doirasida ko‘rinmay, balki, emotsional – hissiy sohada, ya'ni amaliy – sezgi faoliyatida ham ko‘rib chiqqiladi. Ta'lim, turli materiallarda va turli sharoitlarda o‘xshash xarakatlarni ko‘p marotaba ongli bajarishni ko‘zda tutadi.

Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo‘lnan bolalar bilan olib boriladigan logopedik ishda onglilik va faollik didaktik tamoyilini amalga oshirish yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi.

Duduqlanish nutq kamchiligigiga ega bo‘lgan bolalar tomonidan logopedik mashg‘ulotning maqsadini tushunish – qachonki, duduqlanuvchi o‘z kamchiligini anglagan, undan uyalgan, tashvishlangan, turlicha berkitgan yoki bartaraf etishga o‘ringan, o‘z kamchiligini his qilgan holatlarda duduqlanish nutq kamchiligini bartaraf etishning muhim shartlaridan biridir.

Shu sababli, logoped korreksion-logopedik mashg‘ulotlar maqsadini faqat nutqiy nuqson, uning belgilarini bartaraf etishda deb bilmasdan, balki ular bilan bog‘liq duduqlanish nutq kamchiligininining xulqi va shaxsiyati xususiyatlarini bartaraf etish; uning o‘ziga, nuqsoniga, atrofdagilarning baholashiga munosabatini qayta qurish zaruriyati ham e'tiborga olinadi.

Duduqlanish nutq kamchiligi belgilarini bartaraf etish, o‘z nutqi va harakatlari xususiyatlari bo‘yicha logopedik usullarni egallash vaqti bilan duduqlanish nutq kamchiligigiga nutq kamchiligini va unga bog‘liq kamchiliklarni bartaraf etish jarayoniga faol va muvaffaqiyatli kirishish imkonini beradi.

G.D.Netkachyovning fikricha, o‘zining faolligi bilan duduqlanishdan



qo‘tilishga erishgan duduqlanuvchi, to‘g‘ri nutqi o‘zining shaxsiy yutug‘i – mehnati va quvvati mahsuli va hech qachon undan olib qo‘yilmasligini doimo yodida tutadi. Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalarlar bilan ishlashda logoped ta'limning o‘ziga xos vositalariga ham tayanadi.

### Nazorat savollari:

1. Korreksion ish tizimida umumpedagogik tamoyillar o‘rni?
2. Duduqlanish nutq kamchiligini bartaraf etishda tamoyillarning ketma -ketliligi nimalarda ko‘rinadi?
3. Duduqlanish nutq kamchiligini bartaraf etishda sistemalilik va izchillik tamoyilining korreksion ahamiyati nimadan iborat?
4. Uyg‘unlashgan-aks ettiruvchi nutq nima?

### Topshiriqlar:

1. **FSMU** texnologiyasi yordamida duduqlanish nutq kamchiligini bartaraf etishda maxsus tamoyillarga o‘z fikringizni yozma va og‘zaki bayon etting.

| | |
|---|---|
| F | Fikringizni bayon etting |
| S | Fikringizni bayoniga sabablar ko‘rsating |
| M | Ko‘rsatayotgan sababingizni isbotlab, dalillar (misollar) keltiring |
| U | Fikringizni umumlashtiring |

2. Jadvalda keltirilgan test topshiriqlarni bajaring.

| № | Savollar | Javoblar varianti |
|---|---|---|
| 1. | Nutqiy mashqlar ketma-ketligini ko‘rsating. | A) yod olingan matn; |
| | | B) o‘qib eshittirilgan matn; |
| | | S)fikran o‘ylab qo‘yilgan matn; notanish matn. |
| 2. | Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalarda erkin, mustaqil nutq mashg‘ulotlarida quyidagi izchillikda tarbiyalanishi mumkin: | A) 1)logoped bilan birga va logoped ketidan qaytariladigan nutq; 2)nutqning savol va javob shakli. |
| | | B) 1)logoped bilan birga va logoped ketidan qaytariladigan nutq; 2)nutqning savol va javob shakli; 3)so‘zlab berish va hikoya; 4)mustaqil nutq. |
| | | S) 1)nutqning savol va javob shakli; 2) so‘zlab berish va hikoya; 3)mustaqil nutq. |

| | | |
|---|---|---|
| **3.** | Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarda nutqning ravonligi va bir ma'romdaligini qaynday ketma-ketlikda (izchillikda) tarbiyalash mumkin? | A) 1) Ashula; 2) ashula jo'rligidagi harakat; 3) ritmiklashgan nutq (she'r, keyinchalik proza (nasr)) harakatlar bilan |
| | | B) 1) ashula jo'rligidagi harakat; 2) ritmiklashgan nutq (she'r, keyinchalik proza (nasr)) harakatlar bilan; 3) ritmiklashgan nutq (she'r, proza (nasr)) harakatsiz; 4) unli tovushlarga tayanish; 5) turli to'lqindagi nutq. |
| | | S) 1) Ashula; 2) ashula jo'rligidagi harakat; 3) ritmiklashgan nutq (she'r, keyinchalik proza (nasr)) harakatlar bilan; 4) ritmiklashgan nutq (she'r, proza (nasr)) harakatsiz; 5) unli tovushlarga tayanish; 6)turli to'lqindagi nutq. |
| **4.** | So'zlab berish – bu ? | A) bu bosqich nutq jarayonini yanada murakkablashtiradi. Ya'ni bunda duduqlanuvchi bir, ikki jumla bilan chegaralanib qolmay, balki so'zlab berishda undan ko'proq jumlalardan foydalanishga to'g'ri keladi. So'zlab berishda so'zlash uchun osonlik to'g'diruvchi yordamchi vositalar ham mavjud: ertak, hikoya, ko'rilgan kinofilmini gapirib berish. |
| | | B) duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar uchun eng murakkab nutq shakli. Bu nutq tabiiy sharoitda atrofdagilar bilan erkin munosabatga kirishishi – savolllar, iltimos, murojaat, fikr almashish, istak bildirish va hakazolarda namoyon bo'ladi. |
| | | S) barcha javoblar to'g'ri |
| **5.** | Mustaqil nutq – bu ? | A) so'zlash jarayonda o'z fikrini erkin bayon etishi va boshqalarga tinch hlatda nutqiy muloqatdan foydalainishi. |
| | | B) bu bosqich nutq jarayonini yanada murakkablashtiradi. Ya'ni bunda duduqlanuvchi bir, ikki jumla bilan chegaralanib qolmay, balki so'zlab berishda undan ko'proq jumlalardan foydalanishga to'g'ri keladi. So'zlab berishda so'zlash uchun osonlik to'g'diruvchi yordamchi vositalar ham mavjud: ertak, hikoya, ko'rilgan kinofilmini gapirib berish. |
| | | S) duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar uchun eng murakkab nutq shakli. Bu nutq tabiiy sharoitda atrofdagilar bilan erkin munosabatga kirishishi – savolllar, iltimos, murojaat, fikr almashish, istak bildirish va hakazolarda namoyon bo'ladi. |



**Tayanch iboralar:**

Partialis – yunoncha so'zdan olingan bo'lib, "qisman" degan ma'noni bildiradi.

Motivatsiya – xatti harakat va faoliyat motivlarining majmuasi motivatsiyadir.

## 9§. Duduqlanish nutq kamchiligini bataraf etishda metodlarning ahamiyati

**Reja:**

1.Ta'lim metodlari tavsifi.

2. Duduqlanish nutq kamchiligini bataraf etishda metodlarning qo'llanilishi.

«Metod» so'zining yunoncha tarjimasi «tadqiqot, usul, maqsadga erishish yo'li» kabi ma'nolarni anglatadi. Filofosiya lug'atida ushbu tushuncha umumiy tarzda «maqsadga erishish usullari»[1] deya sharhlangan.

Ayni vaqtda, pedagogik manbalarda «ta'lim metodi» tushunchasiga berilgan ta'riflarning xilma-xil ekanligiga guvoh bo'lish mumkin.

«Ta'lim metodlari dastlab pedagog ongida, muayyan yo'nalishdagi faoliyatning umumlashma loyihasi tarzida namoyon bo'ladi. Mazkur loyiha amaliyotga o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatining o'zaro tutashuvi, o'qitish va o'qishga qaratilgan aniq harakatlar, amallar yoki usullar majmuasi sifatida joriy etiladi. Metod boshqa shakllarda namoyon bo'lmaydi, buning boisi ta'lim metodi o'zida, umumiy holda faoliyatning didaktik modelini ifoda etadi»[2].

1. Qayd etilayotgan tushuncha mohiyatini to'laqonli yorituvchi ta'rifni aniqlashga bo'lgan urinish bugun ham davom etyapti, yangi-yangi ta'riflar ilgari surilmoqda. Biroq, «ta'lim metodi» tushunchasi mohiyatini yoritishga nisbatan turlicha qarashlarning mavjudligiga qaramay, ularni o'zaro yaqinlashtiruvchi umumiylik mavjud. Aksariyat mualliflar «ta'lim metodlari o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish usullari» degan qarashga yon bosadilar. Demak, ta'lim metodlari ta'lim jarayonida qo'llanilib, uning samarasini ta'minlovchi usullar majmuidir.

Ta'lim metodlari ta'lim maqsadini yoritishga xizmat qiladi, u yordamida ta'lim mazmunini o'zlashtirish yo'llari ifoda etiladi, o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro harakati, xususiyati aks ettiriladi.

---

[1] Философский словарь. 5-изд. //Под ред. П.Т.Фролова. – Москва, 1987. – с. 278.

[2] Ларнер И.Я. Дидактические основы методов общения. – Москва, Педагогика, 1981. – с. 35.



Metod, bir tomondan, ta'lim maqsadiga erishish vositasi sifatida namoyon bo'lsa, boshqa tomondan, boshqariluvchan o'qish faoliyatini amalga oshirish sharti hisoblanadi.

Ta'lim metodlari doimo u yoki bu o'qish vositalari yordamida joriy etiladi, shu bois ularning o'zaro shartlanganligini ta'kidlash joiz.

Har bir metod ma'lum ta'limiy vazifani muvaffaqiyatli hal etish, qolganlari esa birmuncha samarasiz bo'lishi mumkin. Universal ta'lim metodlari mavjud emas, shu bois darsda turli ta'lim metodlaridan yoki ularning majmuasidan foydalanish mumkin.

Ta'lim metodlarini tanlash quyidagi mezonlar asosida aniqlanadi:

- didaktik maqsad asosida;
- ta'lim mazmuni asosida;
- o'quvchilarning o'quv ko'nikmalarini egallash va rivojlanish darajasi asosida;
- o'qituvchining tajribasi va kasbiy tayyorgarlik darajasi asosida.

O'qituvchi tomonidan qo'llanilayotgan ta'lim metodlari majmuasi boshlang'ich sinflardan yuqori sinflarga o'tish asosida o'zgarib hamda murakkab xususiyat kasb eta boradi. Ushbu jarayonda ayrim metodlarni qo'llash chastotasi oshsa, ayrim metodlarni qo'llashga bo'lgan ehtiyoj kamayadi. Ta'lim metodlaridan foydalanish ko'lami, holati o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi va mahorati darajasiga bog'liq holda o'zgaradi.

Didaktikada munozaralarga sabab bo'layotgan yana bir muhim ob'ekt ta'lim metodlarining tasnifidir. «Ta'lim metodlari tasnifi ularning ma'lum belgilari bo'yicha tartibini ifodalovchi tizimdir. Hozirgi vaqtda o'nlab ta'lim metodlari ma'lum», - ekanligini ta'kidlagan holda I.P.Podlasoy fikrini quyidagicha davom ettiradi, - «Biroq bugungi kunda yetakchi sanaluvchi didaktik g'oya yagona va o'zgarmas metodlar majmuini yaratishga intilish samarasiz ekanligini tushunishga yordam beradi. O'qitish – favqulodda harakatchan, dialektik jarayon. Metodlar tizimi ham bu harakatlanishni aks ettiradigan darajada jo'shqin bo'lishi, metodlarni qo'llash amaliyotidagi doimiy o'zgarishlarni hisobga olishi kerak»[1].

Ta'lim metodlarini tanlash muammosi uzoq davrdan buyon tadqiq qilib kelinmoqda. Biroq tadqiqotlar soni ko'p bo'lsada, bu borada yagona

---

[1] И.П. Подласый. Педагогика, Кн. 1. – Москва, ВЛАДОС, 1999. – с. 475-476.

to'xtamgan kelinmagan. Ushbu o'rinda, ta'lim amaliyotida qo'llanilib kelayotgan metodlar tizimi (tasnifi)ga to'xtalib o'tamiz.

Ta'lim metodlarining tasnifi asosiy didaktik maqsadlar bo'yicha tizimlashtiriladi.

Mualliflar tavsiya etilayotgan metodlarni quyidagi chizma bo'yicha qo'llash maqsadga muvofiqligini ta'kidlaydilar:

1. Materialni og'zaki bayon qilish (hikoya, suhbat, tushuntirish, maktab ma'ruzasi). O'quvchilar tomonidan bilimlarni o'zlashtirish o'qituvchining tushuntirishini faol qabul qilish va puxta o'ylash evaziga amalga oshiriladi. Bilimlarni uzatish vositasi sifatida o'qituvchi nutqi muhim ahamiyatga ega. Bu o'rinda o'qituvchining o'quvchilar faoliyatiga rahbarligi mavzuni qo'yish, rejani e'lon qilish, o'quvchilar faoliyatini boshqarishdan iborat bo'ladi.

2. Suhbat. O'quvchilar tomonidan bilimlarni o'zlashtirish jarayoni: ular e'tiboriga havola etilayotgan savolning mohiyatini anglash, mavjud bilimlar va tajribani safarbar qilish, savolga oid ob'ektlarni o'zaro taqqoslash, puxta o'ylash va savollarga to'g'ri javob tayyorlashdan iborat.

O'qituvchining rahbarligi: mavzuni qo'yish, savollarni ifodalash, berilgan javoblarni tuzatish, to'ldirish va umumlashtirish kabi holatlarda namoyon bo'ladi.

Suhbat metodi yordamida bilimlarni o'zlashtirishda o'quvchilar mavjud bilimlari va tajribalariga tayanadilar.

3. Darslik (umuman, kitob) bilan ishlash (umumlashma va xulosalarni anglash, ularni xotirada saqlashga xizmat qiladi).

Bilimlarni o'zlashtirish manbai bo'lib bosma matn xizmai qiladi. O'qituvchining rahbarligi esa topshiriqni ifodalash, faoliyat maqsadini belgilash, o'quvchilarga darslik bilan ishlashning yangi usullarini o'rgatish, o'zlashtirilgan bilimlarning tushunilish va mustahkamlik darajasini tekshirish kabi ko'rinishlarda aks etadi.

4. O'qituvchilarning kuzatuvi (sinfda va sinfdan tashqari (shu jumladan, sayohat va ekskursiyalar) jarayonlarda).

O'quvchilarning o'quv predmetlari bo'yicha o'zlashtirish holati va hodisalarni kuzata borib, turli fan o'qituvchilarining ko'rsatmalari bo'yicha ularni qismlarga taqsimlab har bir o'quvchining o'ziga xos, o'xshash va muhim jihatlarini aniqlashga yo'naltiriladi.

Bilimlarni o'zlashtirish manbai bo'lib muayyan predmet (yoki



jarayon), tajriba, model, xaritalar xizmat qiladi. O'qituvchining rahbarligi kuzatish vazifasini belgilash, uni ma'lum shaxs zimmasiga yuklash, ob'ektni belgilash, umumiy rahbarlikni olib borish, qismlarga ajratish, asosiylarini aniqlash va umumlashtirishdan iboratdir.

5. Laboratoriya ishlari. Mazkur jarayonda aniq vazifa, ya'ni, ma'lum sharoitda muayyan hodisalarni kuzatish yuklanadi. O'quvchilar hodisalarni kechish jarayonini kuzatadilar va tahlil qiladilar.

Bilimlar manbai kuzatilayotgan hodisalar va ularning kechish jarayonidir. O'qituvchi vazifa mohiyatini ifodalaydi, o'quvchilarni nazariy bilimlar bilan qurollantiradi, umumiy jarayon va bosqichlarni kuzatish yo'llari hamda yakuniy xulosa chiqarishni o'rgatadi.

6. Mashq (aqliy va faoliyatli mashqlar). O'quvchilar tomonidan bilimlarni o'zlashtirish jarayonining o'ziga xosligi, nazariy asoslar o'zlashtirilgach, ayrim materiallardagi o'xshash harakatlarning ko'p bora takrorlanishi kuzatiladi.

Bilimlar manbai: o'zlashtirilgan bilimlar va xususiy tajriba sanaladi.

O'qituvchi mashqni bajarish uchun joy hamda vaqtni belgilaydi, topshiriqni ifodalaydi, uni bajarish bosqichlarining borishini nazorat qiladi, boshqaradi, shuningdek, yakuniy natijalarni tekshiradi.

7. Ijodiy mashq. Ushbu metod o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, o'ziga xoslik masalaning mohiyatini chuqur anglash, uni bajarishga nisbatan mustaqil yondashish, dalillarni saralash va o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqni ijodiy bajarish jarayonida bilimlarni qo'llash va kengaytirish kabi holatlar bilan tavsiflanadi.

Bilimlar manbai va materiali sifatida avval egallangan ijodiy ishlar tajribasi, mavjud bilimlar, kuzatuvlar, shaxsiy tajriba, o'qilgan hikoya, ijtimoiy-foydali ishlarni boshqarish kabilar qayd etiladi.

O'qituvchining rahbarligi: nazariy materiallarni o'zlashtirilishini ta'minlash, mavzuni ifodalash, ijodiy ishlar xarakterini belgilash, ularning bajarilishini nazorat va tahlil qilish, sintezlash, xatoni ko'rsatish hamda to'g'rilashdan kabi holatlarda namoyon bo'ladi[1].

Keltirilgan tasnif «bilimlar manbai» bo'yicha tizimlashtirilgan metodlar – og'zaki, ko'rgazmali va amaliy metodlarni u yoki bu darajada o'zida mujassamlashtiradi. Biroq, M.A.Danilov va B.P.Esipovlar asosiy e'tiborni «ta'lim metodini to'g'ri tanlash»ga qaratishadi. Gap

[1] Данилов М.А., Есипов Б.П. Дидактика. – Москва, Изд-во АПН РСФСР, 1957.

shundaki, sobiq Sho'ro umumta'lim maktablarining o'quv jarayonida metodlarning cheksiz ko'pligi, xatto ularni bir necha tasnif bilan ham qamrab olish mumkin emasligi, shu boisdan ham o'quv-tarbiyaviy ishlar muvaffaqiyatining bosh omili va eng muhimi to'g'ri, asoslangan metodni tanlash hisoblangan, ana shu «g'oya» mohiyat jihatidan noto'g'ri bo'lishiga qaramay, o'n yillar davomida didaktika «rivoji»da muhim o'rin tutib keldi.

Bugungi davr talabi nutqida nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdagi va kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni har tomonlama nutq kamchiliklarni bartaraf etish, shuningdek ularni mustaqil hayotga to'g'ri yo'naltirish orqali ishning sifatini metodlar belgilab beradi.

Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarda qo'llaniladigan barcha metodlar korreksion logopedik ishlarda ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Biroq, metodlarni noto'g'ri qo'llash orqali uchraydigan nutq kamchiligi yanada rivojlanishi mumkin. Amaliyotdan ma'lumki, har logoped duduqlanish nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalar bilan ishni tashkil etish vaqtida albatta bolaning yakka xususiyatlari inobatga olgan holda ta'lim metodlaridan foydalaniladi. Metodlarda korreksion logopedik ishda og'zaki ko'rgazmali va amaliy metod yaxshi natija bergan. Ushbu metodlar yordamida logopedik ishni to'g'ri va tushunarli olib borishda, duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolaga kuzatildigan nutq nuqsonlari bartaraf etiladi. Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarda og'zaki metod orqali bolaning diqqatini va fonematik eshituv idrokini rivojlantiradi. Ko'rgazmali hamda amaliy metod esa duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolaning nutq nuqsonini bartaraf etishda topshiriqlarni ko'rgazma va amaliy metodlar orqali tushunib bajarishga harakat qiladi.

Korreksion logopedik ishlarni olib borishda logopedi duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarning yoshi, muassasaga kelgan vaqti, guruhda qatnashish vaqti ham inobatga olinadi.

Logoped tomonidan qo'llaniladigan metodlarning barchasi duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarda uchraydigan nutqiy nafas va ovozni, barmoqlar va tana harakatchanligini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Qo'llaniladigan metodlar umumiydan xususiyga qarab borish orqali ishlar tashkil etiladi. Umumiydan olib borishda, guruhda mavjud bo'lgan nutq nuqsonlardan kelib chiqqan holda bolaning yakka xususiyatlari inobatga olinishi bu umumiydan xususiyga olib borish



hisoblanadi. Duduqlanish nutq kamchiligida uchraydagan fonematik idrokdagi nuqsonlarni ham bartaraf etishda xususiy metodlardan ham qo'llaniladi.

Maktabgacha yoshdagi duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarda olib boriladigan korreksion logopedik ishlarda og'zaki, ko'rgazma va amaliy metodlardan birgalikda qo'llash ijobiy natija beradi. Bog'cha yoshdagi duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarning asosiy faoliyati o'yin faoliyati bo'lganligi inobatga olgan holda korreksion logopedik ishlar olib boriladi.

Duduqlanish nutq kamchiligini bartaraf etishning natijasini yanada faollashtirishda metodlarga mutaxasisslarni jalb qilish ham katta yordam beradi. Muassasada faoliyat olib borilayotgan psixologlar logoped bilan hamkorlikda barcha metodlarni o'z o'rnida qo'llash ham ishning sifatini oshiradi.

### Nazorat savollari:

1. Ta'limda qanday assosiy metodlar mavjud?
2. Umumiydan xususiyga o'tish metodlari deganda nima tushuniladi?
3. Korreksion logopedik ishlarda metodlarning o'rni nimalardan ko'rinadi?
4. Nutqida nuqsoni mavjud bo'lmagan va duduqlanish nutq kamchligiga ega bo'lgan bolalarda qo'llaniladigan metodlarda farq mavjudmi, nima uchun?

### Topshiriqlar:

1. "Tushunchalar tahlili" usuli orqali duduqlanish nutq kamchiligini bartaraf etishda metodlarni og'zaki tahlil eting.

| *Tushunchalar nomi* | *Sizningcha bu tushuncha qanday ma'noni anglatadi?* | *Qo'shimcha ma'lumot* |
|---|---|---|
| Og'zaki metod | | |
| Ko'rgazmali metod | | |
| Amaliy metod | | |

2. Ta'lim metodlarini tanlash qaysi mezonlar asosida aniqlanadi? Ushbu mezonlarni "SMILE texnologiyasi " yordamida tavsiflang.






# III BOB. DUDUQLANISH NUTQ KAMCHILIGINI BARTARAF ETISHDA LOGOPEDIK ISH

## 10§. Maktabgacha yoshdagi duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion-pedagogik ishlarning mashg'ulotlar metodikasi

**Reja:**

1. Ko'p tarmoqli maxsus maktabgacha ta'lim muassasalarda korreksion ish.
2. Ko'p tarmoqli maxsus maktabgacha ta'lim muassasalarda logopedik mashg'ulot vazifalari.

Maktabgacha yoshdagi duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar bilan ko'p tarmoqli maktabgacha ta'lim muassasallarida korreksion-logopedik ishlar olib boriladi.

Mazkur nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar bilan ko'p tarmoqli maktabgacha ta'lim muassasallarining logopedi va tarbiyachilari logopedik ishlarni olib boradilar. Maxsus muasasalarda logoped va tarbiyachining ishi uzviy bog'liqlikda tashkil qilinadi. Har bir nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalarning yakka xususiyatlari inobatga olinadi. Bundan tashqari, nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan shu muassasaning psixologi ham psixologik korreksion ishlarni tashkil qiladi.

Ko'p tarmoqli maktabgacha ta'lim muassasallarida yilning boshidan boshlab, ikki hafta davomida logoped tomonidan bolalar tekshiriladi. Tekshirilgan bolalar orasidan nutq kamchiligiga ega bolalar aniqlansa, u holda logoped nutq kamchiligini bartaraf etish uchun asosiy tayyorlov ishlarini boshlaydi. Tayyorlov ishlarida bolaning qaysi nutq kamchiligiga ega ekanligi logoped tomonidan aniqlanadi, shundan so'ng esa korreksion ishlar tashkil etiladi.

Duduqlanish nutq kamchiligini bartaraf etishda bolaning ilk rivojlanish davrlari, bolaning umumiy rivojlanish holatlari, bolaning oiladagi rivojlanish holatlarini inobatga olgan holda korreksion-pedagogik ish tizimi olib boriladi. Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bolalarning nutq nuqsonlarini aniqlashda, avvalombor, logoped tomonidan bolaning umumiy anamnez ma'lumotlari o'rganiladi. Ma'lumotlar

o'rganilib, tahlil qilib bo'lingach, bolaning nutq xaritasi to'ldiriladi.

Nutq xaritasi bolaning nutq nuqsoni aniqlangandan so'ng to'ldiriladigan maxsus hujjat sanaladi. Nutq xaritasiga bolaning ism sharifi, tug'ilgan yili, muassasaga kelgan vaqti, psixonevrolog xulosasi, ota-onaning shikoyati, yashash manzili qayd etiladi. Shuningdek, bolaning artikulyatsion apparatining anatomik tuzilishi va harakatchanligi tekshiriladi hamda fonematik idrok, umumiy motorika holati, lug'at boyligi aniqlanadi.

Duduqlanish nutq kamchiligi aniqlangandan so'ng nutq xaritasiga so'nggi tashxis qayd etiladi.

Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarning nutq kamchiligini bartaraf etishda har bir bolaga uning nutq nuqsonidan kelib chiqqan holda mashg'ulot ishlanmalari tayyorlanadi. Mashg'ulot ishlanmalarida bolaning nutq nuqsoniga asoslanib, mashg'ulotning mavzusi, ta'limiy, tarbiyaviy, korreksion maqsadlari, mashg'ulotga ajratilgan vaqt, mashg'ulot uchun zarur bo'lgan ko'rgazmali jihozlar qayd etiladi. Bu vazifalardan kelib chiqib, mashg'ulotning tashkiliy qismi: bola diqqatini mashg'ulotga qaratish, artikulyatsion nutq apparatini faollashtiruvchi mashqlar – nutqiy nafas, ovoz, til, lablar harakati, pastki jag', lunjlarni faolllashtiruvchi logopedik mashqlar belgiladi.

Korreksion-logopedik ishning asosiy qismida: tovushni nutqqa qo'yish, tovushni nutqda mustahkamlash, tovushni nutqda boshqa tovush bilan farqlash kabi ishlar qayd etiladi. Asosiy qismning vazifasi nutq kamchiligini bartaraf etishda korreksion-logopedik ishning muhim tomonlarini ketma-ketlikda olib borishdan iborat. Bunda asosan logoped tomonidan pedagogika va maxsus pedagogikada qayd etilgan metod va tamoyillarga tayangan holda ish olib boriladi.

Nutq kamchiliklariga ega bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan logopedik ishning samaradorligi qator omillarga bog'liqdir. Logopedning umumiy pedagogikada asos bo'lgan tamoyillarga va metodlarga tayangan holda ish olib borishi ham korreksion-pedagogik jarayonning to'g'ri tashkil etilishida muhim shartlardan sanaladi.

Ko'p tarmoqli maxsus maktabgacha ta'lim muassasalarida duduqlanish nutq kamchiligini bartaraf etish bo'yicha quyidagi namuna mashg'ulotini keltiramiz:



## TAYYORLOV GURUH
**Mavzu : "Sabzavotlar"**



(duduqlanish nutq kamchiligining klonik turida segmentar va nuqtali massaj qilish orqali yuz va bo'yin muskullaridagi tonusni yechish)

**Ta'limiy maqsad:**

Bolaning sabzavotlar haqidagi bilimlarini boyitish...

**Tarbiyaviy maqsad:**

- to'g'ri nutqiy munosabatga kirishishni tarbiyalash,;
- logoped ko'rsatmalari asosida qorinli nafasni idora qilish;
-o'z kuchiga bo'lgan ishonchni tarbiyalash.

**Korreksion maqsad:**

- nutq apparatidagi zo'riqishlarni massaj orqali yechish ( 2 chi kurs, 9 chi seans);
- nutqiy nafas va ovoz kamchiliklarini bartaraf etish;
- quyi-diofragmal nafasni shakllantirish, rivojlantirish;
- Sh va S tovushlari talaffuzidagi kamchiliklarni korreksiyalash, ushbu tovushlarni nutida mustahkamlash tovushlarni;
- lug'atini boyitish, psixik jarayonlarni rivojlantirish.

**Kompetensiya:**

- egallangan nutqiy ko'nikmalarni malakaga aylantirishga o'rgatish.

**Jihozlar:** Divan, massaj uchun bolalar uppasi, bir martali steril qo'lqop, sokin musiqa, mavzuga oid ko'rgazmalar, didaktik o'yinlar, nafas mashqlari uchun jihazlar, topishmoqlar kitobi, o'yinchoqli dutorcha...

## Mashg'ulotning borishi

1. Relaksatsiya

Bolani tekis, toza joyga yotqizamiz;

-boshini yostiqqa qo'ygan holatda ko'zlarini yumib yotishini so'raymiz;

- Sokin, tinchlantiruvchi musiqa qo'yamiz;

- Uqalashni boshlashdan oldin past, yumshoq va tinchlantiruvchi ovozda:

- Tinchsan, dam olayapsan. Nafas olishing tinch, bir-tekis, ko'zlaring yumiq, yengil va erkin nafas olayapsan. Sening mushaklaring bo'-shashgan, sen dam olayapsan. Sen tinch va xotirjamsan... deya relaks holatni chaqiramiz...

2. Segmentar va nuqtali massaj uyg'unligi (yuzaki va vibratsion uqalash)

- Yuzni silab olish (10 soniya);
- chakkadan peshonaning o'rtasi tomon silash (10 soniya);
- Chakkadan iyak tomon silash (10 soniya);
- chakkadagi parallel joylashgan BFN ukalash (10 soniya)

Peshona va qosh sohasi

- peshonani qosh ustidan tortib to boshning sochli qismigacha silash (10 soniya);
- qosh usti bo'ylab spiralsimon uqalash (10 soniya);
- ikki qosh o'rtasidagi nuqta, qosh burchaklaridagi nuqta, va qoshlar oxirida joylashgan BFN larni uqalash ( 10 soniyadan);

Lab atrofi

- yuz-chaynash muskullarini uqalash (10 soniya);
- lab atrofi aylana muskullarini silash (10 soniya);
- lab atrofi BFN ni uqalash;

Burun sohasi

- chakkadan burun tomon silash (10 marotaba)
- burun qanotlaridagi BFN larni uqalash;

Iyak sohasi

labdagi BFN ni uqalash

( 10 sek);

- iyakning ichki tomonida joylashgan tilning ildizini uqalash (10 soniya);



Tomoq sohasi

- tomoqdagi muskullarni bo'shashtiruvchi silashni amalga oshirib, tomoq chuqurchasidagi BFN ni uqalash (10 soniya);
- yuz va bo'yin sohasini umumiy silash va diofragmal nafas olish orqali massajni yakunlash.

Nafas va ovoz ustida ishlash

- Qo'llarni ko'tarayotib og'izdan chuqur nafas olish;

-Unlilarni birma-bir cho'zib aytgan holda, qo'llarni sekin tushirish (2 marotaba) ;

### "Kapalaklar" mashqi

og'izdan chuqur nafas olib, og'iz orqali bir nafasda 4-5 marotaba kapalaklarga qisqa-qisqa uflash ...

### "Sirli sabzavot" o'yini



• Logoped: - doskada nimalarni ko'rayapsan?
• Bola og'izdan chuqur nafas olib:
• - men doskada sabzavotlarni ko'rayapman.
• Logoped: - bular ichida qaysi sabzavot ko'rinmayapti?, uning tasviri doskaga sig'madi. Shuning uchun men uni rasmlar ortiga berkitdim.
• Bola topa olmasa unga topishmoq aytiladi
• " yer tagida oltin bosh"
• Bola sholg'om deb javob beradi.
• Logoped : - endi tekshirib ko'ramiz, men topishmoqlar aytaman, sen esa javobini topib, daskadagi rasmlarni olasan, o'shanda berkitilgan rasm ochiladi...

• (logoped birma-bir topishmoqlarni aytadi, bola esa topshiriqni bajaradi. Logoped bola nutqida avtomatlashtirilayotgan SH va S tovushlarini nazorat qiladi )

• Logoped : - bu qaysi ertak?

• Bola :- bu "Sholg'om" ertagi.

• Logoped : - ha, bu sholg'om ekan, sen to'g'ri topding, barakalla!

• (logoped boladan sholg'om so'zini takrarlashini so'raydi ).

**<u>Didaktik o'yin</u>**

**"Oshpaz" o'yini**



Bunda bola sharbat uchun mevalar, sho'rva uchun sabzavotlarni ajratadi...

Logoped **sh** va **s** tovushlarini nazorat qiladi

Barmoqlar harakatchanligini rivojlantirish ...

Bunda bola rangli qog'ozdan yasalgan va raqamlangan kesma sholg'omni qolabiga yopishtirish topshirig'ini bajaradi.

Logoped esa o'z o'rnida bolaga " nima qilayapsan?, bu nechanchi bo'lak ekan? kabi savollar beradi.

Logoped bolaning javobini, nafas qoidalariga rioya qilishini, SH va S tovushlarining talaffuzini nazorat qiladi...

Shu jarayonda logoped SHOLG'OM ashullasini kuylaydi, bola tinglaydi...

SHOLG'OM ashullasini birgalikda kuylash

Bunda logoped va bola SHOLG'OM ashullasini birgalikda kuylashadi



Yakuniy qism:
Rag'batlantirish

**"SHOLG'OM" qo'shig'i**
**(logoped bolaning nafas va ovozini nazorat qilib turadi...)**

Men sholg'omman, semizvoy,
Quyoshni xo'p sevaman.
Yerning bag'rida o'zim,
Pishaman, yetilaman.

* * *

Sabzavotlar ichida,
Eng totlisi o'zimman.
Qarang , rangimga , Qarang,
Xo'p oftobga o'xshayman.

* * *

Shifobaxshman, ishoning,
Ko'p dardlarni yengaman.
Buni bobom Sinoning,
Kitobidan bilaman.

( O. S. Ishmatova)

Ko'p hollarda amaliyotda bolalarda uchraydigan nutq kamchiliklari darajalari va simptomlaridan kelib chiqib tashkil etiladigan maxsus korreksion-logopedik ishlarda turlicha metodlardan foydalaniladi. Xususan, an'anaviy tarzda aksariyat logopedlar tomonidan og'zaki, ko'rgazmali va amaliy metodlardan kengroq foydalaniladi.

Tadqiqot jarayonlarida olib borilgan dastlabki kuzatishlardan shular ma'lum bo'ladiki, ayrim bolalar bilan ishlashda birdaniga ham og'zaki, ham ko'rgazmali va amaliy metodlardan foydalanishga ehtiyoj tug'iladi. Ya'ni logopedik mashg'ulotlarda tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni bartaraf etishda aralash metodlardan ham foydalaniladi.

Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar nutq nuqsonlarini bartaraf etishda: nutqiy nafas, ovoz, ularning umumiy tana harakatchanligi, barmoqlar harakatchanligini oshirish, tovushlar talaf-

fuzidagi turli kamchiliklarni bartaraf etishda og'zaki, ko'rgazmali va amaliy metodlardan foydalanish korreksion-pedagogik jarayonda bolalarning faol ishtirok etishini, logoped va bola o'rtasidagi muloqotning qulay va samarali tashkil etilishini ta'minlaydi.

Maktabgacha yoshdagi duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan logopedik metodikaning birinchi mualliflari N.A.Vlasova va Ye.F.Rau o'z metodikalarini murakkablashtirib boriladigan nutqiy mashqlar, bolaning mustaqil nutqi darajasiga ko'ra tashkil etadilar.

N.A.Vlasova nutqning 7 xil ko'rinishini farqlaydi. Bular:

1) logoped bilan birgalikdagi nutq;
2) aks etgan nutq;
3) tanish rasmlar asosida savollarga javob berish;
4) tanish rasmlarni mustaqil ta'riflab berish;
5) eshitilgan kichik hikoyani qayta hikoya qilib berish;
6) mustaqil nutq (notanish rasmlar asosida hikoya to'zish);
7) meyordagi nutq (suhbat, taklif va iltimoslar).

Ye.F.Rau logopedik mashg'ulotlar vazifasini quyidagicha tasavvur etadi, «duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar nutqini yuklamadan tizimli rejali mashg'ulotlar yo'li bilan xalos qilish, shuningdek, noto'g'ri talaffuzni bartaraf etish va aniq, to'g'ri artikulyatsiyani tarbiyalash». Duduqlanish nutq kamchiligigia ega bo'lgan bolalar nutqini qayta tarbiyalash uchun mo'ljallangan barcha mashg'ulotlar murakkablashib boruvchi uch bosqichga bo'linadi:

Birinchi bosqichda-mashqlar logoped bilan birgalikdagi nutq va aks ettirilgan nutqni tarbiyalash uchun maxsus ishlar olib boriladi.

Ikkinchi bosqichda bolalar rasmlarni savollar asosida ta'riflab berish, berilgan mavzuga oid yoki seriyali rasmlar asosida mustaqil hikoya to'zish, logoped o'qib bergan hikoyani qayta hikoya kelib berishga o'rgatib boradilar.

Uchinchi, yakunlovchi bosqichda bolalarga egallagan malakalarini o'yin, suhbat, mashg'ulot va boshqa bolalar hayotiy daqiqalarida do'stlari, tengdoshlari va kattalar bilan muloqot davomida mustahkamlash imkoniyati taklif etiladi.

N.A.Vlasova va Ye F.Rau metodikasi asosini bolalar mustqil nutqini turli darajalari tashkil etadi. Uzoq vaqtlar mobaynida berilgan metodika duduqlanuvchi bolalar bilan olib boriladigan logopedik ishlar



metodikasi ommaviy usullardan biri bo'lib hisoblanib kelinardi. Hozirgi kunda logopedlar mazkur metodikaning ayrim tarkibiy qismlaridan foydalanilmoqda.

N.A.Chevelyova qo'l faloliyati jarayonida duduqlanuvchi bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishlarning o'ziga xos tizimini taklif etadi. Muallif psixologik konsepsiyadan kelib chiqib, bolaning bog'langan nutqini vaziyatli nutqdan mustaqil nutqga o'tish yo'li bilan rivojlantirishni taklif etadi. Shundan kelib chiqib, u nutqni quyidagi shakllarini farqlaydi:

1. Kuzatuvchi nutq;
2. Yakunlovchi nutq;
3. Amalga oshiruvchi nutq.

Bolalarda duduqlanishning bartaraf etishning 5 bosqichi farqlanadi:

Tayyorlov bosqichi. Asosiy maqsad – bolalarga xulq-atvor ko'nikmalarini o'rgatish, logopedning ko'p bo'lmagan, mantiqiy to'g'ri nutqini eshitishga o'rgatish, bolaning o'zini nutqini esa cheklab qo'yish;

Kuzatuvchi nutq – bu bosqichda bolalar bajarayotgan harakatlari bilan birgalikdagi nutqi tushuniladi;

Yakunlovchi nutq –bu bosqichda bolalar bajarib bo'lgan ishlari haqida so'zlab beradilar. Ko'ruv tayanchini kengaytirib borish natijasida sekin asta mustaqil nutqga o'tiladi;

Amalga oshiruvchi nutq – bu bosqichda bolalar bajarmoqchi bo'lgan ishlari haqida gapirib beradilar. Bunda bolalarda ko'ruv tayanchiga asoslanmasdan o'z ish rejasini to'zishga, harakatlarni oldindan tushuntirib berishga va nomlashga, nutqdan mustaqil foydalanishga o'rgatiladi. Jumlali nutqi murakkablashtirib boriladi. Bu bosqichda bolalar mantiqiy fikrlashga, o'z fikrini ketma-ket va grammatik to'g'ri bayon qilishga, so'zlardan asl ma'nosida foydalanishga o'rgatiladilar;

Malakalarini mustahkamlash - bu bosqichda bolalar u yoki bu buyumni tayyorlash jarayonini mustaqil bayon qilib berishi, ularning o'z faoliyatlari haqida savol-javoblari, o'z xohish-istaklarini bayon etishi orqali olib boriladi.

S.A.Mironova maktabgacha yoshdagi bolalarda duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar ko'p tarmoqli maxsus maktabgacha ta'lim muassasalarida o'rta, katta va tayyorlov guruhlarida dasto'rni o'tish jarayonida bartaraf qilish tizimini taklif qiladi. U «Atrofdagi tabiat bilan tanishuv», «Nutqni o'stirish», «Elementar matematik

tushunchalarni rivojlantirish», «Rasm, yopishtirish, konstruktorlash» kabi bo'limlar bo'yicha mashg'ulot jarayonida olib borishni taklif etadi.

Muallif logopedlar oldiga dastur asosida kamchiliklarni tuzatishga qaratilgan vazifalar qo'yadi. Bu vazifalar to'rt chorak davomida ketma-ket murakkablashgan korreksion ishlar natijasida hal qilinadi.

Ommaviy bolalar bog'chalarida duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar bilan dasturni o'tishda bolalarning nutq imkoniyatlariga qarab ayrim o'zgarishlar qilish taklif qilinadi: o'quv yilining boshlarida oldingi guruhda o'tilgan materiallardan foydalanish; mashg'ulotning ayrim mavzularini joyini almashtirish; biroz qiyinroq mavzularni o'rganish muddatini uzaytirish va h.k.

Birinchi chorak korreksion vazifalari barcha mashg'ulotlarda sodda vaziyatli nutq malakalaridan foydalanishga o'rgatishdan iborat.

*Lug'at bilan* ishlash asosiy o'rinni egallaydi: lug'atni kengaytirib borish, so'zlarni mazmunini aniqlashtirish, passiv lug'at boyligini faollashtirish. Logopedning o'zini nutqiga alohida talab qo'yiladi: savolar aniq bo'lishi, nutq har xil variantda qisqa, aniq jumlalardan tashkil topishi, ertak so'zlash ko'rgazmali bo'lishi, shoshilmagan suratda bo'lishi talab qilinadi.

Ikkinchi chorakdagi korreksion vazifalar mustaqil nutqdan foydalanish ko'nikmalarini mustahkamlash, asta-sekin mustaqil nutqning sodda ko'rinishlarini egallashi, logopedning savoli yordamida va savolsiz ham hikoya to'zishga o'rgatishdan iborat. Jumla to'zish ustida ishlash katta o'rin egallaydi: oddiy, keng tarqalgan jumlalar to'zish, ularni grammatik joylashtirish, murakkab gap to'zish, mazmunini so'zlab berishga o'tish. Dasturdagi materialni o'rganishdagi ketma-ketlik o'zgaradi. Agar birinchi chorakda bolalar hamma mashg'ulotlarda bir predmet bilan tanishgan bo'lsalar, ikkinchi chorakda esa predmetlar takrorlanmaydi, mavzu va topshiriqdagi umumiylik belgisi bo'yicha yaqin obektlar tanlangan bo'ladi.

Uchinchi chorakdagi korreksion vazifalar oldin o'zlashtirilgan nutq shakllaridan foydalanish ko'nikmalarini mustahkamlash va mustaqil matn bo'yicha nutqiy so'zlashni egallashdan iborat. So'z to'zishga anchagina o'rin beriladi: so'z ko'rgazmali vositalarga qarab, logopedning savollari bo'yicha va mustaqil to'zilishi mumkin. Uchinchi chorakda dasto'rni oldingi bosqichlarga xos bo'lgan asta-sekinlik bilan o'rganish zarurati yo'qolib boradi va mashg'ulotlar ommaviy bolalar



bog'chalaridagi darajasiga yaqinlashib boradi.

To'rtinchi chorakdagi korreksion vazifalar turli murakkablikdagi mustaqil nutqdan foydalanish ko'nikmalarini mustahkamlashga yo'naltirilgan. Ijodiy so'zlash ustida ish olib borish katta o'rin egallaydi. Shuning bilan bir qatorda oldingi bosqichlarda boshlangan lug'at jamg'arish davom etadi. Jumlalar to'zish takomillashtirilib boriladi. Bolalar o'z nutqida logoped savollariga, mustaqil kuzatishlariga tayanadi, o'z fikrlarini bayon qiladi, xulosalar qiladi. Ko'rgazmali qurol deyarli qo'llanmaydi. Logopedning savollari bolalar o'zi o'ylab topgan, ko'tilayotgan ish jarayoniga taaluqli bo'ladi. Kamchilikni tuzatish o'qitish, berilayotgan syujet mazmunining mantiqiy ketma-ketligiga rioya qilish, tushuntirishlar, aniqlashtirishlarni berishni bilishga yo'naltirilgandir.

N.A.Cheveleva va S.A.Miranovalarning duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarni nutqini qayta tarbiyalash metodikalarini sodda vaziyatli nutq shaklidan mustaqil nutqga o'tish orqali erkin nutqga erishishshga asoslangan. Faqatgina N.A.Cheveleva bu ishni qo'l mehnati jarayonida amalga oshirishni taklif etsa, S.A.Mironova esa bolalar bog'chasi dasto'rining turli bo'limlarini o'tish jarayonida amalga oshiradi. Umuman, duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar bilan nutq kamchiliklarni bartaraf etish va tarbiyaviy ish olib borish vazifalarini birlashtirish tizimini zarurligi to'g'ri deb hisoblasa bo'ladi va uni logopedik amaliyotda qo'llash zarur deb hisoblanadi.

V.I.Seliverstov metodikasi esa ko'proq tabobat muassasalarida bolalar bilan ish olib borishga mo'ljallangan (ambo'latoriya va statsionar sharoitda). Muallif tomonidan taklif etilgan bolalar bilan ketma-ket murakkablashib boruvchi logopedik mashg'ulotlar sxemasi uch bosqichga bo'linadi: tayyorlov, mashq qilish va mustahkamlash bosqichlari.

Bu davrlar jarayonida nutqiy mashqlar bir tomondan, mustaqil nutqning darajasi uning baland-pastligi, ritmikligi, tuzilishigacha murakkablashtirilsa, ikkinchi tomondan turli murakkablikdagi nutqiy vaziyatlar: ijtimoiy qurshovi, bola faoliyati turlarigacha murakkablashtirilib boriladi.

Logopedik mashg'ulotlarning majburiy sharti bo'lib, ularning «Bolalar bog'chasida bolalarni tarbiyalash va o'qitish dasturi»ning hamma bo'limlari bilan bog'lab olib borish hisoblanadi va eng avvalo,

maktabgacha bolalar faoliyatining asosiy turi hisoblangan o'yin bilan bog'lash zarur.

Tarbiya va o'qitishning tabaqalashtirilgan psixolo-pedagogik metodning ahamiyati G.A.Volkova metodikasida yoritib berilgan.

2-7 yoshdagi duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar bilan kompleks ish olib borish tizimi quyidagi bo'limlardan tashkil topadi:

1. O'yin faoliyati tizimi;
2. Logoritmik mashg'ulotlar;
3. Tarbiyaviy mashg'ulotlar;
4. Bolalarning mikroijtimoiy muhitiga ta'sir etish.

Logopedik mashg'ulotning mazmunini tashkil etadigan, o'yin tizimi o'ziga quyidagi o'yin turlarini kiritadi: didaktik, ashula bilan o'yin, harakatli, qoidali o'yinlar, she'r va prozaik matnlar asosida drammalashtirilgan o'yin, stol tennisi o'yini, barmoq teatri, logoped maslahati bilan va bolalar o'zi o'ylab topgan ijodiy o'yinlar. Mashg'ulotlarda bolalar bilan birinchi navbatda o'yin faoliyatining tamoyiliga tayaniladi.

Ushbu metodika quyidagi bosqichlarga bo'linadi: bola nutqini tekshirish, nutqini cheklab qo'yish, logoped bilan birgalikdagi va aks ettirilgan nutq, savol-javob nutqi, turli vaziyatlarda bolalarning mustaqil muloqoti. Har bir mashg'ulot bog'cha dasturi materiallarini inobatga olgan holda, korreksion, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsadlarni amalga oshirishni hisobga olgan holda to'ziladi.

O'yin faoliyati metodikasi shaxs xususiyatlarini shakllantirishga va uning asosida nuqsonni bartaraf etishga yo'naltirilgan.

Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion-logopedik ishlar amaliyotida o'yin va o'yin usullari logopedik ta'sirning bosqichlariga ko'ra bolada toliqish holatlarini oldini olish maqsadida foydalaniladi.

4 yoshdan 7 yoshgacha duduqlanish nuti kamchiligiga ega bo'lgan bolalar bilan ish olib borishda kamchiliklarni tuzatishga qaratilgan logopedik ta'sir yetakchi ahamiyat kasb etadi, chunki yakka holda rivojlanish jarayonida shakllangan shaxsiy xususiyatlar duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolallarning nutq faoliyati xarakteriga ta'sir qiladi va defekt tarkibini aniqlab beradi.

O'yin faoliyati metodi shaxsni tarbiyalashga yo'naltirilgan bo'lib uni asosida esa kamchilikni bartaraf qilishga qaratilgan.



Shunday qilib, maktabgacha yoshdagi bolalarni duduqlanish nutq kamchiligini bartaraf qilish bo'yicha logopedik ishlarni takomillashtirish 20 asrning 80-yillarida turli uslubiy ishlanmalar yaratilishga olib keldi. Logopedik mashg'ulotlardagi nutq bo'yicha materiallar bosqichma-bosqich nutq tarbiyasi sharoitida bolalar tomonidan o'zlashtiriladi. So'zni birgalikda qaytarishdan to tanish rasmlarni tushuntirishda mustaqil so'zlab berishgacha, tinglagan katta bo'lmagan ertakni qayta so'zllab berish, sher aytib berish, tanish rasmga qarab savollarga javob berish, bola hayotining ayrim lavhalarini mustaqil so'zlab berish, bayramlar haqida so'zlash va boshqalar; nutqni bosqichma-bosqich tarbiyalash sharoitida sukut saqlash (gapirmaslik) tartibidan o'yin faoliyati yordamida ijodiy so'zlab berish, 2 yoshdan 7 yoshgacha bolalar bilan ishda tabaqalashtirishdan foydalanish, qo'l faoliyati yordamida mustaqil nutqni tarbiyalash asosida logopedik ishlar amalga oshiriladi.

Albatta, amaliy faoliyatda logoped logopedik mashg'ulotlarni tuzishga ijodiy yondoshishga haqli va majbur. U duduqlanuvchi bolalar kontingenti, ularning individual-psixologik xususiyatlariga muvofiq ma'lum metodlarni qo'llashi mumkin. Yuqorida qayd etilgan maktabgacha yoshdagi duduqlanuvchi bolalarga logopedik ta'sir qilish metodlari «Bolalar bog'chasida bolalarni tarbiyalash va o'qitish dasturi»ga muvofiq ishlab chiqilgan. Chunki, bu dastur ommaviy bolalar bog'chalari tarkibidagi nutq guruhlari uchun ham majburiy hujjat hisoblanadi.

Metodikalar logopedik ishlarni tashkil qilishni «Bolalar bog'chasida bolalar tarbiyasi dasturi» doirasida amalga oshirishga yo'naltirilgan. Chunki, duduqlanuvchi bolalar oxir-oqibatda dasturda belgilangan to'g'ri nutq va bilimlar ko'nikmalarini o'zlashtirib olib kelgusida normal gapiradigan tengdoshlari bilan bir sharoitda o'qiydilar va tarbiyalanadilar. Nutqni buzilishi va unga bog'liq bo'lgan bolalar axloqidagi o'zgarishlariga qarata yo'naltirilgan logopedik ta'sir duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarni to'g'ri nutqga ega bo'lgan tengdoshlari va kattalar orasida ijtimoiy jihatdan moslashuviga yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasida mustaqillik qo'lga kiritilgandan keyin olimlar va mutaxassislar yuqorida ko'rsatilgan metodikalarni yanada takomillashtirishga va milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda bu muammoni yechimini topishga harakat qilmoqdalar. Jumladan,

prof.L.R.Mo'minova, ilmiy-pedagogik faoliyatida duduqlanuvchi bolalar bilan logopedik ish olib borish metodini respublikamiz xususiyatidan kelib chiqqan holda ishlanmalarni tavsiya qilgan. Bular hozirda amaliy faoliyatda foydalanilmoqda.

O'quvchilar bilan olib boriladigan ishlarning o'z xususiyatlari va farqlari mavjuddir:

1. Yetakchi faoliyat turi o'zgaradi: o'yin faoliyatining elementlari o'quv faoliyati bilan birga mavjud bo'lsa ham asosiy faoliyat o'quv faoliyati hisoblanadi.

2. Mashg'ulotlarning o'yin shakli dars bilan almashtiriladi.

3. Agar maktabgacha yoshdagi bolalarda barcha ishlar oila, tarbiyachilar orqali olib borilsa, maktab yoshida logoped logopedik ta'sir etishni o'qituvchi bilan hamkorlikda amalga oshiradi.

4. Maktabgacha yoshda nutqning barcha elementlari o'yin faoliyati jarayonida logopedga taqlid qilish asosida tarbiyalanadi. Maktab yoshidagi nuqsonni ongli bartaraf etishdagi ko'rsatmalarga, nutq ustida mustaqil mashqlar bajarishga ko'proq ahamiyat qaratiladi.

5. Duduqlanish nutq kamchiligi maktabda barcha predmetlarning o'tishi jarayonida bartaraf etiladi.

6. Bilvosita psixoterapiya bilan bir qatorda ratsional psixoterapiya ko'rinishlaridan ham keng foydalaniladi.

7. Nutqiy material va logopedik mashg'ulot turlari maktab amaliyoti bilan yaqinlashadi (tafovut kamayib yo'qoladi).

Duduqlanish nutq kamchiligini bartaraf etishda maktab o'qituvchisining roli kattadir. U sinfda duduqlanish nutq kamchiligigiga ega bo'lgan bolalar g'amxo'r munosabatda bo'lish muhitini yaratadi. Asta-sekin duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar doska oldida mustaqil javoblar berishiga olib boradi. O'qituvchi duduqlanuvchining oilasi va logoped bilan doimiy aloqada bo'ladi. Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar tushkun kayfiyatga tushgan vaqtlarda o'qituvchi uni ruhlashtirishi, dalda berishi kerak, uning diqqatini shaxsiyatining ijobiy tomonlariga, o'zini qiziqtirgan faoliyatiga yo'naltiradi. O'qituvchi duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarni sinfning ijtimoiy hayotiga jalb etadi. Aynan kichik sinflar o'qituvchisi duduqlanuvchining asosiy qiziqishini aniqlaydi va uning rivojlanishiga yordam beradi.

Zamonaviy logopediya yutuqlari shuni ko'rsatadiki, nutq ustida olib



boriladigan korreksion ish hech qachon faqat rasmiy mashqlar bilan chegaralanmasligi lozim. Duduqlanish nutq kamchiligigiga ega bo'lgan bolaning faqat nutq mashg'ulotlari tizimi haqida gapirmay, balki uning reabilitatsion tarbiyasi haqida ham gapirish muhimdir.

Ayni vaqtda duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan o'quvchilar bilan olib boriladigan logopedik mashg'ulotlarda taklif qilingan metodik tavsiyanomalardan foydalanilyapti. Bu tavsiyanomalar maktabgacha yoshdagi bolalar bilan (kichik maktab o'quvchilari uchun) yoki o'smirlar va kattalar bilan ishlash uchun (katta yoshli amaktab o'quvchilari uchun) taklif etilgan. Masalan, N.A.Cheveleva qo'l mehnati faoliyati jarayonida 1-4 sinf duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan o'quvchilar nutqini to'g'rilash tizimini taklif etadi. Aslini olganda bu metodika avvalgi tavsiya etilgan logopedik mashg'ulotlar tizimidan kam farq qiladi. Asosan o'quvchilar bilan ishlash uchun taklif etiladigan, qo'lda yasaladigan buyumlar murakkabligi va tanlash o'zgartirilgan. O'quv choraklariga mos ravishda muallif logopedik mashg'ulotlar izchilligining 4 davrini ajratadi:

1. Kuzatuvchi nutq;
2. Yakunlovchi nutq;
3. Dastlabki nutq;
4. Mustaqil nutq malakalarini mustahkamlash.

Qo'l mehnati jarayonida duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar nutqini to'g'rilash bo'yicha mashg'ulotlarni N.A.Cheveleva maktab, shifoxona qoshidagi logopedik shaxobchalarda, maxsus maktablarda o'tkazish mumkin deb hisoblaydi.

Shifoxona qoshidagi logopedik xona, maxsuslashgan statsionar yoki sanatoriya sharoitidagi duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan o'quvchilar bilan olib boriladigan logopedik mashg'ulotlar tizimi ham yuqorida bayon etilgan kompleks metodikadan deyarli farq qilmaydi. Buni V.I.Seliverstov taklif etgan bo'lib, undagi o'zgarishlar faqat bolalar yoshining birmuncha kattaligi ularning rivojlanish darajasining o'sganligi bilan bog'liqdir. Bu logopeddan bolalarning o'zini ongli faolligini ko'proq tayanishini talab etadi.

A.V.Yastrebovaning logopedik ish tizimi o'quvchilarning ta'lim olishida 3 davrni ajratadi:

Birinchi davrda duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan o'quvchilar til sohasidagi o'zlarining bilimlarini oydinlashtiradilar

va kengaytiradilar. Bu nutqning tovush tomoni ustidagi maqsad sari yo'naltirilgan kuzatuvlar singari, nutqning tempi va ravonligini tartibga solish, yo'lga qo'yish bo'yicha faol mashqlar jarayonida ham namoyon bo'ladi. Birinchi davrdagi logopedik mashg'ulotlar mazmuni quyidagilarga yordam beradi:

1. Nutq tempi, ritmi va ravonligini tartibga solishga;

2. Lug'at boyligini tasavvur va tushunchalarni aniqlashtirish va kengaytirishga;

3. Nutqning grammatik qurilishini o'zlashtirishga;

4. So'zni tovush va morfologik analiz qilish malakalarini rivojlantirish va mustahkamlashga.

Mashg'ulotlarning ikkinchi davrida o'quvchilarning til sohasida olgan bilimlarni faollashtiriladi va birmuncha murakkab nutqiy materialda ravon, ritmik va ifodali nutq malakasi mustahkamlanadi. Bu keyinchalik lug'at boyligini kengaytirish, nutqiy tasavvur va tushunchalarni kengaytirish maqsadida amalga oshiriladi.

Mashg'ulotlarning uchinchi yakuniy davrida nutqning tovush va intonatsiya (ohang) tomonidan olib boriladigan ish davom ettiriladi. Til sohasining fonetiko-fonematik, leksik-grammatik va intonatsiya tarkibidagi olingan bilimlardan o'quvchilarning ongli foydalanishiga quyilgan talablar amalga oshiriladi. Shu bilan birga istalgan hayotiy vaziyatda ravon va ifodali nutq malakasi ham tarbiyalanadi.

Nutqning to'liq rivojlanmaganligi elementlari bilan duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqning holati logopedik ishning quyidagi asosiy yo'nalishlarini yuzaga keltiradi:

a) nutq tempni va ravonligi ustida olib boriladigan ish jarayonida o'zaro ta'sir etuvchi asosiy nutq komponentlarini maqsad sari va har tomonlama rivojlantirish (fonetik, leksik, grammatik);

b) logopedik mashg'ulotlarning nutq materialini, boshlang'ich sinf ona tilisi bo'yicha dastur mazmuni bilan mustahkam o'zaro aloqasi;

v) bolalarning nutqiy faolligini rivojlantirish.

So'nggi yillarda mamlakatimizda duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar uchun mavsumiy (yozgi) logopedik sanatoiyalar va sanatoriya tipidagi o'quvchilar dam olish maskanlari tashkil etildi. Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar bilan korreksion-pedagogik va davolash-sog'lomlashtirish ishlari o'qishdan bo'sh



vaqtlarda o'tkaziladi va dam olish bilan qo'shilib ketadi. Bunda iqlimiy va tabiiy omillardan keng foydalaniladi.

Bolalar dam olish maskanlarining oldida quyidagi vazifalar turadi:

1.Bolalarni umumiy sog'lomlashtirish;

2.Bolalarning nerv tizimini mustahkamlash;

3.Bolalarda duduqlanish nutq kamchiligining yengil shakllarini bartaraf etish va uning qaytalanishdan ogohlantirish.

Bolalarda duduqlanish nutq kamchiligining turli darajasi, hattoki, eng og'ir shakli, shuningdek, duduqlanish nutq kamchiligini boshqa nutq kamchiliklari bilan birga namoyon bo'lishi mavsumiy maxsus sanitoriyalarga yuborish uchun asos bo'ladi. Bolalar oromgohlariga duduqlanishni davolash kursini o'tgan, duduqlanishning yengil shakllari bo'lgan bolalar yuboriladi.

## Nazorat savollari:

1. Ko'p tarmoqli maxsus maktabgacha ta'lim muassasalarda korreksion ishlarning mazmuni?

2. Ko'p tarmoqli maxsus maktabgacha ta'lim muassasalarda logopedik mashg'ulotlar vazifalari?

3. Nutqning to'liq rivojlanmaganligi elementlari bilan duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqning holati logopedik ishning qaysi yo'nalishlarida yuzaga keladi?

4. Qaysi olim qo'l mehnati faoliyati jarayonida 1-4 sinf duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan o'quvchilar nutqini to'g'rilash tizimini taklif etadi va nima uchun?

5. Duduqlanish nutq kamchiligini bartaraf etishda barmoqlar harakatchanligining korreksion ahamiyati nimadan iborat?

## Topshiriqlar:

1. "Keys - stadi" texnologiyasi orqali A.V.Yastrebovaning logopedik ish tizimi duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan o'quvchilarning ta'lim olishida 3 davrini tahlil eting.

| *Ish bosqichlari* | *Faoliyatning shakli va mazmuni* |
|---|---|
| 1 davr | |
| 2 davr | |
| 3 davr | |

2. Maktabgacha yoshdagi duduqlanish nutq kamchiligini bartaraf etishda olib boriladigan guruhli va yakka mashg‘ulotlarni o‘xshash va farq tomonlarini quyidagi chizmada tahlil eting.

| *Maktabgacha yoshdagi duduqlanish nutq kamchiligini bartaraf etish* | |
|---|---|
| Guruhli mashg‘ulotlar | Yakka mashg‘ulotlar |
| | |
| O‘xshash tomonlari | |

**Tayanch iboralar:**

Psixoterapiya – (grekcha psyche – jon, therapeia – davolash so‘zlaridan) – bemorlarga psixik ta’sir ko‘rsatish yordamida davolash. Nutq kamchiliklarini bartaraf etishda psixoterapiyada tushuntirish, ishontirish, gipnozdan foydalaniladi.

Suggestiya – (lotincha suggestio) – psixoterapiyaniya maxsus metodi – ishontirish.



## 11§. Maktabgacha yoshdagi duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion-pedagogik ishda nutqiy nafas va ovozning ahamiyati

**Reja:**

1. Maktabgacha yoshdagi duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion-pedagogik ishda nutqiy nafasning ahamiyati.
2. Maktabgacha yoshdagi duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion-pedagogik ishda ovozning ahamiyati.

Maktabgacha yoshdagi duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalarda nutqiy nafas va ovozni rivojlantirish bo‘yicha bir qancha olimlar ilmiy tadqiqot ishlar olib borganlar. Ular turli yoshdagi duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalarda nutqiy nafas va ovozni rivojlantirish uchun bir necha xil metodikalar yaratgan bo‘lib, bugungi kunda bu metodikalar amaliyotda keng qo‘llanilmoqda.

E.N.Nazarova o‘zining ilmiy maqolasida maktabgacha yoshdagi nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalar nutqiy nafas va ovozni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, rivojlantirish va mustahkamlash ishlari haqida gap boradi.

Ko‘pincha maktabgacha yoshdagi duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalarda nutqiy nafas va ovozdan to‘g‘ri o‘z o‘rnida qo‘llay olmaslik hollari kuzatiladi. Buning natijasida bola o‘z nutqi jarayonida bir qancha qo‘pol xatoliklarga duch keladi. Muallif nutqiy nafas va ovozdagi kamchiliklarni bartaraf etib ularni rivojlantirish uchun logoritmik mashg‘ulotlarni ovoz va nutqiy nafas bilan kompleks ravishda ish olib borishni tavsiya etadi. Shu bilan birga muallif yana bir samarali usullardan biri, bu musiqa ostida nafas va ovozni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishni aytib o‘tadi. Maktabgacha yoshdagi duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalar qo‘shiq aytish jarayonida ularning ovozi va nafas olishi musiqa o‘qituvchisi va guruh logopedi boshchiligida boshqarilib, to‘g‘rilab boriladi. Qo‘shiq tanlash vaqtida uning bir qancha tomonlariga e’tibor berish lozim:

- qo‘shiq bolaning nutq kamchiligidan kelib chiqqan holda tanlash;
- so‘z va iboralarning bolaga murakkab bo‘lmasligi;
- nafas va ovozdan to‘g‘ri foydalanish uchun qo‘shiq matni, tempi,

diapazoni hamda jumlalar hajmini hisobga olish.

Bolani sekin-astalik bilan qo'shiq jarayonida to'g'ri ishtirok etishi uchun, qo'shiqlar boshida sodda so'z va iborlalardan tashkil topadi. Keyinchalik bolaning holatiga qarab murakkablashib boradi. Qo'shiq aytish jarayoni orqali nafaqat nafas va ovoz rivojlanadi, balki bola xor bilan yoki yakka qo'shiq aytish orqali o'zini bemalol his qila oladi, jamoada o'z o'rniga ega bo'ladi, degan fikrlarni muallif ta'kidlab o'tadi.

S.L.Taptapova, I.I.Ermakovalar ovoz apparatidagi kasalliklar, ularni bartaraf etish, rivojlantirish ishlari bo'yicha aytib o'tganlar. Mualliflar ovozdagi kekirdek falajlanishi, parezlarni tiklash bo'yicha amaliy ishlarni to'rtta bosqichga bo'lganlar:

I – Ratsional psixoterapiya;

II – Fiziologik va fonatsion nafasni korreksiyalash;

III – Fonopedik mashqlar yordamida ovoz apparati kinesteziyasi va koordinatsiyasini mashq qildirish;

IV – Fonatsion vokal mashqlarni to'g'ri mustahkamlash.

F.X. Davletkulova o'zining ilmiy maqolasida nutq kamchiliiga ega bo'lgan bolalarni erta reabilitatsiya ishlarni yuritish haqida aytib o'tadi. Shulardan mediko-pedagogik reabilitatsiya ishlaridir. Mediko-pedagogik ishlari o'z navbatida korreksion-pedagogik ishlariga bo'linib olib borilgan. Muallif korreksion-pedagogik ishlar o'z ichiga quyidagilarni kiritgan:

- logopedik massaj;
- yuz muskullari va artikulyatsion apparatining passiv hamda faol gimnastikalari;
- nafas mashqlari;
- ko'ruv va eshituv idrokini rivojlantiruvchi mashqlar;
- ovoz mashqlari.

Barcha logopedik ishlarni kompleks ravishda tashkil etilishi maqsadga muvofiq ekanligini muallif ta'kidlab o'tadi: nevrapotolog, logoped, LFK, ota-onalar.

F.I.Ivanovskaya maktabgacha yoshdagi bolalar va maktab yoshidagi bolalar ovozini rivojlantirish, chuqur nafas olish, uzoq nafas olish, qisqa nafas olish, ovoz kuchi, undan to'g'ri foydalanish, rivojlantirilgan nafas va ovozni so'z va iboralarda mustahkamlash ishlari yoritiladi. Muallif shunday xulosaga keladiki:

1. Ma'lum bir ovoz turlarining buzilishini bartaraf etish uchun



davolash ishlari bilan birga logopedik mashg'ulotlarni olib borish;

2. Artikulyatsion organ va nafas ustida to'g'ri va aniq ish olib borish, ovoz un paychalarining rivojlanishiga zamin hisoblanadi;

3. Butun nutq apparatini mashq qilib bo'lgach, ehtiyotkorlik bilan ovoz fonatsiyasiga o'tiladi;

4. Ovoz gigienasi haqida to'g'ri targ'ibot ishlarini olib borish lozim;

5. Mutaxassislar prafilaktika qilish jarayonida bolalar ovozini saqlashni ham inobatga olish lozim.

M.Yu. Ayupova va M. Jo'raevalar o'zining ilmiy maqolasida nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarda kuzatiladigan nutq nuqsonlari, ularning ko'rinishlari haqida gap boradi. Mualliflar logopedik ta'sirining asosiy vazifalari quyidagilarda o'z aksini topadi, deb aytib o'tadilar:

- artikulyatsion motorika;
- nutqiy nafas;
- ovoz;
- nutqning tempi;
- ritmni normalashtirish va rivojlantirish;
- tovushlar talaffuzini korreksiyalash;
- fonetik idrok va tovushlar tahlilini shakllantrish;
- nutqning leksik-grammatik qurilishini mukamallashtirish.

Barcha logopedik tadbirlar yagona tibbiy-pedagogik korreksion ta'sir jarayonida amalga oshiriladi.

Maktabgacha yoshdagi duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarda nutqiy nafas va ovozni rivojlantirishda quyidagi ish turlaridan foydalanilgan holda logopedik ishni olib borish tavsiya etiladi:

- Ovoz modulyatsiyasini baland-pastligi bo'yicha tekshirish.
- Ovoz modulyatsiyasini ovoz kuchi bo'yicha tekshirish.
- Ovozning dimog' (burun) tembrini aniqlash;
- Ovoz tembrni idrok etishni tekshirish;
- Ovoz tembrini qaytarishni tekshirish;
- Nutqiy nafasni tekshirish.

Ushbu ish turlaridan foydalanilgan holda quyidagicha topshiriqlardan foydalaniladi:

*Ovoz modulyatsiyasini baland-pastligi bo'yicha tekshirish*

1. Ayrim tovush va taqlid so'zlarni baland va past ovoz bilan talaffuz qilish.

Ko'rsatma: "Qani katta kema, samolyot va h.k., hamda ularning

kichikinasi qanday ovoz chiqarishini, hayvonlar va ularning bolalari qanday ovoz chiqarishlarini ko'rsat".

| | |
|---|---|
| DUD↘ -katta (past) ovoz | DUD↗- kichik (jarangdor)kema |
| A↘- | A↗- |
| O↘- | O↗- |
| MU↘- sigir | MU↗- buzoqcha |
| VOV↘- it | VOV↗- kuchuk bolasi |
| MYaU↘- mushuk | MYaU↗- mushuk bolasi |

2. Unli tovushlarni talaffuzda ularning grafik tasviri yoki qo'l harakatiga tayanib ovozni balandlatish va pastlatishni amalga oshirish.

yuqoriga – ovozni balandlatish;

pastga – ovozni pastlatish.

<u>1–ko'rsatma</u>:"Sen oyoqlaring bilan emas, balki ovozing bilan zinapoyalardan yuqoriga, keyin esa yana ovoz bilan zinapoyalardan pastga tushishga harakat qilib ko'r. Ovoz zinapoyalardan yuqoriga ko'tarilayotganda, u balandlashadi va ingichkalashadi. Ovoz zinapoyalardan pastga tushayotganda esa, u pasaya boshlaydi. Avval A tovushi, keyin esa O, U tovushlari bilan talaffuz qilamiz.




<u>2-ko'rsatma</u>: "Qo'g'irchoq chaqaloqni qanday alalab, tebratishlarini ko'rsat".




**"Soat qanday yurishini ko'rsat".**






**"Qo'ng'iroq qanday jaranglashini ko'rsat".**




<u>Eslatma</u>: Ovoz balandlashayotganini yoki pasayotganini ko'rsatish uchun logoped qo'lining harakati bilan faol ravishda yordamlashadi.

*Ovoz modulyatsiyasini ovoz kuchi bo'yicha tekshirish*

<u>1-ko'satma:</u> Turli hayvonlar, hashoratlar, qushlar qanday ovoz chiqarishlarini eshit. Ularning ovozi bo'yicha ular yaqindami yoki uzoqdami, topchi? Agar uzoqda bo'lsa, unda ovoz juda past, agar yaqinda bo'lsa, unda ovoz juda balandligini eslatib o'tamiz.

| *Baland* | *Past* |
|---|---|
| Qo'ng'iz – JJJJJ | jjjjj |
| Chivin – ZZZZZ | zzzzz |
| Chigirtka – Chirt-chirt | chirt-chirt |
| Kakku – Ku-ku | ku-ku |
| Qurbaqa – Vaq-vaq | vaq-vaq |
| Boyo'g'li – U-U, U-U | u-u, u-u |
| Eshak – IA-IA | ia-ia |

<u>Eslatma</u>:Taqlid so'zlarni har xil berish kerak.

1.Ovozning turli kuchi bilan talaffuz qilingan ayrim tovush va taqlid so'zlarni talaffuz qilib qaytarish.

<u>1-ko'rsatma</u>: "Kema, samalyot, mashinalar uzoqda bo'lsa qanday signal beradi va yaqinda bo'lsa qanday signal beradi?"

| **Yaqinda** | **Uzoqda** |
|---|---|
| Samalyot (A) - ... ? | ... ? |
| Kema (DUD) - ... ? | ... ? |
| Poezd (U) - ... ? | ... ? |
| Mashina (BIB) - ... ? | ... ? |

<u>2-ko'rsatma</u>:"Turli hayvonlar, hashoratlar, qushlar qanday qilib ovoz chiqaradilar, ko'rsat. Agar ular uzoqda bo'lsa qanday ovoz chiqaradi, agar ular yaqinda bo'lsa qanday ovoz chiqaradi?"

| | Yaqinda | Uzoqda |
|---|---|---|
| Qo‘ng‘iz (JJJ) - | ... ? | ... ? |
| Chivin (ZZZ) - | ... ? | ... ? |
| Chigirtka (Chirt-chirt) - | ... ? | ... ? |
| Kakku (Ku-ku) - | ... ? | ... ? |
| Qurbaqa (Vaq-vaq) - | ... ? | ... ? |
| Boyo‘g‘li (U-U, U-U) - | ... ? | ... ? |
| Sigir (Mu-mu) - | ... ? | ... ? |

Ayrim tovush va taqlid so‘zlarni talaffuz qilishda ovoz kuchining asta-sekinlik bilan o‘sishi va kamayishini qaytarish.

1-ko‘rsatma: “Yaqinlashib kelayotgan samalyot, poezd, mashina va h.k. lar qanday signal berishini ko‘rsat”.

Poezd - _u__u__u__u___u (ovoz kuchini o‘sishi)

Mashina - _bib_bib__bib___bib___bib (ovoz kuchining → o‘sishi)

Samalyot - _l___l_____l_____l_____l (ovoz kuchining → o‘sishi)
Pichirlab past oddiy baland juda
balandlikda baland

2-ko‘rsatma: “Uzoqlashib ketayotgan samolyot, poezd, mashina va h.k. lar qanday signal berishadi, ko‘rsat”.

Poezd - _u__u___u___u___u__

Mashina - _A__A___A___A___A__

Samalyot - _L___L___L____L_____L___
juda baland oddiy past pichirlab
baland balandlikda

3-ko‘rsatma: “Yaqinlashib kelayotgan hayvonlar, hashoratlar, qushlar qanday ovoz chiqarishlarini ko‘rsat”.

Qo‘ng‘iz- _J_J__J__J____J__ J_J_J_J_J →
past pichirlab oddiy oddiydan baland bir nafasda,
baland – balandlikda sidirg‘asiga



Chivin- _Z__Z____Z___Z____Z____Z_Z_Z_Z_Z →
Past pichirlab oddiy oddiydan baland bir nafasda,
baland – balandlikda sidirg‘asiga

Kakku- _kuku__kuku__kuku__kuku__kuku__KUKU →
past pichirlab oddiy oddiydan baland juda baland
baland – balandlikda

Sigir- _mu__mu__mu__mu__mu__MU →
past pichirlab oddiy oddiydan baland juda baland
baland – balandlikda

Boyo‘g‘li- _u-u__u-u__u-u__u-u__u-u__U-U →
past pichirlab oddiy oddiydan baland juda baland
baland – balandlikda

It- _vov__vov__vov__vov__vov__VOV →
past pichirlab oddiy oddiydan baland juda baland
baland – balandlikda

4-ko‘rsatma: “Militsiya mashinasi qanday sirena-signalini chalishni ko‘rsatchi. U avval uzoqdan sekin eshitilsin, keyin yaqinlashib kelayotgandek borgan sari balandlashib, baland eshitilsin, ya’ni bir nafasda, undan keyin esa yana sekinlashsin.

_u__u__u___u___u___U___u___u___u__ →
pichirlab past oddiy oddiydan baland oddiydan oddiy past pichirlab
baland – balandlikda baland – balandlikda

**Ovozning dimog‘ (burun) tembrini aniqlash**

Ovoz tembrini dastlabki sub’ektiv baholash bola bilan muloqat o‘rnatish maqsadida ilk bor muloqat o‘rnatish chog‘ida amalga oshiriladi. Ovoz tembrini tadqiq qilish va baholash uchun Ye.S.Almazova tomonidan ishlab chiqilgan tembrini baholash shkalasidan foydalaniladi.

1.Giponazalizatsiyani aniqlash. (Giponazalizatsiya – havo oqimining dimoqdan chiqishning kamayishi)

Giponazalizatsiya chog‘ida <m>, <n> tovushlari bola nutqida <b> <d> tarzida jaranglaydi.

Tadqiqot uchun jihozlar: So‘zlar aytilishida <m> <n> tovushlari uchraydigan predmetlar rasmi.

Ko‘rsatma: “Logoped orqasidan so‘zlarni qaytar. Barmoqlaring bilan burningni bosi turib, rasmlarni nomla”.

| | |
|---|---|
| MAShINA | MALIKA |
| MOSH | MALINA |
| NINA | NOG'ORA |
| NUR | NOK |

Jarayonining borishi: So'zlarni qaytarish vaqtida bola barmoqlari bilan burnini bir oz siqib turadi. Bunda tembr o'zgardimi yoki avvalgidek qoldimi, shunga e'tibor beriladi. Normal holatda, normal tembrda burunning siqilishi gipernazalizatsiyaga (ya'ni ovozda dimoqlanish kuzatiladi) olib keladi. Gipernazalizatsiya chog'ida burun yo'llarining ochiqligi kabi, burunni siqish chog'ida ham tembr avvalgidek saqlanadi.

1. Gipernazalizatsiyani aniqlash.

Gipernazalizatsiya chog'ida dimoqlashuv, <m> va <n> undosh tovushlaridan tashqari yana unli tovushlarda ham uchraydi.

Tadqiqot uchun jihozlar: So'zlar, gaplar, syujetli rasmlar bo'yicha savollar.

1-ko'rsatma: "Logoped ketidan gaplarni takrorla".

2-ko'rsatma: "Burningni barmoqlaring bilan bosib turib, rasmlar bo'yicha savollarga javob ber ".

- Komilning velosipedi buzilib qoldi.
- Haydovchi mashinani to'xtatdi.
- Novdalarda na'matak qip-qizil bo'lib turibdi.
- Mo'ridan tutun chiqyapti.

Jarayonining borishi: Gipernazalizatsiyani aniqlaganda tekshiruv ikki marotaba o'tkaziladi:

1-martada ko'rsatma tembrdagi nuqsonlarni mavjudligini aniqlash uchun beriladi.

2-martada esa ko'rsatma giperburunli rezonansni, ya'ni gipernazalizatsiyani tasdiqlashga imkon beradi. (Rezonans – tebranish omplitudasini kuchli o'sish holati). Burun teshiklari bekitilganda gipernazalizatsiya kuchayib boradi.

Dizartriyani styortaya formasiga ega bo'lgan bolada gipernazalizatsiyani aniqlaganda otolaringolog burundan nafas olishni qiyinlashtiruvchi organik nuqsonlarni: adenoidlarni, poliplarni, burun devori qiyshayshini oldini olish uchun muhimdir.



**Ovoz tembrini idrok etishni tekshirish**

Ovoz tembrini idrok etilishini tadqiq qilishda ovoz toni jaranginining xarakterini eshitish orqali aniqlay olish ko'nikmasi baholanadi.

Tadqiqot uchun jihozlar: Insonlar his-tuyg'ularini aks ettiruvchi maska-belgilar tasvirlangan rasmlar; undov so'zlar; gaplar; turli yoshdagi insonlar tasvirlangan rasmlar.

1. Undov so'zlari bo'yicha ovoz tembrini farqlash.

Jarayonning borishi: Logoped undov so'zlarni yakka holatda ovoz tembrini o'zgartirib, turli xildagi hissiy holatlarni ovozi orqali aks ettirgan holda talaffuz qiladi. Keyin esa logoped bolaga turli insonlar his-tuyg'ularni aks ettiruvchi maska-belgilar tasvirlangan rasmlarni ko'rib chiqishni va mosini tanlashni taklif etadi (insonning yuz ifodasi mos hissiyotini aks ettirishi kerak).



Ko'rsatma: "Diqqat bilan rasmlarga qara. Ushbu odamchalar yuz ifodasi turli his-tuyg'ularni: xafa bo'lish, hayratlanish, quvonch, jahil chiqish, qo'rquvni ifodalaydi. Logoped kichik so'zlarni (hayqiriqlarni) talaffuz qiladi, sen esa logoped so'zlarni ovozning qanday ohang bilan talaffuz qilganini o'ylab ko'r va unga mos keladigan odamchani ko'rsat".

1. Ha! – quvonch, qoyil qolish.
2. Voy! – qo'rquv.
3. Ux! – norozilik.
4. A! – xayratlanish.
5. Ex! – xafalik, afsuslanish.

2. Gap materialida ovoz tembrini farqlash.

Jarayonining borishi: Bolaga bitta gapni bir necha marta eshitishni, eshitish orqali u qanday ovoz ohangidan talaffuz qilinganini aniqlash va yuz ifodasi shu ohangga mos holatni ko'rsatish taklif etiladi.

Ko'rsatma: "Hozir logoped gaplarni talaffuz qiladi, sen esa o'ylab

ko'r gap qanday ohangda talaffuz qilinyapti va unga mos bo'lgan odamchani ko'rsat".

1. Yomg'ir yog'moqchi! (norozilik)
2. Yomg'ir yog'moqchi! (quvonish)
3. Yomg'ir yog'moqchi! (hayratlanish)
4. Yomg'ir yog'moqchi! (hafa bo'lish)
5. Yomg'ir yog'moqchi! (qo'rquv bilan)



3. Turli yoshdagi insonlar ovozi tembrini farqlash.

Jarayonining borishi: Bola oldiga turli yosh vakillari tasvirlangan insonlar tasviri qo'yib chiqiladi (ayol kishi, erkak kishi, bola, buvi, buva). Keyin bolaga turli yoshdagi insonlar ovozi yozilgan magnitafon tasmasini eshitishni va mos holatdagi insonlar rasmini ko'rsatish taklif qilinadi.

Ko'rsatma: "Rasmlarni diqqat bilan ko'rib chiq. Eshit va kimning ovoziligini aniqla. Mos keluvchi rasmni ko'rsat".

Nutqiy material: Turli xil ovozlarda talaffuz qilingan bitta ibora.

"Kimning ovozi ekanligini top-chi?".

1. Ayol kishi ovozi.
2. Erkak kishi ovozi.
3. Bola ovozi.
4. Qari ayol ovozi.
5. Qari erkak ovozi.

*Nutqiy nafasni tekshirish*

Nutqiy nafasni tadqiq etish nafas olish va nafas chiqarishni baholashdan boshlanadi. Bola nafasining xarakteri tinch holatda va nutqiy holatda aniqlanadi. Bola tinch turganda ko'rish orqali nafas xarakteri aniqlanadi: bola burun bilan nafas olyaptimi yoki og'iz bilanmi.



3 turdagi nafas ajratiladi:

- yuzaki nafas;
- ko'krak bilan nafas olish;
- qovurg'alardan pastda nafas olish (qorin bilan nafas olishi).

Yuzaki (o'mrovli) nafasda nafas olganda qorin ichga tortiladi, yelkalar esa yuqoriga ko'tariladi. Ko'krak nafasida – nafas olish chog'ida ko'krak kengayadi. Qovurg'alararo (diafragmal), nafasda – nafas olish chiqarish chog'ida esa qorin torayib, ichkariga kiradi. Qovurg'alar osti nafasi – diafragmal nafas nisbatan fiziologik hisoblanadi.

1. Havo oqimining yo'naltira olinishini tekshirish.

Tadqiqot uchun jig'ozlar: pufakcha, paxtali kaptokcha, tug'ilgan kunlar uchun mo'ljallangan shamlar.

Ko'rsatma: "Qanday puflay olishingni ko'rsat".

- Mana koptok, mana bu esa darboza. Koptokni puflab darbozaga gol ur.
- Mana pufakcha, unga shunday puflaginki u balandga uchsin.
- Mana sham, uni tug'ilgan kunga yoqishgan. Shamni bir urinishda o'chirchi.

2. Hova oqimi kuchini tekshirish.

Tadqiqot uchun jihozlar: Qirrali qalam, puflanuvchi garmoshka.

Ko'rsatma: "Qani sen qanchalik kuchli puflay olishingni sinab ko'ramiz".

- Mana qalam (20 sm oraliqda), unga shunday puflaginki, u stolda dumalab ketsin. Buning uchun burning bilan nafas ol va qalamga qarab kuch bilan pufla. Lablaringni karnaycha qilib cho'z.
- Mana puflama garmoshka, unga kuchli shunday kuchli puflaginki, ovoz chiqsin.

3.Talaffuz nafasi xususiyatlarini tekshirish.

1) Bir nafasda so'zlari ko'payib boruvchi gaplarni qaytarish.

Jarayonning borishi: Bolaga burun orqali nafas olish va nafas chiqarish chog'ida gapni talaffuz qilish taklif etiladi.

Ko'rsatma: "Diqqat bilan gapni eshit va uni takrorla. Gapni bir nafasda to'g'ri aytishga harakat qil".

1. Qiz gul rasmini chizyapti.
2. Qiz qalamlar bilan gul rasmini chizyapti.
3. Qiz qalamlar bilan chiroyli gul rasmini chizyapti.
4. Qiz rangli qalamlar bilan chiroyli gul rasmini chizyapti.

2) Bir nafasda takror bo‘g‘inli iboralarni qaytarish.

Jarayonning borishi: Bolaga burun orqali nafas olish va nafas chiqarish chog‘ida takror bo‘g‘inli iboralarni aytish taklif qilinadi. Eksperiment o‘tkazuvchi topshiriqni bajarishning namunasini ko‘rsatadi.

Ko‘rsatma: “Diqqat bilan takror bo‘g‘inli iboralarni eshit. Burun orqali nafas ol va nafas chiqarish chog‘ida uni mendek takrorla”.

Sa-sa-sa – mana sizga issiq somsa.
Ish-ish-ish – o‘lkamizga keldi qish.
Za-za-za – suv to‘la ko‘za.

3) Bir nafasda avtomatlashgan qatorni qaytarish.

Ko‘rsatma: “Bir nafasda birdan o‘ngacha sana”.

4) Qisqa she’rini qaytarish.

Jarayonning borishi: Qisqa she’rni o‘qishda, bola nafasning qaysi fazasida nutqni boshlayotgani qayd etiladi. Fonatsiya va nafas koordinatsiyasining mavjudligi belgilanadi. Shuningdek, fonatsiya va nafasning diskoordinatsiyasi ham aniqlanadi.

Ko‘rsatma: “She’rni chiroyli, ifodali, to‘xtash kerak bo‘lgan joylarda to‘xtab, huddi bayramdagidek o‘qib ber”.

Nok-mevalar asli,
Erta pishar hosili.
Shirinligi huddi bol,
Pishganini terib ol.

Ishkomlarga bir qarang,
Husaynilar rang-barang.
Uni suvga chayib yeng,
Bog‘boniga raxmat deng.

**Nazorat savollari:**

1. S.L.Taptapova, I.I.Ermakovalar ovoz apparatidagi kasalliklar, ularni bartaraf etish, rivojlantirish ishlari bo‘yicha aytib o‘tganlar. Mualliflar ovozdagi kekirdek falajlanishi, parezlarni tiklash bo‘yicha amaliy ishlarni to‘rtta bosqichga bo‘lganlar ular qaysilar?
2. Ovoz modulyatsiyasini baland-pastligi bo‘yicha tekshirish ishlarini yoritib bering.
3. Turli yoshdagi insonlar ovozi tembrini farqlashni yoritib bering.
4. Undov so‘zlari bo‘yicha ovoz tembrini farqlashni yoritib bering.

**Topshiriqlar:**

1. Duduqlanish nutq kamchiligida ovozni rivojlantirish bo‘yicha olib boriladigan korreksion logopedik ishlarni “FSMU texnologiyasi” orqali yoritib bering.



| | |
|---|---|
| **F**<br>Fikringizni bayon etting | |
| **S**<br>Fikringiz bayonga sabab ko‘rsating | |
| **M**<br>Ko‘rsatilgan sababga tushunitiruvchi misollar keltiring | |
| **U**<br>Fikringizni umumlashtiring | |

2. ”Veyn diagrammasi” yordamida duduqlanish nutq kamchiligini bartaraf etishda nutqiy navas va ovozni rivojlantirish bo‘yicha olib boriladigan krreksion logopedik ishlarning farqi hamda umumiy tomonlarini ko‘rsatib bering.




3. Quyidagi keltirilgan jadvalda ovozni tekshirish bo‘yicha olib boriladigan logopedik ishlarga qisqacha ta’rif bering.

| Ovoz modulyatsiyasini baland-pastligi bo‘yicha tekshirish | Ovoz modulyatsiyasini ovoz kuchi bo‘yicha tekshirish | Ovozning dimog‘ (burun) tembrini aniqlash | Ovoz tembrni idrok etishni tekshirish | Ovoz tembrini qaytarishni tekshirish |
|---|---|---|---|---|
| | | | | |

## 12§. Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo‘lgan o‘smir va kattalar bilan olib boriladigan logopedik ishlar tizimi

**Reja:**

1. Duduqlanish nutq kamchiligida davolovchi-pedagogik ta’sir.
2. Katta yoshdagi duduqlanuvchilar bilan olib boriladigan logopedik ishlar.

Ko‘p hollarda o‘smir va kattalarda uchraydigan duduqlanish nutq kamchiligi holatlari bolalik davrida yuzaga kelgan uzoq davom etgan jarayon oqibatidir. Bu yosh davrida nutq nuqsoni yaqqol namoyon bo‘ladi va turg‘undir, shuningdek shaxs shakkllanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatgani uchun bartaraf etish ishlarini qiyinlashtiradi. Davolov-pedagogik ta’sirni asosini quyidagilar tashkil etadi:

1. Tibbiy va pedagogik usullardan mujassam holda foydalanish. Masalan: psixoterapevtik metodika-autogen mashq-o‘z ichiga logopedik, nutqiy materialni qamrab oladi; o‘z navbatida individual logopedik mashg‘ulotlarida funksional mashqlarning psixoterapevtik metodlaridan keng foydalaniladi va hokazo.

2. O‘smir va kattalarda duduqlanish nutq kamchiligining klinik ko‘rinishining murakkabligi birinchi navbatda duduqlanishni tibbiy tadbirlar majmuasi yordamida bartaraf etiladir. Bu o‘z navbatida duduqlanish nutq kamchiligigiga ega bo‘lgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion-logopedik ishlarning roli, joyi va o‘ziga xos xususiyatiga ta’sir etadi. Shuning uchun, hozirgi paytda ko‘p hollarda logoterapiya logopsixoterapiyadan keng foydanilmoqda.

3. Nutqiy materialni tanlashda asta-sekin oddiydan murakkabga o‘tish yo‘li bilan yuklamalarning barcha turlari (logopedpsixoteretsevtik, logoritmik) ketma-ketlik asosida o‘sib borishi lozim. Har bir bosqich duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalar uchun ma’lum bir muvaffaqiyatga erishishlari uchun imkon yaratishi kerak.

4. Davolovchi ta’sirlarni individuallashtirish va nazologik differensiyalash.

Duduqlanish nutq kamchiligigiga ega bo‘lgan o‘smir va kattalarga maxsus yordam bizning mamlakatimizda sog‘liqni saqlash tizimida ko‘rsatiladi: psixonevrologik dispanserlar, shifoxonalar.

Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo‘lgan o‘smirlar va kattalar bilan olib boriladigan logopedik ishlarning o‘ziga xos xususiyatlari quyidagi mualliflar tomonidan yoritilgan: N.Y.Abedeva, L.Z.Andronova, A.Y.Yevgenova, M.N.Kiseleva, A.I.Lubenskaya, M.I.Merlis, Y.B.Nekrasova, N.F.Sinitsina, M.V.Smirnova, M.Ye. Xvatsev, A.G.Shembel, V.M.Shklovskiy va h.k.



S.S.Lyapidevskiy rahbarligi ostida bir qator olimlar tomonidan ishlab chiqilgan o‘smirlarda tibbiy statsionar sharoitida duduqlanish nutq kamchiligini bartaraf etishning 6 bosqichini ajratib ko‘rsatadilar:

1) Tayyorlov (2-3 kun);
2) Tashkiliy (tashkiliy konferensiya, psixoperapiya rejasida maxsus yo‘llanmalar);
3) Nutqni maksimal darajada cheklash (10-14 kun);
4) Nutqiy malakalarni qayta qurishni faollashtirish (3-5 hafta);
5) To‘g‘ri nutqiy malakalarni mustahkamlash (3-5 hafta);
6) Yakunlovchi bosqich (yakunlovchi konferensiya, maxsus tavsiyalar).

Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalar bilan olib boriladigan mashg‘ulotlar asosiy tashqiliy bosqichdan boshlab olib boriladi. Nutqni maksimal darajada cheklash bosqichida bolalar 3-5 kun davomida umuman gapirmasliklari, qolgan 7-9 kun nisbatan tinchlik tartibiga rioya qilishlari kerak. Logoped rahbarligi ostida ular logoped bilan birgalikdagi nutq, yarim aks ettirilgan va aks ettirilgan nutqni egallaydilar. So‘ngra kundalik hayotda flydalaniladigan kichik jumlalarni egallaydilar. Shuningdek, bu bosqichda nafas va artikulyatsiya mashqlari olib boriladi.

<u>Nutqni faol qayta qurish bosqichida</u> nutqiy tartibga rioya qiladilar. Bunda dialog, mavzuga oid suhbat, kichik bo‘lgan mustaqil hikoyalar to‘zishga o‘rgatiladi. Nutqiy amaliyot davomida duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalar turli vaziyatda egallangan nutqiy malakalarni mustahkamlab beradilar.

<u>Yakunlovchi bosqichda</u> o‘smirlar auditoriya savollariga javob beradilar, badiiy adabiyotdan namunalar keltiradilar, kichik sahna ko‘rinishi ko‘rsatadilar, ma’ruzalar o‘qiydilar.

Katta yoshdagi duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalar bilan olib boriladigan logopedik ishlar oilaviy poliklinika sharoitida 3 davrga bo‘linadi.

*Birinchi davr* (14 mashg‘ulot) – artikulyatsiya va nafas mashqlari:

sanoq va jumlali jismoniy tarbiya; savol-javob; murakkab bo'lmagan axborot; kichik she'rni yod olish.

*Ikkinchi davr* (12 mashg'ulot) – nutqiy mashqlar; o'qish; bayon yozish; mavzuga oid hikoya to'zish; nutqiy muloqot amaliyoti; mashg'ulotlarni birlashtirish.

*Uchinchi davr* (12 mashg'ulot) – duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarga kichik ma'ruzalar o'qish, badiiy material bilan ishlash tavsiya etiladi; ekskursiyalar; sahna asari qo'yish; nutqiy mashq sifatida davolanish nutq kamchiliklarning hisoboti.

I.Y.Abeleva, L.P.Golubeva, A.Y.Yeveneva, N.F.Sinisina, M.V.Smirnovalar taklif etgan metodiga ko'ra, mualliflar mashg'ulotlarni nutqiy nafas, ovoz va artikulyatsion nutq mashqlaridan boshlashni ijobiy deb hisoblaydilar.

Keyinchalik ishni quyidagicha olib boriladi: tovushlar ustida ishlash; so'zlar ichida unli tovush o'rnini aniqlash; ikki, uch nafas pauzali jumlalarni talaffuz etish. Mashg'ulotlar sekin-asta murakkablashtirilib boriladi. So'ng tovushlar qo'shiq kuylash, she'r aytish; o'qish, matn yod olish, o'qib berilgan matnni qayta hikoya qilish yo'llari bilan mustahkamlanadi. Shundan so'ng, og'zaki nutqning amaliyotiga o'tiladi (dialog, nutqiy o'yin, telefondan suhbatlashish).

Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarni psixologik xususiyatlarini o'rganishga qiziqishni o'sib borishi, keyingi yillarda psixoterapevtik ta'sirning zarurligi nisbatan asoslandi va amaliyotda qo'llanmoqda.

V.M.Shkolovskiy ishlab chiqqan duduqlanish nutq kamchiligini davolash kursining kompleks sistemasi (2,5-3 oy) besh bosqichdan iborat: tayyorgarlik (diagnostik); shaxsni patalogik nutq ko'nikmalari va buzilgan munosabatlarini qayta to'zish; erishilgan natijalarni mustahkamlash; dispanserlashtirish va profilaktika; sanatoriya kurort yo'li bilan davolash.

Tayyorgarlik (diagnostik) bosqichida (10-15 kun) kasalni nevropatolog, defektolog va psixoterapevtlar tomonidan o'rganiladi: anamnestik va klinik ma'lumotlar o'rganiladi; psixoterapevtik va logopedik tadbirlar, dori-darmon bilan davolash belgilab olinadi.

Nutq ko'nikmalarini patologik va shaxs munosabatlarini qayta qurish davrida (1 oydan 1,5 gacha) nafas olish yo'llari tovush funksiyalarini normallashtirish va nutq etalonlarini ishlab chiqishda logopedik



mashg'ulotlar olib boriladi. Shu bilan birga autogen mashqi va ratsional psixoterapiya olib borish boshlanadi. So'ngra (15-20 kundan so'ng) uyqusizlik davrida ta'sir qilish seansi boshlanadi. Seans tugagach, aktiv ravishda logopedik ish olib boriladi. Erishilgan natijalar gipnoterapiya, o'z-o'ziga ta'sir qilish va ratsional psixoterapiya seansi davomida mustahkamlanadi.

Nutq malakalari avtomatlashtiriladi, nutq jarayonida uchraydigan xatoliklarni bartaraf etishda duduqlarga turli xil harakatlar o'rgatiladi, bir qator unli tovushlarni talaffuz etish mashq qilinadi. Nutq to'la ravishda normal holatga kelmagan taqdirda bir yo'la yoki boshqa shaxs nutq harakati yordamida bajariladigan mashqlar kiritiladi. Logopedik ish faol suttestiv psixoterapiya bilan birga olib boriladi.

Umuman nutq faoliyatining mustahkamlashga qaratilgan mashg'ulotlarga bir kun davomida kamida 3-4 soat vaqt ajratiladi.

Patologik nutq ko'nikmalarini bartaraf etishda psixoterapevtik ish turli shakllarga ega bo'ladi. Ratsional terapiya yordamida bemorga duduqlanish nutq kamchiligining sabablari va duduqlanish nutq kamchiligini muvaffaqiyatli barataraf etishda mashg'ulotlarga faol yondashish kerakligi tushuntiriladi.

Gipnoterapiya nutq faol ravishda mashqlar bajargandan so'ng, uchinchi-to'rtinchi kunlari boshlanadi. Birlamchi bosqichda u haftada 3 marta o'tkaziladi, so'ngra 7-10 kun ichida bir marta o'tkaziladi. Ta'sir o'tkazish davrida emotsional-erkinlik sohasini normallashtirish va tovush-artiqo'lyatsion va nafas olish yo'llari apparatining faoliyatiga alohida e'tibor beriladi. Ba'zi hollarda gipnoterapiya uyqusizlik davrida ta'sir qilish seansini o'tkazishda yaxshi tayyorlov maktabini o'taydi.

Bemorlarda kuchli emotsional holat davrida suhbatlar o'tkaziladi va bo'lar imperativ ta'sir qilish orqali yakunlanadi, imperativ ta'sir qilish namoyishkorona lahzalarni o'z ichiga oladi. Seans oldindan aniq bir kunga belgilanadi, chunki bu kunni bemor intizorlik bilan kutadi, chunki bu kun davolanish jarayonining hal qiluvchi davri hisoblanadi.

O'z-o'ziga ta'sir qilish jarayonida duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar yaxshi so'zlovchilar rolida namoyon bo'ladilar, ular ko'z oldilariga uyda, o'quv muassasalarida, ishda va turli holatlarda duduqlanmasdan so'zlayotganlarini keltiradi. O'z-o'ziga ta'sir etish seansini uyqudan oldin o'tkazish ham tavsiya qilinadi.

Erishilgan muvaffaqiyatlarni mustahkamlash davrida (bir oy

davomida) bemor nutqini mashq qildirish hayotiy sharoitda olib boriladi.

V.M.Shklovskiy ishning muhim qismi sifatida dispanserizatsiya va profilaktikaga e'tibor berib, bo'larsiz duduqlanishni davolab bo'lmasligini ta'kidlaydi. O'ta nevrotik buzilishlarga va vegetativ distoniya o'tkir ko'rinishiga duchor bo'lgan duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar uchun muallif bemorlarga iqlimiy-balneonogik ta'sirni, jismoniy mashqlar bilan davolash kompleks va fizioterapevtik tadbirlarni sanator-kurort sharoitida foydalanishni maslahat beradi.

O'smir va katta yoshdagi duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion-logopedik mashg'ulotlarning barcha zamonaviy tarkibi (odatdagi murakkab mashqlardan tashqari) ulardagi psixoterapiyaning turli formalari mavjudligi tufayli birlashadi. Ular bir-biridan asosan logopsixoterapevtik ishda psixoterapiyaning turli xillarini ahamiyati va ularga ajratilgan o'rin orqali farqlanadilar.

Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar bilan logopsixoterapevtik mashg'ulotlar tarkibidagi nutq mashqlari bolalar logopediyasiga asoslangan ravishda olib boriladi, lekin bu holat bemorlarning yoshiga qarab belgilanadi. 20 asrning 70-80 yillarida kichik va katta yoshdagi kishilardagi duduqlanish nutq kamchiligini o'rganish va duduqlanish nutq kamchiligining aynan o'zini bartaraf etishda differensial yondashish majburiy ekanligi ta'kidlangan. Turli yoshdagi kishilarda duduqlanish nutq kamchiligini pedagogik-davolashda kompleks yondashish masalasi aniqlanmoqda, duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolaining sharoitidan kelib chiqib, nutqning u yoki bu tomonlari ustida qancha ishlash masalasi va bemor shaxsi differensiyalashtirilmoqda.

Davolash ishlari tibbiy-pedagogik tadbirlar majmuasini o'z ichiga oladi: dori-darmonlar bilan davolash, psixoterapiya, logopedik ta'sir, logoritmika (I.M.Asatian, V.G.Kazakov, L.I.Bilyakova, A.I.Lubenskaya, Ye.V.Oganesyan va h.k.)

Bemorlar avval tibbiy yo'l bilan davolanadilar. So'ng birinchi 10 kun davomida klinik tekshirishlar, logopedik kuzatuv va paraklinik kurik asosida klinikada bemorga tashxis qo'yiladi.

Logopedik tekshiruv tibbiy tekshiruv bilan yonma-yon kasalning klinikada bo'lishini birinchi 10 kunida o'tkaziladi: unda nutqdagi kamchilikni chuqurligi va og'irligi belgilanadi. Kompleks yondashuv doirasida duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar bilan



yakka ish olib borish rejasi belgilanadi. Statsionar muolajaning quyidagi bosqichlari belgilanadi: tayyorlov (5-7 kun), faol terapiya (20 kun), faol mashqlar (10 kun), yakunlovchi bosqich, uning davrida nutq vaziyatlari ancha murakkablashtiriladi (3-5 kun).

Tayyorlov bosqichida nutq muomalasini cheklash tavsiya etiladi, unda mashg'ulot o'tkazish uchun bemorlar guruhlari shakllantiriladi (klinik belgisi, yosh jihati, intellektual darajasi va jinsiga qarab).

Ishning asosiy shakli guruhiy, jamoa bo'lib ishlash hisoblanadi, lekin ikkinchi nevrotip qatlamlarni xarakterini hisobga olgan holda, paralel yakka yondashgan psixoterapevtik ish ham olib boriladi.

Faol terapiya bosqichini boshlashning 2-chi haftasidan bemorlar autogen mashqlarning guruhiy mashg'ulotlariga qo'shiladilar, shuningdek, logoped bilan muntazam ravishda yakka mashg'ulotlarga boradilar. Shu vaqtga kelib davolovchi shifokor tomonidan asosiy dori-darmon turlari va yakka yondashgan holda psixoterapiyaning yo'nalishining buyurtmasi belgilanadi.

Faol mashqlar bosqichida bemorlar psixoterapevt va logoped rahbarligida funksional nutq mashqlarini amalga oshirish uchun statsionar chegarasidan chetga chiqadilar (ko'chada gaplashish, do'konda sotuvchi bilan gaplashish, kassa oldida, telefon orqali gaplashish va h.k.).

Yakunlovchi bosqich juda murakkab nutq yuklamasidan tashqil topib, u ko'p kishilik auditoriyada individual va jamoa bo'lib nutq so'zlash mashqlarini o'z ichiga oladi. Nutq so'zlash konsert dasturi shaklida musiqali nomerlar kiritilgan holda bo'ladi (yakka yoki xor bo'lib ashula aytish va h.k.).

Statsionardan chiqish oldidan har bir bemorga kelgusida mustaqil logopedik mashg'ulotlarni mustahkamlash doirasida ishlash uchun tavsiyanomalar beriladi, ular autogen mashq logopedik mashqlarning ayrim elementlarini qaytarish uchun beriladi.

Statsionarda butun muolaja kursi bemorga jamoa va individual psixoterapevtik suhbatlar ko'rinishida to'g'ridan-to'g'ri va boshqa yo'llar bilan psixoterapevtik ta'sir o'tkazishga qaratilgan. Autogen mashq kursi duduqlanuvchini tekshirish: ularni o'zini-o'zi tartiblashning asosiy qoidalarini o'rganib olishi, muskullarini harakatlantirish ko'nikmalarini ishlab chiqish, o'z-o'zini ruhan bardamlashning qisqartirilgan formulalarni egallash va boshqa ko'nikmalarni hosil qilishni o'z ichiga oladi.

Logoped tomonidan olib boriladigan logopedik, didaktik va tuzatish ishlari duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarning klinik holatida, uning yoshiga, rivojlanishiga, shaxsiy xususiyatlariga bog'liq holda tashkil etiladi. Masalan, nevrotip duduqlanish nutq kamchiligi bilan bog'liq, bemorlar uchun samarali psixoterapevtik usul ishlatiladi va h.k.

Mashg'ulotlarning amaliy materiali nafas to'zilishini tuzatishga, ovoz, artikulyatsiyaga, artikulyatsion apparatni rivojlantirishga, tovushli nutqni hamma turlarini mashqiga yo'naltirilgan.

Mualliflarning fikricha kattalarda duduqlanishni bartaraf etish samarasi tibbiy pedagogik yondashuv kompleksini hammasini albatta qo'llanishiga bog'liq. Bu psixoterapiya, farmakoterapiya, funksional nutq mashqlari individual, guruhli va jamoa bo'lib mashg'ulotlar o'tkazish, logopedik ritmika, muolajali jismoniy tarbiya, fizioterapiya va umumiy mustahkamlash muolajalaridan iboratdir.

Ayrim mualliflar fikriga ko'ra, duduqlanuvchilarga ravon nutq mashqlarini qoidasini tushuntirish va keyinchalik bu qoidani birgalikda takrorlash maqsadga muvofiqdir deb biladilar. 1924 yilda A.Gutsman va G.Gutsmanlar tomonidan ravon nutq mashqlari birinchi marta tavsiya etilgan.

Ularni o'rganish uchun qiziqish o'yg'otadi va hatto hozirgi vaqtda ham logopedlar amaliyotida foydalaniladilar.

Ravon nutq mashqlari qoidasi

1.Sekin va tinch gapir. Ya'ni har bir bug'in, so'z va gapni sekin-asta ketma-ketlik asosida talaffuz qil.

2.Doimo qanday va nimani gapirishingni o'zing uchun aniqlab ol.

3.Haddan tashqari baland yoki past ovozda so'zlama.

4.Suhbat davomida o'zingni tinch tutgan holda o'tir yoki tik tur.

5.Gapirishdan oldin tez, chuqur nafas ol.

6.Nafasni tejamkorlik bilan chiqar. Suhbat davomida imkoni boricha nafas boricha ushlab turishga harakat qil.

7.Unli tovushlarni aniq va shiddat bilan talaffuz qil.

8.Nafasni undosh tovushga emas, unli tovushga yo'naltir.

9.Hech qachon undosh tovushlarga urg'u berma. Ayrim hollarda oddiy ovoz toningdan past va unlilarni cho'zib so'zla.

10.Agar so'z unli tovushdan boshlansa, unda so'zni sekin va pastroq tonda talaffuz etishdan boshla.



11.Gapdagi birinchi unlilarni cho'zibroq talaffuz etib, so'zlarni bir-biriga xuddi murakkab bo'g'inli so'zga o'xshatib talaffuz et.

12.Doimo tushunarli va tiniq gapirishga harakat qil.

**Nazorat savollari:**

1. Duduqlanish nutq kamchiligida davolovchi-pedagogik ta'sira ahamiyati?

2.Katta yoshdagi duduqlanuvchilar bilan olib boriladigan logopedik ishlar mazmuni?

3. 20 asrning qaysi yillarida kichik va katta yoshdagi kishilardagi duduqlanish nutq kamchiligini o'rganish va duduqlanish nutq kamchiligining aynan o'zini bartaraf etishda differensial yondashish majburiy ekanligi ta'kidlangan?

4. Duduqlanish nutq kamchligini bartaraf etishda yakunlovchi bosqich nima?

**Topshiriqlar:**

1. Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan o'smir va kattalar bilan olib boriladigan logopedik ishlar tizimini "Aqliy hujum texnologiyasi" yordamida ochib bering.

*Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan o'smir va kattalar bilan olib boriladigan logopedik ishlar tizimi*

↓

Talabalar tomonidan fikr va g'oyalar bildiriladi

↓

Fikr va g'oyalar jamladandi va guruhlanadi

↓

Aniq va to'g'ri javoblar tanlab olinadi

2.Quyida keltirilgan jadvalda test savollariga javob toping.

| № | Savollar | Javob variantlari |
|---|---|---|
| 11. | Katta yoshdagi duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan logopedik ishlar oilaviy poliklinika sharoitida necha davrga bo'lingan holda ish olib boriladi? | A) 4 davrga<br>B) 5 davrga<br>S) 3 davrga |
| 2. | Qaysi mualliflar taklif etgan metodiga ko'ra, mualliflar mashg'ulotlarni nutqiy nafas, ovoz va artikulyatsion nutq mashqlaridan boshlashni ijobiy deb hisoblaydilar? | A)Y.Abeleva, N.F.Sinisina, M.V.Smirnova<br>B)I.Y.Abeleva, L.P.Golubeva, A.Y.Yeveneva, N.F.Sinisina, M.V.Smirnova<br>S) A.Y.Yeveneva, N.F.Sinisina, M.V.Smirnova |
| 3. | S.S.Lyapidevskiy rahbarligi ostida bir qator olimlar tomonidan ishlab chiqilgan o'smirlarda tibbiy statsionar sharoitida duduqlanish nutq kamchiligini bartaraf etishning necha bosqichini ajratib ko'rsatadilar? | A) 4 bosqich<br>B) 6 bosqich<br>S) 3 bosqich |
| 4. | Katta yoshdagi duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan logopedik ishlar oilaviy poliklinika sharoitida tashkil etiladigan korreksion ishning birinchi davrini mazmuni nimadan iborat? | A) Nutqiy mashqlar; o'qish; bayon yozish; mavzuga oid hikoya to'zish; nutqiy muloqot amaliyoti; mashg'ulotlarni birlashtirish.<br>B) Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarga kichik ma'ruzalar o'qish, badiiy material bilan ishlash tavsiya etiladi; ekskursiyalar; sahna asari qo'yish; nutqiy mashq sifatida davolanish nutq kamchiliklarning hisoboti.<br>S)Artikulyatsiya va nafas mashqlari: sanoq va jumlali jismoniy tarbiya; savol-javob; murakkab bo'lmagan axborot; kichik she'rni yod olish. |

**Tayanch iboralar:**

Suggestiya – (lotincha suggestio) – psixoterapiyaniya maxsus metodi – ishontirish.

Geterosuggestiya – (getero+lotin. suggestio - ishontirish) – boshqa shaxs orqali ishontirish.



## 13§. Statsionarlarda qo'llaniladigan kompleks tibbiy-pedagogik uslubning asosiy jihatlari

**Reja:**

1. Medikamentoz terapiya va fizioterapiya.
2. Psixoterapiya va autogen mashqlar.

Tibbiy ta'sir ko'rsatishning o'tkazilayotgan tizimiga asos sifatida qabul qilingan tibbiy-pedagogik uslubning asosiy jihatlari quyidagilardir:

a) Komplekslilik. Bu shunchaki qo'shilish emas, balki tibbiy va pedagogik usullarning o'zaro biriktiruvi demak (masalan, psixoterapevtik metod, ixtisoslashgan autogen mashqlari so'zlashuv logopedik materialni ham o'z ichiga oladi; bemor bilan yakka tartibda logopedik mashg'ulot o'tkazish esa o'z navbatida funksional mashqlar psixoterapevtik uslubiyatini qo'llangan holda o'tadi va hokazo).

b) Bosqichma-bosqichlilik. Bu tushuncha pedagogikadan olingan. Unga ko'ra bemorlar biror (logopedik, psixoterapevtik, logoritmik) materialni o'zlashtirishi zarur bo'lgan barcha turdagi mashqlar osondan qiyinga qarab o'sib borishi, bosqichlardan har biri avval bemor muayyan muvaffaqiyatga erishishi uchun imkoniyat yaratishi va shu tariqa unga ruhiy o'ziga ishonch tuyg'usini bag'ishlashi zarur.

v) Tibbiy ta'sir ko'rsatishning nozologik differensiyalanganligi yoki individualligi zamonaviy tibbiyotning asosini tashkil etadi. Biroq muayyan tusda u pedagogikaga yaqin bo'lib, tibbiy ta'sir ko'rsatishning nozologik lifferensiyalanishi va shaxsiy individuallashishini asta-sekin o'tkazishni talab qiladi.

### Medikamentoz terapiya va fizioterapiya

Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'ladigan bemorlar klinik sifatidan turlicha bo'lganligi sababli, tuzatish tamoyillari va logopedik ishlar duduqlanish nutq kamchiligi paydo bo'lishiga turtki hisoblangan asosiy kasallikdan kelib chiqib belgilanganadi. Agar nevrotik kasalliklarga chalingan bemorlar guruhida muayyan maqsaddagi psixoterapiya bilan sedativ vositalar (seduksen, kam va o'rta miqdorlarda elenium) katta foyda bersa, markaziy asab tizimi organik jarohatlangan bemorlarda ko'pincha degidratatsiya va simptomatik davolash qo'llaniladi, diforik tur bo'yicha affekt o'zgarishlar yaqqol ko'ringan bemorlarda esa antidepressantlar o'rtacha sutkalik miqdori bilan trankvilizatorlarni

qo‘llash ijobiy samara beradi. Mazkur guruhidagi bemorlar bilan logopedik ishlashda yakka holdagi so‘zlashuv mashqlarini asta-sekin murakkablashtirgan holda suhbat buzilishlarini tuzatishga asosiy e’tibor beriladi. Mana shu bosqichdan keyingina patogen vaziyatlarda bemorlarga funksional mashqlarni bajartirishga o‘tish mumkin bo‘ladi. Markaziy asab tizimi organik jarohatlangan bemorlar odatda statsionar davolash kursi tugaganidan keyin uzoq vaqt ta’minlash terapiyasi qo‘llanilishiga ehtiyoj sezadi.

Shizofreniya bilan kasallangan bemorlarni psixofarmakologik davolashga ancha katta e’tibor qaratiladi. Bu yerda trankvilizatorlar va antidepressantlardan tashqari odatda kam sutkalik miqdorda (galoperidol 1,0-4 mg, mejeptil 2-10 mg) neyroleptiklar guruhidagi dorilar qo‘llanilardi. Shizofreniyaning deyarli barcha hollarida biologik va psixoterapevtik davolash usullarining maqbo‘l nisbati tanlanadi.

Barcha bemorlarga umummustahkamlovchi medikamentoz terapiyasi ham odatda belgilanadi (vitaminli glyukoza, kalsiy glitserofosfat va hokazolar).

Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo‘ladigan bemorlarga fizioterapiya fizioterapevt bilan maslahatlashgandan keyin belgilanadi. Fizotadbirlar haftasiga uch marta ertalab o‘tkaziladi.

## Psixoterapiya va autogen mashqlari

Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo‘lganlar psixoterapiyasi statsionarda bevosita va bavosita psixoterapevtik ta’sir ko‘rsatish tusini oladi. Logopedik va logoritmik mashg‘ulotlarda tibbiy va pedagogik tamoyillarni omuxta ravishda singdirish bilan birga logoritmik mashg‘ulotlarda qator bavosita psixoterapevtik jihatlarni ko‘rsatish joiz. Misol uchun, jamoa logopedik va logoritmik mashg‘ulotlarda «psixoterapevtik ko‘zgu» uslubi qo‘llaniladi, u davolashning boshlang‘ich bosqichlarida barcha bemorlarga duduqlanishga qaramay, ularda to‘g‘ri va o‘zilmay so‘zlashish qobiliyati saqlanib qolinganligiga ishonish tuyg‘usini beradi. Bu bemorlarga kelajakka ishonch tuyg‘usini singdiradi, ularni faollashtiradi, yangi mashg‘ulotlarga undaydi. Logopedik ishni tashqil etishda deontologiya tamoyillariga muvofiq ish olib borish, shubhasiz boshqa bo‘limlarni ham psixoterapevtik unsurlar bilan to‘yintiradi. Faol mashqlar bosqichda yakka tartibdagi logopedik mashg‘ulotlar yanada ayon ko‘rinadigan psixoterapevtik tus oladi. Bu mashg‘ulotlar mazkur



vaziyatda so‘lashish oldidagi qo‘rquv hissini yo‘qotish va bemorlarni murakkab, uning uchun patogen hisoblangan vaziyatda erkin so‘zlashish imkoniyatini tug‘diradi. Davolashning so‘nggi bosqichida ommaviy nutq so‘zlash funksional mashqlarning yakuni hisoblanadi.

Bevosita psixoterapiya uslublariga kelsak, davolash jarayonida duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalarning eng faol ishlashiga erishish uchun passiv-suggestiv psixoterapiya o‘rniga bemorlar faolligini qo‘zg‘aydigan uslubiyatlarni, ya’ni ratsional psixoterapiya va autogen mashqlarini qo‘llash maqsadiga muvofiq.

Ratsional psixoterapiya bemorlar bilan jamoaviy va yakka tartibda suhbatlashish shaklida o‘tkaziladi. Yakka tartibdagi suhbatlarni odatda davolovchi shifokorlar olib boradi, jamoaviy so‘zlashish har bir guruh uchun alohida ajratilgan yetakchi shifokor rahbarligi ostida o‘tadi. Bu yerda tushuntirish, ratsional psixoterapiya unsurlari kompleks davolashning boshqa bosqichlarida ham uchrashini yana bir bor takrorlash joizdir.

Jamoaviy psixoterapevtik suhbatlar odatda haftasiga ikki marta o‘tkaziladi, ular soni bir davolash kursida 20-25 tagacha yetadi. Har bir suhbat birdan bir yarim soatgacha davom etadi va ko‘pincha uch qismdan iborat bo‘ladi. Birinchi qismi davolash jarayonini yoritadi, o‘tkazilgan davolash tadbirlari tahlil etiladi, keyinchalik o‘tkaziladigan tadbirlar tushuntiriladi. Suhbatning ikkinchi qismi shifoxonaning asosiy muammolari, duduqlanish patogenezi, uni davolash tarixi va zamonaviy imkoniyatlarini bayon etish uchun ajratiladi. Psixoterapevt ikkinchi qismdan so‘zlashuv jarayoni buzilishining qanchalik jiddiyligini ortiqcha baholab yuborishning oldini olish, bemorda muvaffaqiyatli davolash uchun zarur bo‘lgan yetarlicha faollikni tug‘dirish, bemorda o‘tkazilayotgan terapiyaga nisbatan faolligini rag‘batlantirish kabi maqsadlarni ko‘zlaydi. Uchinchi suhbat chog‘ida savollarga anonim javob berish uslubi qo‘llaniladi. Javoblarni oldindan tayyorlab, suhbatdan avval shifokorga berishni iltimos qilishadi. Joydan og‘zaki savol berish va unga javob olish keng qo‘llaniladi. Jamoaviy ratsional terapiya seansining ushbu qismi bemorlarning statsionarga eng ko‘p ko‘nikishi, ular orasida vujudga keladigan tushunmovchiliklarni hal qilish, demakki, bemorlar guruhi yagona tibbiy jamoaga aylanishiga yordam beradi. Bu esa shifoxonada davolashning birinchi bosqichida katta ahamiyat kasb etadi.

Yakka tartibdagi psixoterapiya suhbatlari har kuni o'tadi, lekin qat'iy reja va muayyan davomiylikka ega bo'lmaydi. Suhbatlar davomida har bir bemor oldida paydo bo'ladigan shaxsiy muammolar ham yechiladi. Jamoaviy psixoterapiya jarayonida biror sababga ko'ra tushintirilmagan qator masalalar duduqlanadigan bilan yakka tartibda psixoterapevtik ishlash vaqtida tushuntiriladi.

Barcha qo'llaniladigan metodlar yagona psixoterapevtik yo'nalishga ega bo'lib, psixoterapiyaning bavosita metodlari (masalan, «psixoterapevtik ko'zgu», bunda shifokor yoki logoped ba'zi qatnashchilarning muvaffaqiyatlari va yutuqlari boshqalarning faollashishiga turtki bo'ladi) yordamida amalga oshiriladi, shu bilan bir vaqtda psixoterapiya logoortopediyadan imkon boricha keng foydalaniladi.

Autogen mashqlarining butun kursi to'rt bosqichga bo'linadi: tayyorgarlik (10-12 kun) – duduqlanish nutq kamchiligig ega bo'lgan bolalarni o'rganish, ularni terapiya vazifalari va xususiyatlari bilan tanishtirish; o'zini boshqarish asosiy usullari bosqichi – asosiy bosqich bo'lib, 12-14 jamoaviy mashg'ulotlardan iborat bo'ladi; uchinchi bosqich – patologik qiyinchilik (titrash) paydo bo'ladigan mushaklarni lokal relaksatsiyalash – bu bosqich psixoterapevtik va so'zlashuv jihatidan o'ta muhimdir, u 18-20 mashg'ulot davom etadi; to'rtinchi bosqich davomida duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lganlar o'z-o'zini ishontirish usullari, mushaklar holatini faol boshqarish uslublarini o'rganadi, so'zlashuv faoliyatida faol lokal relaksatsiya ko'nikmalariga ega bo'ladi, bu bosqich 8-10 mashg'ulotni ichiga oladi.

**Nazorat savollari:**

1. Medikamentoz terapiya va fizioterapiyaning ahamiyati?
2. Psixoterapiya va autogen mashqlarning mazmuni?
3. Autogen mashqlarni yoritib bering.
4. Yakka tartibdagi psixoterapiya deganda nima tushuniladi?

**Topshiriqlar:**

1.Statsionarlarda qo'llaniladigan kompleks tibbiy-pedagogik uslubning asosiy jihatlarini "Klasster" metodi yordamida ochib bering.






2.Quyidagi chizmada keltirilgan ta'riflarni mazmunini ochib bering.

| **Ta'rif** Medikamentoz terapiya va fizioterapiya | **Ta'rif** Psixoterapiya va autogen mashqlar |
|---|---|
| Mazmun | Mazmun |

**Tayanch iboralar:**

Psixoterapevtik ko'zgu - bunda shifokor yoki logoped ba'zi qatnashchilarning muvaffaqiyatlari va yutuqlari boshqalarning faollashishiga ta'siri.

Autosugstiya (auto+lotin. suggestio – ishontirish) – o'z-o'zini ishontirish.

# IV BOB. MAKTABGACHA YOSHDAGI DUDUQLANISH NUTQ KAMCHILIGINI BARTARAF ETISHDA KORREKSION LOGOPEDIK ISHLAR MAZMUNI

## 14§. Duduqlanish nutq kamchiligida logopedik ishni tashkil etish

**Reja:**

1. Logopedik ishlarning korreksion ahamiyati.
2. Qo'llab-quvvatlovchi terapiya.

Logopedlar olib boradigan logopedik, didaktik, korreksiya ishlari va logomashqlar duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bemorning nozologik holati, uning yoshi, rivojlanishi, shaxsiy xususiyatlaridan kelib chiqib quriladi. Yakka tartibdagi logopedik mashg'ulotlar yo'nalishi va davomiyligi shuningdek so'zlashish tadqiqotlari natijalaridan kelib chiqib ham belgilanadi. Bunday tadqiqotlar titrash xarakteri, ular lokallashganligi, so'zlashuv buzilishlari mavjudligi va ular xususiyatlarini o'rganadi. Logoped so'zlashuv jarayonida to'g'ri va erkin nafas olinishi, tovush xususiyatlari yaxshilanishiga erishishi kerak. Dislaliya nutq kamchiligi va rinolaliya nutq jihatlari bo'lganda logoped bularni ham tuzatishi lozim. Nevrotik duduqlanish nutq kamchiligigiga ega bo'lgan bemorlarda psixoterapevtik usullar samarali bo'ladi. Markaziy asab tizimi dinamik jarohatlangan bemorlarda funksional so'zlashuv mashqlari faqat to'g'ri so'zlashuv mashqlari, to'g'ri so'zlashuv ko'nikmalari o'zlashtirilganidan keyingina o'tkazilsa, nevrotik duduqlanadigan bemorlarga buni davolashning ikkinchi bosqichidayoq tayinlash mumkin. Yuqorida aytilganidek, bunday mashqlar psixoterapevtik usullardan iborat bo'ladi, ular bemorlarning tobora murakkab so'zlashuv vaziyatlarini o'zlashtirishiga yo'naltirilgan, bu bemor uchun patogen vaziyatda so'zlashishdan qo'rqish hissini yo'qotadi.

Logopedik mashg'ulotlar uchun matn materiali muayyan mazmunga ega bo'lishi kerakki, bu bemorning kayfiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi va uning his-tuyg'ulari, intellektini uyg'otishi kerak. Bu material hayot va tabiatning go'zalligi, inson fazilatlari va hulqidagi yaxshi jihatlarni ayon qilishi maqsadga muvofiq.



Faqat artikulyatsiya va ovoz ustida ishlabgina qolmay, avval olingan aniq talaffuz qilish mashqlarini ham qaytarishi, turli so'zlashuv mashg'ulotlarini ongli tahlil etishni o'rganish ham bir bemorning ehtimoliy so'zlashuv imkoniyatlari va his-tuyg'u reaksiyalarini (qanday so'zlashuv turlari saqlanib qolgan, qanday vaziyatlar ayniqsa qiyinchilik tug'diradi, qandaylari duduqlanishga olib kelmaydi) aniqlaydi.

Mazkur barcha jihatlarni hisobga olish logopedga har bir bemor yakka tartibda ishlash, shuningdek funksional mashqlar ketma-ketligi va davomiyligi muddatlarini aniqlash imkonini beradi.

Funksional mashqlar boshlang'ich bosqichi dastlabki logopedik mashg'ulotlardan boshlanadi, bu yerda so'zlashuv turlari ishlab chiqiladi. Bundan keyin savol-javob so'zlashuv shakllarini mashq qilishga kirishiladi, bunda asosan oddiy suhbatlashish sharoitlari ko'rib chiqiladi. Butun logopedik ishlash, suhbatlashishni mashq qilish oson, tor doirada, vaziyatdan kelib chiqib boshlanadi. Bemorga logoped xonasida bo'lgan narsalar haqida qisqacha savollar to'zish taklif etiladi, boshqa bemorlarga murojaat qilish so'raladi, ko'rsatilgan suratlar, o'qilgan matn xususida savol-javob o'tkaziladi. Keyinchalik qarshi savollarga javob olish yo'li bilan bemorning so'zlashuvi sayqallashadi. So'zlashuv vaziyatlari murakkablashadi, bunda qo'llaniladigan material ham qiyinlashadi.

Funksional mashqlarning birinchi bosqichida logopedik xona sharoitida yakka holdagi logopedik ish ham, kichik guruhlarda (3-4 kishi) ishlash ham nazarda tutiladi. Bunday guruhlar so'zlashuv holati va bemorning duduqlanish olididagi qo'rquvidan kelib chiqib to'ziladi. Agar bemor katta jamoada so'zlay olmasa, u bilan yakka tartibda yoki kichik guruhda ishlanadi. Bundan tashqari, haftasiga bir marta logoped barcha bemorlar bilan jamoaviy mashg'ulotlar uyushtiriladi, bu yerda ular katta jamoa o'rtasida murakkab so'zlashuv ko'nikmalarini tekshirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bunday mashg'ulotlarda murakkablashtirilgan turlicha savollar beriladi, mavzuiy va savol-javob o'yinlari o'tkaziladi. Bemorlar bunday mashg'ulotlarga puxta tayyorlanadi, kichik guruhlarda kerakli matnlar o'rganiladi.

Har bir keyingi mashg'ulot so'zlashuv jihatidan avvalgisidan murakkabroq bo'ladi.

Mazkur so'zlashuv turida puxta ko'nikma hosil qilinib, yaxshi natijalarga erishilgach, logoped xonasidan chiqib, tibbiy muassasa

devorlaridan tashqaridagi mashqlar, savol-javoblarga o'tiladi. Bu maqsadda shahar bo'ylab sayyohatlarda, ko'chalarda, do'konlarda, jamoat transportida so'zlashuv mashg'ulotlari o'tkaziladi.

Shahardan chiqishidan avval logoped va shifokor bemorlarga yanada murakkab vaziyatda mashq qilish zarurati haqida so'zlab berishadi. Shaharga dastlabki marta chiqilganida suhbat qilinmaydi, keyin bemorlarga qisqacha savollar bilan yo'lovchilarga murojaat qilish taklif etiladi. Bemorlar shahardan chiqishdan avval logoped xonasida bu savollarni mashq qilishadi. Funksional mashqlar suhbatdoshning so'zlariga e'tibor berish, so'zlashuvda o'zini tutish, og'ir sharoitda o'zini boshqarishga o'rgatiladi.

Logopedning duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan katta yoshdagi bemorlar bilan ishlashi yakuniy bosqichi ularni ommaviy nutq so'zlashga tayyorlash hisoblanadi. Nutq so'zlash uchun material bemorlarning xususiyatlaridan kelib chiqib tanlanadi. Butun ma'ruza odatda bir mavzuga bag'ishlanadi, uning qismlari boshlovchi matni bilan birlashtiriladi, bu musiqa jo'rligida olib borilishi mumkin. Bunda matn murakkabligi bemorning imkoniyatlaridan oshib ketmasligi muhimdir. Odatda ommaviy chiqish oldida duduqlanadigan bemorlar ko'p odamlar orasida so'zlashuvga tayyorgarlik ko'radi.

Bemorning shifoxonada bo'lgan butun davri mobaynida logopedik ishlash psixoterapevtik va dori-darmonlar bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Aynan shunday kompleks davolash duduqlanadigan bemorlar uchun eng katta samara beradi.

Kuzatuvlar natijasida kompleks tibbiy-pedagogik davolashga logopedik ritmikani kiritish zarurligini ko'rsatadi.

Logoritmik ish bemorlarni sinash, kundalik jamoaviy va yakka tartibdagi mashg'ulotlarni o'tkazish, bunda musiqadan keng foydalanishni o'z ichiga oladi. Har bir mashg'ulot ritmik mashg'ulotlar va so'zlashuv qiyinchiligining tobora oshib borishiga asoslanadi.

### Statsionardan chiqib ketgach, qo'llab-quvvatlovchi terapiya

Statsionarda kurs davolash duduqlanadigan bemor statsionardan chiqib ketganidan keyin ham davom etadi.

Davolash kursi tugaganidan keyin ularni muayyan oy kunlarida shifoxonaga kelishi tayinlanadi. Bunda u logoped, shifokor va boshqa



duduqlanadigan bilan uchrashadi.

Bemorlar shifokorlar bilan haftasiga bir marta ertalablari ambo'latoriya-maslahatlari maqsadida uchrashish imkoniga ega bo'lishi zarur. Statsionarda davolash kursi tugaganidan keyin olingan natijalarni mustahkamlash uchun ambo'latoriya qo'llab-quvvatlashini olishadi, bo'lar muddati yakka tartibda belgilanadi. Bemorlarning so'lashuv ustidan mustaqil ishlashi bu bosqichda asosiy yo'nalish hisoblanadi. Xulosa qilib aytishim mumkinki, duduqlanishni kichik va katta yoshda davolash psixonevrologlar va pedagog-logopedlarning bevosita va o'zaro bog'liq ravishda ishlashiga asoslanadi. Davolash jarayonida pedagog tamoyillarni hisobga olmaslik uslubiy jihatidan noto'g'ri bo'libgina qolmay, duduqlanishni davolash muvaffaqiyatsiz bo'lishi ham mumkin.

**Nazorat savollari:**

1. Logopedik ishlarning korreksion ahamiyati nimalarda iborat?
2. Qo'llab-quvvatlovchi terapiya mazmuni?
3. Korreksion logopedik ishlarda logopedik ritmikaning ahamiyati nimalardan iborat?

**Topshiriqlar:**

1. Logopedik ishlarning korreksion ahamiyatini "*Klasster*" yordamida yoriting.



2. Duduqlanish nutq kamchiligini bartaraf etishda logopedik ish bo'yicha rus olimlarning ishini tahlil etgan holda mustaqil ish tayyorlang va uni og'zaki bayon eting.

**Tayanch iboralar:**

Autosugstiya (auto+lotin. suggestio – ishontirish) – o'z-o'zini ishontirish.

Geterosuggestiya – (getero+lotin. suggestio - ishontirish) – boshqa shaxs orqali ishontirish.



## 15§. Duduqlanish nutq kamchiligini bartaraf etish samaradorligi

**Reja:**

1. Duduqlanish etiologiyasini.
2. Tibbiy-pedagogik ta'sirning samarasi.

Oldingi savollarda duduqlanish nima, uning kelib chiqish sabablari qanday va uning oldini olish hamda tuzatishning turli usullarini ko'rib chiqdik. Endi duduqlanishni bartaraf qilish bo'yicha kompleks ravishdagi davolash-pedagogik ishlarning samarasi qanday holatda yaxshi yoki yuqori bo'lishini ko'rib chiqamiz. Chunki u ko'p sharoitlarga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun kamchiliklarni tuzatish bo'yicha olib boriladigan ishlarni ro'yobga chiqrishda hisobga olib borish zarur.

1. Duduqlanish etiologiyasini (ya'ni kelib chiqishi to'g'risida ta'limot) hisobga olish. Masalan, N.A.Vlasova infeksiya natijasida ruhiy jarohat yoki qo'rqish natijasida vujudga kelgan duduqlanish osonroq bartaraf etiladi. Buning sababi shundaki ko'p hollarda infeksiya funksional-dinamik o'zgarishga olib keladi, markaziy asab sistemasida organik o'zgarishlar bo'lmaydi. Ruhiy jarohat oqibatida yuzaga kelgan duduqlanishda faqat keltirib chiqaruvchi bir fakt bo'lishi mumkin (parvoz gudoki, baqiriq, itning akillashi va b.).

2. Yosh omilini hisobga olish. Duduqlanishni bartaraf etish maktabgacha yoshdagi bolalarda samaraliroq bo'ladi. N.A.Vlasova ma'lumotiga ko'ra maktabgacha yoshdagi bolalarning 70% duduqlanishdan to'la ko'tiladilar, 30% da ayrim qoldig'i bo'ladi. YE.F.Rau ma'lumoti bo'yicha 60% bolalarda olib borilgan ish to'la muvaffaqiyatli bo'ladi.

V.I.Seliverstov ko'rsatishicha, duduqlanuvchilar 6 yoshdan 17 yoshgacha yozgi maxsus sanatoriyalarda bo'lganidan keyin duduqlanmay gapiradigan bolalar 39,7% tashkil etgan, ancha yaxshilanganlari 47,8% bolalar, qisman tuzalganlari 12,5% bolalar bo'lgan.

Eng yaxshi natijalar maktabgacha va kichik yoshdagi bolalarda erishilganligi qayd etiladi, o'smirlarda, ya'ni 16-17 yoshdagi bolalarda kamroq yaxshi natija qayd etilgan.

Maktab o'quvchilarida tuzatish ko'rsatkichlari kamroq samarani qayd etadi. M.YE.Xvatsov ma'lumotiga ko'ra 15% o'quvchilar duduqlanishdan to'la qo'tiladi, duduqlanuvchi o'quvchilarning 82% o'z nutqini turli darajada yaxshilaydi, 3% o'quvchida hech qanday ijobiy

natija bermaydi.

V.A.Kovishkov ko'rsatishi bo'yicha duduqlanishni bartaraf etish ishlarini natijalari quyidagicha: 14,7%da duduqlanish to'la bartaraf etilgan, 50,8% da ko'pgina qismi bartaraf etilgan, 28,6% da tuzalish bo'lgan, 55,9% esa hech qanday o'zgarish bo'lmagan.

Shunday qilib, duduqlanishni bartarf qilish duduqlanuvchi bolaning yoshi kattalashib borishi yoki duduqlanishning kechish vaqtini ko'payib borishi bilan murakkablashib boradi va kamroq samarali bo'lib boradi. Buni duduqlanuvchi vaqt o'tishi bilan noto'g'ri nutq ko'nikmalarini mustaxkamlanib borishi va uni asta-sekin ruhiy holatida paydo bo'ladigan buzilishlarini keskinlashuvi bilan bog'laydilar. Boshqacha so'z bilan aytganda dudqlanish murakkabligini o'sib borishi yillar o'tishi bilan (duduqlanishning kechish vaqti) uning namoyon bo'lishida ko'p sonli ko'ngilsizliklarni paydo bo'lishidan deb tushintiriladi.

Kompleks ravishda tibbiy-pedagogik ta'sirning samarasi avvalo duduqlanuvchini qanchalik muvaffaqiyat va uzoq reabilitatsiya qilinganligi bilan aniqlanadi. Adabiyotlarda bu masala bo'yicha hozirgi vaqtga qadar M.Nadolechning fikri tarqalgan. Uning fikriga ko'ra, duduqlanuvchilarning uchdan bir qismi reabilitatsiyaga erishadi, uchdan bir qismida qisman tuzalish kuzatiladi va uchdan bir qismida duduqlanish o'zgarishsiz qoladi. Hozirgi sharoitda esa M.Nadolech ko'rsatgandan ham ko'proq qismi, ayniqsa muolajani o'z vaqtida va to'g'ri olib borishi natijasida to'la reablitatsiyaga erishilmoqda.

Demak, duduqlanishni bartaraf qilish asosan bolani yoshligida ko'proq samara berar ekan. Yosh kattalashib borgan sari duduqlanish murakkablashaveradi va uni davolash va tuzatish bo'yicha amalga oshiriladigan logopedik ishlarning samarasi kamayib boraveradi. Shu sababli bunday kamchilik bilan kasallangan bolalarni vaqtni o'tkazmay tez, o'z vaqtida davolash va tuzatishi bo'yicha logopedik ta'sir o'tkazish olib borilsa yaxshi samaraga erishiladi.

3. Logopedik ishlar muddatini hisobga olish. Tadqiqotchilarning ko'pchiligi duduqlanuvchilar bilan tuzatish ishlari ularning nutqiga, shaxsiga va ovoziga kompleks ravishda ta'sir etilgan sharoitda samarali bo'ladi deb hisoblaydilar.

V.K.Kazakov duduqlanish psixopatalogiyasi va dinamikasini muolajaning boshlash muddati bilan bog'langan holda taqqoslash usulida o'rganish asosida qiziqarli natijalar oldi. Maktabgacha yoshida



statsionar sharoitida davolangan katta yoshdagi duduqlanuvchilar klinik tekshiruvdan o'tkazilganida, tekshirilganlarning 36,6% da duduqlanishning to'la bartaraf bo'lganligi, 33,3% da duduqlanishning yengil darajasi va 30% da o'rtacha va og'ir darajasi borligini ko'rsatdi. Muallif o'rtacha va og'ir darajada duduqlanuvchilarning ko'pchiligida oldin markaziy nerv sistemasining organik jarohatida qoldiq holatlarning borligini aniqlaydi.

4. Duduqlanish nutq kamchligini bartaraf qilish bo'yicha tibbiy-pedagogik tadbirlardan foydalanishning to'la to'kisligi. Logopedik mashg'ulotlar duduqlanuvchiga kompleks ravishda olib boriladigan muolaja-pedagogik ta'sirning faqat tarkibiy qismi hisoblanadi. Yo'naltirilgan va faol muolaja (dori-darmon, fizioterapiya va b.) mikroijtimoiy muhitni meyorida bo'lib borishi logopedik mashg'ulotlarni muvaffaqiyatli bo'lishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bunda duduqlanuvchining har xil yoshdagisi bilan va turli sharoitda logopedik ishlarning tanlangan usulining tabaqalashtirilganligi muhim ahamiyatga egadir.

5. Duduqlanish nutq kamchiligini tabiatini hisobga olish: duduqlanishning organiq asosdaligisi funksional asosdagiga qaraganda natijalar ancha yomon bo'ladi.

6. Duduqlanish nutq kamchiligini simptomini hisobga olish. Duduqlanish nutq kamchiligining jismoniy va ruhiy ko'rinishlarini ustunligi bilan uni bartaraf qilishga kompleks yondoshuvning u yoki bu tomonini ko'proq bog'langan holda olib borish.

Duduqlanish nutq kamchiligini bartaraf qilishning samarali bo'lishiga masalan, uning og'irligini har xil darajada bo'lishi ta'sir ko'rsatadi. Logopedik ishlar natijasi duduqlanishning yengil darajasi holatida yaxshi va og'ir darajasida samarasiz bo'ladi.

7. Kompleks ishlarni muddatini hisobga olish.

8. Logoped shaxsining (psixolog, psixoterapevt) ahamiyati, uning malaka-mahorati, eruditsiyasi, o'z ishiga berilganligi va shunga o'xshash.

9. Mikroijtimoiy o'ram (muhit) hisobga olinadi: logopedning oila bilan, vrach bilan, mutaxassislar bilan aloqasi.

10. Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolaning mashg'ulotlarga munosabati hisobga olinadi. Logopedik mashg'ulotlar natijasi duduqlanuvchining o'ziga va buzilgan nutqini tuzatishga jiddiy, astoyidil qunt bilan intilsa yuqori samara beradi.

11. Jamoada duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolaning nutqini va shaxsini tarbiyalash va qayta tarbiyalash zarur. Bu omil nutqning ijtimoiy vazifasidan kelib chiqadi. Aynan jamoada nutqni tabiiy rivojlanishi uchun va uning funksiyalarini bog'lanishini qayta tarbiyalash uchun sharoit yaratiladi.

12. Faoliyat to'rini hisobga olish: predmetli, o'yin, o'quv, mehnat jarayonlarini nutq faoliyati bilan bog'lab amalga oshirish.

13. Tovushlar talaffuzidagi kamchilaklari hisobga olinadi, nutqning umumiy rivojlana olmagan elementlari hisobga olinadiki, u ko'proq maktabgacha yoshdagi bolalarda ko'proq bo'lib, duduqlanishni bartaraf qilish samarasiga ta'sir ko'rsatadi.

14. Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolani to'liq tekshiruvdan o'tkazilganligi hisobga olinadi. Tibbiy-pedagogik ishlar jarayonida birlamchi sifatida ham va logopedik xulosaning to'g'riligi hisobga olinadi.

15. Maxsus texnik vositalardan foydalanish (Exo apparat).

## Nazorat savollari:

1. Duduqlanish etiologiyasi?
2. Tibbiy-pedagogik ta'sirning samarasi nimalardan iborat?
3.Duduqlanish nutq kamchiligini bartaraf etishda kompleks ravishda ish olib borish deganda nima tushuniladi?
4.Duduqlanish nutq kamchiligini bataraf etishda pedagogik ta'sirning mazmuni nimalardan iborat?

## Topshiriqlar:

1. Duduqlanish nutq kamchiligini bartaraf etish samaradorligi bo'yicha fikrlaringizni quyida keltirilgan "Klasster metodi"da yoritib bering.






2. "Duduqlanish nutq kamchiligini bartaraf etish samaradorligi" mavzusi bo'yicha mustaqil ishga yozma ma'lumot tayyorlang va uni og'zaki bayon eting.

## Tayanch iboralar:

Geterosuggestiya – (getero+lotin. suggestio - ishontirish) – boshqa shaxs orqali ishontirish.

Umumiy motorika - bu umumiy tana harakatining rivojlanishi.

## 16§. Duduqlanish nutq kamchiligini bartaraf etishda logoped va ota-onalar hamkorligi

**Reja:**

1. Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalarda korreksion-logopedik ishlarning samaradorligi.
2. Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalar kun tartibining mazmuni.

Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalarda korreksion-logopedik ishlarning samaradorligida logoped va ota-onalar hamkorlikdagi ishning sifatiga bog‘liq sanaladi.

Duduqlanish nutq kamchiligini bartaraf etishda logoped tomonidan berilgan tavsiyalarga o‘z vaqtida amal qilish, logoped va ota-onalar nutqi bir xillikda olib borish muhim sanaladi. Bolada uchraydigan nutq kamchiligini bartaraf etish uchun logoped huzuriga vaqtida borish ham ishning samaradorligin oshiradi. Ma’lumki, logoped tomonidan berilgan vazifalar nafaqat mashg‘ulot jarayonida balki uyda ham mustahkamlab borilishi zarur. Shu sababli, ham logoped uyga berilgan vazifalarni qay hola bajarayotganligi bo‘yicha logoped va ota-onalar bilan suhbat olib boriladi. Suhbat jarayonida bola nutqidagi o‘zgarishlar, bolaning ruhiyatida ijobiy yoki salbiy holatlar tahlil etiladi. Bolaning his- hayajonga boy vaziyatlardan saqlash orqali bola nutq kamchiligini bartaraf etish imkonini beriladi.

Barchaga ma’lumki, maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy faoliyati bu - o‘yin faoliyati hisoblanadi. Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalarda korreksion logopedik ishlarni olib borishda, logoped o‘yin jarayonida bola nutq kamchiligini bartaraf etishda turli xil korreksion logopedik ishlarni olib borish uchun bir nechta logopedik o‘yinlardan foydalaniladi. Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalar o‘yin jarayonida o‘zlarini erkin holda tutadilar. Bu esa bolaning asab tizimining zo‘riqishini oldini oladi. Ayrim ota-onalar bolaning ko‘p o‘yin o‘ynashini istamaydilar. Ularning fikricha bola o‘yin jarayonida bolaligi uzoq vaqtga cho‘ziladi, degan fikr mavjud. Ammo amaliyotchi logopedlarni fikricha, nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalarda uchraydigan nutq kamchiliklarni bartaraf etish ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalarda yaxshi natija beradi.



Asabiylashishga moyil bo‘lgan bolalarga alohida sharoitlar yaratiladi. Bunda nutqiy, jismoniy va emotsional zo‘riqishlardan ehtiyot qilish kerak. Ushbu vaziyatlardan kelib chiqqan holda bolaning kun tartibini nazoratga olish lozim. Duduqlanish nutq kamchligiga ega bo‘lgan bolalarda kun tartibini belgilash vaqtida ularning barcha nutqiy, emotsional holatlari inobatga olinadi. Bolaning kun tartibini belgilash vaqtida albatta ota va ona hamda bola bilan birgalikda tuzish, korreksion logopedik ishda ijobiy natija berish kuzatiladi. Ota-ona va bola bilan tuzilgan kun tartibni avvalo bir haftalik kunlar uchun tuzib olish kerak. Bir haftada bajariladigan ishlarni hafta kunlarni aniq belgilash uchun, masalan, dushunba kuni bola sport to‘garagiga bormoqchi bo‘lsa, sportga oid rasmlar bilan belgilash bolaning nutqiy zo‘riqishni oldini oladi. Biroq sport to‘garagiga borish uchun bola uzoq masofali joylarga qatnashish tavsiya etilmaydi. Haftaning qolgan kunlari ham bajariladigan ish turiga qarab rasmlar bilan qayd etish mumkin. Agar bola suzishga borayotgan bo‘lsa, suv havzasining rasmini qo‘yish mumkin.

Bolaga nima ishlarni bajarish kerakligini doimo eslatib o‘tirish shart emas, bu bolaning emotsional zo‘riqishiga olib keladi.

Nutqida nuqsoni bo‘lgan maktabgacha yoshdagi bolaning jismoniy jihatdan yaxshi rivojlanishi uchun doimiy ertalabki jismoniy tarbiya mashqlarni olib borish, bolaning asab tizimiga ham ijobiy natijalar beradi. Jismoniy tarbiya mashqlarni qiziqarli olib borishda bir nechta o‘yinli vaziyatlardan foydalansa bo‘ladi. Masalan, “Kuchukchaning jahli chiqdi” (bola to‘rt oyoqlab turib, belini tepaga ko‘taradi), “Ho‘rozcha” (nutqiy nafas mashqlari bajariladi, bola tepaga toritilib, qo‘llarini ikki tomonga yoyib, ularni sekin-asta pastga tushiradi).

Bola bilan sayrga chiqqanda, shunga e’tibor berish lozimki tez yurmaslik, sayr vaqtida yugurmaslik, shuningdek to‘g‘ri nutqiy nafasdan foydalanishga e’tibor berish kerak. Ota-ona sayr vaqtida bolaga qiziqarli bo‘lgan mavzularda suhbatlashish, bola bilan savol javob qilish, albatta suhbat davomida bolani diqqat bilan eshitish maqsadga muvofiq.

Sayr vaqtida jismoniy mashqlarni bajarishda harakatlar ritm bilan uyg‘unlashgan bo‘lishi kerak. Harakat va ritmda nutqiy nafasni rivojlantirishda suzish havzasi va gimnastika yaxshi natija beradi.

Yozgi ta’til ham duduqlanish nutq nuqsoniga ega bo‘lgan bolani rivojlanshiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ko‘pchilik ota-onalarning fikricha,

bolani dengiz bo'yiga olib borilsa, uning markaziy asab tizimiga yaxshi ta'sir ko'rsatadi deb o'ylaydilar. Biroq, bolaning uzoq yo'lga olib borish uni jismoniy va ruhiy jihatdan toliqishiga olib keladi. Shuning uchun ham, maktabgacha yoshdagi duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarni odatiy sharoitda dam oldirish lozim.

Tungi uyqu vaqtida duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarga tinch holatda bo'lish uchun sharoit yaratiladi. Bular: uyquga ketishdan oldin televizor ko'rmaslik, shovqinli va asabni buzadigan o'yinlarni uynamaslikga ota onalar e'tibor qaratish kerak. Duduqlanish nutq kamchligiga ega bo'lgan bolalarga ota onalar turli mavzuda, mazmuni bolaning yoshiga va nutq kamchligiga e'tibor bergan holda ertaklar aytib beriladi. Ertak eshitish vaqtida bola o'ziga qulay bo'lgan holatda o'tirish kerak. Albatta ertakni eshtib bo'lgach bola bilan savol javob qilib, ertakni mazmunini tahlil qilinadi. Bundan tashqari, ertakni qay darajada tushunganligini aniqlash maqsadida boladan ertakdagi qahramonlarni chizib berish so'raladi. Bu bolaning nutqiy, aqliy va barmoqlar harakatchanligini rivojlantiradi. Uyquga ketishdan oldin bola bilan sayr qilish va yotadigan xonani yarim soat oldin shamollatish orqali duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolaning markaziy asab tizimiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ko'p ota-onalar duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarning asab tizimiga zaif ekanligi yodidan chiqadi, buning natijasida ular bolada uchraydigan nutq kamchiliklani tezroq bartaraf etish uchun berilgan topshririqlarni ko'paytirib, tezlashtirib yuboradilar. Maktabgacha yoshdagi duduqlanish nutq kamchligigiga ega bo'lgan bolalarni turli teatr, konsertlarga olib boradilar. Ota-onalarning fikricha, bu bolaning rivojlanishiga yaxshi ta'sir ko'rsatadi. Biroq, bolaning yoshi inobatga olinganda maktabgacha yoshdagi bolalar ko'proq o'yin o'ynashni yaxshi ko'radilar. Kattalarning fikricha, bola ko'p o'yinga berilsa, uning aqliy va nutqiy rivojlanshi orqada qoladi deb o'ylaydilar. Lekin, amaliyotdan ma'lumki, maktabgacha yoshdagi barcha bolalar o'yin orqali har tomonlama rivojlanadi. O'yin bolani ruhiy jihatdan analiz-sintez qilishni, tengdoshlari va kattalar bilan fikr almashishni o'rganadi. Maktabgacha yoshdagi duduqlanish nut kamchiligiga ega bo'lgan bolalarni o'yin jarayonida rasm chizdirish, yasash, qurish orqali bolaning nutq kamchiligini bartaraf etiladi. Yaxshi natija beradi, agar o'yin jarayonida ota-onalar ham bola bilan faol ishtirok etsa. Bunda



ota-onalar bolaga yordam berish orqali o'yinning to'liq mazmunini tahlil qilishni o'rganadi. Ota-ona o'yin jarayonida bolani kamroq nutqiy muloqatga kirishmaslikka e'tibor berish kerak. Bolaga so'lashish emas, aksincha turli xil harakatlarni bajarish orqali bolani tinch holda o'yin o'ynashga o'rgatiladi. Masalan, "Botanika" o'yinida bola o'simliklarni gapirmasdan ularning o'sishini kuzatish yoki turli xil hashoratlarni kuzatish ham mumkin.

O'yinni davom ettirishda duduqlanish nutq kamchligigiga ega bo'lgan bolalar bilan pantamimika o'yinini ham olib borish mumkin. Bunda boladan turli xil hashoratlarni harakatini ko'rsatib beradi. Bu esa bolaning umumiy tana harakatini faollashiga olib keladi. Faqat duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarni jismoniy jihatdan zo'riqmasligiga alohida e'tiborni ota onalar qaratish kerak.

Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarni nutq nuqsonini bartaraf etishda ota-onalar doimo logoped bilan hamkorligini uzib qo'ymaslik kerak.

Korreksion o'quv jarayonni samarali olib borishda logopedning barcha ko'rsatmalariga amal qilinadi.

Butun o'quv jarayonida ota-onalar bilan ishlash bo'yicha ishlar tashkil etiladi: suhbatlar, umumiy nutqiy kun tartibi bo'yicha maslahatlar, shifokor mutaxassislarga yo'lanmalar berish, shuningdek ochiq mashg'ulotlarga ishtirok etish. Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarning bosh miya tizimiga salbiy holatlardan qochish: bola uchun tinch muhit, zararli va og'ir vaziyatlardan bolani ehtiyot qilish, kuchli hayajonlarga bolani tushurmaslik. Zinxor bolaga jazolash, qo'rqitish holatlardan foydalanmaslik. Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar kino, teartrlarga, sirk va boshqa his-hayajonli joylarga borish tavsiya etilmaydi.

O'quv jarayoni davomida, ayniqsa duduqlanish nutq kamchiligi kuchaygan vaqtda bolani mehmondorchilikka olib borish va ota-onalar ham mehmon kutish mumkin emas.

O'quv jarayon vaqtida uch marta ota onalar majlisi o'tkaziladi:

1. Tekshiruv natijalari (sentabr oyida);
2. Ochiq mashg'ulot jarayonida bola nutq holatini aniliz qilish (fevral oyida);
3. Yakuniy majlis (may oyida).

Shuningdek, logoped maslahati berilgan ish hujjatlar papkasi tutiladi va ushbu papkada shifokor mutaxassislarning maslahati, mavzular bo'yicha leksik materiallar yig'iladi.

**Nazorat savollari:**

1. Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarda ota va onalar hamkorligida olib boriladigan asosiy ishlar mazmuni?
2. Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarda jismoniy mashqlarning ahamiyati?
3. Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarda kun tartibining asosiy maqsadi?

**Topshiriqlar:**

1. Duduqlanish nutq kamchiligini bartaraf etishda logoped va ota-onalar hamkorligi mavzusi bo'yicha "*Aqliy hujum texnologiyasi*" yordamida guruh bilan ishlang va og'zaki bayon eting.

**"Aqliy hujum texnologiyasi"**






2. Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar kun tartibining mazmuni bo'yicha yozma ma'lumot tayyorlang va uni og'zaki holda guruhda tahlil eting.

**Tayanch iboralar:**

Logopedik o'yin – nutqni bartaraf etishga qaratilgan o'yinlar.
Autogen – (grekcha autos - o'zi) – mustaqil rivojlanish.

## 17§. Duduqlanish nutq kamchiligini bartaraf etishda logopedik o'yinlardan foydalangan holda ishni tashkil qilish

**Reja:**

1.O'yinning mazmuni.
2.O'yinlarning korreksion logopedik ish mazmuni.

O'yin maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati bo'lib, u orqali bola shaxs sifatida shakllanadi. O'yin bolaning kelajakdagi o'quv, mehnat faoliyati, kishilarga munosabatining qay darajada shakllanib borishini belgilaydi.

O'yin qadim zamonlardan beri pedagog, psixolog, faylasuf, etnograf, san'atshunos olimlar diqqatini o'ziga tortib kelgan. O'yin ibtidoiy jamoa tuzumi davridayoq yuzaga kelgan bo'lib, jamiyat hayotida mehnatdan keyin turadi va uning mazmunini belgilaydi. Ibtidoiy jamoa qabilalari o'z o'yinlarida ovchilik, urush, dehqonchilik ishlarini aks ettirganlar. Masalan, o'sha davrdagi ba'zi qabilalarning sholi sepish jarayoii o'yinlar bilan juda katta tantana qilib amalga oshirilar edi.

Ba'zi hollarda esa o'yin mehnat qilish istagi orqali yuzaga keladi. Masalan, ovchi xayvonni ovlash uchun uning oldiga hayvonga o'xshab sudralib, sirpanib boradi.

Ayrim hollarda esa bola o'z o'yinida oldin kattalar mehnatiga taqlid qiladi, keyinchalik ularning mehnatida qatnashadi. O'yin yosh avlodni mehnatga tayyorlaydi. Bolalar o'yinni bunday tushunish birinchi marta K.D.Ushinskiy tomonidan ta'riflab berilgan edi. U o'z asarlarida bolalar o'yinining mazmuni, ularning hayotdan olgan taassurotlari bilan belgilanib, ular shaxsining shakllanishiga ta'sir etadi, deb yozadi. Bu fikrni P.F.Lesgaft ham tasdiqlab, bolalar o'z o'yinlarida tevarak – atrofdan olgan taassurotlarini aks ettiradilar deydi. Bunday faoliyat bolaning rivojlanishida katta ahamiyatga egadir.

Shunday qilib, o'yinning ijtimoiy voqea ekanligini, o'yinda tevarak-atrofdagi borliq aks ettirilishni ilg'or olim va pedagoglar o'zlarining kuzatish va amaliy tadqiqotlari orqali isbotlab berdilar.

Shu tariqa o'yin tarixiy taraqqiyot jarayonida mehnat faoliyati natijasida paydo bo'lgan ijtimoiy faoliyatdir. O'yin doimo haqiqiy hayotni aks ettiradi. Demak, ijtimoiy hayot o'zgarishi bilan uning mazmuni ham o'zgaradi; o'yin ma'lum maqsadga yo'naltirilgan ongli



faoliyat bo'lib, uning mehnat bilan ko'p umumiyligi bor va yoshlarni mehnatga tayyorlashga xizmat qiladi. O'yin faoliyati asosida boladagi o'quv faoliyati rivojlanadi, bola qanchalik yaxshi o'ynasa, u maktabda shunchalik yaxshi o'qiydi;

Bolalarning o'yini nazariyasi (1920-30 yillarda) Ye.A. Flerina, YE.I.Tixeyeva, YE.A. Arkin kabi olimlar asos soldilar, keyinchalik R.Y.Lextman-Abramovich, N.M. Aksarina, A.P. Usova, D.V.Mendjeritskaya, R.I. Jukovskaya, T.A. Markova, S.L. Novosyolova, Ye.V.Zvorigina va boshqalarning tadqiqot ishlari bolalar o'yini mavzuini ishlab chiqishga bag'ishlanadi.

Bolalar o'yinining tarixi, tabiati, uning rivojlanish qonuniyatlari L.S.Vigotskiy A.N.Leontev, D.B.Elkonin, A.V.Zaporojets kabi psixologlar va ularning davomchilari ilmiy tadqiqot ishlarida o'z aksini topdi.

A.V.Zaporojets bolalar o'yinining ilk yoshdan boshlab kuzatib borish natijasida uni xarakatga keltiruvchi sabablar, rivojlanish qonuniyatlari, har xil yosh bosqichlarida bolalar o'yinining o'ziga xos tomonlari, mazmuni va tuzilishini o'rganish zarurligini ta'kidlaydi.

Ilk yoshli bolalar o'yin faoliyatining birinchi bosqichi tanishtiruvchi o'yin bo'lib, u narsa-buyum-o'yin faoliyatidir. Uning mazmuni qo'l ishdagi murakkab va nozik harakatlardir.

Keyingi bosqich aks ettirish o'yini hisoblanadi. Bu ilk yoshli bolalar o'yini psixologik mazmunining rivojlanishida eng yuqori nuqta hisoblanadi. Kattalar ta'lim-tarbiyaviy ishlarini ma'lum izchillik bilan olib borsalar, bu yoshdagi bolalar narsa va buyumlar nomini, nimaga ishlatilishini bilib oladilar va bu yangi bilimlarni o'z o'yinlarida qo'llay boshlaydilar.

Bu yoshdagi bolalar o'yin mazmuni jihatidan predmetli faoliyatni aks ettiradi.

Birinchi yoshning oxiri va ikkinchi yoshdagi bolalar o'yinida syujetni aks ettirish yuzaga keladi. Bola quyidagi buyum bilan undan qanday foydalanish kerakligini aks ettiradi. Masalan, qoshiq bilan ovqat yeyiladi, piyoladan choy ichadi, karavotda yotiladi, qo'g'irchoqni «onasi» erkalaydi va hokazo. Shuning asosida syujetli-rolli o'yinning dastlabki qirralari yuzaga kela boshlaydi.

Navbatdagi bosqich rolli o'yin bo'lib, unda bolalar o'zlariga tanish bo'lgan kattalar mehnati va kishilarning ijtimoiy munosabatlarini aks

ettiradilar.

Bolalar o'yin faoliyatiping bosqichma-bosqich rivojlanishi to'g'risidagi umumiy tasavvurlar har xil yosh guruhlarida bolalarning o'yin faoliyatiga rahbarlikniig aniq tizimli tavsiyalarini ishlab chiqish imkoniyatini yaratadi.

Shunday qilib, bolalar bog'chasining pedagogik jarayonida o'yinning tutgan o'rni juda katta bo'lib, o'yindan maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim bsrishda keng foydalaniladi. Zero:

• o'yin bolalarning mustaqil faoliyati bo'lib, unda bolaning ruhiyati namoyon bo'ladi;

• o'yin maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalar hayotini tashkil etish shaklidir;

• o'yin bolalarni har tomonlama tarbiyalash vositalaridan biridir;

• o'yin bolalarga ta'lim va tarbiya bershining metod va usulidir;

• o'yin bolalarni o'quv faoliyatiga tayyorlash vositasidir;

Taniqli pedagog olimlarning olib borgan tadqiqotlari o'yinga kompleks rahbarlik qilishi orqali bolalarga axloqiy munosabatlari, bolalar o'yinining rivojlanishi darajasiga ta'sir etish mumkinligini ko'rsatadi.

Bolalar o'yini o'zining mazmuni, hususiyati, tashkil etilishiga ko'ra xilma-hildir, shuning uchun uni quyidagicha turkumlarga ajratiladi:

1. Ijodiy o'yinlar.

2. Qoidali o'yinlar.

Ijodiy o'yinlar bolalar o'zlari o'ylab topishadi. Unda oldindan belgilangan qoidalar bo'lmaydi. O'yin qoidasini bolalar o'zlari o'yin jarayonida belgilashadi.

Ijodiy o'yinlarga drammalashgan o'yinlar, qurilish o'yinlari, tabiiy materiallar bilan o'ynaladigan o'yinlar kiradi.

Qoidali o'yinlarning mazmuni va qoidasi kattalar tomonidan belgilanadi. Qoidali o'yinlarga quyidagilar kiradi: *didaktik o'yinlar, harakatli o'yinlar, musiqali o'yinlar, ermak o'yinlar.*

Bolalarga ta'lim tarbiya berish maqsadida kattalarning o'yinni tanlay bilishi, unga to'g'ri rahbarlik qilnsh kerak. Bolalar bog'chasida «ta'lim va tarbiya dasturi»da belgilangan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishni ta'minlaydi.

O'yin bolalarni rivojlantirish va tarbiyalash vositasidir.



Psixologlar o'yinni bog'cha yoshi davrida yetakchi faoliyat dsb hisoblaydilar. O'yin tufayli bolaning yuqori rivojlanish bosqichiga o'tishini ta'minlovchi sifatlar shakllanadi, uni ruhiyatida sezilarli o'zgarishlar yuz beradi.

O'yinda bola shaxsining hamma tomoni bir-biriga o'zaro ta'sir etgan holda shakllanadi. Uynayotgan bolani kuzatayotib uning qiziqishlarini, tevarak-atrof to'g'risidagi tasavvurini, kattalarga va o'rtoqlariga bo'lgan munosabatini bilib olish mumkin[1].

Shaxsdagi biron sifatni tarbiyalash uchun uning boshqa tomonlarini ham rivojlantirish kerak. Masalan, bolaning o'yinga qiziqishini, tashkilotchilik qobiliyatini rivojlantirish uchun mazmuni jihatidan boy o'yinlar yaratilishi kerak. Bolalarning ijodiy o'yinlarini rivojlantirish uchun esa o'z navbatida yaxshi tashkil qilingan bolalar jamoasi zarur bo'ladi.

O'yin bolalarni jismoniy tarbiyalash tizimida, bog'chaning ta'lim-tarbiya ishida axloqiy, mehnat va estetik tomonidan tarbiyalashda katta o'rin tutadi.

O'yinda yosh organizmga xos bo'lgan talab va ehtiyojlar qondiriladi, hayotiy faollik ortadi, birdamlik, tetiklik, quvnoqlik tarbiyalanadi. Bolalarning nutqini rivojlantirish uchun qo'llaniladigan o'yin turlari bolalardagi mohirlikni, mustaqil muloqat usullarni shakllantirishga qaratilgan. Turli nutq buzilishlariga ega bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o'yin faoliyati katta ahamiyatga ega, hamda ular shaxs va intellektning har tomonlama rivojlanishiga zarur shart-sharoit yaratadi.

Shuning uchun ham bolalarni jismoniy tarbiyalash tizimida o'yin munosib o'rin egallaydi. Atoqli pedagog va shifokor N.A.Arkin o'yinni ruhiy vitamin deb bekorga aytmagan.

O'yin ta'lim va mashg'ulotlar bilan, kundalik hayotdagi kuzatishlar bilan uzviy bog'lik bo'lib juda katta ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Ijodiy o'yinlardan muhim bilimlarni egallash jarayoni yuzaga keladi, bu bolaning aqliy kuchini ishga soladi, tafakkurni, hayolni, diqqatni, xotirani faollashtirishni talab qiladi. Bola masalalarni mustaqil hal qilishga o'rganadi, o'ylagan narsasini amalga oshirish uchun yaxshiroq va osonroq usul o'ylab topadi, o'z bilimlaridan foydalanish

[1] Z.M.Ahmedova, M.Y.Ayupova, M.P.Xamidova. "Logopedik o'yin" darsligi. Toshkent 2007 y, 9 b.

va uni so'z bilan ifodalashni o'rganadi.

O'yinda aks ettirilayotgan narsani bilib olishga qiziqish uyg'onadi. Ko'pincha o'yin bolalarga yangi bilim berish va ularning fikrini, bilish doirasini kengaytirish uchun xizmat qiladi. Bolalarda kattalarning mehnatiga, ijtimoiy hayotga, kishilarning qahramonona ishlariga qiziqish sari ularda bo'lajak mutaxassislik, yaxshi ko'rgan qahramonlariga tahlid qilish kabi dastlabki orzular paydo bo'ladi.

A.V. Zaporojets o'yinning ahamiyati haqida gapirar ekan, o'yinda tevarak-atrofdagi predmet va voqealarning umumlashgan tipik obrazlari uyushmasini yaratish qobiliyati rivojlanadi, keyin ular har xil qilib, o'zgartiriladi. Bolaning kelajakdagi butun rivojlanishi uchun hayol yoki obrazni tafakkurning bunday rivojlanish xususiyati bebaho qimmatga egadir, deydi.

Ijodiy o'yinni tor didaktik maqsadlarga bo'ysundirib bo'lmaydi, bu o'yin yordamida juda katta tarbiyaviy vazifalar hal qilinadi.

Qoidali o'yin bolaning sensor rivojlanishi, tafakkur va nutqini, ixtiyorsiz diqqatini va xotirasini, har xil harakatlarini muntazam ravishda mashq qildirib borish imkonini beradi. Har bir qoidali o'yin ma'lum didaktik maqsadga ega bo'lib, bolani umumiy rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi. Ta'limning o'yin shaklida bo'lishi muhim ahamiyatga ega bo'lib, bolaning yosh xususiyatlariga mos keladi. Qiziqarli o'yin bolaning faolligini oshiradi, o'yinda bola mashg'ulotdagiga nisbatan murakkabroq masalani hal qilishi mumkin. Bu - ta'lim butunlay o'yin shaklida bo'lishi kerak degan gap emas. Ta'lim turli-tuman usullar va metodlarni qo'llashni talab etadi. O'yin ta'limning shakllaridan biri bo'lib, boshqa bir metod bilan qo'shib olib borilgandagina yaxshi natija beradi, bu kuzatish, suhbat, o'qib berish va hokazolardir.

Bola o'ynayotib, o'z bilimidan foydalanishga, uni har xil sharoitda ishlata bilishga o'rganadi. Ijodiy o'yinlarda bolalarning fantaziyasi, buyum yasash, tajriba qilishga keng yo'l ochiladi.

O'yinda aqliy rivojlanish bilan bog'liq holda axloqiy sifatlar ham shakllanadi. O'yin jarayonida yuz bergan kechinmalar bola ongida chuqur iz qoldiradi, shuning uchun o'yin bolada yaxshi hislatni, ulug'vor orzular va intilishlarni, sog'lom qiziqishlarni tarbiyalashga yordam beradi. O'yinda bola o'z xulqini boshqarishga, qiyinchilikni yengishga, o'z maqsadida qat'iy turib yetishishga o'rganadi.

O'yin mustaqil faoliyat bo'lib, bu jarayonda bolalar o'z tengdoshlari



bilan aloqa qilishga kirishadilar. Ularni umumiy maqsad, unga erishishdagi umumiy kechinmalar birlashtiradi. Shuning uchun o'yin do'stona munosabatlarni tarbiyalashda, jamoa hayoti malakalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Birgalikdagi o'yin bilan birlashgan kichik bolalar jamoasida murakkab munosabatlar vujudga keladi. Tarbiyachining vazifasi har bir bolani faol o'yinga jalb qilish, bolalar o'rtasida do'stlikka, haqqoniylikka, o'rtoqlarini javobgarlikni sezishga asoslangan munosabatlar o'rnatishdan iboratdir. O'yinda bolalar o'z ixtiyorlari bilan o'ynaydilar, ammo boshqa xech bir faoliyatda o'yindagi singari bolalarning xulq bilan bog'liq bo'lgan qat'iy qoida yo'q. Mana shuning uchun ham o'yin bolalarni intizomli qiladi, ularni o'z harakatlari va fikrlarini qo'yilgan maqsadga bo'ysundirishga o'rgatadi;

O'yin mehnat tarbiyasi vazifasini bajarishiga ham yordam beradi. Bolalar o'z o'yinlarida har xil kasbdagi kishilarni aks ettiradilar, bu bilan ular kattalarning harakatigagina taqlid qilib qolmay, shu bilan bir qatorda ularning ishga, mehnatiga bo'lgan munosabatlirini ham aks ettiradilar. O'yin bolada ko'pincha mehnat qilish xoxishini uyg'otadi, o'yin uchun kerakli narsalarni tayyorlash va yasashga majbur bo'ladi. O'yinda hozirgi zamon bolalariga xos bo'lgan texnikaga qiziqish paydo bo'ladi va rivojlanadi, bolalar har xil mashinalar yasaydilar va texnik o'yinchoqlar bilan o'ynaydilar.

O'yin estetik tarbiyaning muhim vositasidir. O'yinda ijodiy hayol, fikrlash qobiliyati yuzaga keladi va rivojlanadi. Yaxshi tanlangan o'yinchoq badiiy didni tarbiyalashga yordam beradi. Harakatli o'yinlarda harakatning go'zalligi va maromi bolalarni o'ziga maftun kiladi. Bolalar o'zlarining xarakatlarini nazorat qilishga, xar bir xarakatning to'g'ri va chiroyli bo'lishiga intiladilar.

O'yinning katta tarbiyalovchi ahamiyati o'z-o'zidan amalga oshmaydi. O'yin befoyda, hatto zararli bo'lishi ba'zan yolg'on qiziqishlarni, yolg'on hislarni qo'zg'atishi mumkin. Tarbiyachi o'yin yordamida bolalarni har tomonlama rivojlantirish vazifasini amalga oshirish uchun unga muntazam ravishda ta'sir etib borish zarur.

Bu vazifani hal etishda o'yin bolalar bogchasidagi ta'limiy-tarbiyaviy ishning hamma tomonlari bilan bog'langan bo'lishi kerak. O'yinda bolalarning mashg'ulotlarda olgan bilim va malakalari aks etadi va rivojlantiriladi, ular orqali esa bola hayotga o'rgatiladi. Ikkinchi

tomondan, o'yinda tarbiyalangan sifatlar faoliyatning boshqa turlariga ko'chiriladi.

Bolalar bog'chasidagi pedagogik jarayoni maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarning o'sib kelayotgan yosh organizm xususiyatlarini e'tiborga olgan holda ularni yaxshi tarbiyalash uchun qulay shart-sharoitlar yaratadigan qilib tashkil etish lozim.

Buning uchun bolalar hayotini tashkil etishda o'yin yetakchi o'rin egallashi lozim. Bolalar o'yiniga ajratilgan vaqtni mashg'ulot yoki kun tartibidagi boshka tadbirlarini cho'zib yuborish orqali egallash mumkin emas.

## Duduqlanishni bartaraf etishda sahnalashtirilgan o'yinlarning ahamiyati

Ma'lumki, duduqlanish (nutq tuzilishining temp-ohangini buzilishi) avvalam bor nutqiy muloqotda yuzaga keladi, ya'ni sahnalashtirilgan o'yinlarda bartaraf etishsamarali kechadi. Bunday o'yinlar bolada o'z kamchiligidan ancha uzoqlashishiga, kamchilikni bartaraf etishga, faol psixoterapiya vazifasini o'tashda yordam. Men bu kabi o'yinlarni har bir logopedik mashg'ulotlarim jarayonida qo'llayman.

Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolaning imo-ishorali harakatlari kambag'al, harakat koordinatsiyasi noaniq bo'lganligi sababli ham ish faoliyatining birinchi bosqichidayoq men bunday bolalarga imo-ishoralarga boy, mimika va pantomima harakatlari jam bo'lgan harakatli o'yinlarni tavsiya etaman.

*Mimik mushaklarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi mashqli o'yinlar*

- Nordon limonni yedim (bolalar yuzini burishtiradilar).
- Tanish qizchani ko'rib qoldim (kuladilar).
- Qo'rqib ketdim (qoshlarini yuqoriga ko'tarib, ko'zlarini katta ochib, og'izlarini ochadilar).
- Hayron qoadilar (qoshlarini yuqoriga ko'tarib, ko'zlarini katta ochadilar).
- Hafa bo'ladilar (lab chetlarini buradilar).
- Ko'zlarimizni qisamiz (o'ng, chap ko'zlarini qisadilar).

## Imo-ishorali harakatlarni o'rgatishda o'yin-mashqlar

- gullar kabi ochildik



- o'tlar kabi chirmashdik
- qushlar kabi uchamiz
- ayiq o'rmonda ketyapti
- bo'ri quyonning ortidan tushdi
- o'rdakchalar suzmoqdalar
- pingvinlar yurmoqdalar
- qo'ng'iz teskarisiga o'girilib qoldi
- otlar kabi yuramiz

Bu kabi bir qator tizimli va harakatli o'yin mashqlar yordamida mimika va harakatlarda ancha o'ziga xos o'zga ishonch hosil bo'ladi. Dudqlanuvchi bolalar bunda bir harakatdan ikkinchi harakatga ancha osonlikcha o'ta oladilar va harakati, mustaqil ravishda harakatli vazifalarni bajara oladilar. Undan tashqari, insonlarni yuz ifodalaridan, imo-ishoralari atrofidagi harakatlaridan tushunib oladilar.

Ikkinchi bosqichda men dudqlanuvchi bolalar diqqatini ularni o'rab turgan atrof-muhitdagi predmetlarga qarataman. Undan so'ng esa sahnalashtirilgan o'yinlarga o'taman. Avvalroq bolalar tarbiyachi yordamida men tanlagan she'rlarni, matnlarni, maqollarni yod olib, qo'g'irchoqlarni harakatlantirishga o'rganadilar.

**Namuna.** Barmoq teatridagi quyon uchun matn.

Yam-yashil o'tloqda
Quyoncha sakraydi bir, ikki, uch.
O'tlarni terib yeydi
Sekin quloq tutadi.
Bir joyda tursa quyon,
Sovuq qotib qoladi
Shuning uchun quyoncha
Sakrab-sakrab turadi.
Qani quyoncha sakra,
Qo'ling bilan tapillat
Sen o'tloqqa yotib ol!
So'ng damingni ola qol!
Bo'ri ko'rindi birdan
Quyon yo'qoldi izdan.

Sahnalashtirilgan o'yinlardan so'ng bolalarga savollar beriladi:

- quyon qanday ko'rinar ekan? (kichkinagina, kulrang)
- u nimalar qilishni bilar ekan? (sakrashni, o't yulishni, yuvinishni)

• u kimdan qo‘rqadi? (bo‘ridan, tulkidan)

Nutqiy muloqotdagi vaziyatni murakkablashtirish mumkin, bunda o‘yinga bi-bo-ba qo‘g‘irchoqlari kiritiladi. (petrushka, bilmasvoy, Buratino) Bu qo‘g‘irchoqlar yordamida sahnadan turib, tomoshabinlar bilan muloqotga kirishiladi. Bunday vaziyatlarda bolalar jon dillari bilan muloqotga kirishadilar, ya’ni bolalar yangi ertak qaxramonlari Bilan tanishadilar, topishmoqlarni javobini topadilar, predmetlar nomini aytib beradilar. Bi-ba-bo qo‘g‘irchoqlari bilan birgalikda bolalar nafaqat barmoqlari yordamida balki, panjalarini ham harakatga keltira oladilar.

Uchinchi bosqichda bolalar sekin-asta savollarga javob bera boshlaydilar, ko‘rgazmalarning yordamisiz predmetlar va ularning harakatlari haqida so‘zlab bera oladilar.

Bu bosqichga stolda o‘ynatuvchi sahnalashtirilgan “Xo‘roz va mushuk” o‘yini mos keladi.

Xo‘roz mushukni ko‘rib qolibdi va undan so‘raydi:

- Nima uchun sen qop-qorasan mushukvoy?
- Kechqurun mo‘riga tushgan edim men bilmay.
- Nima uchun endi sen oppoq momiqqinasan?
- Chunki, xozirgina yegan edim qaymoqdan.
- Nima uchun kulrangga aylanib qolding endi?
- Chunki kuchukvoy meni irg‘itgandi chang yerga.
- Asl ranging qanaqa?
- Men ham buni bilmayman.

Bolalarning bilim hamda ko‘nikmalaridan kelib chiqqan holda bolalarga savollar tuziladi.

Masalan:

- Nima uchun mushukvoy, mo‘ridan qop-qora holda chiqdi? (mo‘ri qora bo‘lganligi uchun mushukvoy kir bo‘lib qoldi).
- Nima uchun u oqarib qoldi? (qaymoq oppoq bo‘lganligi uchun mushukvoyning terisi qaymoqqa qorishib, oppoq bo‘lib qoldi).
- Nima uchun u kulrang tusga kirdiya? (chunki changning rangi kulrang rangda).
- Uning asl rangi qanaqa? (qora? oq? sariq? ola-bula?).
- Mushukvoyning asl rangini bilish uchun nima qilish kerak? (uni cho‘miltirish kerak).

Bu matnni quyidagi vazifa bilan ham bog‘lasa bo‘ladi:

Mushuk – mushukvoy – mushukcha



Kuchuk – kuchukvoy – kuchukcha

Agarda bolalar qurish-yasash mashg‘ulotlarida ertak qahramonlarini o‘zlari yasasalar yanada natija samaraliroq bo‘lar edi.

Keyingi bosqichda ancha murakkablashgan sahnalashtirilgan o‘yin turiga o‘tiladi. Bunda bola marionetka – qo‘g‘irchoqlari bilan sahnada, guruhda yoki zalda yurishi mumkin bo‘lib, bola mustaqil ravishda harakatlanishi nutq so‘zlashi kerak bo‘ladi. Bunga ko‘proq “Bo‘ri bilan tulki” (A.T.Seferov) “Ayiq va quyon” (N.Sladkov) kabi hikoyalardagi dialoglar to‘g‘ri keladi. (Bo‘ri, tulki, ayiq rollariga ko‘pincha o‘ziga ishonmaydigan bolalarni tanlab olinadi) – bu ham psikorreksiya vazifasini o‘taydi.

To‘rtinchi bosqichda nutq ko‘rgazmalar yordamisiz rivojlantirib borilar ekan, beshinchi bosqichda bog‘langan nutq ko‘nikmalari mustahkamlanar ekan, men bolalar bilan ularga tanish bo‘lgan hikoyalar bo‘yicha sahnalashtirilgan o‘yin o‘ynayman. Bu sahnalar musiqa zalida olib boriladi. Bolalarni tayyorlanishlariga musiqa va raqs rahbarlari ham qo‘shiladilar. Biz sahnalashtirilgan asarimizni bayram ertaligiga olib chiqib, namoyish etamiz. Bolalar tomoshabinlar olidida qo‘rqmasdan o‘z rollarini, harakatlarini namoyish etadilar. “G‘ozlar-g‘ozlar”, “Mushukvoyning uyi”, “Pashsha – pashsha – oy pashsha” spektakllari juda ham samarali o‘tgan.

Duduqlanish nutq kamchiligi mavjud bo‘lgan bolalar faqatgina o‘zlariga juda ham yaxshi tanish bo‘lgan hikoya, ertaklar, she’rlarnigina sahnalashtirishlari mumkin. Shuning uchun men mashg‘ulotlarimda adabiyotning turli xil janrlaridan foydalanib, spektakl sahnalashtiraman.

Bu bosqicha men quyidagilarni taklif etaman.

(Hashorotlar choy ichmoqdalar), hayvonlar darsda va boshqalar ana shunday kartinani to‘qish dialoglarni o‘ylab topish va uni sahnalashtirib ijro etishlari kerak bo‘ladi.

Bunda ertakchi o‘yinini o‘ylab topib, bolalar o‘zlari ertak to‘qiydilar va shu ertak asosida o‘zlari sahna ko‘rinishini sahnalashtiradilar.

Bizning MMTM teatrlashtirish zonasida bolalar mustaqil badiiy sa’nat bilan shug‘ullantirishlari uchun barcha sharoitlar yaratilgandir (qo‘g‘irchoqlar, dekaratsiyalar va boshqalar).

So‘zning yakunida shuni aytib o‘tishim kerakki, sahnalashtirilgan o‘yinlardan keng foydalanar ekanman, men boshqa logopedik uslublar va qo‘llanmalardan foydalanmaslik kerak demoqchi emasman. Faqatgina

men o‘quvchidlarning diqqatini quyidagilarga qaratmoqchiman xolos:

- Sahnalshatirilgan o‘yinlardan mashg‘ulotlarning bir qismi yoki dam olish vaqtida foydalanish;
- Bunday o‘yinlarini bir tizimda olib borish;
- Bolaning sharoitidan kelib chiqqan tarzda nutq materialini tanlash va bo‘lib berish;
- Turli xil teatrlarining turidan kelib chiqqan holda bolalarning mayda hamda umumiy motorikasini rivojlantiriladi;
- Birinchi uch bosqichda sahnalshatirilgan o‘yinlar uchun “Logoped - bolalar”, keyingi ikki bosqichda esa, bola – bolalar (logoped olib boruvchi, rejyossor rolida) tizimida ish olib borish;
- Sahnalshatirilgan o‘yinlarda nutqiy holatlarini ishlab chiqish lozim bo‘ladi.
- Nutqiy qo‘rqishni bartaraf etuvchi vosita sifatida saxnalshtirilgan o‘yinlarini olib borish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

**Duduqlanish nutq kamchiligi ega bo‘lgan bolalar bilan logopedik korreksion ish olib borishda logoritmik mashq va o‘yinlar**

Har bir harakat ma’lum bir ritmda bajariladi. “Ritm” tushunchasi ma’nosiga ega bo‘lib, turli xollarda ko‘llaniladi. Masalan, she’r ritmi, iroda, nafas ritmi, Ritm universal kosmik psixomotorik jixatdan yuzaga keladi.

Ritmning asosiy sifati davriy takrorlanishdir, ammo ritm tushunchasi obekt rol o‘ynaydigan joylarda ushbu ko‘rinish bo‘lmasligi mumkin, men iroda ritmi, ba’zan esa musiqa ritmi ham davriy takrorlanish bilan xarakterlanmasligi mumkin. Ritm umumiy tushuncha sifatida jixatning bir aniq bo‘lmagan sifat predmet, xodisa va jarayonlarning vaqt yoki fazoviy tartibi bilan xarakterlanadi. Ruxshunos B.M. Teplov fikricha – ritm bu jarayonining vaqtdagi shakllanishi bo‘lib u zarur shart sharoit sifatida bir – birin ketin keladigan ta’sirlarning guruxlanishi, vaqt qatorning bo‘lishini ko‘rsatadi. Ritm haqida bir – birini ketidan bir xilda keladigan ta’sirlar qatorning aniq guruxlarga bo‘linishi bo‘lib, bir xil yoki xar xil bo‘lishi mumkin.

Ritm xillari motor reaksiya bilan birgalikda bo‘ladi. Motor reaksiyalarning moxiyati shundan iboratki. Ritm idroki turli sezgilarni yuzaga keltiradi. Bular til muskullarini, bosh jag‘, barmoqlar, oyoq barmoqlari muskullarning qismlarini: xalqum, bosh ko‘krak qafasi



va qo‘l oyoqlarda yuzaga keladigan kuchlanishlar, nafas muskullarini qisqarishidir.

Musiqali ritmik xislar musiqali faol xis etish va buning natijasida musiqali xarakatning xissiy ifodalanishni sezishdir. Musiqali ritmik xislarni rivojlantirish asosida musiqali ritmik tarbiya amalga oshiriladi. Uning mazmunini shaxsga musiqa va ritm ta’sirida shaxsni, uning bilish, irodaviy xissiy soxalarni shakllantirishdir.

Turli yoshdagi duduqlanuvchilar bilan ish olib borishda qo‘shiqdan keng foydalanish tavsiya etiladi. Qo‘shiqni matini ham muxim ahamiyatga ega. Agarda duduqlanuvchida mavjud bo‘lsa va logopedik mashg‘ulotlarda tovushini hosil qilish va mustaxkamlash ishlarni olib borilayotgan bo‘lsa qo‘shiq matinida bola ham o‘zlashtirib olmagan tovushlar bo‘lmasligi lozim. Qoida bo‘yicha qo‘shiqlar xor bo‘lib kuylanadi. Individual kuylashga asta – sekin o‘rgatadi. Qo‘shiqni kuylash korreksion ish bosqichiga bog‘liq.

Gapirmaslik vaqtida bolalar qo‘shiqni tinglaydilar.Birgalikdagi va logoped orqasidan gapirish bosqichida bolalar birgalikda pedagog bilan kuylash orqali, qo‘shiqni o‘rganib oladilar.

Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalarda pay tortishishi siz nutqni tarbiyalash asta – sekin, uning yengil, sodda shakillaridan boshlab mustaqil, hayotiy, halatlarda zarur bo‘lgan hissiy nutqgacha tarbiyalashning kerak bo‘ladi.

Tabiyki, duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalarga kompleks ta’sir etishda logopedik ritmika logopedik korreksion vazifalaridan kelib chiqadi.

• Bolalar bog‘chasining nutq guruhi sharoitida duduqlanuvchi bolalar bilan olib boriladigan logopedik ishlarda;

• Nutqni cheklash davri vazifalari (gapirmaslik va shivirlab aloqa qilish) quyidagi tarzda bo‘lishi kerak:

• Umumiy ixtiyoriy motorika va yuz muskullarini;

• Nutqiy jarayoni, eshitish diqqati va xotirasi, ko‘rish diqqati va ko‘rish xotirasini tarbiyalash;

• Ixtiyoriy xulqni chidamlilik diqqat kabi shaxs sifatlarini rivojlantirish;

• Shivirlab gaprilgan jumladan pauza ustida ishlash; “Kuz”, “Sabzavotlar”, “Mevalar” va ularning variantlari bo‘yicha lug‘atni boyitish va faollashtirish zarurdir.

Logoritmik mashg'ulotlarda logopedik ta'sir vazifalari bilan bog'liq nutq ishtirok etmagan mashq va o'yinlar o'tkaziladi. Bolalar pedagogning ko'rsatmalarnnig eshitishga o'rganadilar, bajardilar, ammo gapirimaydilar. Pedagog bolalar bilan shivirlab so'zlashdi.

Birgalikdagi va takrorlangan nutqini tarbiyalash bosqichida logopedik korreksiyannig vazifalarini logoritmik mashq va o'yinlar tashkil etishi kerak.

Logoritmik mashg'ulotlarda savol – javob shaklidagi nutq materiallaridan foydalanish lozim.

Masalan: bolalarni bir guruli uyinlarini savol intonatsiyasida baland ovovz bilan kuylasa, boshqa bir guruh ta'kidlash intonatsiyasi bo'lgan past ovozda kuylaydi. Shu tarzda sanoq mashqlari, qo'shiqlar, dialoglar o'tkazilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Logoritmik va musiqiy-ritmik mashg'ulotlar albatta istiqbolli va kalendar rejalashtirishni talab qiladi.

Istiqbolli rejalashtirishda logopedik korreksiya bosqichlari bilan muvofiqlik masalalri aniqlanadi. Reja uch bosqichda olib borilishi maqsadga muvofiqdir.

Logopedik mashg'ulotlarga yana qo'shilgan jamoani tashkil etish vazifasi logoped bilan birga parallel qo'yiladi. Musiqali rahbar har birining musiqali, sensor, va psixomotor rivojlanish darajasini tekshiradi, uning kelgusidagi rivojlanish va korreksiyasi yo'lini belgilaydi. Bolaning nutqiy imkoniyatlari, korreksion ishning bosqichi repertuarni tanlashda hisobga olinadi.

Mashg'ulotlar jarayonida ritmikani uddalash takomillashtiriladi, musiqiy qobiliyat rivojlantiriladi. Qo'shiqli, musiqali-harakatlantiruvchi repertuar qishki tomosha, o'yin-kulgi, quvnoq archa sahnalari mavzulari bilan boyitiladi. Pedagog yakka mashg'ulotlar paytida ashulada, harakatda qiynalayotganlarga yordam beradi, bayram ertaliklarida alohida chiqishlar tayyorlaydi.

Mashg'ulotlar jarayonida muhim voqealar nishonlanadi: qishni o'tkazish, Xalqaro xotin-qizlar kuni, Bahor va mehnat kuni, G'alaba bayrami va boshqalar. Mashg'ulotlarda butun guruh va alohida har birining egallagan musiqali-harakatlantiruvchi va nutqni uddalash darajasi tekshiriladi. Bosqichning oxirida o'rganilgan materialni mustahkamlaydigan qo'shiqlar, o'yinlar, raqslar, xorovodlar teatrlashgan tomoshalar kabi mashg'ulotlarni rejalashtirish mumkin.



Musiqiy rahbarga bo'lgan talablarni ko'rib chiqib mashqlarni tushuntirish va ko'rsatish sifatiga; butun guruhni (kichik guruhni) ko'ra olishni uddalashga; nutq mahsulotining sifatiga; shug'ullanuvchilar xulqiga; nutq madaniyati, ovozni egallashni uddalashga; pedagogik odobga rioya qilishni uddalashga; shug'ullanuvchilar bilan to'g'ri muloqot ohangiga; mashg'ulotlarni o'tkazish xarakteriga (ishonch bilan, ishonchsizlik bilan) e'tiborni qaratish zarur.

Ko'zdan kechirilgan mashg'ulotning muhokamasi logoped, musiqali rahbarning nazariy asoslangan xulosasi va mashg'ulotni umumiy baholash bilan tugaydi.

Logopedik ritmik bo'yicha tayyorlangan logopedlar musiqali rahbar faoliyatiga, uning korreksion jarayonda ishtirok etishiga ancha maqsadli rahbarlik qiladilar. Korreksion pedagogika fakultetlari talabalari o'zlarining musiqali va ritmik qobiliyatlarini mustaqil rivojlantirishlari maqsadga muvofiq.

O'zining mazmuniga ko'ra, ayniqsa badiiy, musiqali har qanday faoliyat predmetli makonga oid muhitga tegishli, estetik jihatdan asosli uyushishni talab qiladi, negaki, estetik munosabat moddiylik doirasida go'zallikni his qilish borliq bilan uzviy aloqada ko'rinadi.

Badiiy-nutqli, musiqali-ritmik, teatrli-o'yinli, tasviriy faoliyat majmuini amalga oshirish uchun quyidagi narsalar bilan jihozlash zarur: kitoblar, albomlar, texnik vositalar, o'zi yasaladigan kitobchalar, adabiyot bo'yicha bosma didaktik o'yinlar; asboblar, musiqali-didaktik o'yinlar va qo'llanmalar, o'zi yasaladigan o'yinlar, koptoklar, sharlar, chambarakalar, lentalar, bayroqchalar, niqob-qalpoqlar, raqs, xorovod uchun kostyumlar va boshqalar; obrazli va teatrlashgan o'yinchoqlar (yumshoq va qattiqlari), personajlar va dekoratsiyalar chizilgan tekis figurachalar, barmoqli va qo'lqopli bi-ba-bo qo'g'irchoqlari, shirmalar, sahna-planshetlar, maxsus qurilmalar, qo'g'irchoqlar uchun materiallar, bolalar kostyumlari va dekoratsiya elementlari, teatrlashgan o'zi yasaladigan o'yinchoqlar; badiiy-konstruktorlik materiallari (bo'yoqlar, mo'yqalam, qalamlar), stol ustidagi bosma va didaktik o'yinlar, o'zi yasaladigan o'yinchoqlar pedagogik va estetik talablarga javob beradigan xonani bezaydigan elementlar. Xonani musiqali-ritmik mashg'ulotlar uchun jihozlashda texnik vositalar kiritiladi: magnitofon, radio va televizor, diapozitiv va diafilmlar.

Maktabgacha nutq muassasalarida, bolalar statsionarlarida bolalar-

ning rasm chizishga, yasashga, ashula aytishga, musiqaga yakka layoqatlilari rag'batlantiriladi. Bu faoliyat muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun kerakli sharoitni yaratish zarur: mashg'ulotlar uchun joy ajratish, musiqa burchagi yasash, uni qo'llanma va asboblar bilan ta'minlash. Yengil baland bo'lmgan dekorativ shirma bilan to'silgan musiqa burchagida bolalar asboblari, o'zi yasaladigan o'yinchoqlar, didaktik qo'llanmalar, musiqali o'yinlar, raqslar uchun atributlar, musiqa uchun 1–2 ta kichkina stolcha joylashtiriladi. Shug'ullanuvchilarning harakatga, muskullar faolligiga intilishini qoniqtirish uchun musiqa va raqs bilan shug'ullanishga, rasm chizish va yasash, o'qish va kitoblarni ko'zdan kechirish, sahna va etyudlar o'ynashga imkon beruvchi qurilmalar va reja turi maqsadga muvofiq bo'ladi. Nutqi buzilgan odamlarga yolg'iz o'tirishi va qiziqishiga qarab kichik guruhlar bilan ishlashi uchun ham sharoit yaratish ko'zda tutilishi zarur.

Shunday qilib, nutqida patologiyasi bor kishilarni ijtimoiy readaptatsiya qilish bo'yicha davolovchi-tiklantiruvchi, logopedik, logo- va musiqali-ritmik tadbirlar predmetli makonga oid muhitni tashkil etish uchun ahamiyatli rol o'ynaydi.

Duduqlanish nutq nuqsonni bilan logopedik korreksion ish olib borishda logopedik ritmika logopedik ishning muhim bo'limi hisoblanadi. Bu nutqiy tuzatish tarbiyasi maqsadlarida amalga oshiriladigan musiqali harakat, nutqiy xarakat, musiqali nutq topshiriqlari va mashqlari sistemasini o'zida aks ettiradi. Har qanday nutq nuqsonnini korreksiyalashda logopedik ishlar bilan bog'langan holda logoritmikada mashq va o'yinlardan foydalaniladi. Buning uchun logoritmikani maqsadi, vazifalari va vositalarini logoped yaxshi bilishi kerak. Xarakat tizimining turli tuman buzilishlarini musiqa va so'z bilan uyg'unlashtirishda kishilarda sog'lomlashtiruvchi vazifani hal qilish natijasida tayanch harakat apparatlari mustahkamlanadi, nafas olish, motor, sensor funksiyalar rivojlanadi, muvozanat tuyg'usi, to'g'ri qad – qomat, qadam tashlash, chiroyli harakat tarbiyalanadi.

Logopedik ritmika o'zinning tashkiliy tartibiga qaramasdan logopedik mashg'ulotlarga qo'shimcha hisoblanadi va unga maxsusajratilgan vaqtda olib boriladi. Shuningdek logopej mashg'ulotlariga, qisman tarbiyachi mashg'ulotlariga qo'shiladi. Duduqlanuvchilar bilan quyidagi logopedik ritmika vositalarini qo'llash maqsadga muvofiqdir

Logopedik korreksion ishlarda logoritmikaning quyidagi vositalari



mavjud bo'lib ular quyidagilardan iboratdir.

1.Turli yo'nalishidagi yurish va harbiylarcha yurish;

2.Nafas, ovoz va artikulyatsiyani rivojlantirish uchun mashqlar;

3.Muskullar tonusini boshqaruvchi mashqlar;

4.Diqqatni faollashtiruvchi mashqlar;

5.Hisobli mashqlar;

6.Musiqa kuzatuvsiz nutqiy mashqlar;

7.Musiqiy o'lchov yoki metr tuyg'usini shakllantiruvchi mashqlar;

8.Musiqiy temp tuyg'usini shakllantiruvchi mashqlar;

9.Ritmik mashqlar;

10.Kuylash;

11.Musiqiy asboblarda o'yin mashqlar;

12.Nutqiy buzilishi bo'lgan odamlarning mustaqil musiqiy faoliyatlari;

13.O'yinli faoliyat;

14.Ijodiy tashabbuslarni rivojlantirish uchun mashqlar;

15.Yakuniy mashqlar.

Logoritmik vositalar musiqiy tarbiya ishda o'zining mahsus xususiyatiga egalik qiladi, biroq ular asosan asabiy – psixotrik va logopedik korreksion ishlarda davolash pedagogik usul sifatida ko'rib chiqiladi.

Yuqoridagi barcha ish turlarning qurilishida asosiy tamoyil – harakatning musiqa bilan zich aloqasidir.

Harakatli, musiqiy – harakatli, musiqiy – nutqli, ritmik, musiqa jo'rligisiz nutqli, harakatli nutqli mashq va o'yinlar prosodiyani – duduqlanuvchining harakat sohasini normalashtiradi, bu esa, o'z navbatida uning muomlaga, suhbat ishtirokchisiga, atrof – muhitga va o'z nutqining buzilishiga nisbatan munosabatni qayta qurishga yordam beradi. Bu qayta – qurish xulq atvor va hatti – xarakatning shunday ijobiy xususiyatlari bilan bog'langanki, ular duduqlanuvchida ruhiy xarakatlanuvchi vositani tuzatish jarayonida namoyon bo'ladi, jumladan xarakatdagi ishonch, ularni boshqarish, muamodagi tashabbuskorlik, harakat va nutq qiyinchiliklarini yengishdagi mustaqilllik, faoliyatdagi tirishqoqlik. Nutq buzilishiga nisbatan munosabatni qayta qurish bilan bog'liq holda hayotiy vaziyatlar mohiyatiga qayta muvofiqlashish. Logopedik ritmika duduqlanuvchi bola shaxsining qayta tarbiyalashishi, ijtiomiy – moslashuvi uchun uning umumiy va nutq harakat vositalarini mashq qildirish va tuzatish uchun katta ahamiyatga egadir.

Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar bilan koreksion ish olib borishda qo'llaniladigan logoritmik vosita.

Logopedik ritmikannig bu vositasini V.A.Griner "kirish mashqlari" deb ataydi. Ular bolalarni doira bo'yicha bir o'zi, juft bo'lib yuirsh, turli predmetlarni aylanib o'tish, ro'paradan yurish vaqtida to'qnashmaslik, berilgan yo'nalishga amal qilish, mo'ljal bo'yicha xarakatlanish, brayotganlar orasida masofani saqlash, shuning saf, chiziq, kolonna va h.k.

**Nafas olish, ovoz va artikulyatsiyani rivojlantiruvchi mashqlar**

Mashqlar logopedik ishlarning bosqichlari va vazifalari bilan to'la muvofiq ravishda olib boriladi. Ular katta miqdorda korreksion kursning boshida o'tkaziladigan mashg'ulotlarga kiritiladi. Nutqiy buzilishni muvaffaqiyatli bartaraf etish darajasida korreksion kursning o'rtasi va oxirida ularning miqdori qisqaradi, biroq logoritmik va logopedik materialda vorislik bo'lishi kerakligi uchun olib tashlanmaydi.

Mashqlardan maqsad – nutqiy apparatning ustki bo'limlari faoliyatini meyorlashtirishga yordamlashishdir.

Nafas olishni rivojlantirish mashqlari diafragmal nafasning to'g'rilanishini, nafas chiqarishning davomiyligi, uning kuchi va ketma-ketligini ishlab chiqishga yordamlashadi. Nafasni rivojlantirish mashqlarida nafas chiqarishda talaffuz qilinadigan nutqiy material ham kiritiladi. Masalan, oyoq uchiga ko'tarilish, qo'llarni yuqoriga ko'tarish – nafas olish, tovonga to'liq tushish va qo'llarni belda tutgancha avval jarangsiz tovush [s] (yoki [sh], [f], [x]) ni, keyin unli tovushlarni ajratilgan va turli uyg'unlikda, so'ng unli tovushlarni undosh tovushlar bilan uyg'unlikda uzoq cho'zish. Shundan keyin nafas chiqarishda – ochiq bo'g'inli, yopiq bo'g'inli, ikki, uch, murakkab so'zlar, 3-4-5 so'zdan tashkil topgan iboralar talaffuz qilinadi. Iboralarning cho'zilishi anchagina cho'zilgan nafas chiqarishni talab qiladi.

Ovoz bilan ishlash undosh va unli tovushlarni talaffuz etish bilan boshlanadi. Mashqlar musiqiy kuzatuv va ularsiz olib boriladi. Unli tovushlar ovoz balandligida o'zgarish bilan kuylanadi. Agar bu mashqlar tezda uddalanmasa, ovoz balandligida o'zgarishga erishi uchun "miyovlash" yoki "guvillash" dan (mushukning ovoziga, paroxodning gugulashiga taqlid sifatida) foydalanish mumkin. Ovozning kuchi musiqiy akkompanentning tegishli kuchlanishi yoki zaiflashishi bilan



unlini ancha baland yoki ancha sokin ovoz bilan talaffuz qilishda tarbiyalanadi. Ovoz jarangdorligining cho'ziqligi nafas chiqarishning davomiyligiga bog'liq. Ovozning o'tkirligini tarbiyalash uchun melo-deklamatsiya foydalidir: musiqa mos tushuvchi savolli, undovli, majburlaydigan va boshqa intonatsiyali she'rlarni (kattalar uchun esa prozali matnlarni ham) o'qish.

Nafas, ovoz va artikulyatsiyani tarbiyalash bo'yicha mashg'ulotlarda ekspressiv bo'yalgan, insonning hissiyotlari, ixtiyoriy ta'sirchanligini – shodlik, og'riq, g'azab, qo'rquvni ifodalovchi undov so'zni talaffuz qilish va kuylash qo'shiladi "A! O! Ax! Ox! Ux! Oy! Ay-ay-ay!" va h.k. Keyin undov so'z: unda musiqiy bo'yoq turlicha: musiqaga muvofiq minor yoki major bo'ladigan qilib tanlangan she'rga qo'shiladi.

**"Pashsha" mashqi.**

O'ng tizzada o'tirgan pashshaga qarash, uni tutish, kaftda his qilish, qo'lni quloqqa olib borish. Pashshaning jaranglashini eshitish. Pashshaga taqlid qilib, nafas chiqarishda kuylash: "z-z-z". Pashshani chiqarib yuborish, kaftni yozish, ko'z bilan uning uchishini kuzatish, yana nafas olish.

Bu mashqlar shug'ullanadiganlarga o'z muskullariga egalik qilishga, harakatlarini boshqarishni o'rganishga imkon beradi.

Muskullar tonusini tartibga solishni uddalashni tarbiyalash bo'yicha ishni umumiy rivojlantiruvchi va korreksion mashqlarga ajratish mumkin.

Umumiy rivojlantiruvchi mashqlar organizmga har taraflama ta'sir qilishdan tashqari orqa, qorin, yelka kamari, oyoq, qo'l muskullarini rivojlantiradi. Bu mashqlar turli tumandir. Ularni bajarish xarakteriga ko'ra predmetlar bilan (bayroqchalar, kopotoklar, lentalar va boshqalar) va predmetlarsiz mashqlarga ajratish mumkin. Predmetlar bilan mashqlarda harakatlar kuchi, chaqqonlik, aniqlik, ta'sirlanish tezligi, chamalash rivojlanadi.

**Diqqat – e'tiborni faollashtiruvchi mashqlar**

Diqqatni shakllantirishda so'z, musiqa va salohiyat asosiy omillar bo'lib hisoblanadi. Ayniqsa, musiqa keng ko'lamda qo'llaniladi. Musiqiy ruhiyatning, ohang parchalari, ritmlari, registrlar yorqinligi, xarakteri hamda tovush kuchi va ijro etish shaklining almashinuvi mashqlarni

tashkil etuvchi harakatlar almashinuvini boshqarishga imkon beradi, shuningdek, shug'ullanuvchilar e'tiborini musiqani o'zgartirishga, demak harakatni ham o'zgartirishga jalb etadilar.

Logoritmik mashg'ulotlar vaqtida, odatda, diqqat-e'tiborni faollashtiruvchi ikki mashg'ulot o'tkaziladi. Yugurish yoki yurish bilan bog'liq bo'lgan harakatlanuvchi mashg'ulotni yoki bo'lmasa statistik mashg'ulotni tanlashni tarbiyachi o'ylab chiqadi. Bunday tanlov mashg'ulot sxemasiga kiritilgan bo'lib, o'tilgan va navbatdagi mashqlar jarayonidagi ruhiy motor zo'riqishlariga bog'liq bo'ladi.

### Harakatni almashtirsh mashqlari

Bolalar bir-biriga yuzma-yuz holatda ikki qator bo'lib tizilishibb turadilar va D.Kobalevskiyning «Masxarabozlar» nomli musiqasi ostida har bir taktning boshlanishida birgalikda qarama-qarshi mashqlarni bajaradilar. Bir qator avval o'tirgan keyin oyoq uchida turgan holatda bo'lsa, ikkinchi qator esa avval oyoq uchida turgan, keyin o'tirgan holatlarda bo'ladi.

### Tinglash qobiliyatini rivojlantirish mashqlari

Bu mashqlar bolalarga musiqaning major va minor tugallanishlar orasidagi farqni aniqlashga, tinglashga va ohanglar orasidagi qisqa musiqiy parchalarni harakatga uzata bilishda yordam beradi, harakat silliqligini takomillashtidi. Bolalar musiqa tugallanishi major yoki minorda ekanligini ajratib olishlari uchun tarbiyachi ularga «Musiqa qanday tamomlandi, quvnoqmi yoki g'amginmi?» degan savolni beradi. Keyinchalik bolalarning farqlashni o'rganganliklarini tekshirish maqsadida musiqa qismlari ketma-ketligida o'rin almashtirish bajariladi. Masalan, major yakuniga ega bo'lgan qism ikki marta eshittiriladi, undan so'ng quvnoq yoki minor yakuniga ega bo'lgan qism va beshik allasi beriladi.

### Sanoq mashqlar

Bu mashqlardan biror-bir topshiriq, harakatlar ketma-ketligi va ayniqsa, murakkab tuzilishlarni bajarishda, bolalar va kattalarda intizomli xulqni tashkil etish maqsadida logoritmik mashg'ulotlar vaqtida foydalaniladi.

Korreksion kursning boshlanishida sanoq mashqi mashg'ulotning



shakllanish lahzasiga kiritiladi: navbatchi mashg'ulotga qancha bola (kattalar ham) kelganligini aytadi. So'ngra shug'ullanuvchilar ketma-ket tartib raqamini sanaydilar. Shuningdek, mashg'ulotning maqsadidan kelib chiqib, shug'ullanuvchilar birinchi va ikkinchiga yoki birinchi, ikkinchi va uchinchi raqamlar bilan qayta sanaladilar.

Sanoq bolalarga juft-jufti bilan, ikki qatorga, ikki kolonna bo'lib to'g'ri turib olishlariga yoki uchtadan hamda to'rttadan turishlariga yordam beradi.

Sanoq mashqlari badantarbiya mashg'ulotiga ham kiritiladi. Masalan navbvatchi «bir» deyishi bilan hamma qo'lini yuqoriga ko'taradi («snop»), «ikki» deyilganda qo'llar yon taraflarga ochiladi («archa»), «uch» deyilishi bilan tizzalar bukiladi – cho'kkalab o'tiriladi («to'nka»). Shuningdek, navbatchi turli xil harakatlarni bildiruvchi raqam, yoki so'zlar aytadi.

Sanoq mashqlari navbatdagi mashqni bajarish uchun berilgan buyruq signali sifatidagi she'r shaklida ham o'tkazilishi mumkin. Masalan o'tin yorish mashqini nomlashda «Bir-o'tin, ikki-o'tin, chopildi xuddi metin! Bo'lsa qars-qurs yog'ochlar, bo'lar bizga o'tinlar». Yoki «raqslar tamom bo'ldi, aylanamiz jam bo'ldi. Bir, ikki, uchda hamma bolalar Alena atrofida.

### «Bir va ikki» o'yni.

Shug'ullanuvchilar tarbiyachi tomon qarab turadilar va «bir-ikki, bir-ikki» sanoq ostida chirmandalarini boshlari ustida silkitadilar. Keyin hamma o'ng tomonga burilib to'xtaydi va yana «bir-ikki, bir-ikki» sanoq ostida chirmandalarni silkitadilar. Bolalar o'ng tomonga yana bir marta buriladilar, bu holatda ular tarbiyachiga orqa o'girib turgan bo'ladilar va yana ikki marotaba o'nga burilish bilan boshlang'ich holatga qaytadilar. Har bir holatda shug'ullanuvchilar chirmandani boshlari ustida silkitadilar va «bir-ikki» deb sanab turadilar.O'yinni takrorlashda burilishlar chap tomonga bo'ladi. Sanoq mashg'ulotlari jarayonida bolalar she'r aytadilar.

Badantarbiya

Bolalar quyidagi matnni aytgan holda turgan joylarida yoki zal bo'ylab marsh yuradilar:

«Qo'llarni baland ko'taring!»

Tarbiyachining «Qo'llarni baland ko'taring» komandasi bilan –

bolalar qo‘llarini yuqoriga ko‘taradilar; «Keyin ularni tushir» komandasi bilan esa qo‘llarni pastga tushiradilar. «Bir, ikki» sanalganda qo‘llar yuqoriga ko‘tariladi, «uch, to‘rt» deganda qo‘llar pastga tushiriladi.

«Koptokcha»

Shug‘ullanuvchi koptokni qo‘lida ushlagan holda she’rning birinchi ikki qatorini aytadi, keyin navbatdagi ikki qatorni aytadi va har bir so‘zning aytilishida koptokni irg‘itadi: avval yuqoriga, so‘ngra yerga.

### Musiqasiz so‘z mashg‘ulotlari

Bu mashg‘ulotlar birinchi marotaba V.A.Griner tomonidan tili duduqlanuvchi bolalar bilan shug‘ullanishda qo‘llash uchun tavsiya etilgan bo‘lib, musiqa asbobidan foydalanishni bilmagan logoped uchun juda qulaydir. Bunday topshiriqlardan – ertalabki badantarbiya mashg‘ulotlarini yoki jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini o‘tkazishda, logopedik mashqlar vaqtida, she’r satrlarini biror-bir harakatlar bilan yoki hech qanday harakatlarsiz aytgan holda, foydalanish mumkin. Harakatlar mexanikaviy bo‘lmasligi lozim. Mashg‘ulotning she’r qismi quyidagilarga, ya’ni:

• Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalarning nutq tempi va ritmini normallashtiruvchi, nutqida umumiy nuqsonlar mavjud bo‘lgan bolalarning so‘z boyligini o‘stiruvchi (fe’l, ism so‘zlar),

• harakatni qo‘llar bilan, oyoqlar va so‘z ritmi bilan solishtirish uchun ma’lum bir dinamik o‘lchovga;

• katta uzunlikdagi qatorga munosib harakatni tanlash qiynroq bo‘lganligi uchun o‘rtacha uzunlikdagi qatorga;

• harakatni namoyish etish uchun fe’lli leksikonning yetarliligiga;

• mexanik xarakatlarni bartaraf etish hamda matn bilan xarakat orasida mantiqiy bog‘liqlikni tarbiyalash uchun lavhali qatorga yoki faoliyat yurituvchi shaxsga ega bo‘lishi kerak.

Bundan tashqari she’rlar, shug‘ullanuvchilarning yoshini, nutq va harakatlanish imkoniyatlarini hisobga olgan holda, tanlangan bo‘lishi lozim.

Nutq mashg‘ulotlarining barchasini ham harakatlanib turib yoki bir vaqtning o‘zida she’r aytish bilan birga bajarib bo‘lmaydi. Bunday faoliyat nafas olishning buzilishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli shug‘ullanuvchilarni ikki guruhga bo‘lish maqsadga muvofiq bo‘ladi: bir guruh harakatlarni bajarsa, ikkinchi guruh matnni o‘qiydi.



### O‘yindagi faoliyat

Harakat muolojasida o‘yinlardan mustaqil tarzda yoki turli xil ritmik, logoritmik va musiqiy-ritmik majmualar uyg‘unligida foydalanish mumkin.

Davolash muolajasidagi o‘yinlar tasnifi ko‘p sonli topshiriqlarga va ularning shartlariga bog‘liq bo‘lib, bu shartlarga davolash jarayonida javob berishi lozim. Uning maqsadi va vazifalari turlichadir. Shu tarzda qiziqtiruvchi va chalg‘ituvchi xarakterdagi o‘yinlar bolaning diqqatini chalg‘itadi, xotirasini tiklaydi.

Harakatdagi o‘yinlarda ishtirokchi tanasining holatini atrofdagi buyumlarga nisbatan uzluksiz o‘zgartirib turadi. Ularning his-hayajonlarning ko‘pligi bilan xarakterlaydi va harakatning turli xil shakllariga ega bo‘ladi:

Shu bilan birga harakatlantiruvchi o‘yinlar nutqida va harakatlanishida buzilishlarga ega bo‘lgan shaxslarga juda katta korreksiyalovchi ta’sir ko‘rsatadi.

Harakatlantiruvchi o‘yinlar kichik, o‘rta va katta maktab yoshidagi bolalar organizmlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Bunday o‘yinlar jarayonida bolalarda diqqat-e’tibor, tashabbuskorlik, g‘ayratlilik o‘rtoqli tuyg‘ulari, tartib intizom jamoada o‘zini tuta bilish, tezkorlik, kuch, chidamlilik, epchillilik va kirishuvchanlik tarbiyalanib boradi.

Harakatlantiruvchi o‘yinlarning yagona tasnifiy guruhi bo‘lmaganligi sababli ular uchun turli xil tasnifiy sinflar mavjud. Masalan:M.M. Kontorovich, L.I. Mixaylovalar (1992) harakatlantiruvchi o‘yinlarni bolalarning yoshi bo‘yicha guruhlashdan tashqari ularda xosil bo‘ladigan mushak zo‘riqishlari darajasi bo‘yicha ham taqsimlaydilar ya’ni katta va o‘rta kichik xaraktdagi o‘yinlar N.N. Kilpio (1994) badan tarbiya qo‘llanmasida foydalaniladigan harakatlantiruvchi o‘yinlar to‘plamida (bayroqchalar, koptoklar, tayoq va obrachlar) bilan o‘ynash L.V. Strakovskaya harakatlantiruvchi o‘yinlar barchasini qabul bo‘lgan ruhiy jismoniy yuklanishni hisobga olgan holda 4-guruhga bo‘lishni tavsiya etadi.

1-guruh sezilmas yuklanishda, 2-guruh mo‘jjallangan yuklanishda, 3-guruh yoqimli bo‘lgan, 4-guruh tarang qiluvchi yuklanishda; Masalan:

1-guruh. “Quloq – burun” (7-14 yosh).

Bolalar yoki o‘tiradilar yoki turadilar oldida qarsak chalib, o‘ng qo‘l

bilan chap quloqni, chap qo'l bilan burunni ushlash lozim. Keyin yana qarsak chalib, o'ng qo'l bilan burunni, chap qo'l bilan esa o'ng quloqni ushlaydi. Bu holat bir necha bor takrorlanadi. Kim kamroq adashsa, shu yutgan bo'ladi va navbatdagi o'yin boshlovchisi qilib tayinlanadi.

2-guruh "Qopchalarni otishi" (7-14 yosh).

Bolalar stullarda o'tiribdilar, navbat bilan stullardan 3-4 metr masofada chizib qo'yilgan chiziq bo'yicha tizilishib turadilar.

Bolalar stullarga birin-ketin mo'ljallab qopchalarni otadilar, bunda qopchalar stullarga yotishi lozim. Keyin navbatdagi o'yinchiga qopcha uzatiladi. Kim ko'proq mo'ljallay olgan bo'lsa, shu ishtirokchi yutgan hisoblanadi.

3-guruh. "Itoatkor koptok" (6-11 yosh).

Bolalar gilamga chalqancha holatda yotadilar, oyoqlari orasiga koptokni qistirib oladilar. Koptokni tushirib yubormay ag'darilib olish (qorin bilan yotish) kerak. Bu o'yin 4-6 marta takrorlanadi.

Qarang qanday koptok, gapga kiruvchi koptok!

Ag'darilib ol, sekin koptok tushmasin lekin.

Qushcha qafasda (bolalar qo'shiqlari eski to'plamdan kuy, V.A.Griner) qayta bastalagan.

Bolalar boshlovchini "mushukni" tanlab olishadi. Mushuk uzoqroqda turadi, bolalar esa 3-tadan guruhlarga bo'linishadi.

Har bir guruhda 2-tasi (qafas), o'yinchisi esa qushcha bilan dialog suhbat ketadi. "Sen qanday qushchasan?" – "Men snigerman" – qushcha javob beradi.

1-qism 2-marta takrorlanadi.

"Qafas"lar musiqa ohangida aylanadilar, ular to'xtaganlarida esa qushchalar kuylaydilar.

"Qafas biz uchun qanday zerikarli – qo'yib yuboring uchaylik". "Qafaslar" ularga javob beradilar. "Qushchalar, qushchalar, ehtiyot bo'linglar, mushuk sizni tutib olishi mumkin"

2-qism: (qushchalar) zalda chiqib yurishibdi. Musiqa oxirida "mushuk" yugurib chiqib, "qushchalarni" ovlashni boshlaydi. Qo'lga tushgan "qushcha" (qafasga) kiritiladi, undan ozod bo'lgani esa "mushuk" bo'ladi.

4-guruh. "Sakrash-sakrash-sakrash" (3-8 yosh)

Bolalar avval bir oyoqda, keyin ikkinchisida navbat bilan sakraydilar, so'ngra bir oyoqlarini laylak kabi bukib turadilar, undan keyin esa



to'rtoyoqlab turib qurbaqa kabi 5-6 metrga sakraydilar,. O'yin oxirida qo'llarini belga qo'ygan holda ikki oyoqlab sakrash kerak.

Bolalarning bir qismi matn aytib turadilar, boshqasi harakat bajaradilar, so'ngra rollar almashtiriladi.

Harakatlantiruvchi o'yinlar ulardagi harakat va nutq materiali mazmuniga qarab, sport o'yinlari elementlariga ega bo'lgan syujetli va syujetsiz o'yinlarga bo'linadi. Syujetli harakatlantiruvchi o'yinlar shartli formada xayotiy yoki ertak qaxramonlarini aks ettiradilar. Maktabgacha yoki maktab yoshidagi bolalar mamnuniyat va katta qiziqish bilan o'yin qiyofasini namoyon etadilar, bo'ri va o'rtaglarga, yoki maymun va ovchiga aylanadilar.

Syujetsiz harakatlantiruvchi o'yinlar esa harakat topriqlaridan iborat bo'lib, shu topshiriqlarga bog'liq holda guruhlarga bo'linadilar; musobaqalashish elementlariga mavjud bo'lgan o'yinlar: kimning zvenosi tez tizilib oladi? "Kim avvlroq bayroqcha yoniga chopib boradi? Va shunga o'xshash; murakkab estafeta o'yinlari: "kim koptokni tezroq uzatadi?"; Buyumlar bilan o'ynash: Koptoklar, obrachlar, arqon, serso; eng kichkinalar uchun qiziqtiruvchi o'yinlar: "Qarsak chalish", "Chittak", «Shoxdor echki» va boshqalar. Duduqlanuvchi bolalarni nafas olish nutqning prosodik tomoyillarini buzilishini to'g'rilash maqsadida quyidagi mashqlarni tavsiya qilamiz.

### Artikulyatsion nutq apparati harakatchanligini rivojlantiruvchi o'yin va mashqlar

### «Aks-sado»

Bolalar sekin, ohista musiqa ostida o'rmonda yuradilar va meva, qo'ziqorinlar teradilar. Birinchi guruh zalning bir tomoniga, boshqasi qarama-qarshi tomonga ketadilar. Musiqa ancha baland, tahlikali yangraydi. Birinchi guruh bolalari baland ovozda «AU-AU-AU» deydilar. Ikkinchi guruh ularga sokin musiqa ostida past ovozda «AU-AU-AU» deb, javob qaytaradilar. Bir-birlarini chaqirishib ikkala guruh uchrashadi. Marsh yangraydi, bolalar o'rmondan uyga qarab keladilar.

## Chapak, chapak.

Mana qarang, qanday o'yin
Chapak, chapak.
O'ng qo'limiz
Chapak, chapak.
Chap qo'limiz
Chapak, chapak.

Tizzamizga uramiz.
Chapak, chapak.
Endi esa yelakaga
Chapak, chapak
O'zingga, yonboshinga
Belimizga ham
Chapak, chapak.

Tizzamizga urami.
Astagina,
So'ngra esa chap kaftda,
Balandroq chalamiz chapak,
So'ngra bo'lsa,
Chapni o'ngga uramiz.
Kaftimiz yuqorida

Oldimizga
Chapak, chapak.
O'ngga qarab,
Chapak, chapak
Chapga qarab,
Chapak, chapak
Qaychi qilib,
Qo'llarni birlashtiramiz,
Chapak, chapak

## Surnaycha – surnay

Maqsad: lab, til, lunj xarakatlarini faollashtirish.

Bolalar stullarda o'tiradilar, ularning qarshisida qo'lida o'yinchoq surnay bilan bir bola o'tiradi. Bolalar shoshmasdan ashula aytadilar:

She'r matni.

Bola lablarini oldinga cho'zib, surnaycha chalayotganday qilib o'xshatadilar: "du – du - du". Bolalar o'zlariga tanish harakatlardan foydalanib raqsga tushadilar. Pedagog: "Surnaycha boshqa chalinmaydi, kolya bolalarni quvib ketdi" – deydi. Bolalar qochib ketadilar, yetklovchi kimnidir tutishga harakat qiladi, u tutib olgan bola esa yetkalovchining o'rniga turadi va o'yin qaytariladi.

## Nutqiy nafas va ovozni rivojlantiruvchi logopedik o'yinlar

Maktabgacha yoshdagi duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar ovoz va nafasini rivojlantirish masalasi logopedik ish tizimining muhim vazifalaridan biri sanaladi. Ma'lumki, nutqiy nuqsonlarni bartaraf etishda logoped nutqiy nafas va ovoz ustida ish olib boradi. Bu jarayon nutqiy nuqsonlarni bartaraf etishga xizmat qiladi.



Talaffuz qilish jarayoni nutqiy nafas bilan uzviy bog'liq bo'lib, nutqiy nafas oddiy nafasdan bir muncha farq qiladi. Kishi tinch turganda nafas olish va nafas chiqarish deyarli bir xil bo'ladi. Nutqiy talaffuz nafas chiqarish jarayonida hosil bo'ladi. Nafas olish jarayonida ovoz hosil qiluvchi va artikulyatsion harakatlar birgalikda ish olib boradi. Nutqiy talaffuz vaqtida nafas chiqarish jarayoni, nafas olish jarayonidan uzunroq bo'ladi. Inson nutqiy nafas chiqarishni davom ettirish uchun ko'proq havo zapasiga ega bo'lishi lozim.

Maktabgacha yoshdagi duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar nafasni rivojlantirish uchun bir qancha nafas gimnastikalaridan foydalaniladi. Nafas gimnastikasi umumiy nafas mashqlaridan boshlanadi. Uning asosiy maqsadi nafas hajmini oshirish va uning ritmini normallashtirish.

Maktabgacha yoshdagi duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirish uchun nafas mashqlaridan to'g'ri va o'z o'rnida qo'llanishi, uning kelgusi hayotida to'g'ri talaffuz malakalariga ega bo'lishiga xizmat qiladi.

## KICHIK GURUH

### "Kuz yaproqlari"

O'yinning maqsadi: Bolalarda to'g'ri va uzoq nafas chiqarish malakalarini rivojlantirish.

Topshiriq: Bolalar kuz yaproqlarini yerga tashlab turib, ularga puflaydilar. Logoped shu vaqtda she'rni o'qiydi:

Qanday go'zal lahza bu!
Deya o'ylar zulmatda
Uni kutib turganlar.
Tog'lar cho'qqisi uzra
Chiqib keldi kuzgi oy.

### "Quyosh"

O'yinning maqsadi: Bolalarga og'iz va burundan taranglashmagan tinch nafas olish malakalarini hamda tana muskullarini bo'shashtirishni o'rgatish.

Topshiriq: Bolalar yerga yotib, oyoqlar birga, qo'llar pastga tushurilgan, tanalarini bo'shashtirgan holda tinch yotadilar.

Bir maromda nafas olish, chiqarish.

Logoped she'rni o'qiydi:

Quyoshda yotamiz tovlanib,
Quyoshga tomon boqib.
Bizga iliq juda soz,
Biz yotamiz yana bir oz.

## O'RTA GURUH

### "Shamol"

O'yinning maqsadi: Bolalarga nafas chiqarish kuchini ajratishga hamda uzoq nafas chiqarish malakalarini his etishga o'rgatish.

Topshiriq: Bolalar sxemadagi harakatlarni bajaradilar:

Og'izdan nafas olish – qo'llarni yuqoriga ko'taradilar.

Pauza – nafasni ushlab turadilar.

Nafas chiqarish vaqtida qo'llarni tebratib "F" tovushini talaffuz qiladilar.

Logoped she'rni o'qiydi:

Men shamol, kuchli shamol,
Esaman turli tomon.
Xohlagan yerimga uchuman,
Xohlagan yerimni puflayman.
Meni ko'rarsiz har yerda,
Meni eshitasiz har joyda.

### "Yaproqlar"

O'yinning maqsadi: Bolalarda nafas chiqarish kuchi malakalarini o'rgatishni davom ettirish hamda qisqa nafas chiqarishni faollashtirish ko'nikmalarini hosil qilish.

Topshiriq: Bolalar sxemadagi harakatlarni bajaradilar:

Og'izdan nafas olish – qo'llarni yuqoriga ko'taradilar.

Pauza – nafasni ushlab turadilar.

Bir nafas chiqarish vaqtida "p" tovushini bir necha bor talaffuz etadilar, zinasimon nafas chiqarish orqali qo'llarni asta-sekin pastga tushuradilar ("yaproqlar to'kilyapti").

### "Shamol shovqini"

O'yinning maqsadi: Bolalarga burundan nafas olishga hamda og'iz va burun nafasni farqlashga o'rgatish.



Topshiriq: Bolalar burun va og'iz orqali bir tekisda nafas chiqarishib, "sh-sh-sh" talaffuz qiladilar (huddi shamol shovqini eshitilgandek).

### "Majnuntol"

Boshim egik Majnuntol,
Majnuntolman, majnuntol.
Dam olsangiz soyamda,
Men sizlardan mamnun tol.

O'yinning maqsadi: Bolalarda nafas chiqarish kuchi ko'nikmalarini o'rgatishni davom ettirish, og'izdan uzoq nafas chiqarish malakalarini rivojlantirish, fazoda mo'ljal olish va diqqatini bir yerga jamlash ko'nikmalarini shakllantirish.

Topshiriq: Bolalar sxemadagi harakatlarni bajaradilar:

To'g'ri turadilar.

Og'izdan nafas olish – qo'llar ikki tomonga yoyilgan.

Og'izdan nafas chiqarish – o'ng tomonga egilish.

Og'izdan nafas olish – oldingi holatga qaytish.

Og'izdan nafas chiqarish – chap tomonga egilish.

To'g'ri turish holatiga qaytadilar.

### "Shamol, shamol...."

O'yinning maqsadi: Bolalarga nafas chiqarish kuchi ko'nikmalarini o'rgatishni davom ettirish, burun hamda og'iz nafasini farqlash, og'izdan nafas chiqarish jarayonida to'g'ri va uzoq nafas chiqarish malakalarini rivojlantirish.

Topshiriq: Bolalar shamol esishini imitatsiya qilib, yil fasllari jarayonida shamol kuchini farqlab, taranglashmagan holda burun orqali nafas oladilar, og'izdan nafas chiqaradilar.

Bahor faslida – shamol mayin va iliq bo'ladi.

**F-F-F-F-F**

Yoz faslida – shamol issiq bo'ladi.

**x-x-x-x-x**

Kuz faslida – shamol salqin bo'ladi.

**s-s-s-s-s**

Qish faslida – shamol sovuq va izg'irin bo'ladi.

**v-v-v-v-v**

### "Archa"

Archa, archa, jon archa,
Yaproqlaring niynacha.
Atrofingda aylanib,
Qo'shiq aytamiz barcha.

O'yinning maqsadi: Bolalarga burundan va og'izdan nafas olishni farqlashga o'rgatish, og'izdan uzoq nafas chiqarish malakalarini rivojlantirish, fazoda mo'ljal olish va diqqatini bir yerga jamlash malakalarini shakllantirish.

Topshiriq: Bolalar sxemadagi harakatlarni bajaradilar:

To'g'ri turib – oyoqlar ikki tomonga bir oz yoyilgan, qo'llar pastga tushurilgan-burundan nafas olish.

Og'izdan nafas chiqarish – oldinga egilish.

Burundan nafas olish – oldingi holatga qaytish.

Og'izdan nafas chiqarish – orqaga egilish.

### "Terak"

| | |
|---|---|
| Men terakman, | Osmon mening |
| Terakman, | Yelkamda, |
| Men hammadan | Men olamga |
| Kerakman. | Tirgakman. |

O'yinning maqsadi: Bolalarga og'iz va burundan nafas olishni farqlash ko'nikmalarini o'rgatishda davom etish. Tinch, taranglashmagan holda og'izdan uzoq nafas chiqarish malakalarini rivojlantirish. Bolalarga fazoda mo'ljal olish vaqtida o'z tana qismini maydonning qaysi qismida, yuqoridami yoki pastda joylashganligini farqlashga o'rgatish.

Topshiriq: Bolalar sxemadagi harakatlarni bajaradilar:

To'g'ri turish – oyoqlar jipslashib to'g'ri turgan, qo'llar pastga tushurilgan.

Burundan nafas olish – ikki tomonga yoyilgan qo'llar yuqoriga ko'tarilib, oyoq uchida turib olinadi.

Og'izdan nafas chiqarish – qo'llar oldinga cho'zilgan, sekinlik bilan cho'zilgan qo'llar oyoq uchiga egiladi.

To'g'ri turish holatiga qaytish.



### "Daraxt"

Yaproqlari - mayin,
Ildizlari – tosh kabi chayir.

O'yinning maqsadi: Bolalarga og'iz va burundan nafas olishni farqlash ko'nikmalarini o'rgatishda davom etish. Tinch, taranglashmagan holda og'izdan uzoq nafas chiqarish malakalarini rivojlantirish. Bolalarga fazoda mo'ljal olish vaqtida o'z tana qismini maydonning qaysi qismida, yuqoridami yoki pastda joylashganligini farqlashga o'rgatish.

Topshiriq: Bolalar sxemadagi harakatlarni bajaradilar:

To'g'ri turib olinadi – oyoqlar jipslashib, to'g'ri turgan holda qo'llar boshning orqasida.

Og'izdan nafas olish – oyoq uchiga turish.

Burundan nafas chiqarish – pastga o'tirib, so'ng to'g'ri turish holatiga qaytish.

## KATTA GURUH

### "O'tinchi"

O'yinning maqsadi: Bolalarga kuchli nafas chiqarishni farqlay olish ko'nikmalarini o'rgatishda davom ettirish, og'izdan kuchli nafas chiqarish malakasini tez-tez bajarishni rivojlantirish.

Topshiriq: Bolalar sxemadagi harakatlarni bajaradilar:

To'g'ri turib olinadi – oyoqlar ikki tomonga bir oz yoyilgan, qo'llar pastga tushurilgan.

Og'izdan nafas olish – qo'llar yuqoriga ko'tariladi.

Og'izdan nafas chiqarish – qo'llarni pastga tushurib, "ux-ux-ux" bo'g'ini kuchli, jarangli talaffuz qilinadi.

Bir – urdik, ikki – urdik,
Bir amallab o'tin qildik.
Ana urdik, mana urdik,
Ikkita o'tin hosil qildik.

### "Kuzgi shamol"

O'yinning maqsadi: Bolalarga kuchli, bir tekisda, sekinlik bilan nafas chiqarishni farqlash ko'nikmalarini o'rgatishni davom ettirish, hamda kuchli, uzoq nafasni tovushlar bilan qo'llashni o'rgatmoq.

Topshiriq: Bolalar topshiriq asosida qisqa va bir tekisda nafas

chiqarishni bajaradilar.

Logoped she'rni o'qiydi.

Sekin, bir tekisda uzoq nafas chiqarish.
Mayin shamol esmoqda – f-f-f-f-f
Yaproqlarni tebratib – f-f-f-f-f
Kuchli, uzoq nafas chiqarish.
Mayin shamol esmoqda – f-f-f-f-f
Yaproqlarni tebratib – f-f-f-f-f
Sekin, bir tekisda uzoq nafas chiqarish.
Kuzgi yaproqcha novdada o'tirib,
Kuzgi yaproqcha bolalarga gapirib.
Tovushlar orqali kuchli, uzoq nafas chiqarish.
Terak – o-o-o-o-o
Majnuntol – a-a-a-a-a

## TAYYORLOV GURUHI

### "Yomg'ir"

<u>O'yinning maqsadi:</u> Bolalarga kuchli nafas chiqarishni rivojlantirish, og'izdan nafas chiqarishni to'g'ri yo'naltira olish malakalarini o'rgatishni davom ettirish hamda qo'l va yelka muskullarini tanaglashtirish va bo'shashtirish malakalarini hosil qilish.

<u>Topshiriq</u>: Bolalar doira bo'lib turib oladilar, she'r ostida qo'llari bilan yomg'ir imitatsiyasini "haydash" harakati bilan bajaradilar.

Nafas olish – oyoqlar birga, qo'llar pastga tushurilgan.

Nafas chiqarish – qo'l muskullarini bo'shashtirib, bir qo'lni yelka ustiga "tashlaydilar", so'ngra ikkinchi qo'lni ham yelka ustiga "tashlaydilar".

Bugun havo boshqacha,
Chunon og'ir, zil-zil.
Ertadan to kechgacha,
Yer uzra suv mil-mil.

Maktabgacha yoshdagi duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarga uzoq va ixcham nafas chiqarish harakatlarini bajarish qiyin bo'lib, bu ularning to'g'ri talaffuz qilish malakasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Yuqorida biz og'iz va burundan to'g'ri nafas chiqarish malakalarini rivojlantirishni ko'rsatib o'tdik.



Diafragmal nafasni rivojlantirish mashqlarni bajarish orqali fonatsion nafas malkasi rivojlanadi. Asta-sekinlik bilan ovozsiz nafas mashqlari fonatsiyasiga o'tiladi, ya'ni bolalar nafas chiqarish jarayonida tovushlarni talaffuz qilishni o'rganadilar.

Fonatsion nafas malakalarini rivojlanishi jarayonida, to'g'ri nutqiy nafas hosil bo'ladi, bu esa normal ovoz hosil qilish jarayoniga olib keladi. Unli va undosh tovushlarni uzoq nafas chiqarish vaqtida ovoz balandligi va ovoz kuchi ustida ish olib boriladi.

Ilmiy adabiyotlarni isbotlashicha, umumiy harakatni rivojlanishi nutqiy talaffuz malakalarini rivojlantiradi. Tanani harakatga keltirish orqali taranglashgan muskullarni bo'shashiga ta'sir etadi, ya'ni bu maktabgacha yoshdagi dizartrik bolalarga xos xususiyat hisoblanadi. Talaffuz malakalarini rivojlantirish ustida ish olib borish vaqtida fonetik ritmikadan foydalanish maqsadga muvofiqdir

Fonetik ritmika – bu harakat mashqlar majmuasi bo'lib, bunda turli xil harakatlar ( tana,bosh, oyoq, qo'l) nutqiy materiallar bilan olib boriladi. (bo'g'in, so'z, tovush).

Fonetik ritmikani olib boruvchi logoped o'zi ham qo'l, oyoq, tana, bosh harakatlarni to'g'ri va chiroyli bajarishi shart:

- musiqa ostida va musiqasiz harakatlarni chiroyli va ritmik asosda bajarish;
- har xil harakatlar orqali musiqa va tempning turli xil ko'rinishiga moslashish;
- bolalar harakatini ko'rish va ularni to'g'rilashni bilish;
- bolalarda tabiiy harakatlarni rivojlantira olish;
- bolalar talaffuzidagi kamchiliklani eshita olish va ularni to'g'rilash;
- topshiriqni berilgandek normal ovoz kuchi va balandlikdan foydalanish hamda uni nutqiy materialni berish jarayonida qo'llash.

Logopedning nutqi doimo bolalarga namuna bo'lmog'i lozim, fonetik jihatdan to'g'ri tashkil qilinishi va emotsional holatlardan to'g'ri foydalana olishni bilishi kerak.

Maktabgacha yoshdagi duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar nutqida fonetik kamchiliklar ustida ish olib borish jarayonida ishning bir qismi nutqiy intonatsiyadan to'g'ri foydalana olishga qaratiladi. Ishning bu yo'nalishi ovoz balandligi va kuchini rivojlantirish mashqlariga zamin yaratadi. Hamda ovoz tonini idrok etishga, uzoq nutqiy nafasni rivojlanishiga olib keladi.

Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarda ovozni rivojlantirish va korreksiyalash uchun turli xil ortofonik mashqlardan foydalaniladi, bu mashqlar nafas faoliyati, fonatsiya va artikulyatsiyani rivojlantirishga yo'naltirgan bo'ladi.

Ovoz ustida ishlash artikulyatsion gimnastika va massajdan so'ng olib boriladi. Bular bilan birga yana bo'yin muskullarini bo'shashtiruvchi, boshning har tomonlama harakatini bajarish bo'yicha tovushlarni talaffuz etish maqsadga muvofiq hisolanadi.

Ovozni korreksiyalash uchun yumshoq tanglay harakatini faollashtirish katta ahamiyat kasb etadi. Buning uchun suv tomchilarni yutish, yo'talish, esnash imitatsiyalarini bajarish, qattiq atakada "a" unlisini talaffuz etish mashqlarini bajarish tavsiya etiladi. Ushbu mashqlar oyna oldida hisob ostida o'tkaziladi. Quyidagi usullardan foydalaniladi: tilni orqa qismini qo'zg'atish va til yordamida tanglayni taqillatish harakatini bajarish; ixtiyoriy yutish harakatini bajarish; bunda logoped tomizg'ich bilan halqumning qarshi devoriga suv tomizadi, bu vaqtda bolaning boshi bir oz orqaga egilgan bo'ladi.

Tanglay muskullarini mustahkamlash uchun uni bo'shashtirish va taranglashishni navbati bilan almashtirish mashqlaridan foydalaniladi. Bolaga esnash harakatining tugashida "a" tovushi talaffuz etish, og'izning katta ochiq holatida "a" tovushini talaffuzidan "p" tovushiga nafasni bosim ostida ushlab turib o'tiladi. Bolaning diqqati tanglay holatini sezishga qaratiladi. Shuningdek, ovoz kuchi tembri va balandligini rivojlantirish mashqlaridan foydalaniladi. Masalan, o'nliklar bo'yicha ovozni kuchaytirib to'g'ri sanash (1 dan 10 gacha) va ovozni asta-sekin pasaytirib teskariga sanash (10 dan 1 gacha) mashqlaridan foydalaniladi. Ovoz tembri, balandligi va ovoz intonatsiyasini rivojlantirishda turli o'yinlar ertaklarni rollarga bo'lib o'qish, inssenirovkalar katta ahamityaga ega.

Quyidagi metodikalar orqali maktabgacha yoshdagi dizartrik bolalar ovozini rivojlantirishga qaratilgan:

Ochiq va yopiq bo'g'inlarni baland ovozda logoped ketidan qaytarish:

- ash, - osh, - ush, - ish.
- sha, - sho, -shu, - shi.
- am, - om, - um, - im.
- ma, - mo, - mu, - mi.



O'tirgan holda, "u" tovushini baland ovozda talaffuz etish.
O'tirgan holda, "m" tovushini o'rta ovozda talaffuz etish.
O'tirgan holda "m" tovushini o'rta ovozda tlaffuz etish.

## KICHIK GURUH
### "Quyoncha"

Quyon, quyon, quyoncha,
Quloqlaring uzun buncha.
Ushlab olay desam, men,
Qochib ketasan buncha.

O'yinning maqsadi: Bolalarda jarangli va qisqa ovoz malakalarini rivojlantirish, ularni farqlay olishni o'rgatish.

Topshiriq: Bolalar tik turgan holda, oyoqlari jipslashgan, qo'llarini quyonchani qo'lidek hosil qilish "-ap, -ap, -ap" bo'g'inini sakrab turib, talaffuz qilish.

### "Shamol esishi"

Men shamol, kuchli shamol,
Esaman turli tomon.
Meni ko'rarsiz, har yerda,
Meni eshitasiz, har joyda.

O'yinning maqsadi: Bolalarga uzoq va baland ovoz malakalarini rivojlantirish, ularni bir-biridan farqlay olishga o'rgatish.

Topshiriq: Bolalar tik turgan holda oyoqlari chetga bir oz yoyilgan, qo'llari yuqorida bo'lib, chap va o'ng tomonga tebratish orqali "u-u-u-u-u-u" tovushini talaffuz qiladilar.

## TAYYORLOV GURUH
### "Turnalar"

O'yinning maqsadi: Bolalarga she'r orqali o'rta ovozda gapirishga o'rgatish.

Topshiriq: Bolalar bir qator turib oladilar va logoped bilan birgalikda she'rni yoddan aytib beradilar.

Biz turnalar, olisdan,
Uzoq eldan kelamiz.
Bulutlarning ustidan,
Shamolday tez yelamiz.
Soylardan,
Ko'llardan,
Ellardan
Oshib, sizga uchamiz,
Yurtingizni quchamiz.

Maqsad: O'pkada burun nafas yo'llarda nafas olishlarini rivojlantirish.

Gullar. Bolalar qo'llari tushirilgan, doira bo'lib turadilar. 1-2 taktlar: o'ng qo'lni oxista ko'taradilar, ko'l panjasi ozgina orqada qoladi. Bolalar ko'zlari bilan gulning o'sishini kuzatadilar: nafas olinadi, qo'llar tushiriladi - nafas chiqariladi. 3 – 4 taktlar: chap qo'lni ohista ko'taradilar. Nafas olinadi, qo'llar tushiriladi – nafas chiqariladi. 5 takt o'ng qo'lni ohista yon tomonga oladilar. Nafas olinadi qo'llar tushiriladi – nafas chiqariladi. 6 takt: chap qo'lni oxista yon tomonga oladilar. Nafas olinadi. Ko'llar tushiriladi – nafas chiqariladi. 7- 8 taktlar: qo'llarni ohista ko'taradilar, tepaga intiladilar. Nafas olinadi. Qo'llar gavda bo'ylab tushiriladi – nafas chiqariladi. 9 – 16 taktlar: qo'llarni sekin chapga – o'ngga qimirlatishi boshlaydilar, keyin qatiqroq, tana bilan birga bajaradilar. Bir vaqtning o'zida lablarni oldinga cho'zib shamol esishiga taqlid qiladilar.

### Undosh tovushlarni aniq talaffuz qilishni o'rgatadigan o'yinlar «Tarvuzli poyezd»

Bolalar aylana bo'lib turib koptokni bir birlariga uzatadilar, keyin pedagog esa: «tarvuzlarni poyezdga tashishni» tasavvur qiladilar. Undan keyin qo'llarning aylanma harakati bilan musiqa ostida harakat qilayotgan poyezdni tasvirlab «Chu-Chu-Chu», deb talaffuz qiladilar. Harakatlar musiqa to'xtashi bilan tugaydi. Bolalar «SH-SH-SH!» deb, talaffuz qiladilar. «Tarvuzlarni poyezdga tashish»dagi harakatlar bilan «tarvuzlarni tushirib olish» boshlanadi.



### «Yurish»

Bu o'yin prosodiyani rivojlantirishga imkon beradi. Bolalar musiqa ostida butun tovonlarida, oyoq uchlarida, tovonlarida, tovonning tashqi gumbazida yuradilar. Yurishning yo'nalishi va musiqaning xarakteri o'zgarib turadi. Bolalar yurish taktida: «Biz qomatni tekshirdik va kuraklarni keltirdik. Biz oyoq uchida yuramiz, biz tovonlarimizda yuramiz. Biz hamma bolalardek va maymoq ayiqdek yuramiz», deydilar.

### Boshqaruvchi qo'l barmoqlari harakatlari bilan nutqni sinxronlashtirish (nutq bilan bir vaqtda ishlatish)

Bu yerda biz ishlab chiqgan metodikaning tarkidagi eng muhim tomonidan biri, asosiy o'zagini (yadrosi), hamda uning tarkibidagi farqli jihati bayon etilgan. Aynan esa: nutq jarayoniga "insonning ikkinchi artikulyatsion apparatini" - boshqaruvchi qo'l barmoqlarini jalb etish yoritilgan. Duduqlanish simptomlari kompleksining murakkabligini hisobga olsak,potologik o'zgarishlar zanjiridagi markaziy xalqani ajratib olish tabiiy ehtiyoj bo'lib qoladi.

Biz duduqlanishda nutqiy va psixik nuqsonlarning yakuniy marrasi deb nutqiy paylar tortishishini hisoblaymiz. Amaliyotning ko'rsatishicha, bemorlar nutqidagi pay tortishishlari holatini oldini olishga erishib, biz ikkilamchi nevrozlarni to'planishini ma'lum darajada bartaraf etishga erishamiz.

Agar, duduqlanishda nutqiy pay totishishlarini yuzagam kelishining asosiy sababi nutqiy davrning ichki sinxronlashtirishdagi nuqsonlar hisoblanadi, degan farazga tayanilsa, tabiiyki, tashqi sinxronlashtirish yordamida ushbu nuqsonni bartaraf etib bo'ladi, deb taklif qilish mumkin. Aslida esa, ritmning tashqi o'lchov vositalari - tovushli va taktil metronomlarni qo'llash orqali duduqlanuvchining nutqi ahamiyatli darajada yaxshilanishiga erishish mumkin.

Biroq, bunday texnikaning qo'llanilishi hissiy bo'yoqlar va ohanglardan holi bo'lgan va muloqot uchun kam kerak bo'luvchi bir meyordagi ishchi nutqni shakllantiradi. Shu bilan birga, nutqning yaxshilanganining samarasi ushbu vositalardan voz kechilganda tezda yo'qoladi. Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan o'quvchilarda nutqning tashqi sinxronlashuvi orqali yaxshilanishiga qiziq misol sifatida hamkorlikdagi nutqni keltirish mumkin. Bunda biz bir meyordagi

nutq bilan emas, balki ohang jihatdan bezatilgan nutq bilan ishlagan hisoblanamiz, biroq bu jarayonda erishilgan samarani o‘rganish, talqin etish va nutqiy paylar tortishmagandagi ko‘nikmani tabiiy sharoitga ko‘chirish qiyin bo‘ladi.

Nutqni boshqaruvchi qo‘l barmoqlari harakati bilan sinxronlashtirish aytib o‘tilgan ikkala usuldagi kamchiliklarni oldini olishga imkon yaratadi. M.M.Kolsovaning fikricha, bolaning miyasi rivojlanishi va harakat faolligini, qo‘l kafti va barmoqlarining harakati filogenetik, hamda ontogenetik jihatdan ovoz apparati harakati bilan shunday bog‘langanki, ularning barchasini nutq organi, artikulyatsion apparatga mos holda o‘rganishga asos yaratadi.

Bundan, nutqni qo‘l barmoqlari harakati bilan tabiiy ravishda to‘g‘rilash qanchalik mumkinligini ko‘rish mumkin. Duduqlanish nutq kamchiligini bartaraf etishda qo‘l harakatlari boshqa mualliflar tomonidan ham qo‘llanilgan. Masalan, N.I.Jinkin imo-ishoralarni duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo‘lgan shaxs fikrini aynan nutq jarayonlaridan chalg‘itish, ozod etish maqsadida qo‘llashni tavsiya etgan. Xuddi shu maqsadda kaft harakatlarini qo‘llashni A.I.Bogomolova tavsiya etgan, A.G.Shembel va S.S.Lyapidevskiylar nutqiy - qo‘l harakati refleksini ishlab chiqganlar.

Bizning metodikamizda esa qo‘l umuman o‘zgacha vazifani bajaradi. U shaxs fikrini nutq jarayonidan chalg‘itmaydi, unga mexanik tarzda homroh bo‘lmaydi, balki har bir bo‘g‘inni talaffuz qilishdan ilgarilab, nutqni ergashtiradi. Bu deyarli barcha duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo‘lgan o‘quvchilarda dastlabki mashg‘ulotlardan boshlab (dastlab sekinlashgan tempda) ohang va intonatsiyaga boy, tortishishlarsiz amaliy natijaga erishishga imkon yaratadi.

N.I.Jinkinning ko‘rsatishicha:"Nutq - she’r o‘qigan kabi nutqga o‘tishi bilan birga bir meyorda so‘zlarni talaffuz qilish, duduqlanish yo‘qoladi, chunki barcha so‘zlar urg‘u o‘rniga ko‘ra,bo‘g‘in dinamikasiga ko‘ra tenglashtiriladi. Duduqlanish nutq kamchiligida muloqot qilish jarayonida qayta kuzatiladi, chunki turli xil uznlikdagi bo‘g‘inlarni talaffuz qilishga to‘g‘ri keladi. Bo‘g‘in o‘lchovining har bir yangitdan o‘zgarishi ogohlantirilishi kerak, faqatgina shu holatda nutqiy samaralar normal ishga tushadi. O‘z navbatida, nutqiy mashqlar, nafas ustida ishlash ijobiy natijaga olib kelmasligi mumkin. Nuqsonni bartaraf etishning amaliy vazifasi nutq tizimini mustaqil boshqaruvtni tiklash



muammosiga olib boradi.

Oldin "shatakka olgan" kabi o‘zgarib turuvchi, ilgarilovchi kuchni ishga tushirish kerak, keyin esa bu kuchni bo‘shashtirish va nihoyat umuman qo‘llamaslik mumkin bo‘ladi".

Biz tavsiya etayotgan usulda, boshqaruvchi qo‘l barmoqlari xuddi shunday "shatakka olish" rolini bajaradi. Tartib bilan tashkil etilgan harakatlari bilan ular bo‘g‘inlardan turli meyordagi so‘zlar rasmini teradilar, barcha nutqiy zveno va tizimlar ishini vaqtga moslaydilar, shu bilan birga duduqlanuvchilarda buzilgan tabiiy nutqiy siklning ichki sinxronlashish mexanizmini yaratadilar.

Avvalam bor, nutqiy paylar tirishishini yuzaga keltiruvchi sabablarini bartaraftish orqali biz duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalarga xos bo‘lgan fiziologik yetishmovchiliklarni kompensatsiya qilamiz. Boshqaruvchi qo‘l barmoqlari, qolgan boshqa vazifalardan tashqari, nutq apparatiga iboraning ritm-ohang tasvirini namoyon qilib beradi. Ular duduqlanish nutq kamchiligi natijasida nutqni buzuvchi aritmiya, sintagmagaso‘zlarni to‘g‘ri birlashuvini mavjud emasligi, ohangni buzish kabi natijalar bilan kurashishga yordam beradi.

Takidlab o‘tish kerakki, bu jarayonda nutq tempiga hech qanday maxsus talablar qo‘yilmaydi. U ishning barcha bosqichida bemorning harakat imkoniyatlari bilan aniqlanadi. Yakuniy natijada, har bir duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalarda tabiiy nutq tempi shaklanadi. Shunday qilib, biz ichki sinxronlashtirishni cho‘zish orqali, miyaning vaqtni belgilash qobiliyatini qayta tiklaymiz, yoki N.I.Jinkin so‘zlari bilan aytganda, nutqning bo‘g‘in dinamikasini qayta tiklashga erishamiz.

Metodning yana bir muhim xususiyati, duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalarda yangi nutqiyodatlar faqtgina tabiiy nutqiy davr analizatorlari yordamida shakllanmaydi, balki qo‘l barmoqlari harakati bilan bog‘liq bo‘lgan bir qator saqlangan analizatorlar orqali ham shakllanadi (harakat kinesteziyasi, taktil sezgirlik). Bu teskari afferentatsiya, nisbatan tez shakllangan nutq harakat ko‘nikmasi, stress holatiga olib keluvchi ta’sirlarga chidamlilikka bog‘liq ravishda ko‘maklashadi.

Duduqlanish nutq kamchilikni bartaraf etishning tavsiya etilayotgan usuli universal hisoblanib, duduqlanish nutq kamchilikning ikkala turini ham davolashda samarali qo‘llash mumkin bo‘ladi.

Nevrotik duduqlanish nutq kamchilikni davolashda metodning ustunligi shundan iboratki, bemorlarning nutq jarayoniga butun e'tiborini qaratishlar sezilarli darajada kamayadi, chunki nutq texnikasi (temp, so'zlarning sintagmaga qo'shilishi, iboraning ohang tasviri) uchun javobgarlikni o'rgatilgan qo'l o'z zimmasiga oladi, duduqlanish nutq kamchiligiga eag bo'lgan bolalar esa barcha normal so'zlovchi insonlar kabi dastlab aytayotgan, bayon qilayotgan fikrlari ma'nosi haqida o'ylay oladilar.Ularda asta-sekinlik bilan nutqdan, so'zlashdan qo'rqish, hiyla qilish kabi salbiy odat va fikrlar kamayadi, yo'qoladi. Boshqacha qilib aytganda, taklif qilinayotgan usulning o'zi aniq namoyon beruvchi psixoterapevtik samara beradi.

Nevrozga o'xshash duduqlanish nutq kamchiligida davolashning ushbu usuli fiziologik yetishmovchilikni qator saqlangan analizatorlarni qayta aloqaning alterniativ zanjiriga qo'shgan holda to'ldirishga imkon yaratadi. Logopedik amaliyotda, ko'pincha, aralash, murakkab holatlar uchrashi bizga ma'lum, demak ushbu metodikaning universalligi ham juda muhim sifat bo'la oladi.

Metodika shuningdek, tabiiy pay tortishishlarisiz nutq malakasini avtomatizatsiya qilish muammosini hal qilishga ham imkon yaratadi. Asosiy kurs davomida o'rgatilgan qo'l yangi odatiy fikrlar xotirasiga aylanadi, vaqt o'tishi bilan esa bemor nutqining "avtomatik boshqaruvchisiga" aylanadi. Harakat malakasining avtomatlashuvi jarayoni, bunda, tabiiy muloqot sharoitida amalga oshadi va kichik kurslar tizimi orqali qo'llab-quvvatlab turiladi.

Qo'l uchun qo'yiladigan talablar quyidagilardan iborat: bemorning boshqaruvchi qo'li talaffuz qilinayotgan iboraning ritm-ohang tasvirini gavdalantirishi kerak. Buning uchun bemorning qo'li bo'ksa-son oldida joylashadi, qo'l barmoqlari bir oz bukilgan bo'lib, fortepianoda o'ynayotgandek holatda turadi. Har bir sintagmaning ilk bo'g'inini talaffuz qilish, shuningdek, undagi barcha kuchli o'rinlar katta barmoqni qattiq va uzoq muddatli bosish bilan birga olib boriladi. Barmoq bosilishi bilan keluvchi bo'g'inlarning barchasi sintagmaning ilk bo'g'inlari kabi nisbatan aniq talaffuz qilinadi.

Qo'l barmog'ining bunday haraktlarida bo'g'inlar so'z tuzilmalariga kombinatsiyalanadi, ular talaffuzining ohang bilan bezalishi va ohangga qo'shilib ketishi ta'minlanadi. Bunda qo'l bilan sinxronlashuvchi nutq avvalgi duduqlanish nutq kamchilikni unutgan bo'lishi, shakllanayotgan



malaka haqiqatdanham yangi bo'lishi, tinch holatga bog'lanishi juda muhimdir.

Duduqlanish nutq kamchilikni qo'l yordamida bartaraf etiish bo'yicha jadal logopedik mashg'ulotlar tizimi bir necha bosqichlardan iborat.

Besh kun davom etuvchi birinchi bosqichning asosiy vazifasi – duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarda mustaqil tovushni ajratib olish va bo'g'inni talaffuz qilish, uni mushak relaksatsiyasi, tinch holat bilan bog'lash, parralel ravishda barmoqlar harakatchanligini rivojlantirish, boshqaruvchi qo'lni nutqning tabiiy sinxronizatori sifatida tayyorlash malakasini shakllantirish.

Ikkinchi bosqichning davomiyligi ikki va uch kundan iborat bo'lib, bunda asosiy e'tibor boshqaruvchi qo'lning katta bormoqni o'rgatishgaqaratiladi, bo'g'in tarkibidan tovushlarni to'g'ri ajratib olish texnikasini o'rgatishga harakat qilinadi, elementar ohang malakalari ustida ishlanadi, bo'shashish texnikasini rivojlantirish davom ettiriladi.

Uchinchi bosqich (besh kundan olti kungacha davom etishi mumkin) da so'z, murakkab bo'lmagan iboram doirasida boshqaruvchi qo'l barmog'i harakatini nutq bilan sinxronlashtirishdan iborat ishlar bajariladi. Ohang ustida ishlash bo'yicha ishlar murakkablashadi va shunga mos ravishda qo'lga qo'yilgan texnik talablar oshiriladi. Bundan tashqari, avvalgi bosqichlarda egallangan malakalar takosmillashtiriladi.

To'rtinchi bosqich, yakuniy bosqich (o'n kundan iborat) duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarda yangi nutq-harakat malakasini boshqaruvchi qo'l barmog'i harakati bilan sinxronlashtiriluvchi nutq algoritmini oxiriga qadar shakllantirish bilan bog'liq.

Ohang ustida ishlash davom ettiri ladi. Funksional mashqlar tizimi orqali stress holatga olib keluvchi ta'sirlarga nutqning chidamliligi sinab ko'riladi. Mana shu bilan duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan shaxs nutqini normallashtirish metodikasi bo'yicha asosiy logopedik kurs dasturi nihoyasiga yetadi. Turg'un potologik holat destabilizatsiyasi bosqichidan so'ng, ilk hafta davomida yangi nutq-harakat malakasi ishlab chiqarilgunga qadar jimlik tartibi o'rnatiladi: muloqot qilishga ehtiyoj sezilsa, bemorlar faqatgina bo'g'inli nutqdan foydalanadilar. Bo'g'inli nutqdan foydalanish pay tortishishlarini namoyon bo'lmasligiga kafolat hisoblanadi.

Shunday qilib davolash kursining uchinchi kunidan nutqiy va

ikkilamchi psixik kamchiliklar zanjiridagi asosiy xalqani bartaraf etishga erishiladi, bu esa kasallikning keyingi amnkeziyasiga ko'maklashadi va logopedik ish uchun ijobiy muhitni tashkil qiladi.Bir meyordagi bo'g'inli nutq o'z-o'zidan turg'un potologik holatga destabiliziya qiluvchi ta'sir ko'rsatadi, uning qo'llanilishi nutqda hissiy (shaxsiy) mavjudlik samarasini ahamiyatli ravishda pasaytiradi.

Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar uchun ishning dastlabki bosqichida bo'g'indan foydalanish juda muhimdir: bo'g'inga qaytish orqali ular nutqning minimal birligining nisbatan mustaqilligi va butunligini yana boshqatdan his qila boshlaydilar. Bunday soddalashtirish bemorlarda nutqga nisbatan shunga o'xshash yondoshuvni ishlab chiqilishiga, ish jarayoni haqida tartibga solingan, takrorlanuvchi davr sifatida tasavvur hosil qiladi, keyinchalik esa tabiiy, pay tortishishlarisiz nutqning turg'un algoritmini ishlab chiqishga hizmat qiladi.

Shu bilan bir vaqtda bir meyordagi bo'g'inli nutqdan ma'lum muddat foydalanish maqsadga muvofiqligi gumon ostida: birinchidan, duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan shaxs ohangsiz nutqga juda tez o'rganadi, bu esa keyingi korreksion ishlarni umuman olganda murakkablashuviga olib keladi, ikkinchidan, ohangdan holi etilgan bunday nutq ohir oqibat ularning o'ziga ham o'zgacha tuyula boshlaydi. Shuning uchun ham biz monoton bo'g'inli nutqdan tezroq ohangdor nutqga o'timshga harakat qilishimiz kerak ... . Ko'rib o'tilayotgan metodikada duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarda tabiiy tortishishlarsiz nutq malakalarini shakllantirishda bo'g'inli nutq asosiy o'rinni egallamaydi. Bu jadal ravishda olib boriladigan logopedik mashqlarning boshlang'ich bosqichi hisoblanadi holos.

Bemorlarning duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar nutqi bolalik davrida shakllangan bo'lib, yillar davomida ong osti (avtomatik ravishda namoyon bo'luvchi) darajasiga o'tgan bo'ladi. Ular bilan yangi nutqiy - harakat malakasini o'rganilayotganda bemorlardan e'tiborning jamlanishi, ko'p marotaba takrorlashlar talab qilinadi (aks holda kutilayotgan natijaga erishib bo'lmaydi). Biroq ko'pgina bemorlar uzoq muddatli, jadal ishlashga tayyor bo'lmaydilar, diqqatlarini jamlay olmaydilar, juda tez toliqadilar va h.k.

Shuning uchun ham biz bemorlar guruhi bilan maxsus shug'ullanamiz, ixtiyoriy diqqatni uzoq muddatga kerakli nuqtaga qaratishni o'rgatish,



uning hajmini kengaytirishga urinish operativ, operativ tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan psixotreninglar olib boramiz. Bunday mashg'ulotlarlogopedik mashg'ulotlar samarasini umumiy ravishda oshirish imkoniyatini beradi.

Birinchi bosqichning asosiy vazifasi duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan shaxsga to'g'ri bo'g'in talaffuzini o'rgatish va uni mimika, qo'l harakati, tana harakatim, yengil ovoz zarbasi, yuqoridagilarga mos qomat va boshqalar bilan birga qo'llashni o'rgatish, shuningdek, ular uchun yangi holat bo'lgan nutqlarini bayon qilish davrida ichki tinch holatida bo'lishga o'rgatishdir. Ushbu bosqichning ahamiyati juda kattadir: agar biz to'liq bo'lmagan bo'g'inni qo'l barmog'i bilan bog'lasak, keyinchalik to'liq bartaraf etilmagan nuqsonlar dominantligi duduqlanish nutq kamchiligini yangitdan boshlanishiga olib kelishi mumkin. Qo'l avvaldan unga yuklatiladigan vazifaga tayyorlanishi kerak. Bo'g'inlarni talaffuz qilish chog'ida bemorla ichki tinch holatda bo'lishlariga erishish uchun logopedik mashg'ulotlar mushaklarning o'ta bo'shashishi holatida o'tkaziladi.

Shu o'rinda ta'kidlab o'tish kerakki, duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan shaxslarga nutq jarayonida tinch holatda bo'lish deyarli notanish bo'lgan holatdir, ushbu tushuncha ular uchun aniq mazmuni ni yo'qotgan bo'ladi, shuning uchun ham uni dastlab logopedik mashg'ulotlarda, so'ngra esa amaliy ravishda muloqot jarayonida shakllantirish talab etiladi. Bunday tinch holatni egallashga bo'lgan dastlabki qadam sifatida "jasorat" mavzusida savollar berish hisoblanadi. bu ish korreksion-logopedik mashqlarning boshidan oxiriga qadar o'tkaziladi, hamda duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarga qo'rqishning eng og'ir darajada namoyon bo'lishini qisman yo'qotishga yordam beradi.

Har bir mashg'ulot A.I.Lubenskaya metodikasi asosida olib borilgan autogen mashqlar (AM) dan boshlanadi. Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan shaxsda o'z-o'zini boshqarish malakasiga o'rgatishda asosiy e'tiborni bemorlarda yuz, bo'yin, yelka kamari, qo'lmushaklarini bo'shashishiga e'tibor qaratamiz. Tishlar orasi ochiq, lablar bo'shashgan, so'lg'in bo'lishi, og'iz ochiq turishi talab etiladi. Qon tomirlarining kengayishi, mushaklarning bo'shashishi va bemorlarni yengil mudroq holatiga tushishlarini uyg'otuvchi to'liq tinchlik holatini vujudga kelishini, biz "besh" so'zi (belgisi) bilan bog'laymiz. Shundan

keyingina nutqiy mashqlarni boshlashga kirishamiz.

Bizning metodikamizning farqli tomoni shundan iboratki, autogen mashqlardan so'ng yuzaga keluvchi o'zini yangicha psixik his qilish, avval faqatgina bitta unlidan iborat bo'g'in, keyinchalik esa undosh va unlidan iborat bo'g'in bilan bog'lanadi. Autogen mashqi formulasidan so'ng tovush talaffuz qilinadi, undan keyin yana autogen mashq formulasi va yana tovush talaffuz qilingach to'liq bo'shashish holati vujudga keladi, bu vaqtda bemor boshi yengil ravishda egiladi, dahani ko'krakka tegadi va qo'l, yelka ham shu tarzda "tushadi".

Asta-sekinlik bilan mashq qilinuvchi nutq jarayonidagi to'xtashlar tinchlik holati bilan to'ldiriladi, autogen mashqi formulasi bilan birga "valeriananing kichik hajmi" kabii ta'sir eta boshlaydi, bemorlar uni barcha mashg'ulot va uyga mashqlari davomida doimiy ravishda qabul qilmib turadilar. "Besh" so'zi bilan bog'liq bo'shashish va tinchlanish holatmida har bir nutqiy qism (bu holatda bo'g'in) talaffuz qilinadi. So'ngra yana bo'shashish va tinchlanish uchun belgi beriladi. Bunda bosh, qo'llar, yelkalar haqiqatdan ham bo'shashishi kerak. Bu jarayon xuddi shunday tarzda har bir bo'g'in biolanishi va yakunidan keyin amalga oshiriladi. Bunday mashq qildirilgan usullar xuddi zo'riqish - bo'shashashish holati kabi duduqlanuvchilarda dastlabki paytda juda kerak bo'ladi.

Vaqt o'tishi bilan, biz bunday takrorlanuvchi mashqlardan nisbatan murakkabrog'iga o'tamiz, lekin nutqga kirishishda tinch holatni saqlash muhimligi va malakasi, to'htalishlarda bo'shashish ko'nikmasi saqlanib qoladi. Ongli nazorat yordamida mashq qildirilgan va ko'p mashqlarni jamlanmasi hissi xotirasi shartli tayanch so'zi ("besh") bilan mustahkam bog'langan bo'ladi va murakkab hisoblanadi. Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarga nutqning ikkilamchi tomonini korreksiya qilib borish doirasi bilan birga biz bemorlarni tovushning yengil zarbasi (atakasi) va bo'0inni to'g'ri sintez qilishga o'rgatib boriladi.

Birinchi bosqich yakuniga kelib, duduqlanish nutqkamchililiga ega bo'lgan bolalar bo'g'indan alohida tovushni ajratmish malakasini o'zlashtirgan bo'ladilar. Bu malaka psixologik hislarning yangi jamlanmasi bilan bog'liq bo'lib, hali ham ongningfaol nazorati ostmida bo'ladi. Mustahkam o'zlashtirilgan algoritm bemorlarga har qanday bo'g'inni, har qanday sharoitda duduqlanish nutq kamchiliksiz,



texnik jihatdan to'g'ri talaffuz qilishlariga ishonch uyg'otadi. Bunda biz duduqlanish nutqi shaxs e'tiborinimashg'ulotlar davomida to'g'ri nutqning texnik usullariga va shu bilan birga yangi nutq bilan bog'liq bo'lgan ichki hissiyotlarga ham qaratishga urinamiz.

Bemorlar o'zlarida yuz berayotgan o'zgarishlarni juda nozik ravishda his qiladilar. Bizning kuzatishlarimiz natijasiga ko'ra, bemorlar nutq ustida ishlash jarayonidan, jumladan, bo'g'in ustida ishlashdan tinchlanish va qoniqish hissini his qilsa, ijobiy natijaga erishish mumkinligiga ishona boshlaydilar, davolashning faol ishtiroqchilariga aylanadilar.

Bunda mashg'ulotlarning birinchi haftasidayoq erishish mumkin. Shu bilan birga biz qo'lni nutqga yordamchi sifatida tayyorlaymiz: duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan shaxs e'tiborini autogen mashq davomida qo'lga qaratamiz, qo'l kaftlarida issiqlik va og'irlik hislarini his qildiramiz, turli barmoqlardan pulsni his qildiramiz va h.k. Keyingi bosqichda ushbu bo0liqlikni chuqurlashtirish va rivojlantirishni davom ettiramiz, shu bilan bir vaqtda tortishishlarsiz tabiiy nutq algoritmini qiyinlashtirib boramiz.

Korreksion-kogopedik mashqlarning ikkinchi bosqichi - boshqaruvchi qo'lning bosh barmog'ini to'g'ri harakat texnikasiga o'rgatishdan iborat. Ushbu bosqichning birinchi bosqichdan farqi, egallangan barcha malakalar qo'l, uning bosh barmog'i harakati bilan uzviy bog'lanadi, keyinchalik esa ushbu harakatlar shartli-reflektor ravishda normal nutq bilan birga keluvchi hislarning barchasini yig'indisini keltirib chiqaradi.

Mos ravishda logopedik mashqlarni boshlashdan oldin, biz mushaklarni bo'shashtiramiz, autogeni mashq elementlarini qo'llaymiz. Bemorlar nutqiy mashqlarga faqatgina mushaklari bo'shashgan holatdagina kirishadilar, ular juda tinch bo'lishlari talab etiladi. Qo'lning bosh barmog'i harakatini bo'g'in bilan bog'lashdan oldin biz duduqlanuvchi shaxslarda bo'g'inni yengil ovoz zarbasi bilan birga tayanchga tayangan holda erkin talaffuz qildirishga kirishamiz, ya'ni turli ovoz mashqlarini o'zlashtiradilar. Shundan keyingina nutqni "qo'l bilan" mashq qildirishga kirishamiz.

**1 - mashq.**

Dastlabki holat - maksimal darajadagi erkin holat. Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan shaxs qo'l kaftlarini silkitadi, keyin

ularni tizzasiga tashlaydi va bo'shashgan kaftlarni taxminan son o'rtasiga qaratib tortadi. Kaftlar erkin va dumaloq shaklga ega bo'ladi (ushbu usuldan fortepianino chaluvchilar qo'lini mashq qildirishda foydalanadilar). Mashq qo'l haqiqatdan ham bo'shashguniga va tinchlanguniga qadar takrorlanadi. Kaftning zo'riqishini yechish kerak, aks holda bu ovoz apparati ishida namoyon bo'ladi.

**2 - mashq.**

Qo'l son ustmida erkin turadi. Bemorlar asta-sekinlik bilan, uyg'un ravishda bosh barmoq bilan son ustiga bosadilar (qolgan barmoqlar sondan uzilgan holatda, bir oz ko'tariladi). Barmoq signali bo'yicha bemorlar bittalab bo'g'inni past ovozda, yumshoq tovush bilan talaffuz qiladilar.

Barmoq songa qattiq bosilgani sari (zo'riqishsiz) ovoz jarangi ham kuchayib boradi va, aksincha, bosish kuchi kamaygani sari ovoz kuchi ham pasayib boradi. Ko'p sonli mashqlar jarayonida nutqiy mexanizmlar barcha qismining ishi moslashib boradi. Natijada barmoqni bosish avtomatik ravishda jag'ning ochilishiga, ovozning chiqishiga va tayanchning ishga tushishiga olib kelishi kerak. Sekin, yumshoq ravishda barmoq bosilishi xuddi shunday ovoz chiqishiga, to'g'ri "bayon qilinishiga" olib kelishi kerak.

Har bir bo'g'in talaffuzidan so'ng - dastlab logopedning ko'rsatmasi bo'yicha, keyin esa mustaqil ravishda duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan shaxsning kafti erkin holatni egallab tushadi, bu umumiy bo'shashganlik belgisi hisoblanadi. Keyinchalik kaftning har bir nutqiy qismdan so'ng (bu holatda bo'g'indan so'ng) shartli-reflektor ravishda tushishi duduqlanuvchiga avtomatik ravishda "besh" so'zi bilan bog'liq holatni uyg'otishi kerak.

Ushbu mashqni bajarishda katta barmoq harakati nutq apparati ishidan oldin kelishiga, hamkorlikda,bir vaqtda harakatlanmasligiga e'tibor qaratish kerak. Biz yana bir ta'kidlab o'tishimiz kerakki, barmoq yordamida tovushlarni alohida talaffuz qilish hech qanday zo'riqishsiz amalga oshirilishi kerak, aks holatda biz nutqiy apparat mushaklariga shubhasiz o'tkaziladigan zo'riqishni mustahkamlash bilan birga duduqlanishni ham rivojlantirib borgan bo'lamiz.

Mashqning bajarilishi vizual ravishda va eshitish orqali nazorat qilib boriladi. Guruhda o'zaro nazorat qilish tashki etiladi va ma-



laka shakllanishini tezlashtiruviga imkon beruvchi turli xildagi usullar qo'llaniladi (masalan, logoped o'z qo'li va bemor qo'lida mashqni ko'rsatib beradi). Ushbu bosqichda bo'lajak nutqga asos solinadi, biz duduqlanuvchiga erkin tovush talaffuzini qo'l bilan sinxronlashtirilganligining mustahkam, ishonchli malakasi mashq qildiriladi.

Yuqoridagi vazifani hal etmay turib, biz keyingi bosqichga o'ta olmaymiz va davolash jarayonida turg'un ijobiy natijalarga erisha olmaymiz. Har safar bo'g'inni boshqaruvchi qo'l barmog'i bilan koordinatsiya qilish chog'ida "nutqga kirishni" mashq qildiramiz, dasturning ham motor, ham neyro psixologi qismiga asos solib boramiz.

**Nazorat savollari:**

1. O'yinlarning korreksion ahamiyati?
2. Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarda nutqiy nafasni rivojlantiruvchi o'yinlar?
3. Duduqlanish nutq kamchiligini bartaraf etishda A.I.Lubenskaya metodikasi mazmuni nimadan iborat?
4. Qo'l va barmoqlar harakatchanligi yordamida duduqlanish nutq kamchiligini qaynday bartaraf etish mumkin?
5. Maktabgacha yoshdagi duduqlanish nutq kamchiligini bartaraf etishda nutqiy nafasni rivojlantirishga oid o'yinlar nimalardan iborat?
6. Maktabgacha yoshdagi duduqlanish nutq kamchiligini bartaraf etishda qo'llaniladigan logopedik o'yinlarga asosiy maqsadi nimadan iborat?

**Topshiriqlar:**

1.Duduqlanish nutq kamchiligini bartaraf etishda logopedik o'yinlardan foydalangan holda ishni tashkil qilish ishlarini quyidagi chizmada qayd eting.




2.Quyida keltirilgan jadvaldagi test topshiriqlarni ishlang.

| № | Savollar | Javob variantlari |
|---|---|---|
| 1. | Qaysi muallif tomonidan imo-ishoralarni duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan shaxs fikrini aynan nutq jarayonlaridan chalg'itish, ozod etish maqsadida qo'llashni tavsiya etgan? | A) N.I.Jinkin<br>B) A.I.Bogomolova<br>S) A.G.Shembel |
| 2. | Fonetik ritmika – bu ? | A) turli xil harakatlar ( tana,bosh, oyoq, qo'l) nutqiy materiallar bilan olib borish.<br>B) harakat mashqlar majmuasi bo'lib, bunda turli xil harakatlar ( tana,bosh, oyoq, qo'l) nutqiy materiallar bilan olib borish.<br>S) barcha javoblar to'g'ri |
| 3. | Logopedik korreksion ishlarda logoritmikaning quyidagi vositalari mavjud bo'lib ular nimalardan iboratdir? | A)1.Turli yo'nalishidagi yurish va harbiylarcha yurish;<br>2.Nafas, ovoz va artikulyatsiyani rivojlantirish uchun mashqlar;<br>3.Muskullar tonusini boshqaruvchi mashqlar;<br>4.Diqqatni faollashtiruvchi mashqlar;<br>5.Hisobli mashqlar;<br>B) 6.Musiqa kuzatuvsiz nutqiy mashqlar;<br>7.Musiqiy o'lchov yoki metr tuyg'usini shakllantiruvchi mashqlar;<br>8.Musiqiy temp tuyg'usini shakllantiruvchi mashqlar;<br>9.Ritmik mashqlar;<br>10.Kuylash;<br>S) 11.Musiqiy asboblarda o'yin mashqlar;<br>12.Nutqiy buzilishi bo'lgan odamlarning mustaqil musiqiy faoliyatlari;<br>13.O'yinli faoliyat;<br>14.Ijodiy tashabbuslarni rivojlantirish uchun mashqlar;<br>15.Yakuniy mashqlar. |
| 4. | Bolalarning o'yini nazariyasi qaysi yillardan boshlab o'rganilgan? | A) (1930-50 yillarda)<br>B) (1920-30 yillarda)<br>S) (1940-60 yillarda) |
| 5. | Bolalar o'yini o'zining mazmuni, hususiyati, tashkil etilishiga ko'ra xilma-hildir, shuning uchun uni qanday turkumlarga ajratiladi? | A) Ijodiy o'yinlar<br>B) Qoidali o'yinlar<br>S) barcha javoblar to'g'ri |
| 6. | Qoidali o'yinlarga nimalar kiradi? | A) didaktik o'yinlar<br>B) harakatli o'yinlar,<br>S) musiqali o'yinlar, ermak o'yinlar |
| 7. | Qaysi muallif tomonidan "O'yin ruhiy vitamin" deb ta'rif berilgan. | A) A.V. Zaporojets<br>B) N.A.Arkin<br>S) A.G.Shembel |
| 8. | L.V.Strakovskaya harakatlantiruvchi o'yinlar barchasini qabul bo'lgan ruhiy jismoniy yuklanishni hisobga olgan holda nechta guruhga bo'lishni tavsiya etadi? | A) 4-guruhga<br>B) 5-guruhga<br>S) 6-guruhga |



**Tayanch iboralar:**

Fonetik ritmika – bu harakat mashqlar majmuasi.

Suggestiya – (lotincha suggestio) – psixoterapiyaniya maxsus metodi – ishontirish.

# V BOB. UMUMIY TA'LIM MAKTAB O'QUVCHILARIDA DUDUQLANISH NUTQ KAMCHILIGINI BARTARAF ETISHDA KORREKSION LOGOPEDIK ISHLAR MAZMUNI

## 18§. Umumiy ta'lim maktablarning logopedik shaxobchalarida yuritiladigan ish hujjatlar

**Reja:**

1. Umumiy o'rta ta'lim maktablar qoshidagi logopediya shoxobchasi to'g'risidagi nizom.
2. Nutq xaritasi.
3. Umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchi-logopedining ish rejasi.
4. Logopedik shahobcha o'qituvchi – logopedining namunaviy yillik ish rejasi.

### Umumiy o'rta ta'lim muassasasi qoshidagi logopediya shoxobchasi to'g'risidagi NIZOM

Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida»gi qonunlariga muvofiq, umumiy o'rta ta'lim muassasasi qoshidagi logopediya shoxobchasining (bundan buyon matnda logopediya shoxobchasi deb yuritiladi) faoliyat yuritish tartibini belgilaydi.

### 1-bob. Umumiy qoidalar

1. Logopediya shoxobchasi umumiy o'rta ta'lim muassasalari (bundan buyon matnda umumta'lim muassasasi deb yuritiladi) boshlang'ich sinf o'quvchilarining fanlar bo'yicha o'quv dasturlarini o'zlashtirishlariga to'sqinlik qiluvchi nutq nuqsonlarining oldini olish va ularni bartaraf etish, jismoniy va psixik rivojlanishidagi kamchiliklarni korreksiyalash, o'quvchilarning og'zaki nutqidagi nuqsonlarini bartaraf etishda, ularning jismoniy, intellektual, ma'naviy va axloqiy kamol topishida pedagoglar va o'quvchilarning ota-onalari yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarga (bundan buyon matnda ota-onalar deb yuritiladi) yordam ko'rsatish uchun tashkil etiladi.

2. Logopediya shoxobchasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi



Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlariga, ushbu Nizomga va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga amal qiladi.

Logopediya shoxobchalarining faoliyati O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan muvofiqlashtiriladi.

3. Logopediya shoxobchasining vazifalari quyidagilardan iborat:

o'quvchilarning fanlar bo'yicha o'quv dasturlarini o'zlashtirishlariga to'sqinlik qiluvchi nutq nuqsonlarining oldini olish va ularni bartaraf etish;

murakkab nutq nuqsoniga ega bo'lgan, jismoniy va psixik rivojlanishida kamchiliklari bo'lgan o'quvchilar bilan korreksion mashg'ulotlarni olib borish;

mashg'ulot jarayonida o'quvchilarning nutq a'zolarini tizimli ravishda kuzatib borish;

o'quvchining o'quv dasturlarini ongli ravishda tanlashi va o'zlashtirishiga ko'maklashish;

o'quvchilar nutq nuqsonlarining oldini olish va ularni bartaraf etishga doir logopedik bilimlarni ta'lim jarayoni ishtirokchilari, o'qituvchilar va aholi o'rtasida targ'ib qilish.

### 2-bob. Logopediya shoxobchasiga qabul qilinadigan o'quvchilar ro'yxatini shakllantirish

4. Logopediya shoxobchasiga qabul qilinadigan o'quvchilarni aniqlash va saralab olish uchun har yili sentabr oyining 3-sanasiga qadar umumta'lim muassasasi direktorining buyrug'iga muvofiq ishchi guruh tuziladi.

5. Ishchi guruh kamida 5 nafardan iborat tarkibda quyidagicha tuziladi:

ishchi guruh raisi — umumta'lim muassasasining direktori;

ishchi guruh raisi o'rinbosari — umumta'lim muassasasining psixologi (umumta'lim muassasasida psixolog bo'lmaganda boshqa shaxsga yuklatiladi);

ishchi guruh a'zolari — umumta'lim muassasasi biriktirilgan logopediya shoxobchasi mudiri, boshlang'ich sinf o'qituvchilari va umumta'lim muassasasiga biriktirilgan tibbiyot xodimi;

ishchi guruh kotibi — boshlang'ich sinf o'qituvchilaridan biri.

6. Logopediya shoxobchasiga og'zaki nutq nuqsonlari va tovushlar talaffuzida kamchiliklari aniqlangan, tashxis natijalari quyidagicha bo'lgan o'quvchilar qabul qilinadi:

I va III darajali nutqi to'liq rivojlanmagan I sinf o'quvchilari;

tovushlar talaffuzida kamchiliklari bo'lgan I — IV sinf o'quvchilari;

nutq apparati a'zolarining tuzilishi va harakatida nuqsonlari (rinolaliya, dizartriya, duduqlanish) bo'lgan I — IV sinf o'quvchilari.

7. Nutqiy rivojlanishida kamchiligi bo'lgan o'quvchilarning jismoniy va psixik holatlariga aniqlik kiritish maqsadida ular tuman (shahar) ko'p tarmoqli markaziy poliklinikasi mutaxassislari (nevropatolog, psixonevrolog, otolaringolog va boshqalar) tekshiruviga yuboriladi. Ushbu mutaxassislarning xulosalari logopediya shoxobchasida (o'quvchining shaxsiy yig'ma jildida) saqlanadi.

8. Ishchi guruh tomonidan nuqsonlari aniqlangan o'quvchilar ro'yxati umumta'lim muassasasi direktori tomonidan tasdiqlanadi va sentabr oyining 15-sanasigacha xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish tuman (shahar) bo'limiga taqdim qilinadi.

O'quv yili davomida og'zaki nutq nuqsoni va tovush talaffuzida kamchiliklari mavjud bo'lgan o'quvchilar aniqlanganda, ular ishchi guruh tomonidan mazkur Nizomda belgilangan tartibda logopediya shoxobchasiga qabul qilinadi.

### 3-bob. Logopediya shoxobchalarini tashkil etish

9. Xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish tuman (shahar) bo'limining O'quvchilarni kasbga yo'naltirishni va pedagogik-psixologik diagnostikasini metodik ta'minlash kichik guruhi umumta'lim muassasalari tomonidan taqdim etilgan o'quvchilar ro'yxati asosida har yili sentabr oyining 25-sanasiga qadar tegishli tuman (shahar) bo'yicha logopediya shoxobchalarining soni va ularning joylashuv dislokatsiyasini ishlab chiqadi.

10. Logopediya shoxobchasi tegishli xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish tuman (shahar) bo'limi mudirining buyrug'i bilan tashkil etiladi.

11. Xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish tuman (shahar) bo'limi mudirining buyrug'iga muvofiq, har bir logopediya shoxobchasiga bir yoki bir nechta yaqin masofada



joylashgan umumta'lim muassasalari biriktiriladi.

Bir nechta umumta'lim muassasalari biriktirilgan logopediya shoxobchasi uning uchun joy ajratish imkoniyatiga ega bo'lgan hamda boshqa umumta'lim muassasalariga qatnash uchun qulay joylashgan umumta'lim muassasasida tashkil etiladi.

12. Logopediya shoxobchasi tashkil etilgan umumta'lim muassasasi rahbariyati tomonidan logopediya shoxobchasi uchun boshlang'ich sinflarga yaqin joyda tegishli sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari talablariga javob beradigan, umumiy maydoni 20 kv. metrdan kam bo'lmagan xona ajratiladi.

Logopediya shoxobchasi mazkur Nizomning 1-ilovasidagi talablarga muvofiq jihozlanadi.

### 4-bob. Logopediya shoxobchasida korreksion jarayonni tashkil etish

13. Logopediya shoxobchasida o'quvchilarga korreksion — logopedik yordam ko'rsatiladi.

O'quv-korreksion mashg'ulotlar guruhli va yakka (individual) tartibda, umumta'lim muassasasi rahbariyati bilan kelishilgan jadval asosida darsdan tashqari vaqtda o'tkaziladi.

14. Guruhlarga nuqsonlari o'xshash bo'lgan bir xil yoshdagi o'quvchilar qabul qilinadi. Bir xil yoshdagi o'quvchilar soni kam bo'lgan hollarda, yoshidan qat'i nazar, boshlang'ich sinf o'quvchilari bir guruhga jamlanishi mumkin.

15. Guruhli va yakka (individual) tartibda olib boriladigan mashg'ulotlarning davomiyligi bolalarda uchraydigan nutq nuqsonlarining og'ir yoki yengil darajasiga ko'ra quyidagicha belgilanadi:

nutqi to'liq rivojlanmagan 8 — 10 nafar I sinf o'quvchilariga guruhli tarzda 40 — 45 daqiqadan, bir o'quv yili davomida haftasiga ikki martadan;

tovush talaffuzida kamchiliklari bo'lgan 8 — 10 nafar I — IV sinf o'quvchilariga guruhli tarzda 40 — 45 daqiqadan, bir o'quv yili davomida haftasiga uch martadan;

nutq apparati a'zolarining tuzilishi va harakatida nuqsonlari (rinolaliya, dizartriya, duduqlanish) bo'lgan I — IV sinf o'quvchilari bilan yakka (individual) tartibda 15 daqiqadan, nutq nuqsoni bartaraf etilgunga qadar haftasiga uch martadan.

16. Nutq nuqsonlari bartaraf etilgan o'quvchilar logopediya shoxobchasi mudirining ishchi guruh bilan kelishilgan xulosasiga asosan o'quv yilining 15 — 25 may kunlari logopediya shoxobchasi o'quvchilari safidan chiqariladi.

## 5-bob. Logopediya shoxobchasida pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish

17. Logopediya shoxobchasida o'qituvchi-logoped lavozimida oliy ma'lumotli o'qituvchi-logopedlar va defektologlar faoliyat yuritishi mumkin.

18. O'qituvchi-logoped shtat birliklari logopediya shoxobchasiga biriktirilgan umumta'lim muassasalarida mavjud har 25 ta boshlang'ich sinfga 1,0 birlik (20 ta boshlang'ich sinfga 0,8 birlik, 30 ta boshlang'ich sinfga 1,2 birlik) hisobidan haftalik ish yuklamasi 18 o'quv soatidan oshmagan holda, mazkur Nizomning 15-bandida ko'rsatilgan meyorlarga ko'ra belgilanadigan o'quvchilar guruhlari va haftalik mashg'ulotlar soatlaridan kelib chiqib kiritiladi.

19. O'qituvchi-logopedlarni ishga qabul qilish hamda ular bilan mehnat shartnomalarini bekor qilish xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish tuman (shahar) bo'limining tavsiyasiga asosan logopediya shoxobchasi joylashgan umumta'lim muassasasi direktorining buyrug'i bilan mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda rasmiylashtiriladi.

O'qituvchi-logopedlarning mehnatiga haq to'lash, moddiy rag'batlantirish, vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik nafaqasi va mehnat ta'tiliga haq to'lash uchun zarur mablag'lar logopediya shoxobchasi joylashgan umumta'lim muassasasining xarajatlar smetasida nazarda tutiladi.

20. O'qituvchi-logopedlarning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

mazkur Nizom va umumta'lim muassasasining ichki tartib-qoidalariga rioya etish;

mazkur Nizomning 2-ilovasida ko'rsatilgan namunaviy yillik ish reja asosida yillik shaxsiy ish reja, o'quv yiliga taqvimiy-mavzuiy reja, mashg'ulotlar jadvalini ishlab chiqish va tasdiqlash uchun umumta'lim muassasasining pedagogik kengashiga taqdim etish;

nutqiy rivojlanishida muammolari bo'lgan o'quvchilarning artikulyatsion a'zolarini, nutq nuqsonlarini tekshirish natijasiga ko'ra mazkur Nizomning 3-ilovasiga muvofiq nutq xaritasini va sinf jurnalini yuritish;

o'quvchilarning fanlar bo'yicha o'quv dasturlarini o'zlashtirishlariga to'sqinlik qiluvchi nutq nuqsonlarining oldini olish, ulardagi mavjud nutq nuqsonining turini va ifodalanish darajasini aniqlash;

mashg'ulotlar o'tkazish uchun guruhlar tashkil qilish, kundalik mashg'ulotlar ishlanmasini tayyorlash, guruhli va yakka (individual) tartibda mashg'ulotlar o'tkazish orqali artikulyatsion organlardagi nuqsonlarni to'g'rilash, nutq nuqsonlari natijasida kelib chiqqan psixik buzilishlarni korreksiyalash;

umumta'lim muassasasi o'qituvchilari va ota-onalarga nutqiy rivojlanishida muammolari bo'lgan o'quvchilarga yordam ko'rsatishning maxsus usullarini qo'llash bo'yicha maslahatlar berish;

o'z kasbiy malakasini muntazam ravishda oshirib borish, uslubiy birlashmalar faoliyatida va boshqa metodik ishlarda ishtirok etish.

21. O'quvchilarning guruhlarga qatnashish davomatini qayd etib borish uchun sinf jurnali yuritiladi hamda har bir guruhga maxsus sahifalar ajratiladi.

Yakka (individual) tartibda mashg'ulotlar olib boriladigan o'quvchilar uchun sinf jurnalida alohida sahifalar ajratiladi hamda ular ham guruhli mashg'ulotlar kabi to'ldiriladi.

Jurnalning oxirgi betlarida logopediya shoxobchasiga qabul qilingan har bir o'quvchining familiyasi, ismi, otasining ismi, sinfi, uy manzili, logopediya shoxobchasiga qabul qilingan vaqti, nutqiy yoki umumiy rivojlanishidagi kamchiliklari, logopediya shoxobchasidan chiqarilgan vaqti, umumiy va nutqiy rivojlanish holati, o'quv fanlarini o'zlashtirishidagi kamchilik va muammolarini bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar kiritib boriladi.

22. Logopediya shoxobchasiga o'qituvchi-logopedlardan biri, shoxobchada bitta o'qituvchi-logoped bo'lgan taqdirda esa, uning o'zi mudirlik qiladi.

23. Logopediya shoxobchasi mudiri xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish tuman (shahar) bo'limining O'quvchilarni kasbga yo'naltirishni va pedagogik-psixologik diagnostikasini metodik ta'minlash kichik guruhiga o'quv yili davomida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan har chorak yakuni bo'yicha keyingi

oyning 15-sanasiga qadar quyidagi hisobotlarni topshiradi:

o'qituvchi-logopedlar yillik shaxsiy ish rejasining bajarilish holati;

o'quvchilar kontingentining o'zgarish dinamikasi;

o'quvchilarning nutq nuqsonlarini bartaraf etish ko'rsatkichlari.

*6-bob. Yakuniy qoidalar*

24. Mazkur Nizomda belgilangan talablar asosida yangi logopediya shoxobchasi tashkil etilishi lozim bo'lgan tuman (shahar)larda (birinchi navbatda nutqida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar kontingenti eng yuqori joylarda) har o'quv yilida bittadan, Nukus shahri va viloyatlar markazlarida esa ikkitadan logopediya shoxobchasi tashkil etiladi.

25. Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan.

Moliya vaziri R. AZIMOV

2015 yil 25 sentabr, Umumiy o'rta ta'lim muassasasi qoshidagi logopediya shoxobchasi to'g'risidagi nizomga 1-ILOVA

**Logopediya shoxobchasi ta'minlanishi lozim bo'lgan jihozlar RO'YXATI**

| T/r | Zarur o'quv anjomlari nomi | Miqdori |
|---|---|---|
| 1. | Yakka holda shug'ullanish uchun deraza yoniga osilgan 50x100 sm. li devoriy ko'zgu | 1 dona |
| 2. | Elektr yoritqich (devoriy ko'zgu uchun) | 1 dona |
| 3. | O'quvchilar soniga qarab 9x12 sm. li ko'zgu | 10 dona |
| 4. | O'quvchilar uchun parta | 5 dona |
| 5. | Sinf doskasi | 1 dona |
| 6. | O'qituvchi-logoped uchun stol, stul | 1 komplekt |
| 7. | Ko'rgazmali qurollar uchun shkaf | 2 dona |
| 8. | Stul | 10 dona |
| 9. | Logopedik zond, shpatel | 1 komplekt |
| 10. | Kesma harf va bo'g'inlar jamlanmasi | 10 dona |
| 11. | Devoriy harf kassasi | 1 komplekt |
